

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI**

**M.T.ASQAROVA, L.F.AMIROV, A.A.ISLOMOV,
A.R.YAXSHIMURATOVA**

INKLYUZIV IQTISODIY O'SISH

*O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lif vazirligi
huzuridagi Muvofiqlashtiruvchi kengash tomonidan 5A230103 –
Makroiqtisodiyot mutaxassislik yo'nalishida tahsil olayotgan magistrler
uchun o'quv qo'llanma sifatida tavsiya etilgan*

TOSHKENT– 2019

© Asqarova M.T., Amirov L.F., Islomov A.A., Yaxshimuratova A.R. Inklyuziv iqtisodiy o'sish: O'quv qo'llanma. –T.:2019.-234 b.

Darslik Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti Kengashi qarori bilan chop etishga tavsiya etilgan.

Iqtisod fanlari doktori, professor
i.f.d., prof. B.Yu.Xodiev tahriri ostida

Ushbu o'quv qo'llanmada inklyuziv iqtisodiy o'sish fanining asosiy tushunchalari, muammolari va inklyuziv iqtisodiy o'sishga erishish asoslari bayon qilib berilgan. Jumladan, o'quv qo'llanmada inklyuziv o'sishni ta'minlash, inklyuziv o'sish ko'rsatkichlarni hisoblash usullari, inklyuziv o'sishning turli modellari, inklyuziv o'sish indeksi, iqtisodiy o'sish masalalari kabi mavzular joy olgan. O'quv qo'llanma oliy ta'liming magistratura bosqichi "Makroiqtisodiyot" mutaxassisligida tahsil olayotgan talabalari uchun mo'ljallangan bo'lib, uning tarkibi "Inklyuziv iqtisodiy o'sish" fanining o'quv dasturi va ishchi o'quv dasturiga mos keladi.

В этом учебной пособии изложены основные концепции, проблемы и принципы инклюзивного экономического роста и основы достижения инклюзивного экономического роста. В частности, учебная программа предусматривает инклюзивный рост, методы расчета инклюзивного роста, различные модели инклюзивного роста, индекс инклюзивного роста и вопросы экономического роста. Учебная программа предназначена для студентов, обучающихся на степень магистра по высшему образованию, макроэкономике, которая соответствует учебной программе и рабочей учебной программе по предмету «Инклюзивный экономический рост».

In this tutorial are written the basic concepts, problems and principles of inclusive economic growth and the foundations for achieving inclusive economic growth. In particular, the curriculum provides for inclusive growth, methods for calculating inclusive growth, various models of inclusive growth, an index of inclusive growth and issues of economic growth. The curriculum is designed for students studying for a master's degree in higher education, macroeconomics, which corresponds to the working curriculum and curriculum on the subject of "Inclusive economic growth".

© Asqarova M.T., Amirov L.F., Islomov A.A.,
Yaxshimuratova A.R., 2019

MUNDARIJA:

	KIRISH.....	6
I BOB	INKLYUZIV IQTISODIY O'SISH FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI.....	8
II BOB	IQTISODIY O'SISHNING MAZMUNI, UNING TURLARI. INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNING MOHIYATI.....	11
III BOB	IQTISODIY O'SISH OMILLARINING TASNIFI VA ULARGA BO'LGAN YONDASHUVLAR.....	28
IV BOB	IQTISODIY O'SISHNING HOZIRGI ZAMON NAZARIYALARI.....	39
V BOB	BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH.....	55
VI BOB	IQTISODIY O'SISHNING NEOKEYNSCHA MODELLARI..	66
VII BOB	IQTISODIY O'SISHDA NEOKLASSIK MODELLAR.....	89
VIII BOB	DINAMIK TARMOQLARARO BALANSNING IQTISODIY O'SISHDAGI MOHIYATI.....	101
IX BOB	INKLYUZIV IQTISODIY O'SISH VA UNI TA'MINLASH.....	111
X BOB	INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASH USULLARI VA ME'ZONLARI.....	123
XI BOB	INKLYUZIV IQTISODIY O'SISH INDEKSI.....	126
XII BOB	INKLYUZIV O'SISHDA IJTIMOIY SOHA VA IJTIMOIY INVESTITSIYALAR. AHOLI HAYOT SIFATI VA STANDARTLARINI YAXSHILASH.....	143
XIII BOB	INNOVATION IQTISODIYOT VA INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH.....	159
XIV BOB	BARQAROR BIZNES YURITISHNI QO'LLAB- QUVVATLASH ORQALI AHOLI TURMUSH FAROVONLIGINI VA IQTISODIY O'SISHNI	166

	TA'MINLASH.....	172
XV BOB	YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH – INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSIY OMILI.....	180
XVI BOB	KENG QAMROVLI IQTISODIY O'SISHNI TAHLIL QILISHNING EKONOMETRIK MODELLARI.....	193
XVII BOB	O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI..... ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	205 222

KIRISH

Iqtisodiy o'sishga erishish, uning sur'atlarini barqaror va maqbul darajada bo'lishini ta'minlash barcha davlatlar uchun eng ustuvor vazifa bo'lib hisoblanadi. Chunki iqtisodiy o'sish ko'rsatkichi mamlakatning kuch-qudratini va aholining farovonligini belgilovchi asosiy ko'rsatkichlardan biri bo'lib hisoblanadi.

Vatanimizda mustaqillik yillarda iqtisodiyotni rivojlantirish va aholi turmush farovonligini yuksaltirish borasida ulkan yutuqlarga erishildi. Ayniqsa, iqtisodiy o'sish sur'atlarining barqarorlik kasb etganligi, mamlakatimizni rivojlantirish borasida keyingi yillarda qayd etilayotgan natijalar bu xulosalar qanchalik asosli ekanligini ko'rsatadi.

Shu bilan birga, jahon iqtisodiyotida yuzaga kelgan murakkab shart-sharoitlarda makroiqtisodiy barqarorlikni, iqtisodiy o'sishni va aholi turmush darajasini oshirishni ta'minlash, milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirish hisobiga jahon iqtisodiy makonida mamlakatimiz o'zining mustahkam o'rniga ega bo'lishiga erishish uchun iqtisodiy islohotlarning izchilligi va davomiyligini ta'minlash, iqtisodiyotning takribiy to'zilishini yanada takomillashtirish, ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida ilmiy tadqiqotlar ko'lagini kengaytirish talab etiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti SH.Mirziyoyev O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2016- yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari hamda 2017- yilga mo'ljallangan iqtisodiy dasturning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisidagi ma'rzasida «Makroiqtisodiy barqarorlikni yanada mustahkamlash va iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini saqlab qolish, jumladan, Davlat budjeti barcha darajada mutanosib, milliy valyuta va ichki bozordagi narx darjasini barqaror bo'lishini ta'minlash – eng muhim ustuvor vazifamizdir»¹ deb ta'kidladilar.

Iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning Respublika Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan belgilab berilgan 5 ta ustuvor yo'nalishga asoslangan

¹ Mirziyoyev SH.M. Tanqidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak. T.: O'ZBEKISTON – 2017- y.

“Harakatlar strategiyasi” da vazifalariga nazar tashlar ekanmiz ularning barchasi to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki bilvosita iqisodiy o‘sishga erishish masalalari ekanligiga amin bo‘lamiz.

Mamlakatni iqtisodiy holatini o‘tkazilayotgan joriy chora-tadbirlar zarurligi samarasini baholashda iqtisodiy o‘sish modellari juda katta ahamiyatga ega. Bundagi muhim vazifalar mamlakatda sodir bo‘layotgan jarayonlarni modellasshtirish sifatini oshirish va o‘tkazilayotgan iqtisodiy siyosatning natijalarini aniqlashdan iboratdir. Iqtisodiy o‘sish asosiy ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri bo‘lib, makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarning o‘zaro bog‘liqliklarini aniqlab berishga yordam beradi. Aholi turmush darajasini yuksaltirish davlat iqtisodiy siyosatining bosh maqsadi hisoblanadi. Mazkur maqsadga erishishning dastlabki sharti va yo‘li esa iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdir. Iqtisodiy o‘sish esa inklyuziv (keng qamrovli) bo‘lishi zarur.

Shu sababga ko‘ra ham, magistratura talabalarida inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlash va iqtisodiy o‘sish modellarini rivojlantirish bilan bog‘liq bo‘ladigan masalalarni hal etish bo‘yicha chora tadbirlar ishlab chiqish uchun talab etiladigan bilim hamda ko‘nikmalarni shakllantirish yuqori malakali mutaxassis iqtisodchilar tayyorlash jarayonining ajralmas qismidir.

I BOB. “INKLYUZIV IQTISODIY O‘SISH” FANINING PREDMETI, MAQSADI VA VAZIFALARI

Reja:

1.1. “Inklyuziv iqtisodiy o‘sish” fanining strukturasi, predmeti va obyekti.

1.2. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish fanining maqsadi va vazifalari.

1.1. “Inklyuziv iqtisodiy o‘sish” fanining strukturasi, predmeti va obyekti

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish fani iqtisodiyot iqtisodiy ta’lim oluvchi talabalar uchun yangi kiritilgan fan hisoblanadi. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish fanida mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, unda ijtimoiy soha, ijtimoiy rivojlanish, yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash, yashil iqtisodiyot, innovatsion iqtisodiyotni rivojlantirish kabi masalalar o’rganiladi.

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish, umuman, inklyuzivlik atamasi iqtisodiyotga yaqinda kirib kelgan hisoblanadi.

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish fanining predmeti mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishida bir-biri bilan u yoki bu aloqada, doimiy harakat va rivojlanishda bo‘lgan predmetlar va hodisalarining to‘plamidan iborat bo‘lgan tadqiqotchilikdir. Bu aloqalar xilma-xildir va qismni butunicha hamda aksincha munosabatlarda, tengliklar va tengsizliklarda, aniq yoki noaniq o‘zaro bo‘ysunuvchilikda, bir-birini taqozo qilishda va o‘zaro bog‘liqlikda o‘z aksini topadi. Birining holatining o‘zgarib ikkinchisiga o‘tishi aks etuvchi o‘zaro munosabat tabiiy, ijtimoiy, iqtisodiy hodisalarни mantiqiy-uslubiy va gneseologik bilishdir.

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish fanining obyekti mamlakatning milliy iqtisodiyoti, rivojlanishi va jahon iqtisodiyotida bo‘layotgan iqtisodiy jarayonlar va ularni milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’siri hisoblanadi.

“Inklyuziv iqtisodiy o‘sish” fani makroiqtisodiyot doirasida nazariy va amaliy masalalarni o‘rganish va uni mo‘tadil rivojlantirishning yechimlarini topishda hamda “makroiqtisodiyot” mutaxassislarining shakllanishida katta ahamiyatga ega. Ushbu fanning yutuq va xulosalaridan mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishning qisqa va uzoq muddatlarga belgilangan dasturlarini ishlab chiqishda keng foydalaniladi.

1.2. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish fanining maqsadi va vazifalari

Fanni o‘qitishdan maqsad – inklyuziv iqtisodiy o‘sishning mohiyati, iqtisodiy o‘sish bog‘liq bo‘ladigan masalalarni hal etish bo‘yicha chora tadbirlar va milliy iqtisodiyotni rivojlanish jarayonini mexanizmlarini o‘rganish, ularni hozirgi zamon talablariga bog‘lash yo‘llarini yoritish va shu bilan birga respublika hududlarida va iqtisodiyot tarmoqlarini tartibga solish vositalaridan foydalanish yo‘llarini tahlil qilishdan iborat.

Fanning vazifalari:

- inklyuziv iqtisodiy o‘sishning obyekti va subyekti sifatida barqaror iqtisodiy o‘sishning keng qamrovli modellarini o‘rganish;
- inklyuziv iqtisodiy o‘sishning nazariy-uslubiy asoslarini o‘rganish;
- iqtisodiy o‘sishning mazmuni, uning turlari, inklyuziv iqtisodiy o‘sishning mohiyatini tadqiq etish;
- tarkibiy o‘zgarishlar davrida iqtisodiy o‘sishning sifatini o‘rganish.

Fanning asosiy vazifasi – talabalarni iqtisodiyotdagи asosiy makroiqtisodiy ko‘rsatkichlar tahlilini amalga oshirish; iqtisodiyotning keng qamrovli rivojlanishini ta’minalash uchun zarur zamонавиy bilimlar bilan quollantirish; inklyuziv iqtisodiy o‘sishning mazmun va mohiyatini o‘rganish; inklyuziv iqtisodiy o‘sish nazariyalarini o‘rganish; inklyuziv iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilish; inklyuziv iqtisodiy o‘sishni baholash, ularni tadqiq qilish; inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minalashda monetar va fiskal siyosat barqarorligini

ta'minlash; inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash yo'nalishlarini aniqlash va unda "yashil iqtisodiyot", "innovatsion iqtisodiyot" ni rivojlantirish yo'nalishlarini o'rganish; iqtisodiy o'sishning yangi nazariyalarini o'rganish va boshqalar to'g'risida nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lishini ta'minlashdan iborat.

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiy o'sish. Inklyuzivlik. Inklyuziv iqtisodiy o'sish. Inklyuziv iqtisodiy o'sishda statistik ma'lumotlar. Iqtisodiy o'sish qonuniyati. Fanning predmeti va vazifalari. Fanni o'zlashtirish bo'yicha asosiy yo'nalishlar. Iqtisodiy o'sishga qaratilgan hukumatning huquqiy, meyoriy hujjatlarni va ko'rsatkichlarni hamda ularning ijrosini ta'minlash nazorati. Iqtisodiy o'sishni ifodalovchi modellar.

I Bob bo'yicha savollar

1. Inklyuziv iqtisodiy o'sish fanining predmeti nimadan iborat?
2. Fanning kelib chiqish tarixini izohlang.
3. Inklyuziv iqtisodiy o'sish fanining maqsadi nima?
4. Inklyuziv iqtisodiy o'sish fanini o'qitishning vazifalari nimalardan iborat?
5. Inklyuziv iqtisodiy o'sish fanining boshqa fanlar bilan aloqadorligini tushuntiring.

II BOB. IQTISODIY O'SISHNING MAZMUNI, UNING TURLARI.

INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNING MOHIYATI

Reja:

- 2.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi.**
- 2.2. Iqtisodiy o'sishni hisoblash.**
- 2.3. Iqtisodiy o'sish modellari.**

2.1. Iqtisodiy o'sish tushunchasi

Iqtisodiy o'sish deganda, kishilarning talab-ehtiyojini qondirish uchun zarur bo'lgan moddiy mahsulot va xizmatlarni, ya'ni barcha noz-ne'matlarni ishlab chiqarishning ko'payib borishi tushuniladi. Iqtisodiy o'sish nafaqat iste'mol buyumlari, balki ishlab chiqarish vositalari, ya'ni resurslarni ham ko'plab ishlab chiqarishini anglatadi, chunki o'sish jamiyat a'zolarining joriy iste'molini qondirish bilan cheklanmay, kelajakda ishlab chiqarishni rivojlantirish orqali bo'lg'usi iste'molni qondirishni ham mo'ljallaydi. Ishlab chiqarish faoliyati jamiyat hayotining birlamchi asosi bo'lganligi uchun iqtisodiy o'sish ijtimoiy taraqqiyot uchun moddiy zamin yaratib beradi. Jamiyatdagi chuqur va sifatli o'zgarishlar iqtisodiy o'sish sur'atlariga qarab yuz beradi. Hozirgi bosqichda jamiyat hayotidagi shiddatli o'zgarishlar barqaror o'sish natijasidir. Iqtisodiy o'sish jamiyatdagi ishlab chiqarish hajmini yoki aholi jon boshiga yaratilgan mahsulotlar va xizmatlar hajmini ortib borishi bilan o'lchanadi. Uni albatta real yalpi milliy mahsulot yoki real milliy daromadning ko'payishi ifoda etadi.

Iqtisodiy o'sish to'liq bandlilik sharoitiga mos keluvchi potensial ishlab chiqarish darajasini uzoq muddatli ko'payishi tendensiyasini anglatadi. Iqtisodiy o'sish jami taklifning o'sishini yoki boshqacha aytganimizda, haqiqiy va potensial YaIM hajmining oshishini bildiradi. Iqtisodiy o'sish muammosini o'rganish natijasida real ishlab chiqarish tizimi duch keluvchi – cheklangan resurslardan samarali foydalanish muammosiga yechim topiladi.

Demak, iqtisodiy o'sish omillari va ular samaradorligini o'rganish hamda tahlil qilish jamiyat oldidagi eng dolzarb muammolardan biridir.

Iqtisodiy o'sish nafaqat mamlakat real daromadlarining o'sishi, shuningdek, jon boshiga to'g'ri keladigan real daromadlarning o'sishini ham anglatadi.

Iqtisodiy o'sish nazariyasi va modellarida YAIM o'rniga SIM, YaMD, SMD ko'rsatkichlaridan ham foydalаниши mumkin. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o'sish daromadlarni qanday nisbatlarda iste'mol va investitsiyalarga bo'linishiga bog'liq deb qaraladi. Iqtisodiy o'sish real kattaliklarda, qiyosiy baholarda o'lchanadi.

Iste'mol hajmi dinamikasi iqtisodiyotning provard maqsadini va yashash darajasi oshishini bildirsa, investitsiyalar hajmining o'zgarishi resurs imkoniyatlarining o'sishi va texnik yangiliklarning moddiylashishini anglatadi. Iste'mol va investitsiya o'rtasida yetarlicha muqobillik mavjud, chunki, joriy iste'mol miqdorining oshishi investitsiyalarning daromaddagi ulushini pasaytirish iqtisodiy o'sish imkoniyatlarini qisqartiradi.

Xususan, bugungi jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi hamon davom etayotgan bir paytda, O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sish manbalari va shart-sharoitlari sifatida quyidagilarni keltirib o'tish joizdir: tabiiy resurslar; jamg'arilgan jismoniy kapital; ishlab chiqarish va ilmiy-texnik salohiyat; inson kapitalining rivojlanish darajasi; tashqi iqtisodiy aloqalarning o'sish darajasi (jahon iqtisodiyotiga integratsiyalashuvi darajasi) va boshqalar.

Barqaror iqtisodiy o'sishning asosiy omillari yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish salohiyati, zamonaviy xizmatlar turlari va qulay infrato'zilmani, shuningdek qishloq xo'jaligini optimal darajada o'sishi hisoblanib, ularni mutanosib rivojlantirish pirovardida yashash sifatini doimiy oshirib borishga qaratilgan bo'ladi.

Har bir mamlakat iqtisodiy o'sishga intiladi, chunki iqtisodiy o'sish, birinchidan, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko'payishiga, ikkinchidan, resurslardan samarali foydalanishga, uchinchidan, yangi-yangi ehtiyojlar va

imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga, to‘rtinchidan, xalqaro bozorlarda mamlakat obro‘sining oshishiga olib keladi.

2.2. Iqtisodiy o‘sishni hisoblash

Bozor iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida, iqtisodiy o‘sish sur’atlarini ta’minlash, iqtisodiyotni mamlakat shiddat bilan bir iqtisodiy tizimdan keyingi iqtisodiy tizimga o‘tishda mamlakat iqtisodiyoti yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlariga erishish kerak bo‘ladi. Yuqori iqtisodiy o‘sish sur’atlari – bu amalga oshirilgan muvozanatlashtirilgan makroiqtisodiy siyosatni, iqtisodiyotni erkinlashtirishni, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va texnik qayta qurollantirishga qaratilgan tarkibiy o‘zgarishlar jarayonlarini jadallahsuvi va chuqurlashuvini natijasidir.

Mamlakatda iqtisodiy o‘sish darajasini aniqlash uchun birinchi navbatda hisoblash nuqtasini o‘rnatish lozim.

Ko‘pgina davlatlar o‘zini darajasini AQSH bilan tenglashtiradi. Turli xildagi ishlab chiqarish omillarini birikishi hamda turli xil davatlarning rivojlanishi sharoiti, iqtisodiy rivojlanish darajasini belgilab berishga yo‘l qo‘ymaydi, degan bir fikr mavjud. Buning uchun bir qator asosiy ko‘rsatkichlar qo‘llaniladi:

1. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM;
2. Aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarni turlari;
3. Aholining turmush darjasini va sifati;
4. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining natijasi.

Shuningdek, iqtisodiy o‘sish darajasini ifodalovchi ko‘rsatkichlar mavjud bo‘lib ularga quyidagi ko‘rsatkichlarni kiritishimiz mumkin. Yalpi ichki mahsulot, sof ichki maxsulot, yalpi milliy daromad, sof milliy daromad. shaxsiy daromad, shaxsiy tasarrufdagi daromad, iste’mol, jamg‘arish kabi makroiqtisodiy ko‘rsatkichlarni milliy iqtisodiyotni tahlil qilishda foydalaniladigan asosiy ko‘rsatkichlar sifatida keltirish mumkin. Bundan tashqari iqtisodiyotning tarkibiy to‘zilishi, eksport va import hajmi, tarkibi, o‘sish sur’atlari, resurslardan foydalanishning samaradorligini xarakterlovchi mehnat unumdarligi, fond qaytimi,

davlat budjeti taqchilligi, deflator, iste'mol baholari indeksi, ishsizlik darajasi, aholining ish bilan bandlik darajasi, investitsiyalar hajmi va tarkibiy to'zilishi kabi ko'rsatkichlardan ham foydalaniladi. Xususan, YaIM – mamlakat rezidentlari tomonidan ma'lum muddat davomida (odatda 1 yil) ishlab chiqarilgan pirovard tovarlar va xizmatlar bozor baholarining umumiyligini yig'indisidan iborat. YaIM agregat ko'rsatkich sifatida, mamlakatdagi iqtisodiy salohiyat darajasini xarakterlaydi. Mamlakatda amalga oshirilayotgan barcha iqtisodiy islohotlarning natijasini ko'rsatadigan ushbu ko'rsatkich davlatning jahon iqtisodiyotidagi o'rnni ham ifodalaydi. Shuning uchun YaIMning barqaror o'sish sur'atlarini ta'minlash resublikamiz iqtisodiy salohiyatini oshirishning asosiy shartidir.

Aytib o'tish joizki, iqtisodiy rivojlanish darajasi bu tarixiy tushuncha bo'lib, milliy iqtisodiy rivojlanishning har bir pog'onasi hamda jahon hamjamiyatiga uning asosiy ko'rsatkichlariga ozmi-ko'pmi o'z ta'sirini ko'rsatadi.

So'nggi yillarda jahon tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, turmush sifatini aniqlash uchun o'z ichiga ijtimoiy-iqtisodiy ko'rsatkichlarni hamda aholining savodxonligini oshishi hayot kechirish davomiyligi ayrim ko'rsatkichlardan yoki bo'lmasa, umumjamiatning rivojlanishini ta'minlovchi indekslardan foydalanilmoqda.

Iqtisodiy o'sish 2 usul bilan aniqlanadi va o'lchanadi.

1- usul real YaIM ni (YaMM,SMM) o'tgan davrga nisbatan o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakatning umumiqtisodiy imkoniyatlari harakatini ifodalash uchun foydalaniladi.

2- usul real YaIM ni (YaMM , SMM) o'tgan davrga nisbatan aholi jon boshiga o'zgarishi sifatida aniqlanadi va mamlakat ijtimoiy rivojlanishi darajasining va harakatining sifat o'zgarishlarini ifodalash uchun foydalanadi. Iqtisodiy o'sish sur'atlari va qo'shimcha o'sish sur'atlari bir - biridan farqlanadi:

$$Y_i$$

$$A) \text{bazis } o'sish \text{ sur'ati} = \frac{Y_i}{Y_0}$$

$$Y_i$$

B) zanjirli o'sish sur'ati = _____

$$Y_{i-1}$$

Qo'shimcha o'sish sur'atlari quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi.

$$Y_i - Y_0$$

A) bazis qo'shimcha o'sish sur'ati = _____

$$Y_0$$

$$Y_0 - Y_{i-1}$$

B) zanjirli qo'shimcha o'sish sur'ati = _____

$$Y_{i-1}$$

Bunda , Y_0 – bazis yildagi real YaIM

Y_i – yildagi real YaIM

Y_{i-1} - bundan avvalgi yildagi real YaIM

Ko'pchilik mamlakatlarning tarixiy tajribasida tasdiqlangan qonuniyat borki, unga ko'ra iqtisodiy o'sishning ko'lami va sur'atlari o'zaro teskari mutanosiblikda o'zgaradi, ya'ni o'sish ko'lami miqdoran oshgan sari, uning sur'atlari pasayishiga moyil bo'ladi. Iqtisodiy o'sishning nafaqat miqdoriy, balki sifat me'yori ham mavjud.

Real ishlab chiqarish hajmlarining uzoq muddatli o'sishi sur'atlarini, ko'lamlarini, samaradorligi va sifati oshishini belgilovchi hodisa va jarayonlar iqtisodiy o'sish omillari deyiladi.

Iqtisodiy o'sish omillari ikki guruhga ajratiladi.

Birinchi guruh omillari iqtisodiy o'sishni fizik (ashyoviy) jihatdan ta'minlaydi. Bu guruhga ishlab chiqarish omillari kiritiladi: tabiiy resurslarning soni va sifati; mehnat resurslarining soni va sifati; asosiy kapital hajmi; texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish; jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanishi darajasi va hokazo.

Agar iqtisodiyotning qisqa muddatli holati ko'proq yalpi talab bilan belgilansa, uzoq davrga iqtisodiyotning rivojlanishi ko'proq ishlab chiqarish

imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy o'sishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi.

Ikkinci guruhga omillari jamiyatdagi iqtisodiy o'sish potensialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari bilvosita omillar) kiritiladi: bozorning monopollashuvi darajasini pasayishi; iqtisodiyotdagi soliq muhiti; kredit-bank tizimi samaradorligi; iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o'sishi; eksport hajmining o'sishi; iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari; daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi va boshqalar.

Yuqoridagi biz ko'rib chiqqan iqtisodiy o'sishga ta'sir etuvchi talab va taqsimot omillari oqilona tashkil etilsagina mamlakatda barqaror iqtisodiy o'sish ta'minlanishi mumkin. Fikrimizcha, barqaror iqtisodiy o'sish - bu uzoq vaqt davomida iqtisodiyotni yuqori sur'atlar bilan o'sib borishini ifodalaydigan ko'rsatgichdir. Makroiqtisodiyot nazariyasi va jahon amaliyoti ko'rsatishicha, mamlakatlarni yillik YaIMni o'sish sur'ati 7 foizdan kam bo'lmasa, YaIMning hajmi 10 yilda 2 marta ko'payadi. Aksincha YaIMning yillik o'sish sur'ati 10 foiz dan kam bo'lmasa, mamlakat YaIM hajmi 7 yilda 2 marta ko'payadi.

Iqtisodchi olimlar duch kelgan muammolardan biri bu - iqtisodiy o'sishning turlichaligidir. Chunki ba'zi mamlakatlarda yuqori o'sish sur'atlar bilan, ba'zi davlatlar o'rtacha o'sish suratlar bilan, bazilari esa umuman iqtisodiy o'sish kuzatilmagan ba'zida umuman iqtisodiy o'sish o'rniga iqtisodiy pasayish (stagnatsiya) holatlari kuzatiladi. Ushbu holatlarni baholash va ilmiy asoslash uchun 20-asrda ko'plab olimlar izlanishlar olib borishgan. Ushbu izlanishlarning eng umumiylashgani va muvoffaqiyatli yakunlagan iqtisodchi olim Xalqaro rivojlantirish va taraqqiyot jahon banki iqtisodchisi Lent Pritchet tomonidan olib borilgan izlanishlar bo'lib hisoblanadi. Uning fikricha iqtisodiy o'sish turlari quyidagi 6 turga bo'linadi (u har bir iqtisodiy o'sish turini geografik makonlar

nomi bilan ifodalagan):² yuqori adirlar; adirlar; platolar; cho‘qqilar; tekisliklar; denverlar (bunda tekisliklardan cho‘qqilarga o‘tish davri nazarda tutiladi).

Yuqori adirlar, bunda Pitch mamlakat aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan YaIM yillik 3 foiz oralig‘idagi yuqori o‘sish sur’atini nazarda tutadi. Bunday o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan davlatlar asosan Sharqiy Osiyodagi 11 ta mamlakatlar (Yaponiya, Gonkong, Koreya, Malayziya, Singapur, Tayvan, Tailand), ba’zi Yevropa mamlakatlari (Kipr, Irlandiya, Malta) va Afrikadagi Botsvana misol bo‘la oladi.

Adirlar, bunday turga odatda o‘zoq muddat davr mobaynida barqaror iqtisodiy o‘sish tendensiyasiga ega bo‘lgan va yillik aholi jon boshiga 1.5 – 3 foizga YaIM hajmi o‘sishi kuzatiladigan mamlakatlar kiradi. Bular AQSh, Avstraliya, Kanada; industriallashgan G‘arbiy Yevrooppa mamlakatlari (Fransiya, Germaniya, Italiya, Gretsiya, Ispaniya, Shveysariya, Daniya, Belgiya, Finlyandiya, Avstriya); osiyo mamlakatlaridan Xitoy, Birma, Filippin, Bangladesh, Pokistan, Izroil, Turkiya, Tunis; ba’zi Lotin Amerikasidagi mamlakatlar (Barbados, Kolumbiya, Kosta-Rika, Meksika).

Platolar, o‘sishning bunday turiga avval yuqori o‘sishga ega bo‘lib (1.5 – 3 foiz) so‘ngra yana pasayish (0.66-0 foiz) kuzatilgan mamlakatlar iqtisodiyoti misol bo‘la oladi. Bu mamlakatlar Braziliya, Dominikan Respublikasi, Salvador, Gvatemala va ba’zi rivojlangan mamlakatlar Gollandiya, Ispaniya, Yangi Zelandiya, Shvetsiya va bir qator Afrika mamlakatlari — Efiopiya, Gambiya, Gvineya-Bisau, Keniya, Lesoto, Marokko, Malavi, Svazilend.

Cho‘qqilar, bunday turdag'i iqtisodiy o‘sish mamlaktlarning avval yuqori sur’atlar bilan o‘sish kuzatilib birdaniga pasayish kuzatilgan mamlakatlar kiradi. Ushbu mamlakatlar Buyuk Britaniya, Papua—Yangi Gvineya, Eron, Iroq, Iordaniya, Suriya; bir guruh Afrika va Lotin Amerika mamlakatlari Aljir, Namibiya, Misr, Kamerun, Kongo, Kot-d’Ivuar, Gabon, Liberiya, Mozambik, Niger, Nigeriya, Serra-Leone, JAR, Togo, Zoir, Zambiya, Argentina, Boliviya,

²Шараев И.О.В. “Теория экономического роста”, Учебник, ВЭШ, -М.: 2006 стр. 256

Ekvador, Gayana, Gonduras, Yamayka, Nikaragua, Panama, Paragvay, Peru, Surinam, Trinidad Tobago.

Tekisliklar, ushbu iqtisodiy o'sish turidagi davlatlar geografik nomi kabi iqtisodiy o'sish past bo'lgan mamlakatlarga misol bo'ladi, yillik jon boshiga iqtisodiy o'sish 1.5 foizgacha kuzatiladi. Ushbu guruhga kiruvchilar iqtisodiy o'sish mavjud bo'lishi mumkin va aksincha iqtisodiy o'sish umuman kuzatilmasligi mumkin. Iqtisodiy o'sish kuzatilmagan iqtisodiy o'sish vohalar deb yuritiladi. Bu guruhga quyidagi mamlakatlar iqtisodiy o'sishi misol bo'lishi mumkin: Nepal, Gaiti, Venesuela, Angola, Burundi, Benin, Markaziy-Afrika Respublikasi, Burkina-Faso, Madagaskar, Mali, Mavritaniya, Somali, Uganda, Zimbabve.

Dneverlar yoki tezlashish, bunda aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaIM 1.5 foiz gacha yillik o'sish 1.5 foizdan yuqori sur'atlar bilan o'sishni kuzatilgan mamlakatlar misol bo'la oladi. Bu mamlakatlar quyidagilar: Indoneziya, Hidiston, Shri-Lanka, Chili, Urugvay, Gana, Mavrikiiy.

Mustaqillikning ilk yillarda mamlakatimiz iqtisodiyotida taqchillik, oziq-ovqat yetishmovchiligi va bir qator muammolar mavjud edi. Buning sababi sobiq ittifoq davrida olib borilgan bir tomonlama iqtisodiyotning ixtisoslashuvi edi. Lekin davlatning samarali iqtisodiy islohotlari natijasida mamlakatimiz iqtisodiyoti qisqa muddat ichida o'z iqtisodi o'sishini tiklab barqaror o'sish tendensiyalarini qo'lga kiritdi.

Mamlakat real YaIM aholi jon boshiga 1992-1996-yillar oralig'ida pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan va iqtisodiy o'sishning vohalar turiga mansub bo'lgan, 1997-2003-yillarda iqtisodiy o'sishning tezlanish turiga ega bo'lgan. Mamlakat iqtisodiy o'sishi 2003-yildan hozirgacha cho'qqilar turiga mansub bo'lib kelmoqda va mamlakatimizda yuqori iqtisodiy o'sish sur'atlari kuzatilmoqda. Bu esa o'z navbatida davlatning mustaqillik ilk yillarda olib borilgan samarali iqtisodiy siyosatning keljakdagi ya'ni hozirgi kundagi hosilasi islohotlarning aniq maqsadga muvofiq olib borilayotganligidan dalolat beradi. Hozirgi kunda mamlakatimizda iqtisodiy rivojlanishga erishish va uzoq muddatli iqtisodiy o'sish

sur'atlarini ta'minlash maqsadida, davlat tomonidan ko'plab ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar olib borilmoqda bu sa'y harakatlar esa kelajakda ijobiy o'z hosilasini berishi kerak.

Jamiyat ehtiyojlari ishlab chiqarish resurslariga munosabatda doimo birinchi bo'lsada, bu ehtiyojlarni qondiruvchi ishlab chiqarish mahsulotlari ma'lum mamlakatning ishlab chiqaruvchilari yoki import mahsulotlar vositalari o'zlashtirganda vujudga keladi. Buni shu bilan tushuntirish mumkinki, ehtiyojlarining vujudga kelishi qadam - baqadam ommaviy tus oladi va ishlab chiqarishning uzluksiz rivojlanishini nazarda tutadi.

Shu bilan birga, ma'lum tovar ishlab chiqarishni ommoviy o'zlashtirish uchun ma'lum muddat zarur. Ishlab chiqaruvchilar ortda qolishni kamaytirishgagina erishishlari mumkin, lekin uni butunlay eskirtira olmaydilar. Bundan kelib chiqadiki, iqtisodiyotning asosiy subyektlarining iqtisodiy o'sishi tomon intilishi jamiyatda qanday rivojlanish darajasiga erishilganga bog'liq bo'lмагan holda mavjud bo'ladi. Biroq ishlab chiqarish real shartlari o'sish potensialini realizatsiya qilishga har doim ham yo'l qo'ymaydi. Bunday sharoitlarda depressiya yoki xuddi ichki iqtisodiy omillar, kabi milliy iqtisodiyotga munosabatdagi ichki omillar (masalan, urushlar, ichki va xalqaro siyosatdagi o'zgarish va boshqalar) bilan izohlanishi mumkin bo'lgan iqtisodiy tanazzul boshlanadi.

Iqtisodiyot nazariyasida iqtisodiy o'sishning yuzaga kelishi shakllari izohida ikki asosiy yondashuv mavjud. Ulardan keng tarqalgani, iqtisodiy o'sishni YaIM (MD) real hajmi o'sish sur'ati yoki bu ko'rsatkichlarni aholi ehtiyoji hisobida oshirish sur'ati bilan o'lchanadigan aniq vaqtda milliy iqtisodiyot rivojlanishining jami xarakteristikasi bilan tushunish hisoblanadi. Iqtisodiy o'sishni hisoblaydi u yoki bu uslubni qo'llash zarurati odatda tadqiqot masalalari bilan bog'liq. Iqtisodiy o'sishni hisoblashning birinchi usuli, qoidaga ko'ra, mamlakatning iqtisodiy salohiyati kengayish sur'atlarini baholashda qo'llaniladi, ikkinchisidan esa aholining qulay sharoiti dinamikasi tahlilida yoki turli hududlar va mamlakatlarning hayotiylik darajasini solishtirishda foydalaniladi. Hozirgi vaqtida o'sish nazariyasida ikkinchi hisoblash usuli afzal deb qaraladi.

Iqtisodiy o'sishda real milliy daromad oshish sur'atlari aholi o'sishi sur'atlarini oshiradigan milliy iqtisodiyot rivojlanishi nazarda tutiladi. Bu o'sish muammolarini tashqi kuzatuvchi nuqtai nazaridan emas, balki mamlakat aholisi pozitsiyasidan turib ko'rib chiqishni taqozo etadi.

Iqtisodiy o'sishni ishlab chiqarish real hajmining oshish sur'atlari nuqtai nazaridan qarab chiqishda odatda (aniq va noaniq shaklda) iqtisodiyotda chuqr to'zilmaviy va institutsional o'zgarishlari yuz bermasligi taxmin qilinadi. Ishlab chiqarish to'zilmasi va institutsional muhit murakkab va o'zgarmas hisoblanadi. Bunday rivojlanish xarakteri tashqi muhit bilan o'zaro ta'sirda balanslangan va yaxlitlik xususiyatiga ega bo'lgan iqtisodiy tizim uchun o'ziga xos.

Iqtisodiy o'sish nazariyasidagi boshqa yondashuv industrial va postindustrial jamiyatni takror ishlab chiqarishda qo'llaniladi. Bu nazariyalar qachonki, o'zgarishlarga hokimlik, boshqaruv, infrato'zilma ob'ektlari, iqtisodiyotdagi to'zilmaviy o'zaro ta'sir va uning tashqi muhit bilan o'zaro aloqasining asosiy institutlari duch kelganda, "yuqori uzun" davrda iqtisodiy dinamika muammolarini tahlil qiladi. Ta'kidlash kerakki, "uzoq muddatli" va "yuqori uzun" davrlar tushunchalari dinamika nazariyasida iqtisodiy vaqt haqida gap borar ekan, xuddi o'zining vaqtinchalik masofasi va konseptual yo'naliш kabi farqlanadi (hodisalar sodir bo'lish tezligi). "Yuqori uzun" davr o'zining vaqtinchalik masofasi hodisalari qatorida uzoq muddatli davr va uning an'anaviy tushunchasida qisqa bo'lishi mumkin. Xusan, bu mamlakatimiz rivojlanishining zamonaviy bosqichida, uning uchun xarakterlidir. Bunda to'zilmaviy, institutsional va funksional o'zgarishlar ishlab chiqarish real hajmi tabiiy o'sish jarayonini aniqlaydigan ishlab chiqarishning tekis olimlari o'zgarishidan ko'ra tezroq yuz beradi.

Yuqori uzun davrdagi iqtisodiy o'sish tahlilining ikki asosiy xususiyatini ajratish mumkin:

- iqtisodiy o'sish iqtisod rivojlanishining tashkiliy elementi sifatida qaraladi. U bir tomonidan rivojlanishning siklik xarakterini ifodalaydi, ikkinchi tomonidan o'zi pasayish va depressiya davrlariga tayyorlovchi o'zgarishlar rezultati hisoblanadi. Shuning uchun asosiy e'tibor iqtisodiy o'sish sur'atlariga emas, balki

iqtisodiyotdagи global o'zgarishlar, barqaror tendensiya va qonunchiliklar va ularning yangi sifat o'zgarishlariga qaratiladi.

- makroiqtisodiy tanaffuslar qatorida iqtisodiy rivojlanishning va industrial asoslari, tadbirkorlik muammolari, ishlab chiqaruvchilar qiziqishlari ziddiyatlil siljishlari, iste'molchilar va davlat hokimiyati institutlari iqtisodiy faoliyat samaradorligini oshishiga yo'l qo'yaydigan yangi iqtisodiy to'zilmaning shakllanishi va uning tashqi muhit o'zgaruvchanligi sharoitidagi barqarorligini tekshiradi.

Jamiyat a'zolarining xilma-xil va yuksalib borayotgan ehtiyojlarini qondirishning birdan bir vositasi iqtisodiy o'sishdir. Agar iqtisodiy o'sish bo'lmasa hech qanday jamiyat rivojana olmaydi, eski iqtisodiy tizim o'rniga yangisi kirmaydi, xullas ijtimoiy taraqiyot yuz bermaydi. Bu ob'ektiv qonuniyat bo'lib, aholi o'sishi va fan-texnika jarayonlari bilan bog'langan. U milliy iqtisodiyotning rivojlanish harakatini ko'rsatadi va shu sababli vaqtning ma'lum davrlariga (chorak, yil va undan uzoq vaqtga) makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni (YaIM va SMM) taqqoslash yo'li bilan o'lchanadi.

2.3. Iqtisodiy o'sish modellari

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o'sish omillarini o'rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlar pirovardida turli iqtisodiy o'sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Iqtisodiy o'sish modellari yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko'payishi taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi.

Barcha iqtisodiy modellar singari iqtisodiy o'sish modellari ham real jarayonlarni abstrakt va soddalashgan ko'rinishda, shartli tarzda grafiklarda va tenglamalarda aks ettiriladi.

Odatda iqtisodiy o'sishning quyidagi nazariyalari farqlanadi:

- iqtisodiy o'sishning yangi keynscha nazariyalari;
- iqtisodiy o'sishning yangi klassik nazariyalari;
- iqtisodiy o'sishning empirik nazariyalari;

- endogen o'sishning yangi nazariyalari(3.1-rasm).

Ushbu yo'nalishlar doirasida esa iqtisodiy o'sishning turli nazariy modellari yaratila boshlandi. XX asrning o'rtalarida keynschilikning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asosida yangi yo'nalish, ya'ni neokeynschilik vujudga keldi. Iqtisodiy o'sishning dinamik modellarini ishlab chiqqan neokeynschilik vakillari orasida ingliz iqtisodchisi Roy Xarrod (1900-1978-y.) o'z modelida ishchi kuchi, aholi jon boshiga daromad va naqd kapital o'sishi o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildi. U milliy daromadning kapital sig'implilik darajasini ifodalovchi "kapital koefitsienti" tushunchasini yaratdi. R. Xarrod kapital sig'implilik mezonidan texnika taraqqiyotining iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishda foydalandi.

Amerikalik iqtisodchi neokeynschilik yo'nalishi vakili Evsey Domar (1914-1997-yillar) ham R. Xarrod tadqiqotlaridan bexabar ravishda mutanosib iqtisodiy o'sishning biroz boshqacharoq modelini taklif etdi. U J.M. Keynsning investitsiyalar daromadni shakllantirish orqali talabni oshiradi, degan fikriga qo'shimcha qilib, investitsiyalar bir vaqtning o'zida tovarlar taklifining oshishiga ham olib keladi, deb ta'kidlaydi. E. Domar va R. Xarrod modellarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil sifatida investitsiyalar keltiriladi, chunki ular multiplikativ ta'sirga ega va shuning uchun barqaror o'sishni ta'minlaydi. Ushbu modelda J. Keynsdan farqli o'laroq takror ishlab chiqarish jarayoni uzoq muddatli davr dinamikasida tadqiq qilingan. Xarrod-Domar modeli bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'la olmasligini asoslab berdi.


Ushbu modelni respublikamiz iqtisodiyotida qo'llaydigan bo'lsak, mustaqillikning datlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda qator izchil islohotlar olib borilib, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning o'sishiga hamda iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan investitsiyalarga katta e'tibor berib kelinmoqda.

Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi

vaqtarda respublikamizda investitsion muhitni sog‘lomlashtiruvchi va mustahkamlovchi iqtisodiy-siyosiy vaziyat tendensiyasi hukm surmoqda.

Iqtisodiy o‘sishning yangi klassik ilk nazariyalari 1950-1960 yillar oraliga’ida paydo bo‘ldi. O‘sha davrda iqtisodiy o‘sish sur’atlarini foydalanilmayotgan quvvatlar hisobiga emas, balki yangi texnikalarni joriy qilish, mehnat unumdarligini oshirish va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish hisobiga jadallashtirish muammosi birinchi o‘ringa ko‘tarildi. Bu yo‘nalish vakillari (amerikalik iqtisodchi Robert Solou va ingliz iqtisodchisi Jeym Smit va boshqalar) nazariyasining metodologik asosini ishlab chiqarish omillarining klassik nazariyasi tashkil etadi. Ma’lumki, bu nazariyada mehnat, kapital va yer ijtimoiy mahsulotni hosil qilishning mustaqil omillari sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, yangi klassik nazariyada ishlab chiqarish omillari egalari tomonidan olinayotgan daromadlar bu omillarning eng ko‘p miqdordagi mahsulotlari tomonidan belgilanishi g‘oyasi ilgari surilgan eng yuksak unumdarlik nazariyasiga ham tayanadi.

Neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou (1924-yilda tug‘ilgan) o‘z modelida jamg‘armalar, mehnat resurslari o‘sishi va ilmiy-texnik taraqqiyotning aholi turmush darajasi va uning dinamikasiga ta’sir qilish mexanizmini aniqladi. R. Solouning asosiy xulosasi shuki, uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari kapital qo‘yilmalar oshishiga emas, balki texnologik rivojlanish omiliga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, uningcha doimiy texnik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari hisoblanadi.



2.1-rasm. Iqtisodiy o'sish nazariyaları (modellari)

Dж. Мид модели хам неоклассик асосларга ега болиб, иқтисодий о'sishни маржиналистик юндашувлар орқали тушунтиради. О'з консепсиyasini Дж. Мид "Иқтисодий о'sishning neoklassik nazariyasi" (1961-yil) nomli kitobida ifodalagan.

Mehnat va texnik taraqqiyot о'sish sur'atlariни доимицеб таҳмин qilib Дж. Мид quyidagi xulosaga кeldi: иқтисодий о'sishning barqaror sur'atiga kapital о'sishning barqaror sur'atlari va uning milliy daromad о'sish sur'atlari bilan tengligi sharoitida erishiladi. Agar kapital oshishining sur'atlari milliy daromad о'sishi sur'atlaridan oshsa, unda bu jamg'arish sur'atlarining о'z-o'zidan pasayish sur'atlariga olib keladi. Дж. Мид modelida davlat faqatgina pul-kredit siyosatidan foydalaniлган holda barqarorlashtiradigan vazifani bajaradi. Faqatgina shu

resurslarning zarur bandligi va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan daromad va jamg'armalarning qayta taqsimlash mexanizmini yaratishga imkon beradi.

Iqtisodiy o'sishning zamonaviy nazariyalari shakllanishiga iqtisodiy o'sishga turli omillarning ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan empirik tadqiqotlar ulkan hissa qo'shdi. Bu sohada izlanishlar olib borgan eng yirik tadqiqotchilardan biri Edvar Denison (1915-1992-yillar)dir. Amerikalik iqtisodchi inson omili ta'sirini o'lhash uchun faqat ish kuchi sonigina emas, balki mehnat unumdarligining xodimning yoshi va jinsi, ma'lumoti va kasbiy tayyorgalik darajasiga bog'liqligini ham hisobga olgan.

E. Denisonning fikriga ko'ra, mehnat unumdarligining iqtisodiy o'sishga ta'siri quyidagi jarayonlar natijasida ro'y beradi:

- texnologik bilimlarning kengayishi yoki ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish;

- "boy berilganni qoplash", ya'ni taraqqiy etgan davlatlar tomonidan qoloq mamlakatlarga amaliy bilimlarni taqdim etish. Bu qoloq mamlakatlarga rivojlangan davlatlarning eng maqbul iqtisodiy o'sish darajasiga yaqinlashish imkonini beradi;

- ishlab chiqarishningjismoniy omillarini joylashtirishni yaxshilash hamda ularni eng yuqori samara beradigan tarmoq va mintaqalarda qo'llash;

- iqtisodiyot ko'lamlarini kengaytirish, ayni paytda ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishni rivojlantirish va milliy bozorlarni rivojlantirish.

Pol Romer (1955-yilda tug'ilgan) va Robert Lukas (1937-yilda tug'ilgan) 1980-yillar oxiri va 1990-yillarning boshlarida Solou modelidan qoniqmagan holda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratdilar. Bu nazariya texnologik taraqqiyotni matematik tushuntirishni nazarda tutar edi va o'z ichiga ishchilar faoliyati samarasini oshiradigan bilim, malaka va qobiliyatni ifodalaydigan inson kapitali tamoyilini ham olgan edi. Boshqa kapital shakllaridan farqli ravishda inson kapitalining rentabelligi o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Shuning uchun mamlakatning iqtisodiy o'sishi kapital to'plangan sari sekinlashmaydi va iqtisodiy

o'sish sur'atlari kiritilayotgan kapital turiga bog'liq bo'ladi. Inson kapitalini oshiradigan omillar sifatida esa ta'lim va innovatsiyalar keltiriladi.

Agar barcha modellarni umumlashtirgan holda o'rganadigan bo'lsak, bugungi kunda ayni bir modelning iqtisodiyotda to'liq qo'llanilayotganligini ko'rishning iloji yo'q deb o'yaymiz. Keyschilar bu borada iqtisodiy o'sishni modellashtirishda asosiy e'tiborni investitsiya va davlat boshqaruviga qaratsa, neoklassiklar davlat boshqaruvini inkor etgan holda barcha ishlab chiqarish omillarining samaradorlik jihatlarini ustuvor deb hisoblashadi.

Bizning fikrimizcha, biror davlat o'z iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo'lida ayni bir iqtisodiy o'sish modelini tanlamasdan, o'z mamlakat tabiiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, aholining urf-odatlari, an'analari va mentalitetidan kelib chiqqan holda o'z iqtisodiy o'sish modelini ishlab chiqishi lozimdir. Shundan so'ng bu mamlakat iqtisodiyoti turli xil tashqi ta'sirlarga sezuvchanlik darajasi kamayadi va jahon iqtisodiyoti bo'ylab sodir bo'layotgan inqirozlarga qarshi chidamlilik darajasi yetarlicha yuqori bo'ladi.

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiy o'sish, uning mohiyati va tarkibi. Iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari mazmuni. Islohotlar davrida iqtisodiy o'sishni o'rganish. Jamiyatning iqtisodiy rivojini kengaytirilgan ishlab chiqarishga asoslanganligi. Iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari (yalpi ichki mahsulot, yetakchi tarmoqlar, tovar va xizmatlar turlarining kengayishi). Mamlakatdagi qisqa va uzoq davrlarni o'z ichiga olgan iqtisodiy islohotlar. Iqtisodiy o'sishning o'lchov xususiyatlari: tez sodir bo'ladigan yoki sudralib yuruvchi iqtisodiy o'sish. Iqtisodiy o'sish – bu iqtisodiy rivojlanish mezoni. O'sish koeffitsienti. O'sish sur'ati va qo'shimcha o'sish. Rivojlanish va turmush sifati ko'rsatkichlari. Iqtisodiy o'sish va inklyuziv iqtisodiy o'sish. Inklyuziv iqtisodiy o'sish haqida tushuncha. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni ifodalovchi ko'rsatkichlar. Inklyuziv iqtisodiy o'sish me'zonlari.

II Bob bo‘yicha savollar

1. Iqtisodiy o‘sishning mazmuni va mohiyati qanday?
2. Iqtisodiy o‘sishning qanday turlarini bilasiz?
3. Iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlarining o‘zgarishi va omillari haqida aytib bering?
4. Iqtisodiy o‘sishning qanday modellarini bilasiz?
5. Iqtisodiy o‘sishning muddatiga ko‘ra qanday turlari mavjud?
6. Iqtisodiy o‘sishga imkon yaratuvchi makroiqtisodiy siyosatning qanday turlarini bilasiz?
7. O‘zbekistonda iqtisodiy o‘sishni taa’minlashning qanday ustuvor yo‘nalishlari mavjud?
8. Barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlash qanday yo‘llarini bilasiz?

III BOB. IQTISODIY O‘SISH OMILLARINING TASNIFI VA ULARGA BO‘LGAN YONDASHUVLAR

Reja:

- 3.1. Iqtisodiy o‘sish omillari, ularning tasniflanishi.**
- 3.2. Iqtisodiy o‘sish omillariga bo‘lgan yondashuvlar.**

3.1. Iqtisodiy o‘sish omillari, ularning tasniflanishi

Har bir mamlakat iqtisodiy o‘sishga ta’minlashga intiladi, chunki iqtisodiy o‘sish, *birinchidan*, milliy mahsulot hajmi va daromadning ko‘payishiga, *ikkinchidan*, resurslardan samarali foydalanishga, *uchinchidan*, yangi-yangi ehtiyojlar va imkoniyatlarning paydo bo‘lishiga, *to‘rtinchidan*, xalqaro bozorlarda mamlakat nufo‘zining oshishiga olib keladi.

Iqtisodiy o‘sish doimo iqtisodiy va noiqtisodiy omillar ta’siri natijasida kelib chiqadi. Iqtisodiy nazariyada iqtisodiy o‘sish omillari deganda ishlab chiqarishning real hajmini ko‘paytirish, o‘sish samaradorligi va sifatini oshirish imkoniyatlarini belgilaydigan hodisalar va jarayonlar tushuniladi. Iqtisodiy omillarga foydalanilayotgan resurslar miqdorini oshirish va sifatini takomillashtirish omillari kirsa, noiqtisodiy omillar o‘z ichiga siyosiy, harbiy, geografik, iqlimiyl, milliy va madaniy omillarni oladi.

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir qilish mexanizmiga ko‘ra omillar bevosita va bilvosita omillarga bo‘linadi.

Iqtisodiy o‘sishga bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi iqtisodiy omillarga quyidagilar kiradi:

- tabiiy resurslar soni va sifati;
- mehnat resurslari soni va sifati;
- asosiy kapital hajmi;
- texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish;
- jamiyatda tadbirkorlik malakalarining rivojlanish darajasi;

Agar iqtisodiyotning qisqa muddatli holati ko‘prok yalpi talab bilan belgilansa, uzoq davrga iqtisodiyotning rivojlanishi ko‘proq ishlab chiqarish imkoniyatlari bilan belgilanadi. Shu sababli iqtisodiy o‘sishni modellashtirishda diqqat markazida real sektor turadi.

Ikkinchi guruh omillari jamiyatdagi iqtisodiy o‘sish potensialini yuzaga chiqarish imkonini beruvchi omillar – talab va taqsimot omillari, ya’ni bilvosita omillar kiritiladi:

- bozorning monopollashuvi darajasining pasayishi;
- iqtisodiyotdagi soliq muhiti;
- kredit-bank tizimi samaradorligi;
- iste’mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o‘sishi;
- eksport hajmining o‘sishi;
- iqtisodiyotda ishlab chiqarish resurslarini qayta taqsimlash imkoniyatlari;
- daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi.

Bir qancha xorij adabiyotlarida, jumladan, YE.I. Lavrovning “Iqtisodiy o‘sish. Nazariya va muammolar” asarida iqtisodiy o‘sish omillari quyidagicha klassifikatsiyalanadi:³

- taklif omillari.
- taqsimot omillari.
- iste’molga bog‘liq omillar — talab omillari.

Tovarlar va xizmatlar taklifi omillari, iste’mol omillari — to‘lov qobiliyatiga ega bo‘lgan talab ishlab chiqarish omillari hisoblanadi. Ushbu talab shaxsiy tasarrufdagi daromadga bog‘liq bo‘ladi.

Taklifga ta’sir etuvchi va oqibatda iqtisodiy o‘sish darajasiga ta’sir ko‘rsatuvchi asosiy omillar quyidagilar xisblanadi:

1) Mehnat resurslarining malakalilik darjasini, band aholining ilmiy salohiyati, sog‘liqni saqlash sifati, menedjment sifati va milliylik jihatlari (boshqaruv omili), jamiyatning jinsiy va yosh tarkibi-bu guruh omillarni inson omili deb ataymiz.

³ Лавров Е.И., Капогузов Е.А. “Экономический рост. Теории и проблемы”. Уч. Пос. ОмГУ, 2006-214с.

2) Mineral xomashyo resurslarining zaxira ko‘lami, ularni o‘zlashtirish darajasi, o‘zlashtirishning mehnattalablilik darajasi, resurslarning sifat darajasi (masalan neftni kayta ishslash uning tabiiylik darajasiga bog‘liq). Barcha ushbu omillarni xom ashyo resursi deb belgilashimiz mumkin.

3) Jamiyatning texnologik rivojlanganlik darajasi, ilmiy texnika taraqqiyotidan foydalana olish darajasi, kapital bilan qurollanganlik (ta’milanganlik) darajasi, mehnat taqsimoti omili, shu jumladan xalqaro mehnat taqsimoti, kommunikatsiya, aloqaning rivojlanganlik darajasi. Bu turdagи omillar guruhini texnologik resurslar deb nomlaymiz.

4) Jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy to‘zilishi, ijtimoiy institutlarning rivojlanganlik darajasi, davlat siyosatining yo‘naltirilganligi (mavjud rivojlanish darajasi, iqtisodiy o‘sish, o‘sish darajasi barqarorligini ta’milashga), jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikning mavjudligi, aholining davlat institutlariga bo‘lgan ishonchi, rivojlanishga moyillik. Omillarning ushbu guruhi ijtimoiy yoki institusional resurslar hisoblanadi.

E. Denison tomonidan mehnat xarajatlari va mehnat unumdorligining o‘sishishiga ta’sir etuvchi omillarining Amerika iqtisodiyotiga bo‘lgan ta’siri o‘rganilib chiqilgan⁴. Uning izlanishlaridan shu narsa ma’lum buldiki, ishlab chiqarishning qo‘sishicha o‘sishining uchdan bir qismi mehnat xarajatlarining o‘sishiga, kolgan uchdan ikki qismi esa mehnat unumdorligining o‘sishiga bog‘liq ekan. Mehnat xarajatlari kulami ikki yirik omillar guruxi orqali amalga oshiriladi: iqtisodiyotda band bo‘lgan aholi sonining o‘sishi evaziga, yani ekstensiv o‘sish evaziga hamda mehnat intensivligining o‘sishi evaziga. Mehnat intensivligining o‘sishi asosan jamiyatning ijtimoiy-iqtisodiy to‘zilishi, mamlakatning rivojlanganlik darajasi, xo‘jalik yuritishning turlariga bog‘liqdir. Ushbu omillar mamlakat va uning aholisining faravonlik darajasini ifodalaganligi sababli o‘ta muhim omillar hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sishga ta’sir etuvchi muhim omillardan biri bu – investitsiya meyori hisoblanadi. Investitsiya meyori iqtisodiyotning sog‘lomligini aks ettiradi

⁴ Денисон Э. “Исследование различий в темпах экономического роста. “М.: Прогресс, 1971 й. – 645 с.

va iqtisodiyotda modernizatsiyalashni va tarkibiy o‘zgarishlarni amalga oshirishning asosi hisoblanadi. Modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirayotgan o‘tish iqtisodiyotiga ega va rivojlanayotgan mamlakatlarda investitsiya meyori va iqtisodiy o‘sish sur’atlari o‘rtasida korrelyatsion aloqalar, bog‘liqliq mavjud. Masalan, Xitoyda oxirgi 20 yil mobaynida iqtisodiy o‘sish sur’atlari barqaror darajada bo‘lishining sababi investitsiya meyorining 41-45 foiz oralig‘ida bo‘lishi hisoblanadi.⁵ Tahlillar ko‘rsatishicha, investitsiya meyori o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda milliy valyutada va joriy baholarda hisoblanadi. Ushbu holat investitsiya meyori miqdorining sun’iy ravishda oshishiga olib keladi. Ko‘pchilik mutaxassislar fikricha, o‘tish iqtisodiyotiga ega mamlakatlarda, xususan Rossiyada, modernizatsiya jarayonlarini amalga oshirish, iqtisodiyotni innovatsiyaviy rivojlantirish yo‘liga o‘tkazish, barqaror iqtisodiy o‘sish sur’atiga ega bo‘lish uchun investitsiya meyori 35-40 foiz atrofida, O‘zbekistonda esa, 28-30 foiz atrofida bo‘lishi kerak.

Bundan tashqari, iqtisodiy o‘sish milliy jamg‘arish normasi, aholining savodxonlik va bilimlilik darajasi hamda iqtisodiyotning ochiqlilik darajasiga bevosita bog‘liqdir. Davlat institutlari tomonidan daromadlarning qayta taqsimlanish omili haqida gap ketganda turli xil holatga yuz kelishimiz mumkin. YAIM tarkibidagi davlat xarajatlarining orttirilishi iqtisodiy o‘sishga ikki tomonlama ta’sir ko‘rsatishi mumkin. Ushbu ko‘rsatkichning meyoriy darajasidan oshib ketishi, oqibatda iqtisodiy o‘sishni to‘sinqilik qilishi mumkin.

3.2. Iqtisodiy o‘sish omillariga bo‘lgan yondashuvlar

Iqtisodchi olimlarning iqtisodiy o‘sish omillarini o‘rganish hamda uning kelgusidagi natijalarini bashorat qilish borasidagi tadqiqotlari pirovardida turli iqtisodiy o‘sish modellarining yaratilishiga olib keldi. Iqtisodiy o‘sish moldellari yalpi ishlab chiqarishning uzoq muddatli ko‘payishi taklif omillariga tayangan holda tahlil etish imkonini beradi.

⁵ Vaxabov A., Zaynidinova U., “Barqaror iqtisodiy o‘sish omillari”. Bozor, pul va kredit, 2011 yil, 06(169) son, 40-bet.

Boshqa iqtisodiy modellar singari iqtisodiy o'sish modellari ham real jarayonlarni abstrakt va soddalashgan ko'rinishda, shartli tarzda grafiklarda va tenglamalarda aks ettiradi.

Odatda iqtisodiy o'sishning quyidagi nazariyalarini farqlaydilar:

- iqtisodiy o'sishning yangi keynscha nazariyalari;
- iqtisodiy o'sishning yangi klassik nazariyalari;
- iqtisodiy o'sishning empirik nazariyalari;
- endogen o'sishning yangi nazariyalari.

Ushbu yo'nalishlar doirasida esa iqtisodiy o'sishning turli nazariy modellari yaratila boshlandi. XX asrning o'rtalarida keynschilikning makroiqtisodiy muvozanat nazariyasi asosida yangi yo'nalish, ya'ni neokeynschilik vujudga keldi. Iqtisodiy o'sishning dinamik modellarini ishlab chiqqan neokeynschilik vakillari orasida ingliz iqtisodchisi Roy Xarrod (1900-1978- y.) o'z modelida ishchi kuchi, aholi jon boshiga daromad va naqd kapital o'sishi o'rtasidagi munosabatlarni tadqiq qildi. U milliy daromadning kapital sig'implilik darajasini ifodalovchi "kapital koeffitsiyenti" tushunchasini yaratdi. R. Xarrod kapital sig'implilik mezonidan texnika taraqqiyotining iqtisodiyotga ta'sirini tahlil qilishda foydalandi.

Amerikalik iqtisodchi neokeynschilik yo'nalishi vakili Yevsey Domar (1914-1997- y.) ham R. Xarrod tadqiqotlaridan bexabar ravishda mutanosib iqtisodiy o'sishning biroz boshqacharoq modelini taklif etdi.

U J. M. Keynsning investitsiyalar daromadni shakllantirish orqali talabni oshiradi, degan fikriga qo'shimcha qilib, investitsiyalar bir vaqtning o'zida tovarlar taklifining oshishiga ham olib keladi, deb ta'kidlaydi. YE. Domar va R. Xarrod modellarida iqtisodiy o'sishni rag'batlantiruvchi omil sifatida investitsiyalar keltiriladi, chunki ular multiplikativ ta'sirga ega va shuning uchun barqaror o'sishni ta'minlaydi.

Ushbu modelda J. Keynsdan farqli o'laroq takror ishlab chiqarish jarayoni uzoq muddatli davr dinamikasida tadqiq qilingan. Xarrod-Domar modeli bozor iqtisodiyotining o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'la olmasligini asoslab berdi.

Ushbu modelni respublikamiz iqtisodiyotida qo'llaydigan bo'lsak, mustaqillikning datlabki kunlaridan boshlab mamlakatimizda qator izchil islohotlar olib borilib, mamlakatda yalpi ichki mahsulotning o'sishiga hamda iqtisodiy rivojlanishga bevosita ta'sir ko'rsatayotgan investitsiyalarga katta e'tibor berib kelinmoqda. Mamlakatimiz iqtisodiyotini yuksaltirish, zamonaviy texnika va texnologiyalar bilan jihozlangan yangi korxonalarni barpo etish va rekonstruksiya qilish uchun investitsiyalarni jalb qilish hal qiluvchi ahamiyatga ega. So'nggi vaqtarda respublikamizda investitsion muhitni sog'lomlashtiruvchi va mustahkamlovchi iqtisodiy-siyosiy vaziyat tendensiyasi hukm surmoqda.

Qulay investitsion muhit qabul qilingan bir qator qonun hujjatlariga asoslangan. O'zbekiston Respublikasining "Investitsiyalar to'g'risida"gi, "Chet el investorlarining huquqlarini himoya qilish kafolatlari va choralar to'g'risida", "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi qonunlari, "Chet el investitsiyalari bilan bog'liq korxonalarga rag'bat va afzalliklar berish to'g'risida"gi, "Chet el investitsiyalari bilan bog'liq korxonalar ishlab chiqargan mahsulotlar eksportini qo'shimcha rag'batlantirish chora-tadbirlar to'g'risida"gi Prezident farmonlari va boshqa bir qator muhim hujjatlar shular jumlasidandir.

Iqtisodiy o'sishning yangi klassik ilk nazariyalari 1950-1960- yillarning chegarasida paydo bo'ldi. O'sha davrda iqtisodiy o'sish sur'atlarini foydalanimayotgan quvvatlar hisobiga emas, balki yangi texnikalarni joriy qilish, mehnat unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish hisobiga jadallashtirish muammosi birinchi o'ringa ko'tarildi. Bu yo'naliш vakillari (amerikalik iqtisodchi Robert Solou va ingliz iqtisodchisi Jeym Smit va boshqalar) nazariyasining metodologik asosini ishlab chiqarish omillarining klassik nazariyasi tashkil etadi. Ma'lumki, bu nazariyada mehnat, kapital va yer ijtimoiy mahsulotni hosil qilishning mustaqil omillari sifatida talqin etiladi. Shu bilan birga, yangi klassik nazariyada ishlab chiqarish omillari egalari tomonidan olinayotgan daromadlar bu omillarning eng ko'p miqdordagi mahsulotlari tomonidan belgilanishi g'oyasi ilgari surilgan eng yuksak unumdorlik nazariyasiga ham tayanadi.

Neoklassik nazariyasi vakili Robert Solou (1924 yilda tug‘ilgan) o‘z modelida jamg‘armalar, mehnat resurslari o‘sishi va ilmiy-texnik taraqqiyotning aholi turmush darajasi va uning dinamikasiga ta’sir qilish mexanizmini aniqladi. Ushbu model iqtisodiy o‘sishning muvozanatli trayektoriyalarini tadqiq qilishga mo‘ljallangan bo‘lib, differensial tenglamalar tizimi shaklida namoyon bo‘ladi. Mazkur model o‘sayotgan asosiy kapitalning jon boshiga mahsulotlar ishlab chiqarish hajmini oshirishga olib kelishi mexanizmini ko‘rsatadi. R. Solouning asosiy xulosasi shuki, uzoq muddatda iqtisodiy o‘sish sur’atlari kapital qo‘yilmalar oshishiga emas, balki texnologik rivojlanish omiliga bog‘liq bo‘ladi. Shunday ekan, uningcha doimiy texnik rivojlanish va resurslardan samarali foydalanish iqtisodiy o‘sishning asosiy omillari hisoblanadi.

Dj. Mid modeli ham neoklassik asoslarga ega bo‘lib, iqtisodiy o‘sishni marjinalistik yondashuvlar orqali tushuntiradi. O‘z konsepsiyasini Dj. Mid “Iqtisodiy o‘sishning neoklassik nazariyasi” (1961 y.) nomli kitobida ifodalagan. Cobb Duglas funksiyasining zamonaviylashtirilgan (modernizatsiyalangan) variantidan foydalanib, Dj. Mid barqaror dinamik muvozanat qobilligi tenglamasini keltirib chiqaradi:

$$Y=aR+\beta L+r \quad (3)$$

bu yerda: U - milliy daromadning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati;

R - kapitalning o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati;

L - mehnatning o‘rtacha yillik zsish sur’ati;

a - milliy daromadda kapitalning o‘sishi;

β - milliy daromadda mehnatning o‘sishi;

r - texnik taraqqiyot sur’ati.

Mehnat va texnik taraqqiyot o‘sish sur’atlarini doimiy deb taxmin qilib Dj. Mid quyidagi xulosaga keldi: iqtisodiy o‘sishning barqaror sur’atiga kapital o‘sishning barqaror sur’atlari va uning milliy daromad o‘sish sur’atlari bilan tengligi sharoitida erishiladi. Agar kapital oshishining sur’atlari milliy daromad o‘sishi sur’atlaridan oshsa, unda bu jamg‘arish sur’atlarining o‘z-o‘zidan pasayish sur’atlariga olib keladi. Dj. Mid modelida davlat faqatgina pul-kredit siyosatidan

foydalanimanligan holda barqarorlashtiradigan vazifani bajaradi. Faqatgina shu resurslarning zarur bandligi va barqaror iqtisodiy o'sishning ta'minlaydigan daromad va jamg'armalarning qayta taqsimlash mexanizmini yaratishga imkon beradi.

Iqtisodiy o'sishning zamonaliviy nazariyalari shakllanishiga iqtisodiy o'sishga turli omillarning ta'sirini o'rganishga yo'naltirilgan empirik tadqiqotlar ulkan hissa qo'shdi. Bu sohada izlanishlar olib borgan eng yirik tadqiqotchilardan biri Edvar Denison (1915-1992 y.y.)dir. Amerikalik iqtisodchi inson omili ta'sirini o'lhash uchun faqat ish kuchi soninigina emas, balki mehnat unumdarligining xodimning yoshi va jinsi, ma'lumoti va kasbiy tayyorgalik darajasiga bog'liqligini ham hisobga olgan.

E. Denisonning fikriga ko'ra, mehnat unumdarligining iqtisodiy o'sishga ta'siri quyidagi jarayonlar natijasida ro'y beradi:

- texnologik bilimlarning kengayshi yoki ishlab chiqarishni tashkil etishni takomillashtirish;
- "boy berilganni qoplash", ya'ni taraqqiy etgan davlatlar tomonidan qoloq mamlakatlarga amaliy bilimlarni taqdim etish. Bu qoloq mamlakatlarga rivojlangan davlatlarning eng maqbul iqtisodiy o'sish darajasiga yaqinlashish imkonini beradi;
- ishlab chiqarishning jismoniy omillarini joylatirishni yaxshilash hamda ularni eng yuqori samara beradigan tarmoq va mintaqalarda qo'llash;
- iqtisodiyot ko'lamlarini kengaytirish, ayni paytda ishlab chiqarishni ixtisoslashni rivojlantirish va milliy bozorlarni rivojlantirish.

Pol Romer (1955 yilda tug'ilgan) va Robert Lukas (1937 yilda tug'ilgan) 1980 yillar oxiri va 1990 yillarning boshlarida Solou modelidan qoniqmagan holda endogen iqtisodiy o'sish nazariyasini yaratdilar. Bu nazariya texnologik taraqqiyotni matematik tushuntirishni nazarda tutar edi va o'z ichiga ishchilar faoliyati samarasini oshiradigan bilim, malaka va qobiliyatni ifodalaydigan inson kapitali tamoyilini ham olgan edi. Boshqa kapital shakllaridan farqli ravishda inson kapitalining rentabelligi o'sish tendensiyasiga ega bo'ladi. Shuning uchun

mamlakatning iqtisodiy o'sishi kapital to'plangan sari sekinlashmaydi va iqtisodiy o'sish sur'atlari kiritilayotgan kapital turiga bog'liq bo'ladi. Inson kapitalini oshiradigan omillar sifatida esa ta'lim va innovatsiyalar keltiriladi.

Yuqoridagilardan tashqari iqtisodiy o'sishning boshqa yo'nalish va oqimlarini ham keltirishimiz mumkin. Xususan, siyosiy iqtisod va sotsiologiya hamohangligida vujudga kelgan yangi oqim institusionalizm yo'nalishidir. Bu yo'nalishga Torsteyn Veblen (1857-1929- y.y.) asos solgan bo'lib, uning asosiy g'oyasi barqaror rivojlanishni ta'minlovchi iqtisodiyotning ishonchli ijtimoiy nazorat mexanizmini yaratish edi. Institutinalistlar neoklassiklardan farqli ravishda ratsional emas, balki real inson g'oyasini ilgari surdilar. Ular fanlararo yondashuv asosida iqtisodiy tahlillarni psihologiya, antropologiya, huquq, biologiya elementlarini kiritib olib borganlar. Bunda "institut" atamasi ijtimoiy birlikni (oila, davlat, monopoliya) yoki muayyan guruh kishilar yoki butun xalqning psihologiyasi, o'zini tutish motivlari, fikrlash tarzi, urf-odatlari, huquqiy-axloqiy xususiyatlarini o'zida mujassam etadi.

XX asrning boshlarida Yozef Shumpeter (1883-1950- y.y.) iqtisodiy o'sish va rivojlanish nazariyalarining asoslarini yaratdi. Ushbu nazariyalarning rivojlanishiga Saymon Kuznets, Fernan Brodel, Teodor Shuls, Geri Bekker, Maykl Porter, Nikolay Kondratyev va boshqa iqtisodchi olimlar o'z hissalarini qo'shganlar. Yozef Shumpeter birinchi bo'lib iqtisodiyotning o'sishi va rivojlanishi o'rtasidagi farqni ajratib ko'rsatdi va iqtisodiy o'sishning asosiy kuchi sifatida innovatsiyalar mohiyatini tadqiq qildi. U o'zining 1911- yilda birinchi marta nashr qilingan va asosiy ilmiy ishi bo'lgan "Iqtisodiy rivojlanish nazariyası" nomli monografiyasida iqtisodiy o'sishni aynan bir xil tovar va xizmatlar ishlab chiqarish va iste'mol qilishning vaqt o'tishi bilan miqdoriy o'zgarishi, ya'ni oshishi bilan ifodalaydi. Yozef Shumpeter iqtisodiy rivojlanishni mahsulot va xizmatlar ishlab chiqarish, boshqarish va boshqa iqtisodiy faoliyat turlari va hayot jabhalarida ijobiy sifat o'zgarishlari va yangilanishi bilan ta'riflaydi.⁶

⁶ B. Valiyev "Iqtisodiy o'sish nazariyasining konseptual yondashuvlari". Biznes-Ekspert, 2014 yil № 1-son, 17-18-betlar.

Agar barcha modellarini umumlashtirgan holda o‘rganadigan bo‘lsak, bugungi kunda ayni bir modelning iqtisodiyotda to‘liq qo‘llanilayotganligini ko‘rishning iloji yo‘q deb o‘ylaymiz. Keyschilar bu borada iqtisodiy o‘sishni modellashtirishda asosiy e’tiborni investitsiya va davlat boshqaruviga qaratsa, neoklassiklar davlat boshqaruvini inkor etgan holda barcha ishlab chiqarish omillarining samadorlik jihatlarini ustuvor deb hisoblashadi. 2008- yilda boshlangan va bugungi kunda ham davom etayotgan jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi shu narsani isbotlab berdiki, mamlakat iqtisodiyotining bozor qonuniyatlariga to‘liq topshirilishi turli xil spekulyativ narxlarning vujudga kelishiga va natijada inqirozning muqarrarligiga zamin yaratadi. Shunday ekan iqtisodiyotga davlat aralashuvining meyoriy darajasi bozor qonunlarini tartibga solishga hamda vujudga kelishi mumkin bo‘lgan turli xil iqtisodiy xatarlarning oldini olishga olib keladi.

Bizning fikrimizcha biror davlat o‘z iqtisodiyotini barqaror rivojlantirish yo‘lida ayni bir iqtisodiy o‘sish modelini tanlamasdan, o‘z mamlakat tabiiy, ijtimoiy hamda iqtisodiy salohiyatidan kelib chiqqan holda, aholining urf-odatlari, an’analari va mentalitetidan kelib chiqqan holda o‘z iqtisodiy o‘sish modelini ishlab chiqishi lozimdir. Shundan so‘ng bu mamlakat iqtisodiyoti turli xil tashqi ta’sirlarga sezuvchanlik darajasi kamayadi va jahon iqtisodiyoti bo‘ylab sodir bo‘layotgan inqirozlarga qarshi chidamlilik darajasi yetarlicha yuqori bo‘ladi.

Tayanch so‘z va iboralar

Iqtisodiy o‘sish omillari tasnifi. Iqtisodiy, ijtimoiy, siyosiy va boshqa omillarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Intensiv va ekstensiv omillar. Talab, taklif va taqsimot omillari. Institusional omillar, ekologik omillar. Bevosita va bilvosita omillar. Tabiiy resurslar soni va sifati. Mehnat resurslarining soni va sifati. Asosiy kapital hajmi. Texnologiyalar va ishlab chiqarishni tashkil etish. Jamiyatda tadbirdorlik malakalarining rivojlanish darajasi. Bozorning monopolashuv darajasining pasayishi. Iqtisodiyotdagi soliq muhiti. Kredit-bank tizimi

amaradorligi. Iste'mol, investitsiya va davlat xarajatlarining o'sishi. Eksport hajmining o'sishi. Iqtisodiyotda resurslarni qayta taqsimlash imkoniyatlari. Daromadlarni taqsimlashning shakllangan tizimi.

III Bob bo'yicha savollar

1. Iqtisodiy o'sish omillarini necha guruhga bo'lib o'rganish mumkin?
2. Iqtisodiy o'sish omillarini tasniflang.
3. Iqtisodiy o'sish modellarini izohlang.
4. Iqtisodiy o'sishga ta'sir qiluvchi tashqi omillar qaysilar?
5. Intensiv va ekstensiv omillarni izohlang.

IV BOB. IQTISODIY O'SISHNING HOZIRGI ZAMON NAZARIYALARI

Reja:

- 4.1. Inson kapitali va texnologiya**
- 4.2. Faoliyat jarayonidagi ta'limning Pol Romer modeli**
- 4.3. Lukas modeli**
- 4.4. Mahsulot sifatining o'zgarish modeli**
- 4.5. Iste'mol tovarlar turlarini kengaytirish asosida endogen iqtisodiy o'sish modeli**

4.1. Inson kapitali va texnologiya

So'ngi yillarda inson karitaliga investitsiya qilish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sish omili sifitida qaralmoqda. Inson kapitali haqidagi ilk qarashlar iqtisod siyosat va statistika otasi ingliz olimi Uilyam Petti (1623-1687) o'z ishlarida to'xtalib o'tgan. Uning 1676 yilda yozilgan "Siyosiy arifmetika asarida" inson kapitalini umumiyligi iqtisodiyotdagi ulushini hisoblashga harakat qilgan. Ingliz iqtisodchisi o'z asarida inson kapitalini barcha moddiy kapitaldan ustun qo'ygan. U Angliya aholisini 417 mln. funtga va uning qolgan moddiy boyligini 250 mln. funtga baholagan.

Petti g'oyalarini rivojlantirgan iqtisodchi olim Adam Smit (1723-1790) bo'lib hisoblanadi. Adam Smit individ qobiliyati g'oyasi ustida ish olib borgan. A. Smit fikricha individlar qobiliyati bilan bir biridan farq qilishadi va bu ularning kamchiligi emas balki ustunligi bo'lib hisoblanadi. Individ o'z qobiliyatidan kelib chiqib ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanadi. Ta'lim tarbiya jarayoni ham qobiliyatiga qarab olib borilishi kerak. Natijada esa shaxs o'z qobiliyati bilan ma'lum faoliyat turi bilan shug'ullanib undan ko'proq daromad oladi deb fikr yuritadi.

Agrar jamiyatda asosiy e'tibor yerlarning joylashuvi uning hajmiga qaratilsa, industrial jamiyatda kapital hajmi, ya'ni resurslar hajmi ularning yaqinligi va bir

qator omillar e'tiborga olingan. Hozirgi informatsion davrda asini axborot tashkil etib unda axborotning soni, sifati va turi mavjudligi jamiyatning ustunligini belgilab bermoqda. Axborot davrining boshlanishidan to hozirgacha jamiyat va informatsion texnologiyalar o'rtasidagi aloqa tobora jadalllashib bormoqda, bu esa o'z navbatida inson kapitaliga bo'lgan talabni oshishiga olib kelmoqda. Umumiylashtirib aytish mumkinki agrar jamiyatda yer, industrial jamiyatda tabiiy resurslar ustunlik qilsa informatsion jamiyatda ilmiy tadqiqot institutlar va markazlar bo'lib hisoblanadi.

Demak, iqtisodiyot rivojlanishi inson kapitali konsepsiyasini shakllanishiga va uni jahon sivilizatsiyasining ajralmas qismi bo'lishiga sabab bo'lgan.

Zamonaviy inson kapitali nazariyasi Gerri Bekker (1930) tomonidan "Inson kapital" (1964) nomli asarida shakllantirilgan. Uning fikricha, inson kapitali quyidagi elementlardan tashkil topgan: individ bilimi, ishlab chiqarishdagi malakasi va motivatsiyasi. G. Bekker fikricha inson kapitali texnika texnologiyalardan ham yuqori kapital qaytimiga ega bo'lib, uni rivojlantirish uchun kelajakdagi mutaxasislarni o'qitish, ishlayotganlarning malakasini oshirishga investitsiya qilish zarur deb hisoblaydi.

Iqtisodchi olimlar olib borgan natijalarida ko'ra inson kapitalini ikki aspektga bo'lishadi:

1. Inson kapitali zaxira sifatida.

Inson kapitali – insonda mavjud zaxira sog'ligi, bilimi, tajribasi, qobiliyati, motivatsiyalar orqali mehnat samaradorligini oshishi va natijada daromadning ko'payishiga olib keladi. Odatda uning tarkibiga quyidagilarni ajratib ko'rsatishadi:

- Tug'ma qobiliyati;
- Ma'naviyati;
- Umumiy va maxsus bilimlari;
- Bilimlarini kerakli joyda kerakli paytda foydalana bilishi.

2. Inson kapitali daromad oqimi sifatida.

Inson kapitaliga kapitalni yo‘naltirish asosiy aktiv sifatida uni butun umri davomida daromad keltirish manba’siga aylanadi.

Inson kapitali haqidagi nazariyani paydo bo‘lishi, so‘ngi yillarda nomoddiy kapital yig‘ilishi inson rivojlanishiga olib keldi. Inson kapitali deganda insonning barcha samaradorlik ko‘rsatkichlari tushuniladi, ya’ni bilim egallah, malaka oshirish, hamda motivatsiya va energiyalarni iqtisodiy samaradorlikni oshirishga ishlataladi. Odatda inson kapitaliga kiritilgan investitsiyalar deganda ta’lim, tarbiya, sog‘likni saqlash, hamda insonni qayta taylorlash va malakasini oshirish uchun qilingan xarajatlar tushuniladi.

Umuman olganda *inson kapitali* - yuqorida aytilganidek mehnat unumdarligi yoki malakasining oshishi faqatgina ularga kiritilgan investitsiya orkali ko‘paytirish mumkin. Bu jarayon ta’lim (bilim) deya yuritiladi, ammo aytib o‘tganimizday bu jarayonni ishdan uzluksiz ravishda ham olish mumkin. Biz daromadni kiskarib ketish konuniyatini rad etishimiz mumkin, agarda, biz bir vaqtning o‘zida investitsiyani inson kapitaliga hamda fizik kapitaliga kirtsak. Bu model doimiy samaradorlikni nazarda tutganligi uchun (fizik va inson kapitallarining yig‘indisidan olinadigan doimiy daromad), unda agar fizik va inson kapitalini ikki barovarga oshirsak, u holda bizda ikki barobar daromad olish imkoniyatlari buladi.

Inson kapitalini yoki malakani oshirishning asosiy omili bo‘lib uzluksiz ravishda olib boriladigan ta’lim tizimi hisoblanadi. Insonlar mакtab va boshqa o‘quv muassalarida ta’lim olib ish haqlaridan voz kechkanlar deb hisoblaymiz. Chunki agarda ular ta’lim olish o‘rniga biron bir korxonada ishlab yurganlarida ma’lum bir maosh olishgan bo‘lishar edilar. Bunday jarayonni iqtisodchilar inson kapitaliga kiritilgan investitsiya deb yuritadilar.

Umumlashtirib iqtisodiy o‘sishni qaysi alternativ yulini tanlashimiz lozim? Birinchi variantni biz elitizm deb atagan edik: ma’lum bir gurux insonlar yaxshi ma’lumot oladilar, chunki iqtisodiyot rivojlanishi ularning qay darajada davlatni boshqarishiga bog‘liq. Bu nazariyaga ko‘ra agar yetakchilar yaxshi ma’lumotga ega bo‘lsalar u holda mamlakat barqaror rivojlanadi deb yuritiladi.

Ikkinchi variantni biz universalizm deb atadik: xar bir inson minimum bilim olishi kerak. Bu variantning mazmuni shundan iboratki, xar bir ishchidan iqtisodiy o'sish yangi texnologiyalarni tez ravishda kiritilishi kerak ekanligidadir. Oxirgi 30 yillar ichidagi Sharqiy osiyodagi iqtisodiy o'sish avval tikuvchilik, keyin soatlar va radiomaxsulotlar ishlab chiqarishdan boshlangan. Sifat darajasi bu davlatlarda astasekinlik bilan oshib bordi, va undan keyin esa bu davlatlar boshqa davlatlarga moliyaviy yordam ko'rsatishni boshladilar.

Bunday iqtisodiy tizimda har bir ishchi turli xil kasblarni egallashi lozim. Shuning uchun bunday sharoitlarda, shunday ta'lismasi to'zilishi kerakki, bu ta'lismi tizimi ishchilar uchun turli xil kasblarni egallashiga ko'maklashishi kerak. Oxirgi 30 yillar ichida inson kapitalini toplash modeli uneversalizmga asoslangan bo'lib, u elitizmga asoslangan modelidan ko'ra afzalliroqdir.

4.2. Faoliyat jarayonidagi ta'larning Pol Romer modeli

Pol Romer modelida oraliq mahsulot turi ko'payishini ifoda etuvchi Spens, Dikset va Stiglits ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan⁷:

$$Y = AL^{1-\alpha} \sum_{j=1}^{N_t} x_j^\alpha \Rightarrow \text{diskret tovarlar uchun} \quad (1)$$

$$Y = AL^{1-\alpha} \int_0^{N_t} x_j^\alpha dj \Rightarrow \text{uzluksiz ko'plab tovarlar uchun} \quad (2)$$

Bu yerda, α – oraliq mahsulot ishlab chiqarish $0 < \alpha < 1$, const; L – ishchi kuchi hajmi, const; x_j – j turdag'i tovarlarga sanoat mahsulotlarining ishlatalishi; N_t – t vaqtida sanoat mahsulotlaridan foydalanish imkoniyati (texnologiya); A – yakuniy mahsulot ishlab chiqarishning samaradorligi.

Fizik kapitallarning **summasi** oraliq mahsulotlar yig'indisiga teng. Bularning barchasi bitta ishlab chiqarish siklida foydalanib ma'lum texnologiya bo'yicha ishlab chiqarish:

⁷ E. Wayne Nafziger. Economic Development. 2006 by cambridge university press Cambridge University press

$$K = \int_0^N x_j dj \quad (3)$$

Oraliq mahsulotlar barchasi bir xil narxga ega ekanligi shart qo'ysak, quyidagi tenglikga ega bo'lamiz:

$$x_j = x, \quad p_{xj} = p_x \quad (4)$$

Bu yerda, p_x - oraliq mahsulot narxi

Fizik kapitallar tengligi holatida, u quyidagi tenglikka ega bo'ladi:

$$K = N * X \quad (5)$$

Simmetriya sharti asosida yakuniy mahsulot texnik taraqqiyot xarod modelidek neytral bo'lgan holda Cobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasidan foydalansak quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi.

$$Y = AL^{1-\alpha} Nx^\alpha = K^\alpha AL^{1-\alpha} N^{1-\alpha} \quad (6)$$

Milliy hisoblar tizimidan kelib chiqib investitsiya quyidagicha ifodalanoladiladi :

$$K = Y - C \quad (7)$$

Modelni soddalashtirish maqsadida bir dona ishlab chiqarilgan mahsulot narxi $Y-p$ birga teng deb olamiz.

Yakuniy ishlab chiqarish sektorida sog'lom raqobat muhiti holatida. Yakuniy mahsulot foydasi umumiy daromad va xarajatlar farqi bilan topiladi:

$$\pi_y = Y - wL - p_x Nx \quad (8)$$

Bu yerda, w - ish haqqi

Raqobat sharoitida firmaning foydasini maksimallashtirish uchun, yakuniy mahsulot ishlab chiqarish sektorida ish haqqi va oraliq mahsulot narxi quyidagicha ifodalanoladiladi:

$$w = (1-\alpha) \frac{Y}{L} \quad (9)$$

$$p_x = \alpha \frac{Y}{K} \quad (10)$$

9 tenglikdan kelib chiqib, ish haqqi va yakuniy mahsulot o'sishi $g_w = g_y$ orqali ifodalanoladiladi. 6-6 tenglik yordamida 10 teng quyidagi ko'rinishga keltiramiz:

$$\frac{\partial Y}{\partial x_j} = A \alpha L^{1-\alpha} x_j^{\alpha-1} = p_x \quad (11)$$

9 tenglikdan kelib chiqib j oraliq mahsulotga bo‘lgan talab hajmini topamiz:

$$x_j = L \left(A * \frac{\alpha}{P_{xj}} \right)^{\frac{1}{1-\alpha}} \quad (12)$$

Oraliq mahsulot – yakuniy mahsulotning bir qismi bo‘lib, ishlab chiqarishga investitsion iste’moli xarakteriga ega. oraliq mahsulot ishlab chiqarish ushbu modelda monopol bo‘lib hisoblanadi; u ilmiy-tadqiqot sektoridan patent sotib olish yo‘li bilan monopol bo‘ladi. Oraliq mahsilot ishlab chiqarish foydasi quyidagicha ifodalanadi:

$$\pi_{xj} = (p_{xj} - 1)x_j \quad (13)$$

Oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchisining foydasini maksimallashtirish uchun, u monopol narxni o‘rnatadi $p_x = \frac{1}{\alpha} > 1$. Barcha oraliq mahsulotlar narxi tengligdan **so‘mmetriya** shartining bajarilganligidan, oraliq mahsulotga bo‘lgan talab o‘zgarmas songa teng deb olamiz ($x = LA^{\frac{1}{1-\alpha}} \alpha^{\frac{2}{1-\alpha}} = const$). Bu holda yauniy mahsulot hajmi quyidagicha aniqlanadi:

$$Y = A^{\frac{1}{1-\alpha}} \alpha^{\frac{2}{1-\alpha}} LN \quad (14)$$

Tenglikdan ko‘rinib turibdiki yakuniy mahsulot hajmi o‘sishi texnologik taraqqiyot o‘sishiga teng: $g_Y = g_N$.

Oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchisi foydasi esa quyidagi tenglik bilan ifodalanadi.

$$\pi_x = (1 - \alpha) LA^{\frac{1}{1-\alpha}} \alpha^{\frac{1+\alpha}{1-\alpha}} = const \quad (15)$$

Innovatsion mahsulot ishlab chiqarish ushbu mahsulotga egalik qilish huquqini beruvchi patentga ega bo‘ladi. Patent narxi kelajakda patent egasiga keltiradigan daromad qiymati bilan belgilanadi. Vaqt o‘tishi bilan patent narxinining o‘zgarishi quyidagicha ifodalaniladi:

$$q = \pi_x \int_0^{\infty} e^{-\int_t^s r_v dv} ds; \quad (16)$$

yoki

$$\frac{d}{ds} = -\pi_x + r_t \pi_x \int_t^{\infty} e^{-\int_v^s r_v dv} ds = -\pi_x + r_t q \quad (17)$$

15 tenglikdan simmetrik ifodalash mumkin $r = \frac{\pi}{q} + \frac{d}{ds}$. Ilmiy-texnik taraqqiyotning ishlab chiqarish funksiyasi, sektorda mavjud ishchi kuchi va mavjud ishlanmalar bilan ifodalaniladi:

$$N = bL_{R&D}N \quad (18)$$

Bu yerda, b – R&D⁸ sektori samaradorligi; L – R&D sektorida ishlovchi xodimlar soni; N – mavjud texnologiyalar tashqi samarasi. R&D sektori foydasi quyidagicha ifodalaniladi:

$$\pi_{R&D} = N q - w L_{R&D} = b L_{R&D} - w L_{R&D} \quad (18)$$

Raqobat muhitida ilmiy-tadqiqot sektorlari patent narxi harajatga cheklangan moyilligiga teng.

$$q = \frac{w}{bN} = const = \eta \quad (19)$$

Optimallashtirish modeliga uy xo‘jaliklari jamg‘arma va iste’molini kiritamiz. Optimallashtirish masalasiga iste’mol nafliligin optimallashtirish dinamikasidan kelib chiqib quyidagi ko‘rinishga keltiramiz:

$$U = \int_0^{\infty} e^{-pt} \frac{c^{1-\theta}}{1-\theta} dt \quad (20)$$

Bu yerda θ – iste’molga cheklangan moyillik elastikligi. Naflilikni maksimallashtirish barqaror o‘sishni ta’minlash uchun $\frac{d}{dt} = \frac{1}{\theta}(r-p)$ shart bajarilishi kerak. Modelning asosiy o‘zgaruvlari doimiy o‘zgarmas (monopol foydasi va patent narxi):

$$g_c = g_Y = g_K = \frac{1}{\theta} \left(\frac{\pi}{q} - p \right) = const \quad (21)$$

⁸ R&D (research and development) ilmiy-tadqiqot va kostrukturlik ishlanmalar sektori

Shu bilan, ilmiy-texnik taraqqiyot iqtisodiy o'sish modeliga endogen ta'sri o'rganib chiqildi. Monopol foydasi, ish haqqi stavkasi va patent narxini qo'yib monopol foydasini patent narxiga nisbatini topish mumkin:

$$\frac{\pi}{a} = \frac{(1-\alpha)\alpha Y/N}{w/bN} = \frac{(1-\alpha)\alpha Y/N}{\frac{(1-\alpha)Y/N}{bN}} = \alpha bL \quad (22)$$

Olingen natijani 17 tenglikga qo'ysak quyidagi tenglikni keltirib chiqarrish mumkin:

$$g_C = g_Y = g_K = \frac{1}{\theta}(\alpha bL - p) = const \quad (23)$$

Barqaror iqtisodiy o'sish modelidagi kapital qaytimiga bog'liq bo'ladi patent, monopol foydasi va subektiv diskon stavka. Patentdan tushum bilan birga barqaror o'sish sura'ti α koeffitsentiga bog'liq, u monopol foydasini yalpi ishlab chiqarishdagi ulushini ifodalaydi.

$$p_x K = \alpha Y \quad (24)$$

Shu bilan bir qatorda monopolning foydasining yuqoriligi iqtisodiy o'sish sura'tlarining yuqoriligi bilan ifodalanaladi. Bu bog'liqlik monopol barcha daromadini ilmiy-texnika taraqqiyotiga yo'naltiradi va bu barqaror o'sishni ta'minlaydi. Patentdan foyda olish ilmiy-texnik taraqqiyotning yuqori samaradorligiga bog'liq bo'ladi, bu esa texnik taraqqiyoti rivojlanish sura'tiga va u bilan birlgilikda barqaror o'sishga o'z aksini topadi.

4.3. Lukas modeli

Inson kapitali nazariyasini rivojlanishi inson kapitalini iqtisodiy o'sishdagi roli, ulushi va o'sishdagi hissasini o'rganish 80-90- yillarda ko'plab iqtisodchi olimlarning o'rganish obyekti bo'lib qoldi.

Birinchilardan bo'lib R. Lukas 1988- yilda inson kapitalini zaxirasi va uning oqibatlarini inobatga olishga harakat qilgan. U quyidagi ishlab chiqarish funksiyasidan foydalangan:

$$Y(t) = K(t)^{1-\alpha} [uh(t)L(t)]^{1-\alpha} (h_a(t))^\psi \quad (1)$$

Bu yerda, u - inson kapitalini yaratishda mehnatning ulushi

$h(t)$ – inson kapitali zaxirasi

$h_a(t)$ – t vaqt ichida inson kapitalining o‘rtacha darajasi

Shu bilan bir qatorda yig‘ilishining 2 sharti mavjud:

1) Inson kapitali uchun: $h^* = \Delta h(1-u)$

2) Fizik kapital uchun: $k^* = ak^\alpha h(1-\alpha+\psi)$

Faraz qilaylik iqtisodiyot dinamik muvozanat holatda bo‘lsa, bu yerda $k^*/k (= \gamma_k)$ va $h^*/h (= \gamma_h)$ ya’ni doimiy fizik kapital (γ_k) va inson kapitali (γ_h) o‘sadi. Dinamik muvozanat holatda kapital bilan qurollanish darajasini o‘sish sur’ati ($\alpha-1$) $k^*/k + (1-\alpha+\psi)h^*/h = 0$ ga teng bo‘ladi.

($\alpha-1$) shartida dinamik muvozanat

$$\gamma_h = \Delta(1-u)$$

$$\gamma_k = [(1-\alpha+\psi)\Delta(1-u)]/(1-\alpha)$$

Ekstral mavjud emas holda ($\psi=0$)

$$\gamma_h = \gamma_k = \Delta(1-u)$$

Bu holda o‘sish sur’ati butunlay inson kapitali o‘sish surati bilan o‘lchanadi.

Izoh. Ekstrenal bu – ichki samara bo‘lib, tarmoq ichida samara mavjudligida boshqa tarmoqda harajatlarning ko‘payishiga olib keladi.

$\psi > 0$, $\gamma_h > \gamma_k$ holatda inson kapitali fizik kapitalga nisbattan ko‘proq o‘sadi. Inson kapitalini ekstrenalligi sababli “Lukas iqtisodiyoti” samarasi past bo‘lib hisoblanadi.

4.4. Mahsulot sifatining o‘zgarish modeli

Oldingi bo‘limda iqtisodiy o‘sishga ilmiy-texnik taraqqiyotning gorizontal turini va vertikal turini ta’sirini ko‘rib chiqdik. Ushbu holatni yakuniy mahsulotga ham ko‘rib chiqish mumkin. Bu holda ilmiy texnik taraqqiyot gorizontal ta’siri mahsulot turini (assortiment) ko‘payishiga, vertikal ta’siri mahsulot sifatini o‘zgarishi olib keladi. Ushbu jarayonni o‘rganishda Grosman va Xelpman modelidan foydalanish mumkin. Grasman va Xelpman ushbu jarayonni “Jahon iqtisodiyotida innovatsiya va o‘sish” (1991) nomli kitobida keng yoritilgan.

Modelning asosiy jihat shundaki, unga iste'molchi nafliligi funksiyasi kiritilgan. Ushbu jihat modeldan xulosa chiqarishga yordam beradi. Iste'molchi nafliligi nafaqat hajmidan, balki uning tarkibidagi mahsulot turi, sifatini o'zgarishini o'z ichiga oladi. Shuning uchun modelga iste'mol tovarlari hajmini o'rniga, mahsulot turini inobatga oluvchi iste'mol indeksi kiritilgan.

Modelning asosiy g'oyasi shundaki, iste'molchi iste'mol tovarlari turini ko'paytirish orqali nafliligini oshiradi. Natijada iste'molchi iste'mol tovarlari turini oshirishi bilan iste'mol indeksi bilan bir qatorda iste'molchi nafliligi oshishiga olib keladi.

Ushbu holat iste'molchi o'zini tanlovida asoslanadi, ya'ni: yangilik hohishi, alohida belgilarga e'tibor berishi, originallik va boshqalar. Bu esa mahsulot turini ko'payishiga olib keladi. Hattoki mahsulot sifatini yaxshilanishini inobatga olmagan holda tovar va xizmatlarning turi iqtisodiy o'sishga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Bu holda, iste'mol hajmi 2-3 xil navdagi tovar va xizmatlar bilan chegaralanib qolmay, 50-10 xil navli tovar xizmatlar bo'lishi nazarda tutiladi.

Oddiy iste'molchining ma'lum vaqt oralig'idagi naflilik funksiyasi σ doimiy o'zgaruvchan elastiklik bilan ifodalaniladi, u esa N_t turdag'i har kunlik iste'mol tovarlari turiga bog'liq bo'ladi.

$$\int_0^{\infty} e^{-pt} V(t) dt \rightarrow U(v) = \frac{\sigma}{\sigma-1} v^{\frac{\sigma}{1-\sigma}} \rightarrow V_t = \left[\int_0^{N_t} x_i(i) di \right]^{\frac{\gamma}{\gamma-1}} \quad \gamma > 1 \quad (1)$$

Bu yerda r – iste'molchining vaqt oralig'idagi tanlovi subyektiv diskont stavkasi; V – mahsulot turini inobatga olgan holda iste'mol indeksi; γ – mahsulotlarning iste'mol qilinishi elatikligi; t – tovar miqdori, vaqt o'tishi bilan ko'payib boruvchi 0 dan N gacha; N – t vaqtida mavjud tovarlar turi.

Bu holda iste'mol indeksi tovar turiga bog'liqligi uzluksiz deb olinadi. Bu shart tovarlar turining katta miqdorda deb olingandan kelib chiqgan va har bir tovar umumiyligi miqdorda kichik ulushga ega deb olinadi. Modelga iste'mol indeksini tovar miqdori bilan tadqiq qilinsa xato bo'lmaydi. Bu holda iste'mol indeksini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\tilde{C} = \left[\sum_{i=0}^N (c_i)^\varepsilon \right]^{\frac{1}{\varepsilon}} \Rightarrow \tilde{C} = \sum_{i=0}^N c_i, \quad \varepsilon = 1 \quad (2)$$

Iste'molchi oldida ikki muammo yuzaga kelishi mumkin: birinchidan, iste'molchi N_t te'molni mksimallashtirish kerak, statistik maksimallashtirish: nafliliqi eng yuqori mahsulotni tanlashi kerak; ikkinchidan, shu vaqtida naflilikni maksimallashtirish uchun optimal hajmda mahsulot sotib olishi kerak, dinamik maksimallashtirish. Bu holda iste'molchi budget chegarasi quyidagicha ifodalaniladi:

$$B_t = R_t B_t - \int_0^{N_t} p_t(i) x_t(i) di + w_t L \quad (3)$$

Bu yerda, B_t - iste'molchi nominal aktivlari, R_t - nominal foiz stavkasi, $p_t(i)$ - bir birlit mahsulot narxi, w_t - nominal ish haqqi, L - mehnat hajmi.

Iste'molni statistik optimallashtirish uchun ma'lum vaqt oralig'ida o'zgaruvchilar belgilab olinadi va ushbu vaqtdagi z daromadning budget chegarasi quyidagicha ifodalaniladi:

$$\int_0^{N_t} p(i) x(i) di \leq z \quad (4)$$

Oniy naflilik funksiyasi ushbu budget chegarasiga qarab quyidagicha maksimallashtirish mumkin:

$$\max v_t = \left[\int_0^{N_t} x_t(i)^{\frac{\gamma}{1-\gamma}} di \right]^{\frac{1}{1-\gamma}}, \quad \gamma > 1 \quad (5)$$

Natijada Lagranj usuli orqali quyidagicha ifodalash mumkin:

$$\left(1 - \frac{1}{\gamma}\right) x(i)^{-\frac{1}{\gamma}} = \lambda p(i) \quad (6)$$

i – tovarga bo'lgan istemolchi nafliligiga optimizatsion shartini qo'ysak, u holda quyidagi natijaga erishamiz:

$$x(i) = p(i)^{-\gamma} \left[\left(1 - \frac{1}{\gamma}\right) \lambda \right]^{-\gamma} \quad (7)$$

Bu yerda, γ - i tovarga bo'lgan talabning narx bo'yicha elastikligi.

Modelga ilmiy tadqiqot sektorini kiritishda Grossman va Xelpman ishlab chiqarish funksiyalariga Pol Romer modelidagi yangi ishlanmalarining oqimni tashqi samarasidan foydalangan. Tadqiqot sektori modelda quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$M = b_2 N_t L_{2t} \quad (8)$$

Bu yerda, b_2 - tadqiqot sektorining samaradorlik ko‘rsatkichi, N_t - mavjud tovarlarning ko‘paygan qismi, L_{2t} = tadqiqot sektoridagi mehnat hajmi. Jumladan L_{1t} yakuniy sektordagi mehnat hajmi.

Iqtisodiyotdagi umumiylar mehnat hajmi doimiy bo‘lib, u quyidagicha ifodalaniladi:

$$L = L_{1t} + L_{2t} = const \quad (9)$$

Modelda mehnat yagona o‘zgaruvchi ishlab chiqarish omili sifatida olingan. Mavjud mahsulot hajmining oshishi tadqiqot sektori samaradorlik ko‘rsatgichiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Modelda oldingi ilmiy texnik ishlanmalar yangi jarayonga ta’sir ko‘rsatishi inobatga olingan. Raqobat muhitida patentdan foyda olish chegaralanganligi deb faraz qilingan.

4.5. Iste’mol tovarlar turlarini kengaytirish asosida endogen iqtisodiy o‘sish modeli

Vertikal innovatsiyaning iqtisodiy o‘sishga ta’siri quyidagicha ifodalash mumkin: yangi kashfiyotlar oldingi texnologiya va mahsulotlarning eskirishiga yoki umuman iste’moldan chiqib ketishigacha olib keladi. Ushbu holatlar natijasida ijobiy va normativ oqibatlarga olib keladi.

Ijobiy oqibatlar deganda hozirgi va kelajakdagagi tadqiqotlar o‘rtasidagi bog‘liqligi, buning natijasida kelajakda muvofiqlashgan barqaror va siklli o‘sishga olib kelishi nazarda tutiladi.

Hozirgi innovatsiya kelajakda tadqiqot va ishlanmalar uchun ijobiy ta’sir ko‘rsatgani bilan, ular ayni paytdagi ishlab chiqarishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Biznesning qisqarish samarasini yaratib, natijada erkin bozor sharoitida o'sish ortiqchaligi sharoitini yaratadi.

Ushbu holatlarni modellashtirishda Pol Romer iqtisodiy o'sish modelidan foydalanamiz. Modelda kapital yig'ilishi mutloq deb olinadi. Aholi (L) doimiy va u mehnat taklifiga teng. Har bir individ ma'lum vaqt oralig'idagi tanlovi quyidagicha ifodalaniladi:

$$u(y) = \int y_\tau e^{-r\tau} d\tau \quad (1)$$

Bu yerda, r – iste'molchining ma'lum vaqt oralig'ida tanlovi normasi (subyektiv diskon stavka), bu esa foiz stavkaga teng.

Iste'molchi yutug'i oraliq ishlab chiqarish jarayonida foydalanilgan (x) mahsulotlarga bog'liq va u quyidagicha ifodalaniladi:

$$y = Ax^\alpha \quad \text{bu yerda, } 0 < \alpha < 1 \quad (2)$$

Oraliq mahsulotlar yaratilishi eskilarni ishlatmaslikka va A parametrning doimiy $\gamma > 1$ martaga oshishiga olib keladi.

$$A_t = A_0 \gamma^t, \quad t = 0, 1, 2, 3, \dots, \quad (3)$$

Bu yerda A_0 boshlang'ich daraja. Oraliq mahsulot chiziqli texnologiya asosida ishlab chiqariladi $x = L_F$. Mehnat ishlab chiqarish yoki tadqiqot (n) olib borish uchun foydalaniladi:

$$L = L_F + n = x + n \quad (4)$$

Innovatsiya, tadqiqotda mehnat miqdori Puasson taqsimoti holati yuzaga keladi λn , bu yerda, λ - tadqiqot texnologiyasining samaradorligi, $\lambda > 0$. Innovatsiyada muvofaqiyat qozongan firma boshqa innovatsiya yaratilmagunga qadar oraliq mahsulot ishlab chiqarishda monopol bo'lib qoladi. Bu yerda tadqiqot faoliyatining A parametrga ijobiy tasiri namoyon bo'ladi. YA'ni: bozordagi monopolligi, mahsulotlarni omborda qolmasligi, eng asosiysi keyingi yangilik yaratish uchun daromadlarning yo'naltirilganligi sababli. Lekin innovatsyaning salbiy oqibatlari ham mavjud, bu esa "biznes qisqarish effekti", bu holda monopolist eskirgan oraliq mahsulot ishlab chiqaruvchilarni yo'q qiladi.

Tadqiqot sektorida mehnat hajmi $w_t = \lambda V_{t+1}$ tenglik asosida aniqlanadi (t – innovatsiya tartib raqami (yoki innovatsiya oralig‘i), w_t - ish haqqi, V_{t+1} - $t+1$ innovatsiyadan kutilayotgan daromad). Tenglikning chap tomoni bir soat qiymati, o‘ng tomoni tadqiqotga ketadigan vaqt qiymati ifodalangan. Kutilayotgan innovatsiyadan daromad quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\left(1 + \frac{r}{\lambda n_{t+1}}\right) V_{t+1} = \frac{1}{\lambda n_{t+1}} \pi_{t+1} \Rightarrow r V_{t+1} = \pi_{t+1} - \lambda n_{t+1} V_{t+1} \quad (5)$$

Bu yerda, $\frac{1}{\lambda n_{t+1}}$ - yangilikdan olinadigan daromadning olinish muddati ehtimoli. Tenglikdan ko‘rinib turibdiki, $t+1$ litsenziyadan bir birlik vaqt intervalida monopolistning ($t+1$) chi vaqtida π_{t+1} daromadidan kapitalning qiyamatsizlanishini ayirmasiga teng. Qadrsizlanish λn_{t+1} kattalik kattalashgan sari oshib boradi. V_{t+1} bu aktivlarning π_{t+1} daromad keltiradigan sof qiymati. Eski aktivlarning qadrsizlanishi ehtimoligi λn_{t+1} ga teng.

Yuqoridagtlardan kelib chiqib innovatsiyaning qiymati quyidagicha aniqlanadi:

$$V_{t+1} = \frac{\pi_{t+1}}{r + \lambda n_{t+1}} \quad (6)$$

Modelda daromad oqimi (π_t) va ishchi kuchiga bo‘lgan talab (x_t) dan tashqari barcha omillarni model o‘zida qamrab oladi. Ikkalasi ham t innovatsiyani ishlab chiqish uchun oraliq mahsulot daromadini maksimallashtirishga xizmat qiladi. Bu holda, daromad innovator, vositachi yoki innovatsiya uchun patent sotib olgan ishlab chiqaruvchiniki bo‘lshi mumkin. Istalgan holda innovator barcha monopol daromadlarni o‘zining innovatsiyasi orqali uning umr davomida (V_t) o‘zida mujassamlashtirish imkoni mavjud bo‘ladi.

Innovator o‘z foydasini maksimallashtirishga intiladi va bu innovatsiyani yaratish uchun ketadigan mehnat hajmi va innovatsiyaning yakuniy mahsulotga bo‘lgan talabni maksimallashtirishga intiladi. Ushbu jarayonda innovator (t) daromadi va mehnatga bo‘lgan talabi quyidagi formula orqali aniqlanadi:

$$\pi_t = \max_t [p_t(x)x - w_t x] \quad (7)$$

Bu yerda w – ish haqqi, $p(x)$ – x oraliq mahsulotni yakuniy mahsulot ishlab chiqaruvchisiga innovatorning sotish narxi. Bu yerda yakuniy mahsulot sektori to‘liq raqobat muhiti sharoiti deb olinadi. Shuning uchun sektorning mahsulot narxi oraliq mahsulotga cheklangan moyilligiga teng deb olinadi:

$$p_t(x) = A_t \alpha x^{\alpha-1} \quad (8)$$

Talab va daromadning maksimallashtirish sharti quyidagi tenglik ko‘rinishga keltiriladi:

$$x_t = \arg \max_x \{A_t \alpha x^\alpha - w_t x\} = \left(\frac{\alpha^2}{w_t / A_t} \right)^{\frac{1}{1-\alpha}} \quad (9)$$

$$\pi_t = \{A_t \alpha x^\alpha - w_t x\} = \left(\frac{1}{\alpha} - 1 \right) w_t x_t \quad (10)$$

Model quyidagi shartlar asosida to‘zilgan:

- Sektorlar o‘rtasida mehnat taqsimoti erkin amalga oshiriladi:

$$w_t = \lambda \frac{\gamma \pi(\omega_{t+1})}{r + \lambda n_{t+1}} \quad (11)$$

- Mehnat bozori muvozanat holatda:

$$L = n_t + \tilde{x}(\omega_t) \quad (12)$$

Bu yerda $x = \tilde{x}(\omega_t)$ ishlab chiqarishda mehnatga bo‘lgan talab, ish haqqi kamayuvchi funksiyasi.

Tayanch so‘z va iboralar

XXI asr globallashuv muhitida iqtisodiy o‘sish tendensiyasi. Inson kapitali va texnologiya. Iqtisodiy o‘sishning sodda, endogen modeli. Faoliyat jarayonidagi ta’limning Pol Romer modeli. Ta’lim va endogen iqtisodiy o‘sish. Lukas modeli. Ishlab chiqarish mahsulotlari turlarini kengaytirishda texnologik o‘zgarishlar. Mahsulot sifatining o‘zgarish modeli. Iste’mol tovarlar turlarini kengaytirish asosida endogen iqtisodiy o‘sish modeli. Iqtisodiy o‘sish va notekis taqsimlanish

nisbatlarining empirik tadqiqotlari. Globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishning xususiyatlari. Chegaralangan resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'siri.

IV Bob bo'yicha savollar

1. Qanday iqtisodiy o'sish modellarini bilasiz?
2. Faoliyat jarayonidagi ta'limning Pol Romer modelini izohlang.
3. Mahsulot sifatining o'zgarish modelining asosiy xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Globallashuv sharoitida iqtisodiy o'sishning xususiyatlari.
5. Chegaralangan resurslarning iqtisodiy o'sishga ta'sirini tushuntiring.
6. Lukas modeli haqida nimalarni bilasiz?

**V BOB. BUDJET-SOLIQ VA PUL-KREDIT SIYOSATINI
TAKOMILLASHTIRISH ASOSIDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI
TA'MINLASH**

Reja:

- 5.1. Davlat budgetining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibiy to'zilishi.**
- 5.2. Soliq tizimining budgetni shakllantirishdagi o'rni.**
- 5.3. Soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtasidagi bog'liqlik.**
- 5.4. Mamlakatimiz iqtisodiyotida pul-kredit sektorining o'rni va mohiyati.**
- 5.5. Iqtisodiy o'sishni va uni barqarorlashtirishni ta'minlashda pul-kredit sektorining o'rni.**

5.1. Davlat budgetining iqtisodiy mohiyati va uning tarkibiy to'zilishi

Davlatning asosiy vazifalaridan biri iqtisodiyotni barqarorlashtirish hisoblanadi. Bunday barqarorlashtirishga monetar siyosat vositalari qatori fiskal siyosat orqali ham erishiladi. Fiskal siyosat shuningdek, budget-soliq siyosati deb ham aytildi.

Budget-soliq siyosati deganda noinflyatsion YAIM ishlab chiqarish sharoitida iqtisodiyotda to'liq bandlilikni, to'lov balansining muvozanatini va iqtisodiy o'sishni ta'minlashga qaratilgan davlat xarajatlari va soliqlarini o'zgartirishni o'z ichiga olgan chora tadbirlar tushuniladi.

Iqtisodiyot turg'unlik yoki pasayish davrida bo'lgan vaziyatlarda davlat tomonidan rag'batlantuvchi fiskal siyosat-fiskal ekspansiya olib boriladi. YA'ni, davlat qisqa muddatda iqsodiyotning pasayishi muammosini davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqlarni kamaytirish, yohud ikkalasini bir vaqtning o'zida olib borish evaziga hal etadi. Uzoq muddatda davlat xarajatlarining yuqori bo'lishi va soliqlarni kamaytirish ishlab chiqarish omillarining o'sishiga va natijada, iqtisodiy salohiyatning ko'tarilishiga olib kelishi mumkin. Ammo, bunga Markaziy bank

tomonidan olib boriladigan pul-kredit siyosatidan samarali foydalanish va davlat xarajatlari tarkibini maqbul holatga olib kelish orqaligina erishish mumkin. Iqtisodiyotda to‘liq bandlik va ortiqcha talab natijasida Inflyatsiya kelib chiqishi mumkin bo‘lgan vaziyatlarda cheklovchi fiskal siyosat – fiskal restriksiya olib boriladi. Cheklovchi fiskal siyosat davlat xarajatlarini kamaytirish yoki soliqlarni oshirish yoki bo‘lmasa ikkala tadbirni bir vaqtda olib borish orqali iqtisodiyotning davriy o‘sishini chegaralashdan iborat. Qisqa muddatli davrlarda ushbu tadbirdilar talab Inflyatsiyasini kamaytiradi. Uzoq muddatli davrlarda esa yuqori soliqlar iqtisodiyotda stagnatsiyaga olib kelishi mumkin. Bu esa mamlakatning iqtisodiy salohiyatini izdan chiqaradi. Bunga davlat xarajatlaridan samarasiz foydalanish qo‘sishimcha turtki bo‘lishi mumkin.

5.2. Soliq tizimining budgetni shakllantirishdagi o‘rni

Soliqlar majburiy to‘lojni ifoda etuvchi pul munosabatlarini bildirib, bu munosabatlar soliq to‘lovchilar (huquqiy va jismoniy shaxslar) bilan soliqni o‘z mulkiga aylantiruvchi davlat o‘rtasida yuzaga keladi.

Korxona va tashkilotlar aholiga xizmat ko‘rsatganida, ishlar bajarganida yoki bozorlarda oldi-sotdi kilganda ham pul to‘lovlari mavjud. Lekin ular soliq bula olmaydi. Soliq munosabati bulish uchun davlat mamlakatda yaratilgan yalpi ichki mahsulot kiymatini taksimlash yo‘li bilan majburan davlat budgetiga mablag to‘plash jarayonini amalga oshiradi.

Soliqlarning o‘ziga xos belgilari mavjud bo‘ladi, ularga: majburiylik, xazinaga tushishlik, kat’iylik va doimiylilik, anik soliq to‘lovchi uchun ekvivalent sizlik belgilari mavjuddir.

Birinchi belgi-majburiylik. Soliq va yig‘imlar majburiy bo‘ladi, bunda davlat soliq to‘lovchining bir qism daromadlarini majburiy badal sifatida budgetga olib kuyadi. Bu majburiylik Oliy Majlis tasdiqlab bergen Soliq Kodeksiing tamoyili asosida amalga oshiriladi. Demak, majburiylik belgisi huquqiy tomondan davlat uchun kafolatlangan.

Ikkinchi belgi soliqlarning davlat mulkiga aylanishidir. Soliqlar albatta xazinaga-davlat budgetiga va boshqa davlat pul fondlariga tushadi. Bordi-yu, to‘lov boshqa ixtiyoriy fondlar – «Iste’dod», «Ekosan», «Kamolot», «Nuroniy» jamyoarmalariga tushsa, unda soliq munosabati bo‘lmaydi. Chunki majburiylik tamoyili yuk, u to‘lov davlat mulkiga tushmaydi.

Soliqlar qat’iy belgilangan va doimiy harakatda bo‘ladi. Tarixda 50 va 100 yillab o‘zgarmasdan harakatda bo‘lgan soliqlar mavjud. Ilmiy asosi kancha chuqr bo‘lsa soliqlar shuncha kat’iy va uzoq yillar o‘zgarmasdan harakat kiladi yoki juda kam o‘zgaradi.

To‘langan soliqlar mamlakat miqyosida hammaga bir xil miqdorda qaytib keladi. “Soliqqa tortish tizimida eng muhimi – bunda soliqlarning ichki mohiyati mujassamlashgan – shundaki, u soliqlarni to‘liq va samarali qaytarilish tamoyiliga amal qilishi kerak. Faqatgina soliqlarning to‘liq, manzilli va samarali qaytarilishligingina soliq mexanizmini ijtimoiy takror ishlab chiqarishning eng muhim bo‘g‘inlaridan biriga aylantiradi”⁹

Lekin, davlatga to‘langan soliq summasi to‘lovchining shaxsan o‘ziga to‘liq kaytib kelmaydi, ya’ni u ekvivalent siz pul to‘lovidir. Masalan, soliq to‘lovchi bu yili davlatning soyolikni saqlash va maorif xizmatlaridan hech foydalanmagan bo‘lishi mumkin. Lekin bozor iqtisodiyoti sharoitida hamma soliq to‘lovchilarining tulagan soliq va yig‘imlari davlatning ularga ko‘rsatgan xilma-xil xizmatlari (mudofaa, xavfsizlikni ta’minalash, tartib-intizomni o‘rnatish va boshqa ijtimoiy-zaruriy xizmatlar) orqali o‘zlariga kaytib keladi. Demak, soliq to‘lovchilar nukta nazaridan olganda hamma soliqlar bozor iqtisodiyoti sharoitida davlatning ko‘rsatgan ijtimoiy xizmatlari uchun to‘lanadigan (to‘lov) haqdir. Soliqlar budgetga va davlat pul fondlariga kelib tushadigan, majburiy harakterga ega bo‘lgan pul to‘lovi munosabatlaridir.

Soliqlar iqtisodiy kategoriya bo‘lganligidan to‘lovchilar va budget o‘rtasida daromadlar taksimlanayotganda tomonlarning iqtisodiy manfaatini, albatta, e’tiborga olish zarur. Soliq to‘lovchilar daromadini davlat istaganicha ololmaydi,

⁹ Козырев В.М. Основы современной экономики”. М.: “Финансы и статистика”, 2005, 242 с.

soliqlarni budgetga olishning ma'lum chegarasi mavjud. Bu haqda ko'plab yirik iqtisodchilar va davlat arboblari o'z asarlarida kO'rsatib utgan. Uni davlat, shu bilan birga soliq to'lovchilarning mahsulot ishlab chiqarish va foyda olishdagi faoliyatini hisobga olib soliq belgilanadi. Ikkinchi tomondan, soliqlardan makroiqtisodiyotni rivojlantirish, bozor infrato'zilmasini yaratish va boshqa umum davlat maksadalari uchun yetarli molyaviy resurslar to'plash uchun foydalilanadi. Soliqlarning mohiyati soliq to'lovchilar bilan davlat o'rtaсидаги доимий, узоқ мурдатли муносабatlarda о'з ifodasini topadi. Aniqroq aytsak, bu yerda iqtisodiy munosabat, ya'ni pul munosabati mavjuddir.

5.3. Soliqlar va iqtisodiy o'sish o'rtaсидаги bog'liqlik

Davlat budgeti defitsitining oqibatlaridan biri soliq stavkalarining oshishida kuzatiladi. Chunki, davlat o'z budget defitsitini moliyalashtirish ma'lum bir miqdorda mablag'ga egalik qilish maqsadida xususiy sektor bilan raqobat qilishga majbur bo'ladi. Bunday raqobat avvalo soliq stavkalarining oshishida kuzatiladi. O'z navbatida soliq stavkalarning o'sishi ikki boshqa bir oqibatni yuzaga kelishida omil bo'lib xizmat qiladi, ya'ni:

- ichki investitsiya kapitallar hajmini pasayishiga;
- chet el mablag'ini jalb qilish maqsadida yuqori foizli qimmatli qog'ozlarni muomalaga chiqarilishiga.

Chet el mablag'lar oqimi ichki xususiy kapital miqdorini oshishiga va budget defitsiti massasini moliyalashtirilishiga xizmat etishi mumkin. Ammo muammoni vujudga keltirishi, ya'ni davlatning tashqi karzining oshishiga sabab bo'lishi mumkin. Chunki davlat qarzlari uchun beriladigan foizlarning belgilangan muddatlarda qaytarilishi mamlakat ichki moliyaviy mablaglarini kelgusida milliy ishlab chiqarishning rivojlantirilishiga yo'naltirilishini qisqartirilishiga olib keladi.

Bundan tashqari davlatning foizli qimmatli qog'ozlariga ega bo'lish uchun chet ellik xaridor shaxslar (sotib oluvchilar) ushbu davlatning milliy valyutasiga ega bulishi lozim. Ammo egalik munosabatining yuzaga kelishi bevosita mamlakat valyuta kursining o'zgarishiga olib keladi. Natijada importning o'sishi va

eksportning pasayishi kuzatiladi. Bunday holatning kuzatilishi mamlakat doirasida so‘f eksportning kamayishiga olib keladi.

Sof eksportning kamayishi – iqtisodiy o‘sishga salbiy ta’sir ko‘rsatadi va ishsizlikning oshib borishiga va ijtimoiy soxalar uchun ajratiladigan budjet mablag‘larining nisbatan pasayishiga sabab bo‘ladi. Shuni ham ta’kidlash joizki, davlat ssuda sarmoyalar bozoriga karz oluvchi sifatida qadam qo‘yanida, bevosita moddiy va moliyaviy resurslarining talab va taklifi nisbatiga darajada salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Bunday sharoitda foiz stavkalarining oshishi kuzatiladi, buning natijasida kapital qo‘yilmalarini moliyalashtirishining umumiyligi shart-sharoiti yomonlashadi va investorlar bunday kapital qo‘yilmalarining bir qismini pul bozoridagi o‘ziga xos usullar orqali siqib chiqarilishiga zamin yaratadilar. Buning ta’sirida kredit hisobiga moliyalashtiriladigan iste’mol xarajatlarining qisqarishi yuz beradi. Shuning uchun ham davlat qarzlarining bunday oqibatlari siqib chiqarish effektini kuchaytiradi. Oxir-oqibat mamlakat doirasida ijtimoiy-iqtisodiy sohalarni ichki moliyaviy resurslarga tayanish orqali moliyalashtirish sekinlashadi, mamlakatning tashqi manbalarga bo‘lgan talabi esa oshib boradi.

Shuning uchun ham bunday salbiy oqibatlarning oldini olish maksadida davlat budjet daromadlari va xarajatlari o‘rtasidagi salbiy farqni bartaraf etish yo‘lida turli ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatga molik chora-tadbirlarni, uzoq muddatlarga mo‘ljallangan iqtisodiy islohotlar dasturini ishlab chiqishga va xayotga tadbiq etishga harakat qiladi.

5.4. Mamlakatimiz iqtisodiyotida pul-kredit sektorining o‘rni va mohiyati

«Bank» tushunchasi qadimiyligi fransuzcha bang va banca so‘zlaridan kelib chiqqan bo‘lib, «sarrof kursisi, do‘kon» degan ma’noni anglatadi. Bunday tushuncha tarixchilarning taxminan 2000 yil muqaddam faoliyat ko‘rsatgan bankirlar haqidagi ma’lumotlarida ham mavjud.

Pul munosabatlarining rivojlanishi banklarni yuzaga keltirgan. Bank iqtisodiyot ishtirokchilarining pul yuzasidan bo‘lgan aloqalariga xizmat qiluvchi

institut (muassasa)dir. Pul bilan bog‘liq xizmatlarni ko‘rsatuvchi tashkilotlar ko‘p, ammo ularning markazida banklar turadi. O‘zbekiston Respublikasining «Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida»gi qonunida, bank nima, degan savolga quyidagicha javob topish mumkin:

Bank - tijorat tashkiloti bo‘lib, bank faoliyati deb hisoblanadigan faoliyat turlari majmuini amalga oshiradigan yuridik shaxsdir.

O‘zbekistondagi bank tizimi O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki, aksiyadorlik-tijorat banklari va xususiy banklardan iboratdir. 2018 yil holatiga ko‘ra O‘zbekiston Respublikasi bank tizimi 27 tijorat bankini o‘z ichiga oldi.

Banklar pul olamini harakatga keltiruvchi motor – yurak, pul bilan bo‘ladigan hisob-kitoblarni amalga oshiradi. Hamma pul to‘lovlar (transfertlar) banklar orqali o‘tadi. Banklar quyidagi ishlarni amalga oshiradi:

- pul va qimmatli buyumlarni omonatga olib, saqlab beradi;
- pul bilan bo‘ladigan hisob-kitob opretsiyalarini, xususan, pul to‘lash ishlarini bajaradi;
- chet el valyutasini sotadi va sotib oladi;
- o‘z qo‘lidagi pulni qaytarish, foizlilik va muddatlilik sharti bilan unga (muhtojlarga) qarz (ssuda)ga beradi, ya’ni, kredit bilan shug‘ullanadi;
- o‘z puliga aksiya sotib olib, uni boshqa sohaga joylashtiradi;
- biznes yuzasidan maslahat beradi va hokazo.

Bank ishi pul olamida bo‘ladigan biznesdir. Bank biznesi foyda topish maqsadida yuritiladi.

Markaziy bankning monopollik mavqeい uning mamlakatdagi pul va pirovard natijada iqtisodiy barqarorlik uchun alohida javobgar ekanligi bilan chambarchas bog‘liq.

O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining bosh maqsadi va asosiy vazifalari quyidagilar:

“Markaziy banning bosh maqsadi milliy valyutaning barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Asosiy vazifalari:

Monetar siyosatni hamda valyutani tartibga solish sohasidagi siyosatni shakllantirish, qabul qilish va amalga oshirish;

O‘zbekiston Respublikasida hisob-kitoblarning samarali tizimini tashkil etish va ta’minlash;

Banklar,kredit uyushmalari va garovxonalar faoliyatini litsenziyalash hamda tartibga solish,banklar, kredituyushmalari, garovxonalarini nazorat qilish, qimmatbaho qog‘ozlar blankalari ishlab chiqarishni litsenziyalash;

O‘zbekiston Respublikasining rasmiy oltin valyuta rezervlarini, shu jumladan kelishuv bo‘yicha hukumat rezervlarini saqlash va tasarruf etish;

Davlat budgeti kassa ijrosini Moliya vazirligi bilan bиргаликда tashkil etishdan iboratdir”*

Tijorat banklari Markaziy bankda o‘z qisqa muddatli va o‘rta muddatli majburiyatlaridan muayyan foiz hajmida eng kam zaxira deb yuritiladigan foizsiz omonatlarni saqlashga majbur.

Markaziy bank banklar faoliyatini nazorat qilishda o‘zining mintaqaviy bo‘linmalari orqali kredit muassasalaridan majburiy ravishda axborot, oylik hisobot va yillik yakuniy balans ma’lumotlarini taqdim etish asosida qatnashadi.

Kredit muassasalarining bo‘ysinishiga qarab bank qonunchiligi hamda kredit tizimining pastdan yuqoriga tomon tarkibiy to‘zilishiga muvofiq tarzda bank tizimini ikki asosiy: bir bosqichli va ikki bosqichli turga ajratish mumkin.

Bir bosqichli bank tizimi doirasida barcha kredit muassasalari, jumladan, Markaziy bank ham, yagona bosqichda turadi hamda mijozlarga kredit - hisob xizmati ko‘rsatishda bir xil vazifalarni bajaradi.

Ikki bosqichli tizimda banklar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar bo‘yiga (vertikal) va eniga (gorizontal) yo‘nalishlarida to‘zilishiga asoslanadi. Vertikal – rahbarlik qiluvchi, boshqaruvchi markaz hisoblangan Markaziy bank bilan quyi

* O‘zbekiston Respublikasining “O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Banki to‘g‘risida”gi Qonuni, 3-modda, 1995yil. 21 dekabr / O‘zbekiston bank tizimini isloh qilish va erkinlashtirish bo‘yicha qonunchilik hujjatlari to‘plami.T.: O‘zbekiston, 2003., 8.-b.

bo‘g‘inlar – tijorat va ixtisoslashgan banklar o‘rtasidagi bo‘ysunish munosabatlari, gorizontal-turli quyi bo‘g‘inlar o‘rtasidagi teng huquqli sheriklik munosabatlari tushuniladi.

5.5. Iqtisodiy o‘sishni va uni barqarorlashtirishni ta’minlashda pul-kredit sektorining o‘rni

Pul-kredit siyosati deganda, to‘liq bandlik sharoitida yalpi milliy mahsulotni ishlab chiqarishga Inflyatsiyaaning ta’sirini kamaytirish yoki bartaraf etish maqsadida muomaladagi pul miqdorini o‘zgartirishga qaratilgan chora-tadbirlar tushuniladi. Pul kredit siyosati davlat tomonidan belgilanadi va uni Markaziy Bank amalga oshiradi. Uning yordamida har qanday davlat mamlakatda iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash vazifasini hayotga tadbiq etadi.

Pul kredit siyosatini amalga oshirishning pirovard maqsadlari iqtisodiy o‘sish, to‘liq bandlikni, baholarning hamda to‘lov balansining barqarorligini ta’minlashdan iborat.

Bu maqsadlarga erishish uchun milliy valyutani muomaladagi pul massasi, foiz stavkasi va milliy valyuta almashinuv kursining optimal kattaliklarini ta’minlab turish zarur bo‘ladi. Bu vazifalarni amalga oshirish uchun Markaziy Bank qator vazifalardan foydalanadi.

Pul-kredit siyosatining uchta asosiy vositasi ajratib ko‘rsatiladi:

1. Hisob stavkasi;
2. Majburiy zaxiralar normasi;
3. Ochiq bozordagi operatsiyalar.

Markaziy bank ular yordamida pul yoki asosan bank depozitlari ko‘rinishidagi pul massasiga yoki foiz stavkasiga ta’sir o‘tkazadi, taklifini o‘zgartiradi va shular orqali pul-kredit muomalasini tartibga solib turadi.

Pul-kredit siyosatini yuritish vositalaridan biri –majburiy bank zaxira meyorini o‘zgartirish siyosatidir. Majburiy zaxiralar – bu, kredit maqsadlari uchun ishlatilmaydigan bank omonatlarining bir qismidir.. Zaxira normasi ikki asosiy funksiyani bajaradi: bank likvidligini joriy tartibga solish uchun sharoit yaratadi va

kredit emissiyasini cheklaydi. Markaziy bank tijorat banklari Markaziy bankda ushlab turishga majbur bo‘lgan zaxiralarning eng quyi normasini o‘rnatadi va shu vosita yordamida ular kreditlash qobiliyatiga, imkoniyatiga ta’sir etadi. Bu meyor qanchalik yuqori bo‘lsa, ortiqcha zaxiralalar shunchalik kam va tijorat banklarining kredit berish yo‘li bilan «pullarni barpo etish» qobiliyati past bo‘ladi. Ilk majburiy zaxira normalari AQSH da 1865- yilda joriy qilingan edi. Agar Markaziy bank majburiy bank zaxirasini kamaytirsa, ortiqcha bank zaxiralari ortadi, bu esa pul taklifining multiplikatsion ortishiga olib keladi. Masalan, ushbu meyor 25 foiz bo‘lsa, unda bankka qo‘yilgan 800 so‘mdan 200 so‘m majburiy bank meyorini tashkil etadi. Bunda bank faqat 600 so‘mni qarzga berishi mumkin bo‘ladi. Endi faraz qilaylik, meyor 10 foizga tushiriladi, unda bank 720 so‘mni qarzga berish imkoniyatiga ega bo‘ladi va boshlang‘ich pul taklifini 720 so‘mga oshiradi.

Majburiy bank zaxirasi meyorini ko‘tarish yordamida pul taklifini kamaytiradi. Zero, bu banklarning ortiqcha bank zaxiralari qisqarishiga olib keladi. Pul-kredit siyosatini o‘tkazishda bu vosita butun bank tizimining asoslariga ta’sir etadi. Turli mamlakatlarda qo‘llanilayotgan majburiy zaxira normalari turlichadir. Yuqori Inflyatsiya darajasi sharoitida Janubiy Koreyada bu norma – 100 foiz bo‘lgan bo‘lsa, Italiyada – 25 foizni, Yaponiyada bor yo‘g‘i – 2.5 foizni tashkil etadi.

O‘zbekiston Respublikasida majburiy zaxiralash normasi keyingi o‘n yil davomida sezilarli darajada kamaydi (5.1-jadval).

Bunday pasayish pul multiplikator miqdorining kattalashishiga va albatta iqtisodiyotda pul taklifining ko‘payishiga olib keladi. Tijorat banklari ortiqcha rezervlarining ko‘payishi ularning aktiv operatsiyalarini ko‘paytiriadi va bu iqtisodiyotning real sektori rivojlanishiga ijobjiy ta’sir ko‘rsatadi.

Pul kredit siyosati vositalari albatta alohida-alohida ishlatilishi shart emas. Aksincha ko‘pincha bir necha vosita birdaniga qo‘llanilishi, ya’ni kompleks siyosat o‘tkazish amaliyotda tez-tez uchrab turadi.

**O‘zbekiston Respublikasi Markaziy Bankining majburiy zaxiralash
normasi**

Amal qilish sanasi	Muddatsiz va muddati 3 yilgacha bo‘lgan depozitlar bo‘yicha	3 yildan ortiq muddatli depozitlar bo‘yicha	Xorijiy valyutadagi depozitlar bo‘yicha
01.03.2000- y.dan	20 foiz	20 foiz	0 foiz
04.07.2004- y.dan	20 foiz	20 foiz	0 foiz
01.02.2005- y.dan	15 foiz	15 foiz	5 foiz
01.09.2007- y.dan	13 foiz	13 foiz	13 foiz
01.11.2008- y.dan	15 foiz	15 foiz	15 foiz
01.09.2009- y.dan	12 foiz	10,5 foiz	15 foiz

Manba: O‘zbekiston Respublikasi markaziy banki rasmiy sayti www.cbu.uz ma’lumotlari.

Pul-kredit siyosatining oqibatlari qanday? Davlat tomonidan amalga oshiriladigan pul-kredit siyosati YAIM, bandlik va baholar darajasiga bevosita ta’sir ko‘rsatadi. Faraz qilaylik, iqtisodiyotda ishlab chiqarish qisqarmoqda va ishsizlar soni ortib bormoqda. Bunday sharoitda davlat Markaziy bank orqali pul taklifini biz yuqorida ko‘rib chiqqan vositalar yordamida oshirishga harakat qiladi. Natijada pul taklifi o‘sadi, foiz stavkasi esa kamayadi. Bu esa investitsiyalarga bo‘lgan talabni oshiradi va o‘z navbatida, YAIM miqdorining ko‘payishiga olib keladi. Bu bilan davlat ma’lum davrda o‘z maqsadiga erishadi, ishlab chiqarishning orqaga ketishi to‘xtaydi, ishsizlar soni kamayadi, jamiyatning daromadlari esa oshadi.

Pul-kredit siyosatining oqibati to‘g‘risida gapirganda, bu siyosatning qisqa muddatli va uzoq muddatli oqibatlarini farqlash kerak. Agarda qisqa muddatli davrda davlat pul taklifini oshirilishi natijasida YAIM miqdori o‘sishini

rag‘batlantirilgan hamda ma’lum darajada samaradorlikka erishilgan bo‘lsa, uzoq muddatli davrda bu choralarning samaradorligi pasayishi mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Budjet soliq siyosatining iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi asosiy dastaklari. Davlat budjeti darmadlari va xarajatlarining tashkil topishi va ularning tarkibiy to‘zilishi. Mamlakat iqtisodiyotida pul-kredit sektorining o‘rni va iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Ushbu sektorning tarkibiy to‘zilishi. Iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda pul-kredit siyosatining ahamiyati. Pul-kredit siyosatini barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashdagi asosiy dastaklari. Valyuta kursi, eksport va importda uning o‘rni. Mamlakatda barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda budget-soliq va pul-kredit siyosatining bog‘liqligi.

V Bob bo‘yicha savollar

1. Soliqlarning iqtisodiy o‘sishga ta’siri qanday?
2. Mamlakat soliq-budget siyosatining asosiy maqsadi va funksiyalari nimadan iborat?
3. Pul-kredit sektori tarkibi nimalardan iborat?
4. Mamlakatda baholar darajasining oshishi iqtisodiy o‘sishga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
5. Banklar va ularning mamlakat iqtisodiy o‘sishidagi o‘rni qanday?

VI BOB. IQTISODIY O‘SISHNING NEOKEYNSCHILAR MODELI

Reja:

- 6.1. Iqtisodiy o‘sishda ijtimoiy iqtisodiy modellar.**
- 6.2. Ye. Domarning neokeynscha o‘sish modellari.**
- 6.3. R. Harrodnинг neokeynscha o‘sish modellari.**
- 6.4. Bozor iqtisodiyotiga o‘tish davrida o‘sish modellarining amaliy ahamiyati.**

6.1. Iqtisodiy o‘sishda ijtimoiy iqtisodiy modellar

Iqtisodiy o‘sishda shunday omillar ham borki, ularning iqtisodiy o‘sishga ta’sirini aniqlash qiyindir. Masalan, AQSH ning boy tabiiy zaxiralari davlatning iqtisodiy o‘sishga katta xissa qo‘shegan. AQSH da mo‘l hosil yetishtirish uchun tabiiy sharoitlar, energetik zaxiralar, mineral va boshqa resurslar ko‘p. Ushbu zaxiralarni hajmi jihatdan AQSH ga faqatgina Rossiya yoki Kanadani tenglashtirish mumkin. Lekin tabiiy resurslarning o‘zigina iqtisodiy o‘sishni ta’minlab berolmaydi. Iqtisodiy tabiiy resurslari kam bo‘lgan davlatlar ham iqtisodiy o‘sish tez sur’atlarda bo‘lishi mumkin masalan. Yaponiya cheklangan resurslarga ega bo‘lib 2 jahon urushidan keyin tez sur’atlarda rivojlangan. Bundan tashqari shunday omillar ham borki ularni baholashning umuman iloji yo‘q masalan AQSH ning iqtisodiy o‘sishiga davlatdagi umumiyl sotsial, madaniy va siyosiy muhit ham munosib rol o‘ynagan.

1. AQSH da boshqa davlatlarga nisbatan ijtimoiy, ma’naviy cheklashlar deyarli yo‘q rivojlanish uchun barcha sharoitlar yaratilgan. Amerikaliklar orasida biznesmen, novator, kashfiyotchilar katta hurmatga ega.
2. Amerikaliklar orasida tadbirkorlik mehnat va tavakkalchilik munosabat o‘zgacha.
3. Amerikadagi bozor iqtisodiyoti tizimi iqtisodiy o‘sishga olib keluvchi har qanday harakatni rag‘batlantiradi.
4. AQSH iqtisodiyoti barqaror siyosiy tizimga asoslanadi, bundan tashqari demokratik prinsiplar, xususiy mulk xuquqi va boshqalar davlat tomonidan himoya

qilinadi. Ko‘zatishlar shuni ko‘rsatdiki. Erkinliklar ko‘roq davlatda o‘sish rivojlanish yuqoriroq bo‘ladi. Ushbu barcha omillar birgalikda AQSH da iqtisodiy o‘sish uchun zamin yaratmoqda

Denison ko‘zatishi potensial va real milliy daromadni tushuntirib beradi. Har yilgi 2,9 foiz iqtisodiy o‘sish va YAIM ning yalpi talab tebranishlarni ta’sirida o‘zgarishi tushuntiriladi. Agarda Amerika iqtisodiyoti yil sayin bir meyorda bo‘lganida har yilgi iqtisodiy o‘sish taxminan 0,2-0,3 foiz yuqori bo‘lardi.

Eslatib o‘tamiz, tahlilga ko‘ra, iqtisodiy faoliyat natijalari potensial hisoblardan ancha past bo‘lishi mumkin. Iqtisodiy o‘sishga eng katta salbiy ta’sir 30-yillardagi Buyuk depressiya davrida bo‘lgan 1929-33- yillar oralig‘ida AQSH da YAIM 823 mld dollardan 587 mld dol. tushgan va 1929- yil ko‘rsatkichiga qaytgan. 1980-1982- yillardagi iqtisodiy tushkunlik AQShda 600 mld dol. mahsulot va daromadni yo‘qotishga olib keldi.

6.1-jadval

YAIM va aholi soniga nisbatan. ishlab chiqarish sur’atlarining o‘sishi 1948-1994- yillar (foiz)¹⁰

Davr	Ishlab chiqarish yillik o‘sish sur’atlari	YAIM yillik o‘sish sur’ati jon boshiga
1948-1966	3,2	2,2
1966-1973	2,0	2,0
1973-1981	0,7	1,1
1981-1990	1,3	1,8
1990-1994	2,0	1,2

70-80- va 90- yillar boshida ishlab chiqarish sur’atlarining pasayishi ko‘zatildi buni jadvaldagagi ko‘rsatkichlardan ko‘rish mumkin. Jadvalning 2

¹⁰ Сакс Дж.Д., Ларен Ф.Б. Макроэкономика. Глобальный подход: Пер. с анг. – М.: Дело, 1996-848 с.

ustunida ko'rsatilganidek ikkinchi jahon urushidan so'ng (1948-1966) ishlab chiqarish sur'atlarining o'sishi ko'zatilgan va o'rtacha 3,2 foiz 1 yilda biroq 1966-73 y ushbu o'sish pasaygan. Undan keyin pasayishi yanada sezilarli bo'ldi. (1973-1981). Ishlab chiqarishning pasayishi jahonning barcha davlatlarida ko'zatilsa ham AQSH da uning ta'siri boshqa davlatlarga nisbatan sezilarli bo'ladi. Ishlab chiqarishning pasayishi bir qator sabab oqibatlarga sabab bo'ladi.

1. Turmush darajasi. Ishlab chiqarish darajasining o'sishi turmush darajasi va ish haqni ko'tarish mumkin bo'lgan asosiy omillardan biridir. Bir ish soatida qancha ko'p mahsulot ishlab chiqarilsa bir soatlik real daromad xam shuncha oshadi 3 jadvalida haqqini ko'tarish mumkin bo'lgan asosiy omillardan biridir. Bir ish soatida qancha ko'p ko'rsatilganidek turmush darajasini belgilovchi asosiy ko'rsatkich bu real YAIM aholi jon boshiga nisbatan o'sishi hisoblanadi.

1. Inflyatsiya. Ishlab chiqarish sur'atlarining oshishi Inflyatsiyaaning pasayishi yoki umuman bartaraf etilishiga olib keladi. Shunga ko'ra ishlab chiqarish o'sishining pasayishi Inflyatsiyaaning sur'atini yuqori bo'lishiga olib keladi. Ko'pchilik iqtisodchilarning fikriga ko'ra aynan ishlab chiqarish sur'atining pasayishi 70 yillarda Inflyatsiyaning keskin ko'tarilishiga olib kelgan.

2. Jahon bozori. AQSH da ishlab chiqarish sur'atlarining boshqa davlatlarnikiga nisbatan pasayishi mahsulotlarning narxining oshishiga olib keladi. Bu esa o'z navbatida AQSH tovarlariga jahon bozoridagi talab tushib ketishiga sabab bo'ladi. Amerika tovarlari bozordagi raqobatga dosh berolmaydilar

Amerikalik iqtisodchilar, mutaxassislar orasida AQSH ning ishlab chiqarish sur'atlari o'sishi sekinlashuvi va Yaponiya, G'arbiy Yevropa mamlakatlaridan ortda qolganligi sabablarini tushuntirishda yagona bir fikr yo'q. Chunki ishlab chiqarishga ko'plab omillar ta'sir etadi, shu omillardan ba'zilarini ko'rib chiqamiz.

Ishchi kuchi sifati. O'sishning keskinlashuvi sabablaridan biri bu ishchi kuchi sifatining sekin rivojlanishi. Bunga uch faktor ta'sir etmoqda.

1. Ish ko'nikmalar yo'qolishi. Yetarli malaka va ko'nikmaga ega bo'lgan ishchilar asta sekin ishlab chiqarishdan chetlashmoqda ularning o'rnini bosuvchi

kadrlar esa yetarli malaka va ko'nikmaga ega emas bu esa ishlab chiqarish sur'atlariga ta'sir etmoqda. Bundan tashqari ishlab chiqarishda ayollarning soni ortib bormoqda. Ular ham yetarli malakaga ega emas va ish saviyasi ham pastroq.

2. Ishchi kuchi saviyasining pasayishi. Amerikada qator yillar davomida imtihon baholarini pasaytirilishi ta'lim olayotganlarning saviyasi pasayganligidan dalolat beradi.

3. Ta'lim saviyasi o'sishining keskinlashganligi. Agarda 1970- yilda o'rta ta'lim 12,1 yilni tashkil etgan bo'lsa, 1993- yilda 12.7 yil bo'lgan va deyarli o'smagan.

4. Texnika taraqqiyoti. Ishlab chiqarishga ta'sir etuvchi texnika taraqqiyotining biroz susayishi. Texnika taraqqiyoti ilmiy tadqiqotlar (NIOKR) bilan bevosita bog'liq. Ilmiy tadqiqotlarga ajratiladigan mablag' AQSH da chiqarishda ham tushkinlik ko'zatiladi. Bunday sharoitda korxonalarning to'la quvvat bilan ishlamaganligi ham ishlab chiqarilgan mahsulot hajmining pasayishi va umuman ishlab chiqarishsur'atlarining pasayishiga olib keldi.

Ishlab chiqarishdagi o'zaro munosabatlar. Yana bir nuqtai nazarga ko'ra ishlab chiqarish sur'atlarining pasayishi sababi rahbar va xodimlar o'rtasidagi o'zaro munosabatlar keskinlashuvi deb hisoblashmoqda. AQSH ga xos xususiyat bu ishchilar orasidagi keskin raqobat. Ishchilar orasida ijodiy fikrlash yo'q chunki, tashabbuskorlik ko'p korxonalarda ra g'batlantirilmaydi. Menedjerlar ham kerakli tashabbuskorlikni ko'rsatmaydilar, strategik rejalashtirish ham yetarli rag'batlantirilmaydi. Ishchilarning ish joyi kafolatlanmagan. Masalan, Yaponiyada aksincha ko'pincha malakali ishchilar, menedjerlar ish o'rni kafolatlangan va ular har qanday holatda ham ishsiz qolmaydilar. Bu ishchilarni ijodiy fikrlashga, tashabbuskorlik ko'rsatib o'z korxonasi faoliyati uchun jon kuydirishga rag'batlantiradi. Yana bunday tizim ortiqcha nazoratchilarni sonini kamaytiradi va shu tejalgan mablag' 3 foizdan 1foiz ga kamaytirildi (YAIM ga nisbatan). Lekin ko'pchilik iqtisodchilar NIOKR ga ajratilayotgan mablag' miqdori ilmiy taraqqiyotga ta'siri kam deb hisoblashadi.

Investitsiyalar YaIM ning jamg‘ariladigan qismi bilan ishlab chiqarish o‘sishi orasida bog‘liqlik mavjud. Bugungi kunda YAIMning kamroq qismi bevosita investitsiya qilinmoqda bunga bir necha sabab bor.

1. Omonat normasi pastligi.
2. Import tovarlari raqobati.
3. Davlat boshqaruvi.
4. Infrastrukturaga qilinadigan xarajatlarning kamaytirilishi.

Yoqilg‘i mahsulotlari narxi. Ishlab chiqarish pasayishiga katta ta’sir 1973-1975 va 1975-1980- yillarda neft mahsulotlari narxining 4 barobar oshishi. Bunday holat butun jahonda ko‘zatiladi. Ushbu ikki davrda neft narxining keskin ortib ketishi stagnasiya-iqtisodiy tushkunlik va Inflyatsiyaaga sabab bo‘ldi. Davlatning Inflyatsiyaani pasaytirishga qaratilgan mikroiqtisodiy siyosati aksincha iqtisodiy tushkunlikni avj oldirdi. Bunday tushkunlik davrida ishlab chiqarishda ishchilarni ra g‘batlantirishga va o‘rinbosar kadrlar tayyorlashga yo‘naltirildi.

1981- yildan so‘ng ishlab chiqarish dinamikasida o‘sish kuzatildi. Buni 3 jadvalidan ko‘rish mumkin. Ishlab chiqarish sur’ati 1973-1981 0,7 foizdan 1981-1990- y 1,3 foiz ga o‘sgan. 1991- yilda 1 foiz lekin 1993- y 3 foizni tashkil etdi. Demak o‘rtacha o‘sish 1990-1994- yillar orali g‘ida 2 foizni tashkil etgan. Bu davrda ishlab chiqarish sur’atining o‘sishiga salbiy ta’sir etuvchi ko‘p omillar bartaraf etildi. Yoqilg‘i narxlar barqarorlashib stagflyatsiya bartaraf etildi. 1977-yildan so‘ng NIOKR ga ajratmalar summasi ko‘payib bordi. Kompyuter va elektron texnologiyalarda ulkan rivojlanish sezildi. Oliy ma’lumotli mutaxassislar maoshi oshirildi va ularni ra g‘batlantirishga katta e’tibor berildi. Bu o‘z navbatida oliy ma’lumot olishga qiziqishnioshirdi. Ishchi kuchining malakasi va saviyasi 60-70- yillarga nisbatan oshdi. O‘zaro munosabatlar yaxshilanib ishchilarni qaror qabul qilishdagi, ishtiroki oshdi va rag‘batlantirildi. Lekin bunday ijobjiy o‘zgarishlar vaqtinchalik yoki doimiy mi aniq emas.

Rivojlangan mamlakatlarning ishlab chiqarish sur’ati yillik 2-7 foiz o‘sishi qachongacha davom etadi degan savol tug‘iladi. Loyihachilar xuddi shu savolga javoban “oxigi zamon” debnom olgan modellarni ishlab chiqishdi. Unga ko‘ra yer

resurslari keskin kamayib bormoqda, aholi soni esa geometrik progressiya bo'yicha ko'paymoqda. Neft ko'mir mis kabi bir qator resurslar tugamoqda. Bundan tashqari ishlab chiqarishi va iste'mol davomida hosil bo'lgan chiqindilar jahon ekologik holatini izdan chiqarishi mumkin. Ushbu model loyihachilari fikriga ko'ra hozirgi hayot bu model to'g'rilingini isbotlamoqda. 80 yildankeyingi ishlab chiqarish o'sishi resursslarni tez sarflanishiga olib keldi. Jahon okeanidan ovlanadigan baliq hajmi oshib bu mahsulotlar regenerasiyasi (qayta to'lishi) dan yuqori bo'ldi

Jahon barqaror jamiyat barpo etishi uchun keskin qarorlar qabul qilishi shart. Barqaror jamiyat o'z hayotini ta'minlovchi moddiy va ijtimoiy ne'matlar sistemasi bo'lib uni asrab izdan chiqishiga yo'l qo'ymasligi kerak. Buning uchun quyidagilar taklif etiladi. 1) aholi va ishlab chiqarish sur'atlarini o'sishini pasaytirish.

2) qayta to'lmaydigan resursslardan ishlab chiqarishda foydalanishni kamaytirish.

3) qayta to'luvchi resursslardan foydalanishni ularning regenerasiya (qayta to'lishi) davrini hisobga olgan holda ishlatish.

4) Chiqindilar chiqarishni chegaralash tabiatni muhofaza qilish.

Tanqid

"Oxirgi zamon" imitasjon modellari ko'p bahslarni va noroziliklarni keltirib chiqardi. Raqamlar uyini. Loyihachilar modelni ishlab chiqarishda aholi va ishlab chiqarish hajmi eksponenta bo'yicha ko'payib boradi deb taxmin qilishgan. Aslida esa bunda bir qator ijobiy omillarni hisobga olinganda raqamlar nisbatan ijobiy sur'at kasb etadi.

1. Texnologiya va resursslari ko'payishi. Yana bir norozilik sababi shuki texnika taraqqiyoti resursslari ko'payishiga, resursslarning yangi turlarini kashf etilishiga resursslarni qayta ishlashning yangi yanada samaraliroq usullarini qo'llanilishiga olib keladi. Masalan bugungi kunda neft konlarini ochish v neftni qayta ishlash bo'yicha texnologiyalar 1900- yilgiga nisbatan bir necha o'n barobar o'sdi. Bundan tashqari yangi texnologiyalar tugab borayotgan resursning o'rribosarini topishga va ishlatishga yordam beradi. Bu resursslarning qayta

tiklanishi uchun sharoit yaratadi. Masalan, quyosh, shamol, suv energetika sanoatida neft ko‘mir va tabiiy gaz o‘rnini ma’lum darajadabosishi mumkin. Umuman olganda texnika taraqqiyoti chekli resurslarning tejamiga yordam beradi. Imitasion modelda esa buning aksi ko‘rsatilgan.

2. Bozor belgilari. Bozor narxlarining o‘zgarishi kutilayotgan falokatning oldini olishga qodir bo‘lgan belgilaridan hisoblanadi. Agarda neft alyuminiy, mis zaxiralari haqiqatdan kamayib borsa ularning narxi keskin oshib boradi. Bu o‘z navbatida ikki hodiaga sabab bo‘ladi.

Birinchidan, ushbu mahsulot foydalanuvchilari mahsulotlarni tejashga yoki ko‘proq o‘rinbosar mahsulotlardan foydalanishga harakat qilishadi. Masalan uy joy kommunal xo‘jaligida mis quvurlari o‘rniga plasstmassadan tayyorlangan quvurlardan foydalanishga o‘tiladi.

Ikkinchidan – narxlar oshishi resurslarni qayta ishlash texnologiyasini takomillashtirishni talab etadi. Xullas narx mexanizmi resurslar defitsitinibartaraf etishi mumkin bo‘lgan xususiyatga ega.

“Zamonoviy” loyiha qanchalik to‘g‘ri yoki notug‘riliqidan qat‘iy nazar o‘sish chegaralanganligi bir qator xulosalarni keltirib chiqardi. Agar biz bugun cheklangan resurslarni ishlatsak ertaga ushbu resurslar bo‘lmasligi ham mumkin. Resurslarni taqsimlashning optimal usuli qanday degan savol tu g‘iladi? Bu boradagi bahslarda iqtisodiy o‘sish unchalik ham katta ijobjiy hodisa emasligi o‘sish foydalimi?

Kelajakdagi iqtisodiy o‘sishni baholashda ishlab chiqarishning atrof muhitga va inson turmushiga ta’sirini hisobga olish shart. Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvchilar fikri. Iqtisodiy o‘sishga qarshi chiquvchilar fikriga ko‘ra industrializasiya va iqtisodiy o‘sish atrof muhit zararlanish, yer haroratini global ko‘tarilishi, ozon qatlami yemirilishi ekologik faloatlarga olib kelishi mumkin. Bunga sabab tugab borayotgan resurslar ishlab chiqarishda foydalanilib atrof muhitga chiqindi sifatida qaytadi. Bundan tashqari iqtisodiy o‘sish bu farovonlikni ta’minlab beruvchi faktor deyishga hech qanday asos yo‘q. Iqtisodiy o‘sishning yo‘ldoshi bo‘lgan texnika taraqqiyoti ishchilarda ertangi kunga ishonchni

so‘ndiradi va ba’zida ishsizlikni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Rivojlanish (o‘sish) sur’ati yuqori bo‘lgan iqtisodiyot katta iqtisodiy stresslarga olib kelishi mumkin.

O‘sish tarafdorlari fikri. Tarafdorlar fikriga ko‘ra faqatgina iqtisodiy o‘sish turmush faravonligini ta’minlashi mumkin. Ishlab chiqarish hajmining o‘sishi daromadni oshiradi: bu esa ko‘proq bo‘sh vaqt, ta’minlay olish imkoniyati, sifatli mahsulotlar sotib olish imkoniyati va shu kabi ko‘plab imkoniyatlarni tu g‘diradi. Iqtisodiy o‘sish jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi.

6.2. Ye. Domarning neokeyscha o‘sish modellari

Bu model makroiqtisodiy muvozanatning keynschilik nazariyasini tanqidiy qayta ishslash va rivojlantirish sifatida vujudga keldi. Ma’lum bo‘lganidek, Keynsning asosiy maqsadi rivojlangan mamlakatlarda ommaviy ishsizlik va ishlab chiqarish quvvatlaridan to‘liq foydalanmaslik sabablarini aniqlash edi. Bu hodisa 1929-1933- y.y. Buyuk depressiya davrida kotatrofik o‘lchamlarga erishib, bu vaqtda nafaqat yangi kapital qo‘yilmalarga balki asosiy kapitalni yangilashga ham imkoniyat yo‘q edi. Shu sababli Dj. Keyns nazariyasini fanda depressiv yoki stagnasiyaluvchi iqtisodiyot nazariyasi deb atashadi.

Urushdan keyingi davrda g‘arb mamlaktlaridagi iqtisodiy holat o‘zgardi – iqtisodiy o‘sish masalalariga olimlar diqqatini qaratgan yuqori konyuktura davri boshlandi. Biroq yangi sharoitlarda keynschilik nazariyasi chetga surib qo‘yilmadi, balki sifat jihatdan yangi muammolarni hal qilish uchun ijodiy o‘zgartirildi. Chunki bu nazariya bozor iqtisodiyoti amal qilishining bir qator fundamental savollariga javob bera olar edi. Milliy daromad iste’mol, jamg‘arma va investitsiyalar kabi iqtisodiy kattaliklarga asoslanib, Dj. Keyns iqtisodiy faoliyat darajasining o‘zgarishini tushuntira oladigan modelni ishlab chiqdi. U iqtisodiy pasayish va ishsizlikning o‘sishi davrida iste’mol va jamg‘armalar shu jumladan investitsiyalar qisqarishini isbotladi. Shuning uchun, yalpi talab o‘sishining haqiqiy dastaklari mavjud bo‘lmagan taqdirda, Dj. Keynsning fikricha, hukumat talabni tartibga solish chora-tadbirlaridan foydalangan holda iqtisodiyotga aralashishi

zarur. Talabni soliqlarni pasaytirish orqali yoki davlat xarajatlarini ko‘paytirish orqali oshirish mumkin, bu esa o‘z navbatida iqtisodiy faollikni jonlantiradi.

Iqtisodiy o‘sish neokeyschilik modelining mohiyati nimada?

1. Ularning barchasi Dj. Keynsning asosiy postulati – yalpi talabga asoslanadi. Modellarni qurishda ularning mualliflari muvozanatlashgan iqtisodiy o‘sishning hal quluvchi sharti yalpi talabning oshishi ekanlgidan kelib chiqishgan.

2. Iqtisodiy o‘sishning asosiy omili bo‘lib kapital qo‘yilmalar (investitsiyalar) hisoblanadi, ular multiplikatorlar orqali daromadni oshiradi yoki o‘zi daromad oshishining natijasi hisoblanadi (akselerator tasirida). Qolgan barcha ishlab chiqarish omillari (bandlikning oshishi, uskunalardan foydalanish darajasi, ishlab chiqarishni tashkil etishning yaxshilanishi) hisobga olinadi va modeldan chiqarib tashlanadi.

Bunda bu modellarning keynschilik tabiatini va neoklassik nazariyalardan asosiy farqlanishi mujassamlashgan.

Shunday qilib o‘sishning neonekeyschilik modeli ikki o‘ziga xos xususiyat bilan xarakterlanadi:

- Iqtisodiy o‘sishga daromad darajasi bilan belgilanadigan talab nuqtai nazaridan yondashish;
- Investitsiyalarning iqtisodiy o‘sishdagi muhim roli bilan negaki daromad kapitalning to‘planishiga bog‘liq (demak yalpi talab hajmi ham).

Iqtisodiy o‘sishning neokeyschilik modellini ilk bor, kelib chiqishi polshalik bo‘lgan, amerikalik iqtisodchi YE. Domar va ingliz iqtisodchisi R. Harrod tomonidan shakllantirilgan. Ular tomonidan olingan natijalar shunchalik bir-biriga yaqin ediki, natijada fanda ular Harrod-Domar modeli deb atala boshlandi. Biroq modellarda o‘ziga xoslik borligi tufayli, ularning har birini ko‘rib chiqamiz, xulosa qilishda esa ularni umumlashtiruvchi omillarga e’tiborni qaratish lozim bo‘ladi.

Iqtisodiy o‘sishning YE. Domar modeli. YE. Domarning modeli keynschilik an’analariiga xosligi va keynschilik fundamentiga asoslanganini aniqligini tan olgan, ammo shu bilan birga keynschilik modelining investitsiyalar va iqtisodiy dinamikaga tegishli qismiga o‘z hissasini qo‘shganligini ta’kidlab o‘tgan.

Oldindan o‘rnatilganidek, Dj.Keyns tizimida daromadlarning shakllanishi investitsiyalar funksiyasi hisoblanib, ular multiplikator samarasi orqali yalpi talab va bandlikni oshiradi. Boshqacha qilib aytganda Dj.Keyns davlat xarajatlariga, ayniqsa ularning jamoat ishlarini amalga oshirish bilan bog‘liq qismiga (yo‘l, ko‘prik va sh.k. qurish) alohida e’tibor qaratgan

Nega u ommaviy bozor mahsulotlari ishlab chiqarishga, masalan avtomobillar, kir yuvish mashinalari yoki mebel ishlab chiqarishga e’tibor qaratmagan? Chunki qayta ishlab chiqarish (samarasi) talabni hosil qilish bozorga ortiqcha tovar massasini chiqarishdan ko‘ra muhim edi, shuning uchun Dj. Keyns investitsiyalarning tovar taklifiga ta’sirini o‘z analizidan qolgan ishlab chiqarish quvvatlari mavjudligini tahlil qilgan holda ham shunday qildi. (yangi zavodlarga investitsiya qilishga mavjudlari turganda hojat yo‘q).

Aynan shu punktda Ye.Domar, Dj.Keyns nazariyasiga aniqlik va qo‘sishimcha kiritdi – unda investitsiyalar nafaqat daromadlarni shakllantirish balki quvvatlarni yaratish, ishlab chiqarishni va tovarlar taklifini rivojlantirish omili hamdir. Bu orqali Ye. Domar investitsion jarayonning ikki xilligiga e’tibor qaratib, uning fikricha milliy daromadning muvozanatli o‘sishmodeli mohiyati ham shundan iborat. Boshqacha aytganda, u iqtisodiyotning muvozanatlashgan holatidan kelib chiqqan, (ya’ni umumiylab talabni ifodalovchi ishlab chiqarish quvvatlariga teng bo‘lganda).

Undan keyin Ye. Domar quyidagi savolni qo‘ydi: Agar investitsiyalar ishlab chiqarish quvvatlarini oshirsa, va shu bilan birga qo‘sishimcha daromadlarni shakllantirsa, unda daromad o‘sishi sur’ati ishlab chiqarish quvvatlari o‘sishi sur’atlariga teng bo‘lishi uchun investitsiyalar qanday o‘sishi kerak? Bu savolga javob berish uchun , Ye. Domar uchta tenglamalar sistemasini tuzdi:

- 1) taklif tenglamasi;
- 2) talab tenglamasi;
- 3) taklif va talab tengligini ifodalovchi tenglama.

1. Taklif tenglamasi investitsiyalar hosil qiladigan ishlab chiqarish quvvatlari o‘sishini ko‘rsatadi. Yaratilgan ishlab chiqarish quvvatlari hisobiga

olinadigan ishlab chiqarish o'sishini (o'simini) ΔQ ni, umumiy kapital qo'yilmalarini (I) ularning o'rtacha unumdorligiga β ko'paytmasi orqali aniqlash mumkin (3.3.1):

$$\Delta Q = I\beta \quad (1)$$

Investitsiyalarning ishlab chiqarish rivojlanishiga ta'sirini xarakterlovchi Ψ belgisi kapital qaytimi nomini oldi (ishchi kuchi bandligining oshishi, fan-texnika taraqqiyoti, ishlab chiqarishni tashkil etishni mukammallashtirish va sh.k.). Bunda, agar 1 mld. so'mlik mahsulot ishlab chiqarish uchun 4 mld. so'm kapital kerak bo'lsa, unda Ψ uning $\frac{1}{4}$ qismini, yoki 25 foiz ini hosil qiladi. Demak, $\beta = \frac{\Delta Q}{I}$ bo'lib bir birlik investitsiya yaratgan yangi mahsulot kattaligini ifodalaydi.

2. Talab tenglamasi qo'shimcha quvvatlarini band qilish uchun talab qanchagacha o'sishi kerakligini ko'rsatadi. Multiplikator nazariyasiga ko'ra, jamg'armaga ixtiyoriy chegaraviy moyillik λ da. Milliy daromad o'sishi- ΔU qo'shimcha investitsiyalar – ΔI ning multiplikator ta'sirining natijasi hisobi.

$$\Delta Y = \Delta I \frac{1}{\alpha} \quad (2)$$

Bunda $\frac{1}{\alpha}$ - multiplikator.

Agar $\Delta Q = I\beta$ taklif tenglamasini $\Delta Y = \Delta I$ talab tenglamasi bilan solishtirsak, unda taklif tenglamasida umumiy investitsiyalar ishtirot etishini sezamiz, qachonki talab tenglamasida – faqatgina oldingi davrga nisbatan investitsiyalarning o'sishi ishtirot etadi. Buning sababi shundaki, ishlab chiqarishning o'sishi ΔQ umumiy kapitalning unumdorligi bilan ta'minlanadi, daromadning o'sishi ΔY esa – faqatgina qo'shimcha apital qo'yilmalarining multiplikator ta'siri bilan ta'minlanadi.

3. Daromadlar va ishlab chiqarish quvvatlari o'sishi sur'atlarining muvozanat tenglamasiga $\Delta I \frac{1}{\alpha} = I\beta$ bo'lganda erishiladi.

Bu tenglama yechimi orqali quyidagi natijaga ega bo‘lamiz. $\frac{\Delta I}{I} = \alpha\beta$

Tenglamaning chap qismida investitsiyalarning yillik o‘sish sur’ati turadi, u ishlab chiqarish quvvatlarining o‘sishi yordamida to‘liq bandlikni ta’minalash uchun $\alpha\beta$ yillik sur’at bilan o‘sishi lozim.

Shunday qilib Domar modeli investitsiyalar doimiy o‘sishi lozim bo‘lgan sur’at (temp) ni aniqlash imkonini beradi. Bu sur’at (temp) milliy daromadda jag‘armalar ulushi va investitsiyalarni o‘rta samaradorligi bilan to‘g‘ri bog‘langan. Masalan, agar jamg‘arish moyillik $\alpha = 20\%$ teng bo‘lsa, kapitalni unumdarligi esa $\beta = 33\%$, kapitalni balanslashgan o‘sish meyori 6,6 foiz tashkil etish kerak.

$$\frac{\Delta I}{I} = 0,2 \times 0,33 = 0,066 \text{ yoki } 6,6\%$$

Bundan iqtisodiy siyosat uchun muhim xulosa kelib chiqadi: faqatgina kapitalning doimiy o‘sayotgan akkumulyatsiyasiga jamiyat mashtabida yalpi talab va yalpi taklif o‘rtasidagi dinamik muvozanatni ta’minalaydi. Investitsiyalarning muvozanatli o‘sishini ta’minalab turish uchun davlat milliy daromaddagi jamg‘armalar ulushiga yoki texnik taraqqiyot sur’atlariga ta’sir ko‘rsatishi mumkin.

6.3. R. Harrodning neokeynscha o‘sish modellari

Oldin ta’kidlaganimizdek, tarkibi bo‘yicha bu model Ye. Domar modeliga o‘xshaydi, biroq uning o‘ziga xos xususiyatlari bor. Ye. Domar modeli investitsiyalarning yalpi talabni kengaytirish va ishlab chiqarish quvvatlarining vaqt oralig‘ida ko‘payishdagi ikkixil rolini tahlil qiladi. Shuning uchun u butunligicha multiplikatoridan foydalanishga asoslanadi va milliy daromadning zaruriy o‘sishini ta’minalaydigan investitsiyalarning o‘sish meyorini aniqlaydi.

R. Harrod modelining maqsadi esa iqtisodiyot o‘sishning trayektoriyasini o‘rganish hisoblanadi. Shuning uchun uning asosini akselerator nazariyasi tashkil etib, u investitsiyalar o‘sishini bunga sabab bo‘lgan daromad o‘sishiga nisbatini aniqlash imkonini beradi.

Bunday xususiyatlardan shu natija kelib chiqadiki, Ye. Domar mos davlat siyosati bilan bog‘liq bo‘lgan avtonom investitsiyalar bilan ish olib borgan bo‘lsa, R.Harrod esa – milliy daromad o‘sishi bilan bog‘liq ishlab chiqarish investitsiyalari bilan ish olib borgan.

Akselerator nazariyasini yanada yaqqolroq ko‘rib chiqamiz. Akselerator nazariyasi – investitsiyalarning kutilayotgan ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga bog‘liqligini tavsiflovchi nazariyadir. Akselerator tamoyili dastlab davrlar nazariyasi doirasida ishlab chiqilgan bo‘lib, investitsiyalarning iste’mol talabi harakatiga reaksiyasi orqali iqtisodiy inqirozlarni tavsiflagan. Bunday bog‘liqlikda akselerator nazariyasini XX asr boshida fransuz iqtisodchisi A. Aftalyen va amerikalik iqtisodchi Dj. Klark rivojlantirishgan. Bu nazariyaga muvofiq talabning (yoki daromadlarning) o‘sishi investitsiyalarning o‘sish darajasiga tezlashtruvchi (akselerator) sifatida ta’sir etadi, (avvalambor asosiy kapital sohasida). Yangi investitsiyalar ishlab chiqarish hajmi (daromadlar) ga nisbatan tezroq o‘sishi taxmin qilinadi, chunki mashinaning qiymati uning tayyor mahsulot qiymatidan odatda ancha yuqori bo‘ladi, demak, ishlab chiqarish qatnashchilari daromadlaridan ham yuqori bo‘ladi. Shuning uchun ham investitsiyalarga bo‘lgan talab iste’mol talabining o‘sishiga nisbatan doimo yuqori bo‘ladi. Gap shundaki, o‘sib borayotgan iste’mol talabi mavjud bo‘lgan ishlab chiqarish quvvatlariga tasir ko‘rsatib, nafaqat mavjud quvvatlar modernizasiyasiga balki yangi sanoat korxonalari va uskunalariga kapital qo‘yilmalarini rag‘batlantiradi.

Faraz qilamizki, qandaydir korxona o‘zining mahsulotiga mavjud talabni 10 ta mashinadan foydalanib qondiradi, ulardan bittasi har yili yangisi bilan almashtiriladi. Agar talab 20foiz ga oshsa korxona bu talabni qondirish uchun 2 ta yangi mashina sotib olishi kerak bo‘ladi. Shunday qilib akselerator ishlab chiqarish o‘sishi bilan investitsiyalar o‘sishi o‘rtasidagi bog‘liqlikni ko‘rsatadi: ishlab chiqarish hajmi o‘zgarishiga javob ravishda yangi investitsiyalar qanchaga o‘sadi.

Ishlab chiqarish va investitsiyalar darajalarida o‘zgarishlarning bunday teskari bog‘liqligi Dj. Keysnda umuman yo‘q edi. U investitsiya va daromadlar o‘rtasida multiplikator munosabati bilan cheklandi

$$\Delta Y = \Delta I \frac{1}{\alpha} \quad (1)$$

$\frac{1}{\alpha}$ - multiplikator koeffitsiyenti chunki u foydalanilmagan quvvatlar va ishsizlik mavjudligidan kelib chiqqan. Uning vazifasi bo'sh iqtisodiy resurslardan qanday foydalanishni ko'rsatish bo'lib, buning uchun u davlat xarajatlarini oshirishni taklif etgan. Ularni 1 multiplikatorga $\frac{1}{\alpha}$ ko'paytirib bandlik, ishlab chiqarish va daromad/ ΔY) o'sishini ta'minlaydi, demakki, yalpi talabning ham ta'minlaydi.

Akslerator tamoyili esa oshgan daromad va talab o'z navbatida investitsion jarayonlarni tezlashtirishni ko'rsatadi. Bu yangi kapital qo'yilmalar – daromad o'sishini akselerasiya koeffitsiyenti bo'yicha ko'paytmasining funksiyasi ekanligini anglatadi:

$$\Delta I = \Delta Y \times \delta \quad (2)$$

Akselerasiya koeffitsiyenti – texnik taraqqiyot turiga bog'liq texnik kattalik:

- Katta hajmdagi kapitalni talab etadigan kapitalli texnik taraqqiyot sharotida δ ning qiymati oshadi
- Kapitalni tejaydigan texnik taraqqiyotda δ ning qiymati past bo'ladi

Iqtisodiy o'sish modelini yaratish jarayonidan R. Harrod tahliliga uchta tenglamani kiritdi:

- Amaldagi o'sish sur'atlari tenglamasi
- Kafolatlangan o'sish sur'atlari tenglamasi
- Haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi

1. Amaldagi o'sish sur'atlari tenglamasi- R. Harrod modeli tenglamasi natijasidir. U ishlab chiqarish maqsadlarida foydalaniladigan mahsulotning o'sishidan bir qismini jamlanishini ta'minlash uchun milliy daromadda jamg'armalar ulushi qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatadi:

$$Gc = s \quad (3)$$

Bu yerda: G – (growth) qandaydir davr bo'yicha umumiy ishlab chiqarishning amaldagi o'sishi (o'sgani), masalan yil bo'yicha: $G = \Delta Y / Y$, ya'ni amaldagi o'sish sur'ati – bu daromad o'sishining biznes davr daromadi kattaligiga nisbati:

$c = I / \Delta Y$ – kapital koeffitsiyenti yoki bir birlik daromad yoki mahsulot o'sishining "investitsion qiymatini" ko'rsatuvchi ishlab chiqarishning kapital talab koeffitsiyenti. U kapitalning teskari unumdarligi kattaligi bo'lib hisoblanadi $\beta = 1/c$, S – milliy daromadda jamg'armalar ulushi yoki jamg'arishga moyillik:

$$s = S / Y$$

Agar (1) tenglamani uning elementlari mazmuni bo'yicha yozadigan bo'lsak, unda Dj. Keynsning – investitsiyalar teng jamg'armalar, ayniyatiga ega bo'lamiz:

$$s = S / Y \Leftrightarrow I / Y = S / Y \Leftrightarrow I = S \quad (4)$$

Biroq R. Harrodning yondashuvi Dj. Keyns yondashuvidan ancha farqlangan. Keynschilik modelida investitsiyalar va jamg'armalar tengligi statik shaklda, R. Xorrad modelida esa dinamik shaklda ifodalangan: tenglamaning chap qismi G_c s ishlab chiqarish maqsadlariga yo'naltirilgan mahsulot o'sishining kapitallashtiriladigan qismini ifodalab, u jamg'armalarning s ma'lum ulushi bilan ta'minlanishi shart.

2. Kafolatlangan o'sish sur'atlari tenglamasi. Tadbirkorlar ko'zda tutadigan va umuman qoniqish hosil qiladigan rivojlanishning bashorati shuni ifodalaydi:

$$G_w cr = s \quad (5)$$

R. Harrodning fikricha kafolatlangan (narrated) o'sish sur'ati G_w dinamik muvozanatning chizig'i hisoblanadi. Shu bilan barcha cr (kapital talablikning zaruriy koeffitsiyenti) ham dinamik muvozanatning koeffitsiyenti hisoblanadi: u mahsulot chiqarish o'sishiga yangi kapitalga ehtiyojni ifodalaydi, uni ta'minlash uchun shu yangi kapital talab etiladi. Bundan kelib chiqadiki kafolatlangan o'sish

sur'ati tenglamasida investitsiyalar *ex-ante* va jamg‘armalar *ex-post* tenglashtiriladi.

Milliy daromadda jamg‘armalar s ulushi – zaruriy kapitalalablilik koeffitsiyenti cr kabi doimiy kattalik bo‘lgani sababli R. Harrod kafolatlangan o‘sish sur’ati (G_w) ning doimiy darajasi haqida xulosaga keldi.

Agar amaldagi o‘sish sur’ati (1) bashoratlanayotgan, kafolatlangan sur’ati (2) bilan mos tushsa unda iqtisodiyot qat’iy o‘zluksiz rivojlanishga ega bo‘ladi. Biroq, R. Harrodning yozishicha bunday qat’iylik statistik darajada ham dinamik darajada ham mavjud emas. Ikkala tenglamani solishtirib (($G_c = s;$; $G_w cr = s$)), R. Harrod, amaliyotda amaldagi o‘sish sur’ati doimo kafolatlanganidan katta yoki kichik bo‘ladi deb ta’kidladi.

Agar amaldagi o‘sish sur’ati kafolatlanadiganidan oshsa, unda nisbiy doimiylik tufayli S shunga mos ravishda tez oshmaydi. Boshqacha aytganda, agar $G > G_w$ bo‘lsa, unda $s = \text{const}$ $c < cr$,

Bundan R. Harrod shunday xulosaga keladiki ishlab chiqaruvchilar amaldagi kapital talablikni juda ham rost deb baholab tovar-moddiy zaxiralarini oshirishga harakat qiladilar bu esa amaldagi o‘sish sur’atini kafolatlanganligidan yanada oshishiga olib keladi. Agar $G < G_w$, unda $s = \text{const}$ $c > cr$,

Bunga asosan ishlab chiqaruvchilar mavjud xom ashyo material va uskunalar zaxirasi ortiqchaligi haqida qarorga kelib, haridni qisqartiradilar. Bu bilan ular amaldagi o‘sish sur’atini kafolatlanganga nisbatan yanada oshiradi.

Shunday qilib, biz ko‘ramizki, amaldagi o‘sish sur’ati muvozanatligiga moslashish o‘rnida amaliyotda teskari tendensiya mavjud – ishlab chiqarishning dinamik muvozanat chizig‘idan ko‘tarilishi yoki pasayishi. Bu R. Harrodga bozor iqtisodiyotiga ichki dinamik barqarorlik xos ekanligi haqida qaror qilishga asos bo‘ldi. Bunday xulosa natijada iqtisodiy adabiyotda “Xarrod prodoksi” nomini oldi. U iqtisodiy koyunkturaning qisqa muddatli davriy tebranishlarini ifodalaydi. Nisbatan o‘zoqroq tebranishlarning interpretasiyasi uchun R. Harrod (3) chi tenglamani kiritdi – haqiqiy o‘sish sur’ati tenglamasi.

3. Haqiqiy o'sish sur'ati tenglamasi R. Harrod modelida quyidagi ko'rinishga ega: $G_n cr = yoki \neq s$.

Bunda G_n – (natural-haqiqiy) resurslardan to'liq foydalanish sharoitida iqtisodiyot haraktining maksimal darajada mumkin bo'lgan sur'ati.

Bunday o'sish sur'atini ta'minlab turish uchun iqtisodiyotda jamg'armalar yetmasligi mumkin, shuning uchun haqiqiy o'sish sur'atining tenglamasida chap va o'ng tomonlar o'rtasidagitenglik yo'qligi ko'zda tutiladi.

Xosil qilingan tenglamalar R. Harrodga 3 ta kattalik o'rtasidagi munosabatni ko'rib chiqish imkonini berdi: haqiqiy (G_w), kafolatlangan (G_n) va amaldagi (G) o'sish sur'ati

1. $G_w > G_n$ deb faraz qilamiz. Bunda, haqiqiy o'sish sur'ati berilgan resurslarda mumkin bo'lgani uchun, amaldagi sur'at haqiqiysidan past bo'ladi, demakki, kafolatlangan o'sish sur'atidan ham albatta past bo'ladi. Unda kapital talablikning bashoratlangan koeffitsiyenti amaldagisidan past bo'lib ($cr < c$) yuqorida ko'rsatib o'tilganidek o'zoq depresiyaga (tushkunlikka) sabab bo'ladi. Tushunarliroq tilda aytadigan bo'lsak, ortiqcha kuchlanish (iqtisodiyotning qizib ketishi) o'zoq muddatli tushkunlikka olib keladi, bunga misol qilib nafaqat bozor iqtisodiyotini balki sotsial halq xo'jalik amaliyotini keltirish mumkin.

2. Agar $G_w > G_n$ bo'lsa, unda iqtisodiyot rivojlanishining 2 ssenariysi bo'lishi mumkin. Birinchisi ($G_w > G$) yuqorida ko'rib chiqilgan bo'lib, o'zoq depressiyaga olib keladi, ikkinchisi ($G_w < G$ dan $cr > c$ kelib chiqqani uchun) o'zoq "Bum" davri bilan xarakterlanishi mumkin.

Shunday qilib, R. Harrod iqtisodiy dinamikadagi ikki muammoga e'tiborni qaratdi:

1. G_w va G_n o'rtasidagi farqlanish:
2. G ning G_n dan o'zoqlashishi bunda birinchi muammo ishchi kuchining vaqtinchalik (xronik) ortiqchaligi, ikkichi muammo esa – vaqtinchalik xronik yetishmovchiligi ekanligini ko'rsatiladi.

Keyin u quyidagi savolni qo‘yadi: bozor iqtisodiyotida kafolatlangan G_n va haqiqiy G_n o‘sish sur’atlarini avtomatik tenglashtiradigan kuchlar bormi? Bu savolga javob berib R. Harrod iqtisodiy o‘sishning asosiy parametri – odamlar xoxishiga bog‘liq bo‘lgan jamg‘armalar ekanligini ko‘rsatib o‘tgan, shuning uchun bu savolni tahlili jamg‘armalar dinamikasi tahlili bilan bog‘liqdir. Jamg‘armalarga salbiy munosabatda bo‘lib, ularni depressiyani rag‘batlantiruvchi kuch deb hisoblagan Dj. Keyns dan farqli ravishda R. Xorod jamg‘armalarni ijobiylari foydali deb hisoblagan. Biroq, shu bilan birga u quyidagi savolni bergen: bozor iqtisodiyotida muvozanatlashgan o‘sish talablariga javob beradigan jamg‘armalar xajmini rag‘batlantiruvchi instrumentlar mavjudmi? R. Harrod unga inkor javobini berib Dj. Keyns kabi iqtisodiyotga davlat aralashuvini zarurligini asoslagan.

R. Harrod dasturi ikki guruh tadbirlarini o‘z ichiga olgan:

A) “Amaldagi o‘sish sur’atini kafolatlanganidan qochishi” ga qarshi qisqa muddatli antitsiklik siyosat taklif etilgan:

B) takrorlanadigan (xronik) ishsizlik va o‘zoq depressiyaga qarshi foiz meyorini pasaytirish siyosatidan foydalanishni taklif etgan (deyarli uning nolli nuqtasigacha). Bu jamg‘armaga investitsion talabning kengayishiga olib keladi, demakki, milliy daromadda jamg‘armalar ulushining qandaydir qisqarishiga ham. Siyosatning maqsadi R. Harrod fikricha $G_w cr = s - d = G_n cr$ bo‘ladigan foiz stavkasining progressiv pasayishiga erishish kerak.

Bu ifodani R. Harrod to‘liq bandlik maromidagi barqaror o‘sish formulasi sifatida belgiladi. U iqtisodiy tizimning dinamik rivojlanishiga kafolatlangan va haqiqiy o‘sish sur’atining to‘liq bandlik sharoitda teng bo‘lgani holatida erishilishini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, tahlil jarayonida R. Harrod Ye. Domar bilan o‘xshash natijalarga erishdi. Odatda ularning modeli yagona Harrod-Domar modeliga birlashtiriladi. Uning mazmuni quyidagicha, ishlab chiqarishning berilgan texnik sharoitlarida iqtisodiy o‘sish jamg‘armaga chegaraviy moyillik kattaligiga bog‘liq bo‘ladi, iqtisodiy tizimdagi dinamik muvozanat o‘z tabiatiga ko‘ra beqaror va uni

to‘liq bandlik sharoitida ta’minlab turish uchun esa davlatning faol va maqsadli tadbirdlari talab etiladi.

Xarrod-Domar modelining cheklanganligi nafaqat uning tahlil natijalari bilan balki tarixiy sharoitlari bilan ham belgilanadi. 1930- yil va urushdan keyingi davr iqtisodiy o‘sish jarayonlarini ifodalagan bo‘lib, unda ishlab chiqarishni rivojlanirish bo‘yicha asosiy urinishlar investitsiyalarni oshirish va yangi ishlab chiqarish quvvatini yaratishdan iborat edi. Keyingi davrda (50- y. ning ikkinchi yarmi – 70- y.y.) ishlab chiqarishning rivojlanishiga ko‘proq sifat o‘zgarishlari ta’sir eta boshladi, bu esa iqtisodiy o‘sishning noklassik nazariyalarida o‘z ifodasini topdi.

Tabiiy resurslarni o‘zigma iqtisodiy o‘sishni ta’minlab berolmaydi. Iqtisodiy tabiiy resurslari kam bo‘lgan davlatlarda ham iqtisodiy o‘sish tez sur’atlarda rivojlanishi mumkin. AQShning iqtisodiy o‘sishiga davlatdagi umumiy sotsial, madaniy va siyosiy muhit ham o‘z ta’sirini ko‘rsatgan.

Kelajakdagi iqtisodiy o‘sishni baholashda ishlab chiqarishning atrof muhitga va inson turmushiga ta’sirini hisobga olish shart. Iqtisodiy o‘sish farovonlikni ta’minlab beruvchi faktor deyishga hech qanday asos yo‘q. Iqtisodiy o‘sishning yo‘ldoshi bo‘lgan texnika taraqqiyoti ishchilarda ertangi kunga ishonchni so‘ndiradi va ba’zida ishsizlikni ko‘payishiga sabab bo‘ladi. Rivojlanish (o‘sish) sur’ati yuqori bo‘lgan iqtisodiyot katta iqtisodiy ta’sirlarga olib kelishi mumkin. Iqtisodiy o‘sish tarafдорлари fikriga ko‘ra faqat iqtisodiy o‘sish aholi turmush farovonligini ta’minalashi mumkin.

Ishlab chiqarish hajmini o‘sishi daromadni oshiradi. U. Rostouni o‘sish bosqichlari nazariyasi o‘z davrining ijtimoiy fanida sezilarli hodisa bo‘ldi, u jamiyat tarixiy evolyusiyasiga yangicha yondoshuvni ifoda etib, u sotsial-iqtisodiy formatsiyalarni marleistik konsepsiysi va XX asr 1-boshidagi texnokratik o‘sish nazariyalaridan ko‘p jihatdan farq qilar edi.

U.Rostou moddiy ishlab chiqarishning ijtimoiy rivojlanishdagi yetakchi rolini, uning ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti bilan shartlashganini tan oldi

hamda iqtisodiyot va jamiyat tarixiy evolyusiyasining umumiy nazariyasini yaratishga urindi.

Ye.Domar va R.Harrodning keynschilar modeli makroiqtisodiy muvozanatning keynschilik nazariyasini tanqidiy qayta ishlash va rivojlantirish sifatida vujudga keldi.

Iqtisodiy o'sishning Ye.Domar modeli keynschilik an'alariga xosligi va keynschilik fundamentiga asoslanganini aniqligini tan olgan, ammo shu bilan birga keynschilik modelining investitsiyalar va iqtisodiy dinamikaga tegishli qismiga o'z xissasini qo'shganligini ta'kidlab o'tgan.

R. Harrod modelining maqsadi iqtisodiyot o'sishining trayektoriyasini o'rganish hisoblanadi. Shuning uchun uning asosini akselerator nazariyasi tashkil etib, u investitsiyalar o'sishini bunga sabab bo'lgan daromad o'sishiga nisbatini aniqlash imkonini beradi. Ye. Domar mos davlat siyosati bilan bog'liq bo'lgan avtonom investitsiyalar bilan ish olib borgan bo'lsa R. Harrod esa-milliy daromad o'sishi bilan bog'liq ishlab chiqarish investitsyailari bilan olib borgan.

Ishlab chiqarishni berilgan texnik sharoitlarida iqtisodiy o'sish jamg'armaga chegaraviy moyillik kattaligiga bog'liq bo'ladi, iqtisodiy tizimdag'i dinamik muvozanat o'z tabiatiga ko'ra beqaror va uni to'liq bandlik sharoitida ta'minlab turish uchun davlatning faol va maqsadli tadbirlari talab etiladi.

6.4. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida o'sish modellarining amaliy ahamiyati

Xorijiy mamlakatlar va Rossiyada o'sishning amaliy muammolari va tarixiy analizini ko'rib chiqqandan so'ng iqtisodiy o'sish nazariyalariga o'tamiz. Zamonaviy iqtisodiy fanda o'sish ikki xil talqin etiladi: tor va keng ma'noda. Tor ma'noda – pirovard mahsulot asosiy ko'rsatkichlarining o'sishi sifatida (YaIM, milliy daromad yoki iste'mol aholi jon boshiga). Keng ma'noda – sotsial institutlarda o'zgarishlar jarayoni sifatida (mulk huquqlari strukturasida, ishlab chiqarish va taqsimotni tashkil etish shakllarida va sh.k.).

Bunday yondashuvga muvofiq o'sish nazariyalarida uch yo'nalish ajratiladi:

- neokeynschilik;
- neoklassik;
- tarixiy-sotsiologik;

Birinchi 2 ta yo‘nalish o‘sishni tor ma’noda tahlil etadi. Tarixiy sotsiologik yo‘nalish uchun o‘sishni keng ma’noda ko‘rib chiqish xarakteridir.

Tarixiy-sotsiologik yo‘nalishning yetuk namoyondalaridan biri bo‘lib 1961 y. da “O‘sish bosqichlari” deb nomlangan kitobni chiqargan amerikalik iqtisodchi va sotsiologik U. Rostou hisoblanadi. U tomondan bayon etilgan konsepsiyada iqtisodiy o‘sish va jamiyatning bir bosqichidan ikinchisiga tarixiy o‘sishi asosida uchta umumlashtiruvchi xarakteristikalarining prinsipial farqlari yotadi:

- texnik rivojlanish darajasi;
- jamg‘armalar meyori;
- iste’mol darajasi;

Bu xarakteristika (tavsiflarning) larning farqlanishlariga muvofiq va shu bilan birga odamlarning qiziqishlarining o‘zgaruvchanligiga mos ravishda U. Rostou o‘sishning 5 ta bosqichini ajratib ko‘rsatadi:

1. (An’anaviy) sinfiy jamiyat bosqichi. Bu bosqich quyidagilar bilan xarakterlanadi: statik muvozanat nyutondan oldingi fan va texnika, agrar xo‘jalik, ishlab chiqarish kuchlari rivojlanishining chegaralangan imkoniyatlari, iqtisodiy o‘sishning past sur’atlari sababli daromadlarning tushishi sur’ati ning yuqoriligi, R. Maltusning aholi joylashish qonunining muvofiq aholi soni va daromadlarning keyinchalik barqarorlashuvi, Bu bosqichda milliy mahsulotni keng ishlab chiqarishga deyarli hech qanday sharoitlar yo‘q.

2. O‘tish jamiyati. Jamiyat rivojlanishidagi bu bosqich uning statik muvozanat holatidan siljishi uchun shart sharoit yaratish bilan xarakterlanadi. Bunday siljish milliy daromadda jamg‘armalar yillik normasining - foiz ga o‘sishida amalga oshishi mumkin.

3. Industrial rivojlanishga o‘tish bosqichi. Bu bosqichda investitsiyalarning milliy daromaddagi ulushi 10foiz gacha oshadi. O‘sishdan tashqari uchunchi bosqichyana ikki xususiyati bilan ajraladi. Hech bo‘lmaganda bitta yuqori o‘sish

sur'atlariga ega bo'lgan sanoat tarmog'i mavjud bo'lish, shu bilan birga bu tarmoqni kengaytirishga ko'maklashadigan siyosiy va ijtimoiy struktura bo'lishi lozim. U. Rostou bu bosqichni sanoat revolyusiyasi sifatida ta'rifladi. U nisbatan katta bo'limgan vaqt oralig'ini qamrab oladi: 20-30 yil.

4. "Yetuklikka yo'l" bu bosqichning analogi (o'xhashi) bo'lib industrial jamiyat hisoblanadi, uning rivojlanishi jamg'arish meyorini milliy daromadning 20 foiz gacha oshishi bilan xarakterlanadi. Odatda bu bosqich 60 yil davom etadi. U. Rostou bu davr boshlanishini quyidagilar uchun hisoblagan:holatidan siljishi uchun shart sharoit yaratish bilan xarakterlanadi. Bunday siljish milliy daromadda jamg'armalar Bu davrda urbanizasiya jarayoni rivojlanadi: malakali mehnat ulushi oshadi, sanoatni boshqarish malakali boshqaruvchilar – menedjerlar qo'lida mujassamlanadi.

5. Oilaviy iste'mol bosqichi. Bu bosqichni iqtisodiyotdagi shunday holat xarakterlaydi, unda millatning ishlab chiqarish salohiyati iste'molchilar uchun ishlaydi, iqtisodiyotning yetakchi sektori sifatida esa o'zoq muddat foydalanadigan mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tarmoqlar ishtirok etadi. Bu eng o'zoq bosqichdir. U. Rostouning hisoblashicha AQSH yetuklik bosqichidan ommaviy iste'mol bosqichiga o'tishi uchun 100 yil kerak bo'ldi.

O'zining kengroq chiqqan "Siyosat va o'sish bosqichlari" ishida U. Rostouning o'sishning oltinchi bosqichi – hayot sifatini axtarish bilan chiqdi. Unda iqtisodiyotning yetakchi sektori xizmat ko'rsatish sohasi bo'lib, ijtimoiy progresning birinchi pog'onasiga insonning ma'naviy rivojlanishi ko'tariladi.

U. Rostouning o'sish bosqichlari nazariyasi o'z davrining ijtimoiy fanida sezilarli hodisa bo'ldi. U jamiyat tarixiy evolyusiyasiga yangicha yondashuvni ifoda etib, u sotsial-iqtisodiy formasiyalarning marleistik kotsepsiysi va XX asr 1-boshidagi texnoratik o'sish nazariyalaridan ko'p jihatdan farq qilar edi.

U. Rostou moddiy ishlab chiqarishning ijtimoiy rivojlanishdagi yetakchi rolini, uning ishlab chiqarish kuchlari taraqqiyoti bilan shartlashganini tan oldi. Shu bilan birga Rostou va iste'molchilarning munosabati, jamg'armalarning investitsiyaga, invetitsiyalarning esa mahsulotlarga aylanishi bilan

cheklanmasligini ko'rsatishga harakat qilgan bo'lsa, boshqa tomondan – iqtisodiyot va jamiyat tarixiy evolyusiyasining umumiy nazariyasini yaratishga urindi.

Bunga qaramasdan U. Rostou nazariyasi juda ham umumiy xarakterga ega bo'lib ko'proq o'sish tarixining davriyiliga yo'naltirilgan va iqtisodiy o'sish manbalari va mexanizmi haqida kamroq bayon etadi. Ko'pgina g'arb mualliflari uchun tadqiqot predmeti bo'lib keng ma'nodagi emas, balki tor ma'nodagi iqtisodiy o'sish xizmat qiladi. U neokeynechilik va neoklassik yo'nalish vakillari tomonidan ishlab chiqilgan.

Tayanch so'z va iboralar

Iqtisodiy o'sishda ijtimoiy iqtisodiy modellar. U. Rostounning tarixiy-sotsiologik o'sish konsepsiysi. Ye. Domarning neokeynschilik o'sish modellari. R. Harrodning neokeynschilik o'sish modellari. O'sish modellarining iqtisodiy tahlili. Bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida o'sish modellarining amaliy ahamiyati.

VII BOB. IQTISODIY O'SISHDA NEOKLASSIK MODELLARI

Reja:

7.1. Iqtisodiy o'sishni boshqarishga ta'sir etuvchi omillar, 3 xil yo'naliш.

7.2. Robert Sollouni "Jamg'arishning oltin qoidasi", Sollou modeliga ilmiy xulosalar.

7.3. Texnika progressi va iqtisodiy o'sish.

7.4. Iqtisodiy o'sishdagi mehnat va fondlrning nisbiy miqdori.

7.1. Iqtisodiy o'sishni boshqarishga ta'sir etuvchi omillar, 3 xil yo'naliш

Iqtisodiy o'sishning birinchi neoklassik modellari 1950-yillar oxiri 1960-yillarda paydo bo'la boshladи, bunda dinamik muvozanat muammolariga e'tibor susayib, nafaqat foydalanimagan quvvatlar balki yangi texnikani joriy etish, unumdorligini oshirish va ishlab chiqarishni tashkil etishni yaxshilash hisobiga o'sishning mumkin bo'lgan sur'atiga erishish muammosi birinchi pog'onaga chiqib qoldi.

Bu bilan bog'liq holda nafaqat nazariy asoslar balki iqtisodiy o'sishning tahlil qilish uslublari ham o'zgardi. Bu davrda rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida yirik korxonalarning roli ortib, ular o'sishning neokeynschilik modeliga asoslangan holda o'z investitsiyalarini strategik rejalashtirish tartibida makro darajada dinamik o'sish modellarini to'za boshladilar. Yirik firmalarning mustaqil iqtisodiy siyosat o'tkazishlari, ularning o'z o'sish siyosatiga bo'lgan qiziqishlari neoklassik yo'naliш vakillarini o'sishning neonekeyschilik makro iqtisodiy modellariga o'xshash modellarini yaratishga bo'lgan faolligini oshirdi.

Bu yo'naliш vakillari (amerikalik iqtisodchi R.Solou, ingliz iqtisodchisi Dj. Mid va boshqa mualliflar) iqtisodiyotga davlat aralashuviga qarshi chiqishdi, chunki, ularning fikricha yirik firmalarga bozor raqobatchiligi sharotida potensial

o'sishga erishish uchun mavjud resurslardan yanada ko'proq foydalanish uchun erkinlik berish kerak edi.

Ular modellarining metodologik asosi bo'lib ishlab chiqarish omillarining nazariyasi va chegaraviy unumdonlik nazariyasi xizmat qildi.

Neoklassik maktab nazariyotchilari o'sishning keynschilik nazariyalarini 3 ta punkt bo'yicha tanqid qilishdi¹¹:

- Birinchidan, ular o'sishning asosiy omili sifatida- kapital jamg'arilishiga e'tiborni qaratganlar. Neoklassiklarning fikriga ko'ra esa ishlab chiqarishning o'sishiga yangi ishchilarni jalb etish hisobiga ham erishish mumkin.

- Ikkinchidan, ular kapital koeffitsiyenti s ning o'zgarmasligidan kelib chiqqan. Neoklassik modellar esa 2 xil ishlab chiqarish omillari (kapital va mehnat) ni hisobga olib va ularning o'zaro almashinuvini inobatga olib bu koeffitsiyent o'zgarishi mumkinligini ta'kidlaydilar.

- Uchinchidan ular bozor mexanizmining avtomatik ravishda muvozanatni tiklay olish qobiliyatini to'g'ri baholashmagan. Neokeynschilardan farqli ravishda ular faqat raqobatli bozor iqtisodiyoti iqtisodiy o'sishning muvozanatlilagini ta'minlay oladi deb hisoblashgan. Raqobat mexanizmidan tashqari bunday shartlaridan biri bo'lib neoklassiklarda qat'iy pul tizimi hisoblanadi.

Dastlab bu model R.Solou tomonidan "Iqtisodiy o'sish nazariyasiga qo'shilgan hissa" maqolasida bayon etilgan (1956- yil.), so'ng esa "Texnika taraqqiyoti va agregativ ishlab chiqarish funksiyasi" ishida rivojlantirildi (1957-y). 1987- yilda uni ishlab chiqqanligi uchun muallif iqtisodiyot bo'yicha Nobel mukofotiga sazovor bo'ldi.

Model resurslarning to'liq bandligini ta'minlovchi ishlab chiqarish omillari bozorlaridan mutlaq raqobat ustunligining neoklassik talqiniga asoslanadi. Mahsulot ishlab chiqarish- nafaqat kapital balki mehnatning faoliyatidir va bu omillar bo'yicha ishlab chiqarish elastikligi koeffitsiyentlarining yig'indisi 1 ga teng.

¹¹ M. Vesal. Economics of development. 2014 Published by: University of London 86-92 p.

R.Solou iqtisodiy tizim muvozanatligining muhim sharoiti yalpi talab va yalpi talifning teng bo‘lishi ekanligidan kelib chiqadi. Bunda modeldagi yalpi taklif Kobb-Duglasni ishlab chiqarish funksiyasi asosida aniqlanib, bir tomondan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik munosabatini, ikkinchi tomondan esa- foydalilaniladigan omillar va ularning o‘zaro kombinasiyasini ifodalaydi. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi bo‘yicha har bir omilning ulushi mahsulot qiymatida doimiy, ammo absolyut jihatdan mehnat va kapital sarfi o‘zgarishi mumin.

Eng umumiy ko‘rinishda milliy ishlab chiqarish hajmi U ishlab chiqarishning 3 omili funksiyasi hisoblanadi: mehnat L , kapital K va yer N :

$$Y = f(L, K, N)$$

Biroq yer omili iqtisodiy tizimda kam ma’noga ega bo‘lganligi tufayli R. Solou modelida keltirilmagan.

$$Y = f(L, K)$$

Yoilgan ko‘rinishda berilgan funksiya quyidagicha bo‘ladi:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L)L + (\Delta Y / \Delta K)K$$

Bunda $\Delta Y / \Delta L$ – mehnatning chegaraviy mahsuloti MPL

$\Delta Y / \Delta K$ – kapitalning chegaraviy mahsuloti MPK.

7.2. Robert Sollouni “Jamg‘arishning oltin qoidasi”, Sollou modeliga ilmiy xulosalar

Solou iqtisodiy tizim muvozanatligining muhim sharoiti yalpi talab va yalpi talifning teng bo‘lishi ekanligidan kelib chiqadi. Bunda modeldagi yalpi taklif Kobb-Duglasni ishlab chiqarish funksiyasi asosida aniqlanib, bir tomondan ishlab chiqarish hajmi o‘rtasidagi funksional bog‘liqlik munosabatini, ikkinchi tomondan esa- foydalilaniladigan omillar va ularning o‘zaro kombinasiyasini ifodalaydi. Kobb-Duglas ishlab chiqarish funksiyasi bo‘yicha har bir omilning ulushi mahsulot qiymatida doimiy, ammo absolyut jihatdan mehnat va kapital sarfi o‘zgarishi mumin.

Eng umumiy ko‘rinishda milliy ishlab chiqarish hajmi U ishlab chiqarishning 3 omili funksiyasi hisoblanadi: mehnat L , kapital K va yer N :

$$Y = f(L, K, N)$$

Biroq yer omili iqtisodiy tizimda kam ma’noga ega bo‘lganligi tufayli R. Solou modelida keltirilmagan.

$$Y = f(L, K)$$

Yoilgan ko‘rinishda berilgan funksiya quyidagicha bo‘ladi:

$$Y = (\Delta Y / \Delta L)L + (\Delta Y / \Delta K)K$$

Bunda $\Delta Y / \Delta L$ – mehnatning chegaraviy mahsuloti MPL

$\Delta Y / \Delta K$ – kapitalning chegaraviy mahsuloti MPK.

Funksiyani soddalashtirish uchun belgilash kiritamiz:

$$u = Y/L$$

bunda y – bir ishchi hisobiga chiqarilgan mahsulot yoki mehnat unumdarligi


$$k = K/L$$

bunda k – kapital bilan qorollanganlik yoki mehnatning fond bilan qorollanganligi

Unda ishlab chiqarish funksiyasini quyidagicha yozish mumkin:

$$y = f(k)$$

Bu yerda $f(k) = F(k, l)$



7. 1 – rasm. Kapitalga cheklangan moyillik va kapital bilan qulorllanish.

R. Solou modelidagi yalpi talab investitsion va iste'mol talabi bilan aniqlanadi. bir ishchi hisobiga ishlab chiqarish tenglamasi quyidagicha ko'rnishga ega bo'ladi:

$$Y = c + i \quad (1)$$

Bu yerda s va i – bir ishchi hisobiga iste'mol va investitsiyalar.

Daromad jamg'armaga shakllangan moyillik tufayli iste'mol va jamg'armaga foydalanganligi sababli iste'mol funksiyasini quyidagicha ifodalash mumkin:

$$c = (1 - s)y$$

bu yerda s – jamg'arma meyori.

$$\text{Unda } y = c + i = (1 - s)y + i,$$

bunda esa $i = sy$ ekanligi kelib chiqadi.

Boshqacha aytganda, muvozanat sharoitida investitsiyalar jamg'armalar va proporsional daromadga teng bo'ladi.

Shunday qilib, R. Solou modelini tashkil etuvchi – ishlab chiqarish funksiyasi va talab funksiyasiga ega bo'ldik. Natijada talab va taklifning tenglik sharti quyidagicha bo'lishi mumkin:


$$f(k) = c + i \text{ yoki } f(k) = i / s$$

Ishlab chiqarish funksiyasi tovarlar bozoridagi taklifni aniqlaydi, kapitalning jamg'arilishi esa- ishlab chiqarish mahsulotiga bo'lgan talabni.

Endi, kapitalning jamg'arilishi qanday qilib iqtisodiy o'sishni ta'minlanishini ko'rib chiqamiz. Kapitalning hajmi investitsiyalar va chiqib ketish ta'sirida o'zgaradi: Investitsiyalar kapital zaxirasini oshiradi, chiqib ketish esa kamaytiradi.

Bir ishchi hisobiga investitsiyalar bir ishchiga tug'ri keladigan daromadning bir qismi hisoblanadi ($i = sy$) Shunday qilib, (y) ni ishlab chiqarish funksiyasi ifodasi bilan o'zgartirsak, investitsiyalar tenglamasining kapital bilan qurollanganlik funksiyasiga ega bo'lamiz: $i = sf(k)$

Tenglamadan kelib chiqadiki kapital bilan qurollanganlik darajasi (k) qancha yuqori bo'lsa ishlab chiqarish darajasi $f(k)$) ham shunchalik yuqori bo'ladi, investitsiyalar i ham ko'p bo'ladi. Bu kapitalning mavjud zaxiralari (k) bilan yangi kapital jamg'arilishi i o'rtasida bog'liqlik mavjudligidan dalolat beradi. Unda ko'rsatilganidek jamg'armalar meyori (s) ishlab chiqarilgan mahsulotning istemoli (s) va investitsiyalarga (i) bo'linishini aniqlaydi. Ixtiyoriy kapital bilan qurollanganlik darajasi (k) uchun ishlab chiqarish hajmini $f(k)$ investitsiyalr hajmini $sf(k)$, iste'mol esa mos ravishda $f(k) - sf(k)$ ni, tashkil etadi.



7.2-rasm. Bir ishchiga to'g'ri keladiganishlab chiqarish va talab ($c + i$)

Kapital amortizasiysi hajmini aniqlash uchun har yili uning aniqlangan ma'lum bir qismi d chiqib ketadi deb hisoblaymiz. Bu ko'rsatkich *amortizasiya meyori* deiladi Masalan, agar kapital o'n yil ekspluatasiya qilinsa unda chiqib ketish meyori yiliga 10foiz ($d = 0.1$) ni tashkil etadi. Shunday qilib, har yili chiqib ketadigan kapital miqdori (dk) ni tashkil etadi. Kapitalning har yili chiqib ketadigan qismi kapital zaxiralari bilan proporsional. Shunday qilib, investitsiyalarda chiqib ketishning va kapital zaxiralariga ta'sirini quyidagi formula bilan ifodalash mumkin.


$$\Delta k = i - dk$$

bu yerda Δk - bir ishchiga to'g'ri keladigan, kapital zaxiralarining o'zgarishi.

Investitsiyalar va jamg‘armalar tengligidan foydalanib. quyidagiga ega bo‘lamiz.


$$\Delta k = sf(k) - dk$$

U kapital zaxirasi (k) investitsiyalar chiqib ketish hajmi bilan tenglashganga qadar ($(sf(k) = dk)$) o‘z ishni ($\Delta k > 0$) ko‘rsatadi. Bu holatni YE nuqta ifodalab unga mehnatning kapital bilan qurollanganlikning barqaror darjasasi k^* muvofiq keladi.



7.3-rasm. Kapitlni chiqib ketish grafigi.

k^* ga erishganda iqtisodiyot uzoq muddatlari muvozanat holatida bo‘ladi. Kapitalning boshlang‘ich hajmiga bog‘liq bo‘lmagan ravishda, u keyinchalik barqaror holatga ega bo‘ladi. Agar kapital zaxiralari barqarorlik darjasasi (k_1) dan past bo‘lsa investitsiyalar chiqib ketishdan ortiq bo‘ladi, kapital bilan qurollanganlik oshadi va o‘sib boradi.- (k^*) darajasiga yetmaguncha. Agar kapital zaxiralari (k_2) nuqtaga mos kelsa, unda investitsiyalar eskirishdan kam bo‘ladi. Demakki kapital zaxiralari qisqarib (k^*) darajasiga yaqinlashib boradi.



7.4-Rasm. Investitsiyalar, chiqib ketish va kapital bilan qurollanganlikni barqaror darajasi.

Kapital bilan qurollanganlikning muvozanatli darajasiga jamg‘arma meyo‘ri ta’sir ko‘rsatadi. Uning ($S1$) dan ($S2$) gacha o‘sishi ($S1f(R)$)dan ($S2f(R)$) ga siljitadi va iqtisodiyot yuqoriq kapital bilan qurollanganlik (R^*) va yuqoriq mehnat unumdorligiga ega yangi muvozanatli holatga o‘tadi.

Shunday qilib R. Solou modeli jamg‘arma meyori barqaror kapital bilan qurollanganlikni belgilovchi asosiy omil ekanligini ko‘rsatadi. Jamg‘armaning nisbatan yuqoriq meyori kapitalning ko‘proq zaxirasi va ishlab chiqarishning nisbatan yuqoriq darajasini ta’minlaydi.

Shu bilan birga jamg‘arish jarayoni iqtisodiy o‘sish mexanizmini belgilab bermaydi, u faqat bir muvozanat holatdan ikkinchisiga o‘tilishini ifodalaydi. Shuning uchun R. Solou modelining keyingi rivojlanishi aholi sonini o‘zgarishi va texnik taraqqiyotning tezlashishini ko‘zda tutadi. Oldin aholining o‘sishi omilini ko‘zatamiz.

Aholi soni o‘sgandagi kapital bilan qurollanganlikning muvozanatli darajasi. Aholi doimiy (n) sur’at bilan o‘sadi deb tasavvur qilamiz. Ishchilar sonining ko‘payishi boshqa teng sharoitlarda mehnatning kapital bilan qurollanishining qisqarishiga olib kelishi mumkin. Natijada, bir ishchiga kapital zaxirasi o‘zgarishini ko‘rsatuvchi tenglama quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\Delta R = i - dR - nR \Rightarrow \Delta R = i - (d+n)R$$

Mehnatning kapital bilan qurollanganligi pasayishi tufayli uni oldingi darajada saqlab turish uchun investitsiyalarning kapital chiqib ketishini qoplaydigan hajmi zarur.

Matematik jihatdan o‘zgarmas kapital bilan qurollanganlik sharoitidagi iqtisodiyotda barqaror muvozanatni ifodalovchi bu talab quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$\Delta R = sf(R) - (d+n)R = 0 \quad yoki \quad sf(R) = (d+n)R$$

Tenglamadagi $(d+n)R$ investitsiyalarning kritik kattaligini xarakterlaydi. YA’ni bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapitalni doimiy o‘zgarmas darajada saqlab turadigan hajmini ifodalaydi.

Aholi o‘sishining hisobga olgan holda R. Solou modelini grafik jihatdan ifodalash uchun mehnatning kapital bilan qurollanganligi barqaror darajasini (R^*) deb belgilaymiz. Aniqlaganimizdek, agar bir ishchiga to‘g‘ri keladigan kapital ($R=\text{const}$) bo‘lsa iqtisodiyot muvozanat holatida bo‘ladi. Agar $R_1 < R^*$ bo‘lsa, unda amaldagi investitsiyalar ularning kritik kattaligidan yuqori va (R_1) o‘sadi. Agar $R_2 > R^*$, unda investitsiyalar ularning kritik darajasidan past va R_2 ga pasayadi.

7.4. Iqtisodiy o‘sishdagi mehnat va fondlarning nisbiy miqdori

Model iqtisodiyot barqaror holatda bo‘lishi uchun investitsiyalar $sf(R)$ kapital chiqib ketishi va aholining o‘sishi $(d+n)R$ oqibatlarini qoplashi kerakligini ko‘rsatadi. B holda kapital bilan qurollanganlik (R) va mehnat unumдорлиги (U) o‘zgarmas qoladi. Lekin aholi o‘sishida kapitalning doimiyligi. Kapital ham aholiga mos sur’atda o‘sishi kerakligini anglatadi: ya’ni:

$$\Delta Y/Y = \Delta L/L = \Delta K/K = nn$$

Bundan quyidagi xulosa kelib chiqadi: aholining o‘sishi – iqtisoiyotning barqarorlik holati sharoiidagi o‘zluksiz iqtisodiy o‘sishning sabablaridan biri.

Biroq agar aholining o‘sishi investitsyaning oshishi bilan birga bormasa, unda bu bir ishchiga tug‘ri keladigan kapital zaxirasining kamayishiga olib keladi. Aholining n dan n_1 ga o‘sishi $(d+n)R$ chizig‘ini yuqoriga $(d+n_1)R$ holatiga siljitadi. Bu esa kapital bilan qurollanganlikni R^* dan R_1^* gacha qisqartiradi. Shunday qilib, R. Solou modeli aholi o‘sishining yuqori sur’atlarga ega bo‘lgan davlatlarda kapital bilan qurollanganlik past – demakki, daromadlar ham past bo‘lishini tushuntirib beradi.

R.Solou modelida texnik taraqqiyotning o‘rnini (yoki hisobga olinishi).

Iqtisodiy o‘sishning investitsiyalar va banklar sonining oshishidan keyingi uchinchi manbasi bo‘lib, texnik taraqqiyot hisoblanadi. Neoklassik nazariyada

texnik (texnologik) taraqqiyot deganda ishlab chiqarishning mashinalashtirilishi emas, balki, ishlab chiqarishdagi sifat o‘zgarishlari tushuniladi.

Modelga texnik taraqqiyotning kiritilishi ishlab chiqarish funksiyasini o‘zgartirib, u quyidagi ko‘rinishga ega bo‘ladi:

$$Y=f(K,L,E)$$

Bu yerda (E)-bir ishchi mehnatining samaradorligi (ishchi kuchining salomatligi, ma’lumoti va malakasiga bog‘liq): (Le)- ishchi kuchining samarali birliklarining soni.

Texnik taraqqiyot samaradorlik (YE) ning doimiy surat (d) bilan o‘sishga olib keladi. Shuning uchun $dq2foiz$ bo‘lganda, mehnatning har bir birligidan qaytim yiliga 2foiz ga oshadi, bu esa ishlab chiqarish hajmining ishchi kuchi yiliga 2foiz o‘sgandagi kabi o‘sishiga olib keladi. Texnik taraqqiyotning bunday shakli mehnatni tejaydi deyiladi, (d) – esa mehnatning tejaydigan texnik taraqqiyotning surati.

Endi texnik taraqqiyot holatidagi kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasini aniqlash mumkin. Agar banklarning soni (L) (n) sur’at bilan oshayotgan bo‘lsa, samaradorlik (YE) esa (g) sur’at bilan o‘sayotgan bo‘lsa, unda (LE) ($n-g$) sur’at bilan oshib boradi.

Doimiy samaradorlik bilan bir birlik mehnatga to‘g‘ri keladigan kapital $R1+[K/(LE)]$ ni tashkil etadi. Doimiy samaradorlik bilan bir-birlik mehnatga to‘g‘ri keladigan ishlab chiqarish hajmi esa $u1=Y/(LE)$ ni tashkil etadi. Bunda barqaror muvozanatlilik holatiga quyidagi shartda erishiladi:

$$sf(R1)=(d+n+g)R1$$

Tenglama o‘zarmas samaradorlik bilan bir-birlik mehnatga to‘g‘ri keladigan kapital va ishlab chiqarish doimiy bo‘ladigan kapital bilan ta’minlanganlikni (R^*) faqatgina bitta darjasasi mayjudligini ko‘rsatadi bu barqaror holat iqtisodiyotning o‘zoq muddatli muvozanatini ifodalaydi.

($R1^*$) ning barqaror (qat’iy) holatida texnik taraqqiyot mavjud bo‘lgan sharoitda kapital hajmi (K) va ishlab chiqarish (U) ($n+g$) sur’at bilan o‘sadi. Bir ishchi hisobiga to‘g‘ri keladagan kapital bilan qurollanganlik (K/L) va ishlab

chiqarish (U/L) (g)- sur'at bilan o'sib boradi. Bu R.Solou modelida texnik taraqqiyot-turmush darajasi o'zluksiz o'sishining yagona sharti ekanligini ko'rsatadi.

Shunday qilib, R.Solou modeli iqtisodiy o'sishning 3 manbasi-investitsiyalar, ishchi kuchi soni va texnik taraqqiyot o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni yoritish imkonini beradi. Davlat iqtisodiy o'sishga jamg'arma meyori va texnik taraqqiyot tezligi orqali ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Jamg'arma meyori qanday bo'lishi kerak? Aniqlaganimizdek muvozanatlil iqtisodiy o'sish jamg'armaning turli meyorlari bilan muvofiqlashadi. Shuning uchun maksimal iste'mol darajasi bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlaydigan meyor optimal bo'ladi. Bunday meyor "Oltin qoida" ga muvofiq keladi. Jamg'armaning bu meyoriga mos keladigan kapital bilan qurollanganlik darajasini (R^{**}) bilan iste'molni esa - (s^{**}) bilan belgilaymiz. Oldin biz ishlab chiqariladigan mahsulot iste'mol va investitsiyalarga sarflanadi deb belgilagan edik: $y=c+i$ bundan $c=y-i$ kelib chiqadi.

Berilgan parametrlarning o'rniga ular barqaror holatidagi ifodasini qo'ysak, quyidagiga ega bo'lamiz: $c^*=f(R^*)-dR^*$, bu yerda s^* - barqaror o'sish holatidagi iste'mol.

Iste'mol hajmi maksimal bo'ladigan kapital bilan qurollanganlikning barqaror darajasi "Oltin qoida"ga muvofiq keladi. "Oltin qoida" bo'yicha kapital bilan qurollanganlik R^{**} bilan iste'mol esa- s^{**} bilan belgilangan.

"Oltin qoida" darajasiga mos keladigan kapital bilan qurollanganlik holatida $f(R^*)$ ishlab chiqarish funksiyasi va dR^* chizig'i bir xil og'maga ega va ist'mol maksimal darajaga erishadi.

R^{**} kapital bilan qurollanganlik darajasida kapital zaxirasining bir birlikka oshishi ishlab chiqarish o'sishini keltirib chiqaradi (kapitalning chegaraviy mahsulotiga teng keladigan) va kapitalning d kattalikka chiqib ktishini oshiradi. Shunday qilib, "Oltin qoida"ga mos keladigan R^{**} kapital bilan qurollanganlik darajasida $MPK=d$ shart bajariladi. Aholi o'sishi va texnik taraqqiyotni hisobga olgan holda esa, $MPK=d+n+g$ shart bajariladi.

Agar iqtisodiyot “Oltin qoida” bo‘yicha ega bo‘lishi mumkin bo‘lgan kapital zaxirasidan ortiqcha kapital zaxirasi bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, unda bu holatda jamg‘arma meyorini pasaytirishga yo‘naltrilgan siyosatni amalga oshirish zarur.

Jamg‘arma meyorining kamayishi iste’molning oshishi va unga muvofiq ravishda investitsiyalarning pasayishiga olib keladi, demak kapital zaxirasining barqaror darajasining pasayishiga ham olib keladi.

Agar iqtisodiyot barqarorlik holatida “Oltin qoida” dagidan kam kapital bilan qurollanganlik bilan rivojlanayotgan bo‘lsa, unda jamg‘arma meyorini oshirish zarur. Bu investitsiyalarni oshirib iste’molni pasaytiradi, lekin kapitalning jamg‘arilib borishi bo‘yicha qandaydir vaqtidan boshlab yana o‘sma boshlaydi. Natijada iqtisodiyot yana yangi muvozanat holatiga erishadi ammo oltin qoidaga muvofiq bo‘lgan holda, bunda iste’mol dastlabkiga nisbatan yuqoriq darajaga ega bo‘ladi.

Texnik taraqqiyotni rag‘batlantirish R.Solou modeli texnik taraqqiyotni farovonlikni barqaror oshiruvchi va o‘sishning optimal variantini topishga imkon yaratuvchi yagona asos sifatida ko‘rsatadi. Biroq u texnik taraqqiyotni tashqi (Ekzogen) omil sifatida ko‘rib chiqadi, demakki uni tushuntirmaydi. Ayrim olimlarning fikricha, texnik taraqqiyotning determinantlari bugungi kunda yetarlicha aniq emas. Biroq davlat siyosti turli xil instrumentlardan shu jumladan ilmiy tadqiqot va loyiha – konstruktorlik ishlaridan foydalanib texnik taraqqiyotni rag‘batlantirishi mumkin. Masalan, potent qonunchiligini mukammallashtirib, ayrim rivojlangan mamlakatlar (AQSH, Yaponiya, Germaniya) o‘zoq muddat davomida yangi mahsulotni ishlab chiqarish huquqiga monopoliyani berishdi. Soliq to‘g‘risidagi qonunlar ko‘pgina mamlakatlarda ilmiy tadqiqot tashkilotlariga bir qancha imtiyozlar beradi. Maxsus tashkil etilgan milliy ilmiy fondlar fundamental ilmiy tadqiqotlarga subiyediyalar beradi. Hozirgi kunda mablag‘larni inson kapitaliga yo‘naltirish ham muhim masalalardan biri bo‘lib kelmoqda, texnik taraqqiyotida u asosiy rolni o‘ynaydi.

Tayanch so‘z va iboralar

Iqtisodiy o'sishni boshqarishga ta'sir etuvchi omillar, 3 xil yo'nalish. Amerika uslubidagi sotsial o'sish – Olin Toffler; intensiv va ekstensiv o'sish. Robert Sollouni "Jamg'arishning oltin qoidasi", Sollou modeliga ilmiy xulosalar. Texnika progressi va iqtisodiy o'sish. Mehnat jamg'armasi va mehnat samarasi. Iqtisodiy o'sishning hozirgi davrdagi o'sish sur'atlari. Iqtisodiy o'sishdagi mehnat va fondlarning nisbiy miqdori.

VIII BOB. DINAMIK TARMOQLARARO BALANSNING IQTISODIY O'SISHDAGI MOHIYATI

Reja:

- 8.1. Tarmoqlararo balansning iqtisodiy mohiyati.**
- 8.2. Tarmoqlararo balansning tarkibiy to‘zilishi iqtisodiy o‘sish obyekti sifatida.**
- 8.3. Tarmoqlararo balansdagi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar.**
- 8.4. Tarmoqlararo balans parametrlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri.**
- 8.5. Iqtisodiyot tarmoqlarining tasniflanishi va ularning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, mohiyati.**
- 8.6. Tarmoqlararo balans va iqtisodiy o‘sish modellarining o‘zaro bog‘liqligi.**
- 8.7. Dinamik tarmoqlararo balans va uning asosiy parametrlari (tarkibi).**
- 8.8. Qo‘sishimcha ishchi kuchi va asosiy fondlarning iqtisodiy o‘sishdagi mohiyati.**

8.1. Tarmoqlararo balansning iqtisodiy mohiyati

Matritsaviy iqtisodiy matematik modellar alohida olingan korxonadan boshlab butun respublika halq xo‘jaligini qamrab olgan holda mahsulotlar ishlab chiqarish va taqsimlashni tahlil qilish hamda rejalashtirish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, bu yuzaga kelgan proporsiyalarni o‘rganish, rejalarни muvafiqlashtirish imkonini beradi.

Halq xo‘jaligi darajasidagi tarmoqlararo balans (TAB) da milliy daromadning yaratilishi va taqsimlanishi, moddiy va mehnat resurslaridan foydalanish, tarmoqlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish aloqalari hamda ijtimoiy mahsulotning ishlab chiqarilishi va taqsimlanishi o‘z aksini topadi.

Balans to‘zishda quyidagilarga asoslanamiz:

a) ishlab chiqarish tarmoqlarini *i* harfi bilan, iste’molchi tarmoqlarni *j* harfi bilan belgilaymiz;

$$i=1,2,3,\dots,n; j=1,2,3,\dots,n.$$

b) halq xo‘jaligining har bir tarmog‘i balansda ishlab chiqaruvchi hamda iste’molchi sifatida qatnashadi;

v) ishlab chiqarish tarmoqlariga balansdagi muayyan bir qator, iste’molchi tarmoqlariga esa muayyan bir ustun mos keladi.

X_{ij} kattaliklar i -tarmoqda ishlab chiqarilgan va j -tarmoqda iste’mol qilingan ishlab chiqarish vositalarining qiymatini ko‘rsatadi¹².

Ishlab chiqarish tarmoqlari	Iste’mol tarmoqlar					Pirovard mahsulot	Yalpi mahsulot
	1	2	3	...	N		
1	x_{11}	x_{12}	x_{13}	...	x_{1n}	Y_1	X_1
2	x_{21}	x_{22}	x_{23}	...	x_{2n}	Y_2	X_2
3	x_{31}	x_{32}	x_{33}	...	x_{3n}	Y_3	X_3
...
n	x_{n1}	x_{n2}	x_{n3}	...	x_{nn}	Y_n	X_n
Ish haqi	v_1	v_2	v_3	...	v_n	v_c	-
Sof daromad	m_1	m_2	m_3	...	m_n	m_c	-
Yalpi mahsulot	X_1	X_2	X_3	...	X_n	-	X

Tarmoqlararo balansning ustunlarida har bir tarmoqdagi moddiy xarajatlar to‘zilishi va sof mahsuloti akslanadi. Faraz qilaylik, jadvalning 1-tarmog‘i elektroenergiya ishlab chiqarish, 2-tarmog‘i ko‘mir sanoati bo‘lsin. U holda x_{11} kattalik 1-tarmoqning o‘z ehtiyojiga sarflangan elektroenergiya qiymatini, x_{21} esa elektrenergiya ishlab chiqarishdagi ko‘mir xarajatlarini ko‘rsatadi. Umuman, 1-ustundagi x_{11} , x_{21} , x_{31}, \dots, x_{n1} kattaliklar 1-tarmoqning ta’minotchi tarmoqlar bo‘yicha moddiy xarajatlari to‘zilishini ko‘rsatadi. 1-tarmoqning sof mahsuloti ish haqi (v_1) va sof daromad (m_1) ning yig‘indisidan tashkil topgan. Moddiy xarajatlar va sof mahsulotning jamlanmasi esa tarmoqning yalpi mahsulotiga teng bo‘ladi,

$$\text{ya’ni } X_1 = X_{11} + X_{21} + X_{31} + \dots + X_{n1} + v_1 + m_1 = \sum_{i=1}^n X_{i1} + v_1 + m_1.$$

¹² Леонтьев В.В. Экономические эссе. Теории, исследования, факты и политика. – М.: Политиздат, 1990, 220 с.

Shu kabi har bir tarmoq uchun quyidagi tenglikni yozish mumkin:

$$X_j = \sum_{i=1}^n X_{ij} + v_j + m_j, \quad j = \overline{1, n}$$

Tarmoqlararo balansning satrlarida moddiy ishlab chiqarishning har bir tarmog‘idagi yillik mahsulot hajmining taqsimlanishi o‘z aksini topadi. Masalan, 1-tarmoq qatoridagi x_{11} , x_{12} , x_{13}, \dots, x_{1n} kattaliklar elektroenergiya tarmog‘i mahsulotining shu tarmoqning o‘zida, ko‘mir sanoatida va barcha boshqa tarmoqlarda sarflangan miqdorini ko‘rsatadi. Elektroenergiyaning moddiy ishlab chiqarishdan tashqaridagi sarflanishi, ya’ni so‘nggi (pirovard) iste’molni Y_1 ko‘rsatadi. Pirovard iste’mol shaxsiy (xususiy) va ijtimoiy iste’moldan tashkil topadi.

1-satrdagi barcha kattaliklar yig‘indisi xuddi 1-ustundagi kattaliklar yig‘indisi kabi natijaga, ya’ni yil davomida ishlab chiqarilgan elektroenergiya mahsulotining qiymat ko‘rinishiga teng bo‘lishi kerak:

$$X_1 = X_{11} + X_{12} + X_{13} + \dots + X_{1n} + Y_1 = \sum_{i=1}^n X_{ij} + y_i$$

Xuddi shuningdek ixtiyoriy olingan ishlab chiqarish tarmog‘i uchun:

$$X_i = \sum_{j=1}^n X_{ij} + y_i.$$

Ko‘rinib turibdiki, bunday tenglamalar soni n ta, ya’ni $i=1,2,3,\dots,n$. Bu tenglamalar moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari mahsulotlarining taqsimot tenglamalari deyiladi. Shunday qilib, balans ma’lumotlarining alohida tarmoqlar bo‘yicha qaralishi yillik mahsulotning qiymat jihatidan tarkibini bu mahsulotlarning foydalanish uchun taqsimlanishini ko‘rsatar ekan.

8.2. Tarmoqlararo balansning tarkibiy to‘zilishi iqtisodiy o‘sish obyekti sifatida

TAB to‘rtta qism - kvadrantlardan iboratdir.

1 kvadrant shaxmat taxtasi kabi to‘zilgan bo‘lib, unda ishlab chiqarish vositalarining oqimi akslanadi. 1-qism ma’lumotlari tarmoqlar moddiy xarajatlari tarkibini tahlil qilishda, tarmoqlar o‘rtasidagi ishlab chiqarish bog‘lanishlari va proporsiyalarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

2 kvadrantda barcha moddiy ishlab chiqarish tarmoqlarining so‘nggi mahsuloti ko‘rinadi. So‘nggi mahsulot deb, ishlab chiqarishdan tashqaridagi iste’mol va jamg‘armadagi mahsulotlar yig‘indisiga aytildi. So‘nggi mahsulot tarkibiga kiruvchi ijtimoiy iste’mol ta’lim tarbiya, o‘quv, fan, sog‘liqni saqlash, mudofaa, boshqaruv, sport kabi sohalardagi iste’moldan tarkib topadi. Shunday qilib, 2-kvadrantdagi ma’lumotlar milliy daromadning tarmoqlar bo‘yicha moddiy to‘zilishi, uning jamg‘arma va iste’mol fondlariga taqsimlanishini harakterlaydi.

3 kvadrant ko‘rsatkichlari ham milliy daromadni harakterlaydi, faqat bunda uning qiymati tarkibi ya’ni barcha tarmoqlarda mehnatga to‘langan haq va sof daromad yig‘indisi sifatida qaraladi. 3-kvadrant ma’lumotlari moddiy ishlab chiqarishda zaruriy va qo‘srimcha mahsulot orasidagi hamda yangidan yaratilgan va ko‘chirilgan qiymatlar nisbatini tahlil qilish uchun zarurdir.

2 va 3 kvadrantlarning umumiyligi yig‘indisi o‘zaro tengdir. Barcha tarmoqlar bo‘yicha (1) tenglamani jamlab quyidagini hosil qilamiz:

$$\sum_{j=1}^n X_j = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n x_{ij} + \sum_{j=1}^n v_j + \sum_{j=1}^n m_j \quad (8.2.3)$$

(2) tenglamani i bo‘yicha jamlasak

$$\sum_{i=1}^n X_i = \sum_{i=1}^n \sum_{j=1}^n x_{ij} + \sum_{i=1}^n y_i \quad (8.2.4)$$

(3) va (4) tengliklarning chap qismida bir xil kattalik - yalpi ijtimoiy mahsulot X hosil bo‘ladi. Tengliklarning o‘ng qismidagi 1- qo‘siluvchilar ham bir xil, ya’ni 1-kvadrantning jamiga tengdir. Demak, tengliklarning qolgan qismlari ham tengdir:

$$\sum_{j=1}^n v_j + \sum_{j=1}^n m_j = \sum_{i=1}^n Y_i \quad (8.2.5)$$

(5) tenglikning chap qismida 3-kvadrantning jamlanmasi, o‘ng qismida esa 2-kvadrant jamlanmasi hosil buldi, ya’ni milliy daromadning moddiy-mahsulot va qiymat tarkiblari bir xil bo‘lishi ko‘rindi.

4 kvadrant TAB ning so‘nggi mahsulotlar ustuni va daromadlar satrining kesishgan joyida bo‘lib, bu yerda milliy daromadning so‘nggi taqsimlanishi va foydalanishi o‘z aksini topadi. Dastlab yaratilgan milliy daromadning qayta taqsimlanishi oqibatida aholining korxonalarining va davlatning so‘nggi daromadlari yuzaga keladi. 4-qism ma’lumotlari tarmoqlararo modellarda aholining daromad va chiqimlarini ko‘rsatishda muhim rol o‘ynaydi. Shunday qilib, TAB yagona iqtisodiy-matematik model tarkibida moddiy ishlab chiqarish tarmoqlari balansi, yalpi ijtimoiy mahsulot balansi, milliy daromad balansi hamda aholining daromad va xarajatlari balanslarini birlashtiradi.

8.3. Tarmoqlararo balansdagi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar

Tarmoqlararo balans modellari iqtisodiyotni va uning tarmoqlarini prognozlash aloqalarini ta’minalash, ularni miqdoriy bog‘liqligini ta’minalash, iqtisodiy tahlil qilish va shular asosida prognozlashtirish hamda rejalashtirish uchun asosiy vositalardan bo‘lib hisoblanadi.

Tarmoqlararo balans ishlab chiqarishni va barcha tarmoqlar hamda mahsulotlarning aniq belgilangan turlarini prognozlashda, rejalashtirishda investitsiyalarni, asosiy fondlar va ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni tahlil qilish mehnat miqdorini rejalashtirishda, ishlab chiqarishni hududlar bo‘yicha tashkil qilishda keng qo‘llanilmoqda.

Tarmoqlararo balans kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishning o‘zaro aloqalar tizimi va proporsiyalarini o‘rganishda, tahlil qilishda, prognozlashda eng ixcham, amalda keng qo‘llash mumkin bo‘lgan vositalardan, mexanizmlardan biri hisoblanadi. Ushbu balans yordamida makroiqtisodiy ko‘rsatkichlardan hisoblangan yalpi ichki mahsulot pirovard ya’ni yakuniy mahsulot va milliy daromad to‘zilishini, mahsulotlarni takror ishlab chiqarish fondlari o‘rtasida taqsimlanish strukturasini va ijtimoiy ishlab chiqarish xarajatlarini to‘zilishini har

tomonlama tahlil qilish va tegishli xulosalar asosda samarali boshqaruva yechimini qabul qilish mumkin.

Tarmoqlararo balansning oddiy ko‘rinishi statistik model asosida ifodalanib, ma’lum davrdagi resurslar va ehtiyojlarning miqdoriy jihatdan o‘zaro moslashishini ta’minlaydi, ishlab chiqarish resurslarining cheklanganlik shartlari, ishlab chiqarish bilan mahsulotlardan foydalanishning balans munosabatlari, zarur texnik texnologik shartlar va boshqalarni bajarilgan holda prognozlash va uning asosida rejaning mumkin bo‘lgan variantlarini topishga imkon yaratadi.


Tarmoqlararo balansning statik modeli bir yillik davr uchun to‘ziladi, bir yillik holatdan tashqaridagi o‘zgarishlar inobatga olinmaydi. Amalda esa ishlab chiqarish doim rivojlanib, kengayib boradi. Ushbu holat statik tarmoqlararo balansda o‘z aksini topmaydi.

Ijtimoiy, iqtisodiy tizimli ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishi dinamikasini inobatga olish bu – mahsulot ishlab chiqarish xajmini ma’lum davrdagi o‘zgarishi, mavjud va qo‘sishma kiritilgan ishlab chiqarish fondlari va quvvatlari bilan, shuningdek mavjud va kelajakda kutilayotgan megnat resurslari uzviy bog‘langan qamrab oluvchi dinamik tarmoqlararo balans to‘zishdir.

8.4. Tarmoqlararo balans parametrlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri

Prognozlash bu keljakni, harakatdagi hatosini baholash, shuning uchun makroiqtisodiy jarayonlarni, tarmoqlarni o‘zaro aloqadagi holatlarini prognozlashda ko‘proq dinamik tarmoqlararo balans modellardan foydalanish maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

Ishlab chiqarish jarayonini quyidagicha ifodalash mumkin. (shartli bir yillik holat)



8.1-Rasm. Oddiy ishlab chiqarish jarayoni

Oddiy ishlab chiqarish jarayonida ni miqdordagi ishlab chiqarish resurslarni ishlab chiqarish jarayoniga kiritildi va j-turdagi N miqdorli mahsulot ishlab chiqarildi. Ushbu jarayon iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini o‘zaro bog‘liqda va bevosita o‘zaro aloqada bo‘lgan holda amalga oshiriladi. Tarmoqlar o‘rtasida ishlab chiqarish xarajatlari harakatini, natijada yakuniy va yalpi ichki mahsulotlar ishlab chiqarish holatini quyidagi statik tarmoqlararo balans orqali ifodalash mumkin.

Statik tarmoqlararo balans ustunlarida moddiy xarajatlar to‘zilmasi va har bir tarmoqning sof daromadi aks ettirilgan.

Moddiy xarajatlar va sof daromad jami tarmoqning yalpi mahsulotiga teng. Birinchi iste’molchi tarmoqning yalpi mahsuloti quyidagicha bo‘ladi:

$$X_1 = X_{11} + X_{21} + X_{31} \dots + X_{n1} + V_1 + m_1 = \sum_{i=1}^n x_{i1} + V_1 + m_1$$

Barcha tarmoqlar uchun ham quyidagi tenglik o‘rinli.

$$X_j = \sum_{i=1}^n x_{ij} + V_j + m_i, \text{ bu } \bar{j} \text{ yerda } j=1, n$$

Statik tarmoqlararo balans qatorlarida har bir moddiy ishlab chiqarish tarmog‘i bir yillik mahsulotining taqsimlanishi to‘g‘risidagi ma’lumotlar keltirilgan.

N-jadval bo‘yicha birinchi qator quyidagi tenglama orqali ifodalanishi mumkin, ya’ni:

$$X_1 = X_{11} + X_{12} + X_{13} \dots + X_{1n} + Y_1 = \sum_{j=1}^n x_{1j} + Y_1$$

Shuningdek boshqa tarmoqlar bo‘yicha quyidagi umumiy tenglamani asos qilib olish mumkin.

$$X_i = \sum_{d=1}^n X_{ij} + Y_i, (i=1,2,3\dots,n)$$

8.5. Iqtisodiyot tarmoqlarining tasniflanishi va ularning iqtisodiy o‘sishdagi o‘rni, mohiyati

Tarmoqlararo balans parametrlari o‘rtasidagi bevosita aloqalarni iqtisodiy baholash uchun turli ko‘rinishdagi koeffitsiyentlardan foydalanish mumkin. Hisobot davridagi tarmoqlararo balans ma’lumotlaridan foydalanib bevosita moddiy xarajatlar koeffitsiyentlarini (a_{ij}) tarmoqlararo material oqimlari miqdorini iste’mol qiluvchi tarmoqlar yalpi ichki mahsuloti nisbati orqali hisoblash mumkin, ya’ni

$$a_{ij} = \frac{X_{ij}}{X_j}$$

Bevosita xarajatlar koeffitsiyentlari kvadrat matritsani tashkil etadi

$$A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}a_{13}\dots a_{1n} \\ a_{21}a_{22}a_{23}\dots a_{2n} \\ a_{31}a_{32}a_{33}\dots a_{34} \\ \dots\dots\dots \\ a_{n1}a_{n2}a_{n3}\dots a_{nn} \end{pmatrix}$$

Agar a_{ij} ning qiymati aniq bo’lsa tarmoqlararo xarajatlar oqimi quyidagicha topiladi.

$$X_{ij} = a_{ij}X_j$$

Yuqoridagi formuladan qator bo‘yicha tarmoqning yalpi ichki mahsulotini quyidagicha hisoblash mumkin:

$$X_i = \sum_{i=1}^n a_{ij}X_j + Y_i$$

Statik tarmoqlararo balans modellarining vektor ko‘rinishini quyidagicha ifodalash mumkin.

$$\mathbf{X} = \mathbf{AX} + \mathbf{U}$$

bunda: \mathbf{X} – yalpi ichki mahsulot vektori;

\mathbf{U} – pirovard mahsulot vektori;

\mathbf{A} – to‘liq material xarajatlari koeffitsiyentlari matritsasi

$$X = \begin{pmatrix} X_1 \\ X_2 \\ X_3 \\ \dots \\ X_n \end{pmatrix} \quad Y = \begin{pmatrix} Y_1 \\ Y_2 \\ Y_3 \\ \dots \\ Y_n \end{pmatrix} \quad A = \begin{pmatrix} a_{11}a_{12}a_{13}\dots a_{1n} \\ a_{21}a_{22}a_{23}\dots a_{2n} \\ a_{31}a_{32}a_{33}\dots a_{34} \\ \dots\dots\dots \\ a_{n1}a_{n2}a_{n3}\dots a_{nn} \end{pmatrix}$$

To‘liq materiallar xarajatlari koeffitsiyenti (A) bevosita va bilvosita materiallar xarajatlar koeffitsiyentlarining yig‘indisidan tashkil topadi.

8.6. Tarmoqlararo balans va iqtisodiy o‘sish modellarining o‘zaro bog‘liqligi

Tarmoqlararo balansning oddiy ko‘rinishi statistik model asosida ifodalanib, ma’lum davrdagi resurslar va ehtiyojlarning miqdoriy jihatdan o‘zaro moslashishini ta’minlaydi, ishlab chiqarish resurslarining cheklanganlik shartlari, ishlab chiqarish bilan mahsulotlardan foydalanishning balans munosabatlari, zurnal texnik texnologik shartlar va boshqalarni bajarilgan holda prognozlash va uning asosida rejaning mumkin bo‘lgan variantlarini topishga imkon yaratadi.

Tarmoqlararo balansning statik modeli bir yillik davr uchun to‘ziladi, bir yillik holatdan tashqaridagi o‘zgarishlar inobatga olinmaydi. Amalda esa ishlab chiqarish doim rivojlanib, kengayib boradi. Ushbu holat statik tarmoqlararo balansda o‘z aksini topmaydi. Bu kamchilikni yo‘qotishning obyektiv yo‘li doimiy harakatdagi o‘zgarishlarni inobatga oluvchi, kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishni ifodalovchi dinamik tarmoqlararo balans to‘zishdir.


Ijtimoiy, iqtisodiy tizimli ishlab chiqarish jarayonini rivojlanishi dinamikasini inobatga olish bu – mahsulot ishlab chiqarish xajmini ma’lum davrdagi o‘zgarishi, mavjud va qo‘sishma kiritilgan ishlab chiqarish fondlari va quvvatlari bilan, shuningdek mavjud va kelajakda kutilayotgan megnat resurslari uzviy bog‘langan qamrab oluvchi dinamik tarmoqlararo balans to‘zishdir.

Prognozlash bu kelajakni, harakatdagi hatosini baholash, shuning uchun makroiqtisodiy jarayonlarni, tarmoqlarni o‘zaro aloqadagi holatlarini prognozlashda ko‘proq dinamik tarmoqlararo balans modellardan foydalanish maqsadiga muvofiq hisoblanadi.

8.7. Dinamik tarmoqlararo balans va uning asosiy parametrlari (tarkibi)

Statik tarmoqlararo balans tizimi va modelni asosan makroiqtisodiy tahlil uchun keng foydalaniladi. Makroiqtisodiy jarayonlarni prognozlash uchun dinamik tarmoqlararo balansdan foydalanish maqsadga muvofiqdir.

Iqtisodiyot va ishlab chiqarishdagi dinamik holat yuqori darajadagi murakkab jarayondir. Ishlab chiqarishning dinamik holatini quyidagicha tasavvur qilish mumkin.



8.2-Rasm. Kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarish.

Dinamik ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilish qo'shimcha tabiiy resurslar, fondlar va qo'shimcha mehnat resurslar asosida shakllantiriladi. Dinamik tarmoqlararo balans quyidagi ko'rinishga ega.

Tarmoqlar	Joriy xarajatlar harakati potoki	Tarmoqlararo fondlar harakati (o'sishi)	Yakuniy mahsulot	Yalpi mahsulot
		1 2 3 ... n		
1	$X_{11}X_{12}X_{13}X...X_{1n}$	$\Delta\Phi_{11}\Delta\Phi_{12}\Delta\Phi_{13}...\Delta\Phi_{1n}$	N_1	X_1
2	$X_{21}X_{22}X_{23}...X_{2n}$	$\Delta\Phi_{21}\Delta\Phi_{22}\Delta\Phi_{23}...\Delta\Phi_{2n}$	N_2	X_2
3	$X_{31}X_{32}X_{33}...X_{3n}$	$\Delta\Phi_{31}\Delta\Phi_{32}\Delta\Phi_{33}...\Delta\Phi_{3n}$	N_3	X_3
..
n	$X_{n1}X_{n2}X_{n3}...X_{nn}$	$\Delta\Phi_{n1}\Delta\Phi_{n2}\Delta\Phi_{n3}...\Delta\Phi_{nn}$	N_n	X_n

Dinamik balansda xarajatlar va mahsulotlar taqsimoti tenglamasi quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi.

$$X_i = \sum_{j=1}^n X_{ij} + \sum \Delta \Phi_{ij} + N_i$$

Iqtisodiy o‘sishga faqat kengaytirilgan takroriy ishlab chiqarishda, ya’ni dinamik ishlab chiqarish jarayonini tashkil qilgandagina erishish mumkin. Ma’lum bir vaqt (t) ichidagi o‘zgarishni tasavvur qilsang, o‘sish ΔX_j quyidagi farqdan kelib chiqadi:

$$\Delta X_j = X_j^{(t)} - X_j^{(t-1)}$$

Iqtisodiy o‘sishning fondlarni o‘sishga proporsionalligi quyidagicha aniqlanadi.

$$\Delta \Phi_{ij} = b_{ij} \Delta X_j, \quad \text{ya’ni} \quad b_{ij} = \frac{\Delta \Phi_{ij}}{\Delta X_j}$$

Prognoz natijalarining sifatini oshirish uchun prognoz obyektning xususiyatlarini chuqur o‘rganib, uning har bir elementini vaqt birligida o‘zgarishini chuqur o‘rganish, tadqiqot qilish zarur. Iqtisodiyotning makrodarajasi o‘ta murakkab tizim hisoblanadi. Chunki barcha tarmoqlar bir biri bilan bevosita ajralmas holda bog‘liqdir. Alohidabir tarmoqning rivojlanishini prognoz qilmoqchi bo‘lsak, uning boshqa tarmoqlar bilan bog‘liqlik darajasini inobatga olmaslik prognoz natijalarini talablarga o‘liq javob bermaydi.

Prognoz asosida makrodarajada shakllantirilgan rejani amalda bajarilishini ta’minalash, tarmoqlar o‘rtasida disproporsiya bo‘lmashligi, tarmoqlararo materiallar xarajatlari qanday bo‘lishi kerakligi, yakuniy, yalpi va materiallar xarajatlari o‘rtasidagi miqdoriy bog‘liqlikni aniqlash faqat tarmoqlararo balans modellari asosida amalga oshirilishi mumkin.

8.8. Qo‘sishma ishchi kuchi va asosiy fondlarning iqtisodiy o‘sishdagi mohiyati

TAB asosiy modelining shaklini o‘zgartirish yordamida yana bir necha iqtisodiy ko‘rsatkichlarni, jumladan, bevosita va to‘la mehnat xarajatlari

koeffitsiyentlarini ham aniqlash mumkin. Bu holatda tabiiy (natural) o‘lchovdagi mahsulotlararo balansga asoslanamiz. Balans satrlarida har bir mahsulotning boshqa mahsulotlarni ishlab chiqarishga va so‘nggi iste’molga taqsimlanishi hamda hamma turdagি mahsulotlarni ishlab chiqarishga jonli mehnat sarflanish taqsimoti ko‘rinadi (mehnat sarflari bir xil murakkablikda deb olinadi).

α_j - j -mahsulotni ishlab chiqarishga sarflangan jonli mehnat xarajatlari;

X_j - j -mahsulotni ishlab chiqarish hajmi bo‘lsin.

U holda $t_j = \frac{\alpha_j}{X_j}$ - j -mahsulotning 1 donasini ishlab chiqarishdagi bevosa

mehnat xarajatlarini ko‘rsatadi. To‘la mehnat xarajatlari tushunchasi bevosa

jonli mehnat xarajatlari bilan moddiylashgan mehnat xarajatlari yig‘indisi sifatida qaraladi va quyidagicha hosil bo‘ladi:

$$\begin{array}{ccccc} a_{11}T_1 & a_{12}T_1 & a_{13}T_1 & \dots & a_{1n}T_1 \\ a_{21}T_2 & a_{22}T_2 & a_{23}T_2 & \dots & a_{2n}T_2 \\ a_{31}T_3 & a_{32}T_3 & a_{33}T_3 & \dots & a_{3n}T_3 \\ \dots & \dots & \dots & \dots & \dots \\ a_{n1}T_n & a_{n2}T_n & a_{n3}T_n & \dots & a_{nn}T_n \\ \hline t_1 & t_2 & t_3 & \dots & t_n \\ \hline T_1 & T_2 & T_3 & \dots & T_n \end{array}$$

Bu shaklda har bir j - mahsulot uchun:

T_j - j -birlik mahsulotga sarflangan to‘la mehnat xarajatlari koeffitsiyenti;

t_j - birlik mahsulotga sarflangan bevosa

jonli mehnat xarajatlari koeffitsiyenti;

$a_{ij}T_i$ - i -ishlab chiqarish vositasi yordamida j -mahsulotga ko‘chirilgan moddiylashgan mehnat xarajatlari.

$$T_j = \sum_{i=1}^n a_{ij} \cdot T_i + t_j .$$

Bu tenglamadan zarur almashtirishlar yordamida quyidagi tenglamani olish mumkin:

$$T_j = \sum_{i=1}^n b_{ij} \cdot t_i ,$$

bu yerda b_{ij} - to‘la xarajatlar koeffitsiyentlaridir. Demak, har qanday j -mahsulot uchun to‘la mehnat xarajatlari kattaligi barcha xildagi mahsulotlar turlariga sarflangan bevosita mehnat xarajatlarining solishtirma yig‘indisi sifatida aniqlanishi mumkin.

Tayanch so‘z va iboralar

Tarmoqlararo balansning (TAB) iqtisodiy mohiyati. Tarmoqlararo balansningtarkibiy to‘zilishi. Tarmoqlararo balansdagi o‘zaro bog‘liq ko‘rsatkichlar. Tarmoqlararo balans parametrlarining iqtisodiy o‘sishga ta’siri. Iqtisodiy o‘sishning tarmoqlararo balans ko‘rsatkichlariga bog‘liqligi. Dinamik tarmoqlararo balans va uning parametrlari, uning tarkibidagi investitsiY. Qo‘sishchi kuchi va asosiy fondlarning TABda shakllanishi. Dinamik tarmoqlararo balansda matematik bog‘lanishlar, iqtisodiy o‘sishni bog‘lovchi ko‘rsatkichlar, ularning miqdoriy to‘zilishi.

IX BOB. INKLYUZIV IQTISODIY O‘SISH VA UNI TA’MINLASH

Reja:

- 9.1. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish tushunchasi.**
- 9.2. Inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minalash zaruriyati.**
- 9.3. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish ko‘rsatkichlari.**

9.1. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish tushunchasi

«Inklyuziv o‘sish» atamasi so‘nggi o‘n yillikda taraqqiy etish muhokamasida katta mavqeiga ega bo‘ldi. Bu atama o‘rnida “umumiyl o‘sish” (shared growth), “o‘sish, kambag‘allikga mo‘ljallangan” (pro-poor growth), “haqqoniy o‘sish” (equitable growth) va boshqa tushunchalar ishlataladi. “Inklyuzivlik” so‘zi deyilganda aholining turli guruhlari o‘rtasidagi iqtisodiy o‘sishdan olinadigan foydani teng taqsimlash tushuniladi. 2000 yillarning boshlarida yirik rivojlanayotgan davlatlarda 1980–1990 yillardagi global iqtisodiy liberallashtirishga olib kelgan ijtimoiy qutblanishni tartibga solish tendensiyasi paydo bo‘ldi. Xitoyning “Rivojlangan jamiyat” strategiyasi eng mashhur va muhokamali dastur bo‘ldi. Ammo “Jahon janubi” ga kiruvchi davlatlari siyosiy vaziyat va liberal islohotlardagi farqlarning mavjudligiga qaramasdan XX asr ohrida rasmiy miqyosda tengsizlik va milliy ustunlikka qarshi urush e’lon qildi.

Hozirgi davrda inklyuziv o‘sish konsepsiysi alohida Hukumatlarning siyosiy tashabbuslariga inobatga olinadi. U Jahon Banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, Osiyo Taraqqiyot Banki va boshqa xalqaro tashkilotlar va ularning tahlil markazlarining kun tartibidan o‘rin oladi va bu mazmunda rivojlangan davlatlarning amalga oshirayotgan iqtisodiy siyosatlari joy oladi.

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish milliy sharoitlarga, rivojlanish darajasiga, inson kelajagini tasvirlariga va boshqa omillarga bog‘liq bo‘ladi. Inklyuziv o‘sish

diqqat markazida ikkita ham natijaga, ham jarayon o'lchoviga ega yoki ikkalasida ham bo'lishi mumkin. U har bir kishi uchun o'sish jarayonida foydani teng ravishda taqsimlash ishtirok etishini anglatadi.

Ba'zilar uchun inklyuziv o'sish nafaqat qashshoqlik nuqtai nazaridan tengsizlik va daromadlar bo'yicha farqlarni kamaytirishni anglatadi. Boshqalar uchun esa, unga ta'lim, soqliqni saqlashni qamrab oluvchi sifatli davlat xizmatlari va ekologik tenglik kiradi. Inklyuziv rivojlanish shuningdek jinsi, yoshi, qishloq va mahalliy aholi sonida, nogiron kishilarda kamsitishni bartaraf etishga, etnik va irqiy ozchiliklar va boshqa marjinal odamlarda tenglikni anglatadi.

9.2. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlash zaruriyati

Yuqorida qayd etilganidek, o'sish jarayoni yanada inklyuziv natijalarga erishishi kerakligi to'g'risida keng miqyosli natijalarni belgilaydigan omillarni tadqiq qilish davom etmoqda va rivojlanish bosqichida qolmoqda. Ko'pgina aniqliklar o'sish natijalari va ular tarqatayotgan usulning afzallikkleri va ta'siriga ta'sir etishi mumkin.

Inklyuziv o'sish va rivojlanish amaliyoti milliy iqtisodiy strategiyalarda ustuvorliklar belgilanadigan ob'ktivni kengaytirishni talab etadi. Biroq, boshqa sohalar ham iqtisodiy siyosatning asosiy maqsadlari uchun juda muhimdir: turmush darajasining mustahkamlanishi, keng barqaror o'sishi. Iqtisodiy o'sishning emas, balki turmush darajasining yuksalishi, jamoatchilik va xususiy sektorning iqtisodiy o'sishi kuzatiladi.

Jahon Iqtisodiy Forumining 2017 yildagi "Inklyuziv o'sish va rivojlanish" nomli hisobotida inklyuziv o'sishning yettita asosiy siyosat sohasidagi ustunlari va o'n besh pastki ustunlari yoritib berilgan¹³. Kuchli o'rta sinfni qurishda, qashshoqlik va ijtimoiy cheklashni kamaytirishda alohida yutuqlarga erishgan jamiyatlar, ushbu sohalarning ko'pchiligidagi samarali iqtisodiy institutlar va

¹³ The World Economic Forum, committed to improving the state of the world, is the International Organization for Public-Private Cooperation. 91-93 route de la Capite CH-1223 Cologny/Geneva Switzerland

rag‘batlantiruvchi omillar yaratib, mustahkam makroiqtisodiy siyosat va samaradorlikni oshiruvchi islohotlar orqali o‘sishni qullab-quvvatlamoqdalar.

1-ustun. Ta’lim va qobiliyatni rivojlantirish:

- imkoniyat;
- sifat;
- tenglik.

2-ustun. Asosiy xizmatlar va infratuzilmalar.

- asosiy va raqamli infratuzilmalar;
- sog‘liqni saqlash bilan bog‘liq xizmatlar va infratuzilmalar.

3-ustun. Korrupsiya va ijara haqlari:

- biznes va siyosiy etika;
- ijara konsentrasiyasi.

4-ustun. Real iqtisodiyot investitsiyalarining moliyaviy vositachiligi:

- moliyaviy tizimning qo‘shilishi;
- biznesni investitsiyalash vositasi.

5-ustun. Asosiy vositalarni qurish va tadbirdorlik:

- kichik biznes egalari;
- uy va moliyaviy moltk-mulkka egalik qilish.

6-ustun. Ish bilan ta’minalash va mehngatga haq to‘lash:

- unumdarish bilan ta’minalash;
- ish haqi va ish haqi bo‘lmagan mehnatga haq to‘lash.

7-ustun. Fiskal transfertlar:

- Soliq Kodeksi;
- ijtimoiy himoY.

Ushbu ustunlar va pastki ustunlar zamonaviy iqtisodiyotning tarkibiy va institusional xususiyatlarini ta’riflaydi, ayniqsa, turmush darajasining keng ko‘lamda takomillashishiga erishish uchun muhimdir. Tarkibiy islohot, odatda, bozorlar faoliyatini takomillashtirish va davlat moliyasining sog‘lomligini tiklash yo‘li bilan iqtisodiy o‘sishni oshirishga qaratilgan chora-tadbirlarni nazarda tutadi, ko‘p hollarda soliq va to‘lov balansi inqiroziga javoban; ular ko‘pincha qisqa

muddatda yashash meyorlarini siqib chiqarishi mumkin. Biroq, ushbu o'n besh ustunning ayrimlarini yoki barchasini mustahkamlash uchun jiddiy sa'y-harakatlar, shuningdek, "tarkibiy moslashuv" da mashg'ulotdir - bu holatda o'sish darajasi va barqarorligini mustahkamlashda turmush darajasini oshirish maqsadida. Ushbu turdag'i tizimli islohotlar, eng avvalo, rivojlanish jarayonining ajralmas qismini tashkil etuvchi uzoq muddatli strategiya sifatida qabul qilinmoqda.

Jamiyatning o'sish modelining inklyuzivligining muhim o'lchovi - bu budjet transfertlari hisobga olinmagunga qadar uning hayotiy meyorlarda keng yutuqlarga erishish darajasini anglatadi. Shu sababli, yetta ustunidan oltitasi xususiy sektor faoliyatining tarkibiga ta'sir etuvchi siyosat va institusional omillarga va bozorning o'zida natijalarni taqsimlashga taalluqlidir. Xususan, ish haqi va o'z-o'zini ish bilan ta'minlashga va kichik biznesga ega bo'lishga qaytib kelishi, barcha uy xo'jaliklarining eng badavlat oilalaridan tashqari daromadlarning juda yuqori foizini tashkil etishi sababli, milliy daromadlarning ushbu elementlarini shakllantiradigan omillar yig'ilgan ko'rsatkichlarda sezilarli darajada.

9.3. Inklyuziv iqtisodiy o'sish ko'rsatkichlari

Iqtisodiy o'sish va raqobatbardoshlik sohasidagi har bir mamlakat uchun milliy asosiy ko'rsatkichlarini boshqarish yondoshuvi ko'rsatilgan; daromad bilan bog'liq tenglik; va avlodlararo tenglik. Birinchi toifa - bu raqobatbardoshlik, mehnat unumdorligi ko'rsatkichi va iqtisodiy o'sishning barqarorligi nuqtai nazaridan asoslar mavjudligini o'lchaydigan ko'rsatkichlar. Ikkinchidan, daromadning keng tarqalishi (oldindan va keyin o'tkazilmaydigan tengsizlik), o'rtacha turmush darajasi (uy xo'jaliklari daromadlarining ortishi), kambag'allik darajasi, rivojlangan mamlakatlarda daromadlarning mehnat ulushi o'rta-sinf uy xo'jaliklarining kam daromadli mamlakatlardagi yuqori-o'rta, o'rta va quyi-o'rta sinfga nisbatan katta. Nihoyat, Dashboard kelajak avlodlar hisobidan iqtisodiy samaradorlikning bajarilishini kuzatib borish uchun ekologik (tabiiy resurslarni sarflash) va moliyaviy (davlat qarzlari) nuqtai nazaridan kapitalga vaqtinchalik qarashni ta'minlaydi.

I. O'sish va raqobatbardoshlik.

1. YAIM o'sishi (aholi jon boshiga).
2. Global raqobatbardoshlik hisobi.
3. Mehnat unumdorligining o'sishi.

II. Daromadga bog'liq bo'lgan tenglik.

1. Jini daromadi.
 - a) oldingi transfertlar;
 - b) keyinggi transfertlar.
2. Kambag'allik koeffitsiyenti
3. O'rtacha yashash meyorlari.
 - a) oila daromadining o'rtacha o'sishi;
 - b) daromadda mehnatning ulushi/ o'rtal sinfning ulushi.

III. Avlodlararo tenglik.

1. Tabiiy kapital hisoblari.
2. Jamiyat qarzi.

Bu milliy asosiy ko'rsatkichlarini boshqarish yondoshuvi mamlakatning inklyuziv o'sishi va rivojlanishi bo'yicha umumiyo ko'rsatkichlari ko'rinishining integrallashgan nuqtai nazarini ta'minlaydi. Ushbu ramka ichida o'n beshta siyosat sohasidagi richag ishlashi va institusional qulay shart-sharoitlarni ta'minlaydigan batafsil ma'lumotni to'ldiradi. Bu uchta element siyosatchilarga va boshqa manfaatdor tomonlarga o'zlarining iqtisodiy o'sish va rivojlanish modelini amaliy milliy strategiyaga aylantirishga intilishga yordam berish uchun mo'ljallangan.

Iqtisodiy Hamqorlik va Rivojlanish Tashkiloti (IHRT) inklyuziv o'sish tushunchasini "iqtisodiy o'sishni aholining barcha qatlamlari uchun imkoniyat yaratadigan va pul va pul bo'lмаган muomalalarda farovonlikni oshirishda jamiat mulkini yanada adolatli taqsimlashni" aniqlayti deb hisoblaydi. Inklyuziv o'sishning konsepsiysi, iqtisodiy o'sishning muhim omil ekanligiga, halqning farovonligini barqaror yaxshilashni rag'batlantirish uchun yetarli shart emas deb hisoblaydi. Haqiqatdan ham, ijtimoiy faravonlikni oshirish, shuningdek, sog'liqni

saqlash, ta’lim, bandlik va tenglik kabi turli xil ijtimoiy omillar majmasini hisobga olishni talab qiladi.

Iqtisodiy Hamqorlik va Rivojlanish Tashkilotining 2014 yildagi “Hamjamiyatning barcha a’zolari: Amaliyotda inklyuziv o’sishni amalga oshirish” nomli hisobotida “inklyuziv o’sish” “iqtisodiy o’sishni tushunishning yangi yondashuvi, qaysiki ijtimoiy guruhlar o’rtasida ortib borayotgan foydani yanada teng taqsimlash va yashash tarzini oshirishga qaratilgan o’sishini” anglatadi deb hisoblaganlar. Iqtisodiy Hamqorlik va Rivojlanish Tashkilotining an’anaviy yondashuvdan ajralib chiqish zarurligini ta’kidlab, aholi jon boshiga yalpi ichki mahsulotning o’sishini iqtisodiyotimiz faoliyatining hal qiluvchi ko’rsatkichi sifatida daromad va moddiy turmush darajasining konsepsiyalardan tashqariga chiqadigan tushunchaga va farovonlik uchun asos bo‘lib xizmat qiladigan pul bo‘lмаган qiymatlarni o‘z ichiga oladi.

Ushbu hisobot mamlakatlarining iqtisodiyotini tartibga solish jarayonida inklyuziv o’sishga bog‘liq masalalarni qamrab olish bo‘yicha tajribasini o‘rganish orqali inklyuziv o’sishni rag‘batlantirish uchun zarur bo‘lgan siyosat choralarini va vositalarini aniqlash uchun IHRT ishiga hissa bo‘lib hisoblanadi. Ayniqsa, tartibga solish siyosati uchun (Tartibga solish ta’sirini baholash) siyosat choralarini ishlab chiqish uchun muayyan vositalardan foydalanishga alohida e’tibor beradi. Nazariy jihatdan, tartibga solish ta’sirini baholash (ko‘p qirrali tahlil vositasi sifatida) iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik natijalarni potensial tartibga solish chora-tadbirlarini aniqlash va boshqarish hamda turli siyosiy maqsadlarni muvozanatlash va ular bilan bog‘liq savdo-sotiqlarni boshqarish uchun zarur bo‘lgan dalillarni aniqlashda hal qiluvchi rol o‘ynashi mumkin. Shunday qilib, tartibga solish ta’sirini baholash siyosiy faoliyatning inklyuziv o’sishning turli sohalariga ta’sirini tahlil qilish uchun strategik vosita bo‘lishi mumkin. Amaliyotda, ushbu hisobotda ko‘rsatilgandek, ko‘plab mamlakatlar tartibga solish ta’sirini baholashni inklyuziv o’sish bo‘yicha muayyan ta’sirlarni tahlil qilish uchun qo‘llashadi, lekin inklyuziv o’sishni qo‘llab-quvvatlash uchun siyosatni ishlab chiqish uchun ma’lumotlar

manbai sifatida tartibga solish ta'sirini baholashni strategik foydalanish dalillari ishonchli emas.

Bu bilan taqqoslaganda, tartibga solish ta'sirini baholash jarayonida mamlakatlar gender tengligiga ta'sirni yoki ta'sirini taqsimlashni ko'proq tahlil qilishga moyil ekanliklari haqida ko'rsatmalar mavjud. Shu bilan birga, davlatlar kam ijtimoiy himoyalanmagan aholi va mavjud tengsizliklar yoki qashshoqlik va ish bilan bandlik / ish o'rinarini yaratishga ta'sirini baholashning ahamiyatini kamroq his etishadi. Bu siyosat va jamiyatda ishsizlikning o'sib borishi muammosining bosimi va ish o'rinarini yaratishni rag'batlantirishda siyosiy manfaatning yuqori darajasi hisobga olingan bo'lsa-da, bunday ta'sirning hajmini o'lhash bo'yicha uslubiy muammolarga bog'liq bo'lishi mumkin. Mamlakatlar inklyuziv o'sish uchun muhim bo'lgan ta'sirlarni baholashga harakat qilsa ham, ular tomonidan tanlangan usullar - yagona tasirni tahlil qilish yoki tartibga solish ta'sirini baholashdan alohida tekshirishning qismi sifatida, muntazam ravishda yoki maxsus tartibga solish sohalari bo'yicha - mamlakatlar o'rtasida sezilarli darajada farqlanadi.

Iqtisodiy Hamqorlik va Rivojlanish Tashkiloti daromad va boylik, ish bilan ta'minlash, kasbiy ko'nikmalar va ta'lim, sog'liqni saqlash holati, atrof-muhit sifati, shaxsiy xavfsizlik, infratuzilma va turar joy sharoitlari kabi inklyuzivlik tushunchasini aniqlash uchun bir qator pul va pul bo'limgan choralarini taklif qiladi. Shunday qilib, inklyuziv o'sish konsepsiysi ko'p qirrali xususiyatga ega. Biroq inklyuziv o'sishni rag'batlantirishda hisobga olinishi kerak bo'lgan o'lchamlarini tanlash, bir vaqtning o'zida pul va pul bo'limgan o'lchovlarni hisobga olishda murosani hal qilishning murakkabligini, shu jumladan murakkab muammolarni keltirib chiqarishi mumkin.

Pul va soliqqa tortish bilan bir qatorda, tartibga solish hukumatlar farovonligi va iqtisodiy ravnaq topishini ta'minlash uchun hukumat qo'lidagi asosiy kuchlardan biridir. Biroq Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish Tashkilotining tartibga solish siyosati bo'yicha so'rovnomasi, mamlakatlar tomonidan inklyuziv o'sishni rag'batlantirish uchun tartibga soluvchi siyosatining taklif etayotgan

imkoniyatlaridan kengroq foydalanish imkoniyati mavjudligini ko'rsatadi. Agar asosiy tamoyillar va tartibga soluvchi siyosat vositalari muntazam qo'llanilsa, ular tartibga solish jarayonining boshidanoq tartibga soluvchi guruhlar va boshqa manfaatdor tomonlarning qarashlarini hisobga olish va inklyuziv o'sishning siyosiy maqsadiga jirishishda tartibga solishning samaradorligi va samaradorligini ta'minlashga yordam beradi. Ular muayyan qoidalarning muayyan guruhlarga qanday ta'sir qilishini aniqlashga yordam beradi, shuningdek, tuzatuvchi harakatlar zarurligini tushinishni. Ular shuningdek, tartibga soluvchi qarorlar va inklyuziv o'sishning turli o'lchamlari orasida afzalliklar va kamchiliklarning potensial muvozanatini kengroq belgilashlari mumkin.

Shu bilan birga, dalillar, tartibga soluvchi siyosat potensiali sezilarli darajada oshkor etilmayotganligani ko'rsatadi va progressiv rivojlanib bormasdan, mamlakatlar tartibga solishdan strategik ma'noda foydalanishga intilmoqdalar va tartibga soluvchi siyosatini qo'llash orqali inklyuziv o'sishni rag'batlantirmoqdalar.

Inklyuziv o'sishni boshqarishni boshqarish jarayonlari bilan bog'lash, ayniqsa qiyin mashqdir. Boshqarish murakkab (va tez-tez aniqlangan) tushunchadir. Bundan tashqari, ko'pincha munozara qilinadigan ko'plab jihatlarni qamrab oladi. Inklyuziv o'sishning boshqaruv registri bo'yicha taraqqiyotni baholash uchun ishlatilishi mumkin bo'lgan "yaxshi boshqaruv" ning bir necha mashhur kompozitsion indekslari mavjud.

Hozirgi vaqtida faqatgina boshqaruvning rivojlanish yo'naltirilgan jihatlari va ularning tegishli ko'rsatkichlari deb hisoblaymiz. Tavsiya etilayotgan ikkita ko'rsatkich: 1) daromadning YAIMga nisbati va 2) davlat investitsiyalarining YAIMga nisbati. Ushbu ko'rsatkichlarning ikkalasi ham, "yaxshi boshqaruv" muhokamalarida e'tiborsiz bo'lsada, Inklyuziv o'sish kun tartibiga qo'shilishda hukumatlarning muvaffaqiyati uchun juda muhimdir.

Daromadlarning YAIMga nisbati davlatning ichki moliyalashtirish manbalarini safarbar etishdagi muvaffaqiyatlarining asosiy barometri hisoblanadi. Katta resurs bazasi bo'lmasa, hukumatlar Inklyuziv o'sishni rag'batlantirish uchun

tavsiya etadigan dasturlardan kelib chiqadigan ko‘plab funksiyalarini bajarolmaydilar.

Davlat investitsiyalarining YAIMga nisbati ham juda muhimdir, chunki u davlatning rivojlanishga sarmoya kiritish imkoniyatlarini va istaklarini ko‘rsatadi. Osiyo va Tinch okeanining kam daromadli yoki kam daromadli ko‘plab mamlakatlari uchun muhim iqtisodiy va ijtimoiy xizmatlar ko‘rsatish uchun zarur bo‘lgan infratuzilmani moliyalashtirish uchun davlat investitsiyalari kuchaytirilishi kerak.

Davlat investitsiyalari yoki umuman davlat xarajatlari ko‘rsatkichi davlatning iqtisodiy va ijtimoiy infratuzilmaning turli shakllari uchun sarf-xarajatlarni qoplashini aks ettirish uchun tegishli tarzda ajratilishi mumkin.

Yalpi ichki mahsulotga nisbati sifatida sog‘liqni saqlash va ta’limga yo‘naltirilgan davlat xarajatlari aniq misollar. Bundan tashqari, Ijtimoiy himoya indeksiga ko‘ra, ijtimoiy himoyaga sarflanadigan davlat xarajatlari YAIMga nisbati sifatida ko‘rsatiladi. Bundan tashqari, kambag‘allik darajasini qisqartirish dasturlari bo‘yicha umumiylar xarajatlarning asosiy ko‘rsatkichi sifatida markazlashtirilishi mumkin.

Bundan tashqari, muhim, lekin ko‘pincha beparvolik ko‘rsatkichlaridan biri, iqtisodiy infratuzilmaga xarajatlar ko‘rsatkichlaridir. Suv, sanitariya, yo‘llar va elektr energiyasiga bo‘lgan keskin xarajatlar. Eng kamida bunday xarajatlar qishloq va shahar hududlari, shuningdek, hududlar bo‘yicha (daromad darajasiga qarab) ajratilishi kerak.

Tayanch so‘z va iboralar

Inklyuzivlik. Inklyuziv o‘sish. Keng qamrovli o‘sish. Mamlakat iqtisodiy ahvoli. Qashshoqlik. Ko‘rsatkichlar. Davlat iqtisodiy siyosati. Investitsiyalar. Iqtisodiy o‘sishga erishish masalalari.

X BOB. INKLYUZIV IQTISODIY O'SISHNI BAHOLASH USULLARI VA ME'ZONLARI

Reja:

10.1. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni baholashga turli yondoshuvlar.

10.2. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni baholashning iqtisodiy me'zonlari.

10.1. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni baholashga turli yondoshuvlar

Barqaror iqtisodiy o'sish jahonning ko'plab mamlakatlari iqtisodiy siyosatining asosiy bosh maqsadi hisoblanadi. Zamonaviy jahon moliyaviy – iqtisodiy inqirozining bosh tajribalaridan biri bu ochilayotgan iqtisodiy imkoniyatlarining globallashuvi va liberallahuvi xavfli tavakkalchilikar bilan kuzatilmokda. Bu kapital oqimining barqaror emasligi, qarzdorliklarning o'sishi, notenglikning kuchayishi, kashshoqlikning o'sishi va moliyaviy sektorning barqaror emasligi bilan bog'liq. Jhon iqtisodiyotida sodir bo'layotgan bir shakldan boshqa shaklga o'zgarish yangi global chaqirqlarni paydo bo'lishi, rivojlanishning strategiyasi va ahamiyatiga bo'lgan sof bozor qarashlarining izchil qayta ko'rib chiqilishiga olib keldi. Rivojlanish strategiyasi sohasidagi yangi asosiya **innovatsiyalar** inklyuziv iqtisodiy o'sishning tushunchasi hisoblanadi¹⁴. Bunda inklyuziv o'sish konsepsiysi shu narsaga asoslanganki bunda jamiyat farovonligi ko'p qirrali tushuncha hisoblanadi. Shuning uchun farovonlik darajasini yalpi ichki mahsulotning aholi jon boshiga yoki istyemol savatchasi qiyamatining daromadga muvofiqligi doirasida aniqlash kerak. Yashash darajasida (sifati) infratuzilmalar, ta'limga yaratilgan imkoniyatlar, sog'liqni saqlash va shu

¹⁴ Inclusive Growth: More than Safety Nets. Arjan de Haan, International Development Research Centre, Ottawa. Sukhadeo Thorat, Jawaharlal Nehru university, New Delhi. SIG working paper 2013.

kabi inson kundalik faoliyati uchun zarur bo‘lgan xizmatlarning sifati asos qilib olinadi¹⁵.

Tajribadan kelib chiqqan izlanishlarda shu narsa isbotlandiki, hatto aholining o‘rtacha daromadi darajasi bir xil bo‘lgan mamlakatlarda ham “ish bilan ta’minlanganlik darajasi” va “yashash darajasi”, ijtimoiy himoya darajasi va har bir insonning jamiyat hayotidagi ishtirok etish imkoniyatlari turli xil bo‘lishi mumkin. Shu tariqa, iqtisodiy o‘sish uchun faqatgina “barqarorlik” parametri kamlik qiladi: o‘sish inklyuziv bo‘lishi kerak. Modomiki “inklyuzivlik” atamasini anglash qanchalik qiyin hisoblansa, hozirgi kunda inklyuziv o‘sishni ko‘p qirralarini aniqlash uchun bir qancha yondoshuvlar mavjud.

Birinchi yondoshuv o‘sish natijasi asosida tashkil etiladi: inklyuziv o‘sish bu barqaror iqtisodiy o‘sish bo‘lib, asosiy maqsadi qashshoqlik (kambag‘allik) va tengsizlikni qisqartirish hisoblanadi. Bu yondoshuvning tarafdarlari Jahon Banki va Xalqaro valyuta jamg‘armasining mutaxassislari hisoblanadi¹⁶. Ushbu yondoshuv nuqtai nazari bo‘yicha agar davlatlarning iqtisodiy o‘sishning barqaror yuqori sur’ati tengsizlik darajasini tushurishga (baholash me’zonlari: Jinni koeffitsiyentining ijobiy dinamikasi), qashshoqlikni qisqartirishga (baholash me’zonlari: qashshoqlik darajasining mutloqo yoki bir muncha qisqarishi), olib kelmasa unda bunday iqtisodiy o‘sishni “inklyuziv” deb tan olib bo‘lmadi. Ushbu yondoshuv metodikasiga muvofiq iqtisodiy dinamikaning bahosi “egri ijtimoiy harakatchanlik” (Social Mobility Curve) modeli to‘zilishi asosida qurilib, bu modelning asosiy belgilari: daromadlar darajasining aholi jon boshiga mosligi; tengsizlik darajasi va mamlakatdagi daromadlarning taqsimoti darajasi va sifati hisoblanadi¹⁷.

Ikkinchi yondoshuv inklyuziv rivojlanish asosida tashkil etiladi va inklyuziv o‘sish ish ta’minlanganlik jarayonining kengaytirilishi bilan aniqlanadi. Masalan:

¹⁵ Садыков А. концептуальные подходы к формированию стратегии долгосрочного развития. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов. Ташкент: IFMR, 2013, с. 8-9.

¹⁶ Rahul Anand, Saurabh Mishra and Shanaka J. Peiris. Inclusive Growth: Measurement and Determinants.

¹⁷ Inclusive Growth Revisited: Measurement and Determinants. Rahul Anand, Saurabh Mishra and Shanaka J. Peiris World bank, 2013. www.worldbank.org/economicpremise.

Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturi mutaxassislarining fikrlari bo‘yicha inklyuziv o‘sish odamlarga etnik kelib chiqishi, yashash joyi, jinsi, ijtimoiy – iqtisodiy sharoitlaridan qat’iy nazar o‘z insoniylik potensiallarini amalga oshirishda teng imkoniyatlar taqdim etishi kerak¹⁸. Qayd etish joizki, Osiyo Tarraqiyot Banki mutaxassislari ham nafaqat rivojlanishning natijalarini o‘zgartirishga imkon beruvchi, balki iqtisodiy siyosat va uning ta’milanishiga mos keluvchi o‘lchamlarini ishlab chiquvchi inklyuziv o‘sishning tarafdorlari hisoblanishadi¹⁹.

Inklyuziv o‘sishning asosiy natijalari keng ma’noda jamiyat rivojlanishining muhim me’zonlari: farovonlik, adolat va inson imkoniyatlarining kengayishi va uning ishlab chiqarishdagi faol ishtiroki va manfaatlar taqsimoti hisoblanadi.

¹⁸ Rafael Ranieri and Raquel Almeida Ramos. International Policy Centre for Inclusive Growth (IPC-IG). After All, What is Inclusive Growth, 2013

¹⁹ Asian Development Bank (ADB). 2008. Strategy 2020: The Long-Term Strategic Framework of the Asian Development Bank, 2008-2010.

XI BOB. INKLYUZIV IQTISODIY O‘SISH INDEKSI

Reja:

11.1. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish indeksining qabul qilinishi.

11.2. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish indeksi tarkibi.

11.1. Inklyuziv iqtisodiy o‘sish indeksining qabul qilinishi

Inklyuziv iqtisodiy o‘sish va uning keng jamoatchilik orasida tarqalishi dastlab 2015- yilda Osiyo-Tinch okeani mintakasida barkaror rivojlanishiga bag’ishlangan tadbirga borib taqaladi. Bunda ESKATO o‘zining Osiyo-Tinch okeani mintakasi (OTM), Shimoliy va Janubiy Amerika, Yevropa va Afrikaning 35 mamlakatida olib borgan kuzatishlari asosida hisobot taqdim etdi²⁰. Hisobotda Osiyo-Tinch okeani mamlakatlari, dunyoning boshka mintakalari bilan takkoslaganda ajoyib natijalar kursatishda davom etmoqda, lekin tarkibiy kamchiliklar tufayli iqtisodiy usish uchun cheklanib qolayotganligi qayd etilgan.

Inklyuzivlikni ta’minalash uchun barkarorlikni saklash va barkaror iqtisodiy usish zarurdir. ESKATO kichik va urta korxonalarini rivojlantirish, kishloklarni sanoatlashtirish orkali munosib ish urinlarini yaratishga dissa kushish damda teng imkoniyalar yaratishni kullab-kuvvatlaydi damda Osiyo-Tinch okeani mintakasida iqtisodiy usishning yanada inklyuzivligini ta’minalashda xususiy sektor mudim rol uynashi kerak deb hisoblaydi.

2018- yil 22- yanvarda Shvetsariyaning Davos shahrida bo‘lib o‘tgan Xalqaro iqtisodiy forum mamlakatlar iqtisodiyotini baholashning alternativ tizimini taklif qilinganligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi. Jahoning 70 dan ortiq davlat vakillari ishtirok etgan, maqomiga ko‘ra norasmiy tadbir hisoblangan ushbu forumda nodavlat to‘zilmalar faoliyati boyicha yuzlab ekspertlar ishtirok etgan.

²⁰ESKATO - BMTning Osiyo va Tinch okeani boyicha iqtisodiy, ijtimoiy komissiyasi. 1947 yilda tuzilgan. Economic and social commission for Asia and the Pacific.

11.2. Inklyuziv iqtisodiy o'sish indeksi tarkibi

Inklyuziv rivojlanish indeksi (IRI) quyidagi uchta yo'nalish asosida 12 ta parametrni qamrab olgan:

- A. O'sish va rivojlanish yo'nalishi
 1. Aholi jon boshiga YAIM;
 2. Mehnat unumdorligi-har bir band aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM;
 3. Aholining kutilayotgan o'rtacha yoshi (o'rtacha umr uzoqligi);
 4. Mehnatga layoqatli aholining bandligi (foizda).
- B. Inklyuzivlik darajasi yo'nalishi
 1. Daromadlarni jamiyatda taqsimlanish koeffitsiyenti;
 2. Kambag'allik darajasi;
 3. Boyliklarni jamiyatda taqsimlanish koeffitsiyenti;
 4. Uy xo'jaliklarining medianli kunlik xarajatlari;
- V. Avlodlarning qabul qilish darajasi va barqaror rivojlanish yo'nalishi
 1. Maqsadlashtirilgan sof;
 2. YAIMning issiqxona effekti;
 3. Davlat qarzi hajmi (YAIMga nisban foizda);
 4. Demografik yuk darajasi (0-15 va 64 yoshdan oshganlarning mehnatga layoqatli aholiga nisbati).

Guruhashda o'ziga xos yondoshuv mavjud, birinchi guruhda mamlakatning o'sish va rivojlanish ko'rsatkichlari birlashtirilgan bo'lib, bu bugungi jahon amaliyotida qo'llanilayotgan ko'rsatkichlarni e'tirofi hisoblanadi.

Ikkinci guruh – Mamlakatning inklyuzivlik darajasini aniqlashga qaratilganligi va bu jihatdan an'anaviy yondoshuvga qo'shimcha ko'rsatkichlarnini kiritilishi bilan ahamiyatli. Tizimga bu yo'nalishni kiritilishi jahon mamlakatlarining unga keltirilgan ko'rsatkichlarga bir xil e'tibor qaratilishini nazarda tutadi. Bugungi tizimda esa, bu ko'rsatkichlarni har qaysi davlat o'z

manfati va g'oyasi asosida talqin qilmoqda. Masalan, daromadlarni teng taqsimlanishi tushinchasini ayrim davlatlar bozor iqtisodiyotiga xos bo'lmagan yondoshuv shaklida e'tirof etsa, ayrim davlatlar davlatning iqtisodiyotga aralashuvini baholash uchun foydalanmoqda.

Inklyuziv rivojlanish indeksi ko'rsatkichlarining uchinchi guruhi - avlodlarning qabul qilish darajasi va barqaror rivojlanish yo'nalihsida maqsadlashtirilgan sof jamg'arish keltirilgan bo'lib, u tabiiy boyliklari va ta'lim xarajatlarining yig'indisidan resurslar iste'moli, energiya zaxiralarining sarflanishi, chiqindilardan yetkazilgan ziyon, yalpi milliy mahsulotning foizdagi ko'rinishini ayirib tashlash orqali aniqlanadi. Mazkur ko'rsatkichlar tabiiy boylik butun millatga tegishli ekanligi va undan barcha manfaatdor bo'lishi hamda undan maqsadli, tejamlı foydalanish va avlodga yetkazishni nazarda tutadi.

YAIMning issiqxona effekti ko'rsatkichi global ekologik xavf-xatarni jilovlash, "Yashil iqtisodiyot"ga o'tish zaruriyati natijasi bo'lib, u mamlakatda yaratilayotgan YAIMning har bir dollariga to'g'ri keladigan karbonat angidrid miqdoriga nisbatan hisoblanadi.

Inklyuziv rivojlanish indeksida YAIMga nisban davlat qarzi hajmini inobatga olinishi ayrim mamlakatlarning real YAIMni tasavvur qilish imkonini beradi. Ayrim mamlakatlarning tashqi qarz evaziga iqtisodiy taraqqiyotni ta'minlashga qaratilgan siyosati ma'lum bir davrdan so'ng o'zining salbiy ko'rinishlarini namoyon qilmoqda.

Inklyuziv rivojlanishni ifodalovchi ko'rsatkichlar dastlab guruhlar boyicha indeks holatiga keltiraladi, keyin esa umumlashtirilib o'rtacha arifmetik ko'rsatkich aniqlanadi. Taklif etiliyotgan Inklyuziv rivojlanish indeksi norasmiy ko'rinishda dastlab 2017 yilda taqdimot qilingan bo'lib, o'tgan bir yil davomida u mualliflar tomonidan bir muncha takomillashtirilgan.

Xalqaro iqtisodiy forum tashabusskorlari har qanday shakl va ko'rishdan qat'iy nazar YAIMning o'sishga qaratilgan, asosiysi istiqboldagi qiyinchilik va xavf-xatarlarga asoslangan iqtisodiy o'sishdan aholi daromadlarini mamlakat taraqqiyoti bilan hamohang o'sishini ta'minlaydigan, kambag'allikka barham

berish, milliy boylikni mamlakat aholisiga teng taqsimlash orqali jamiyatdagi ijtimoiy tenglikka erishadigan inklyuziv iqtisodiy o'sish hamda uning natijasida barqaror iqtisodiy rivojlanishga o'tish davri kelganligini ta'kidlashmoqda. Garchi, inklyuziv rivojlanish indeksini hisoblash tizimi va uning metodologiyasida kamchiliklar bo'lsa, u hozirgi dunyo mamlakatlari iqtisodiy kartinasini tubdan o'zgartirib yuborishi mumkin. Buning sababi hozirgi mamlakatlar iqtisodiy darajasini aniqlash tizimi faqat YAIMga asoslangan bo'lsa, Taklif etilayotgan tizimda YAIMga qo'shimcha yana 11 ta ko'rsatkich tahlil qilinadi.

Inklyuziv rivojlanish indeksida dunyo mamlakatlarining bugungi iqtisodiy holatini aniq namoyon qilish maqsadida tanlab olingan mamlakatlar²¹ ikki guruhga ajratilgan.

Birinchi guruhga – yangi indeks boyicha eng yuqori ko'rsatkichga ega va shu nuqtai nazardan rivojlangan hisoblangan 29 ta davlat kiritiladi.

Ikkinci guruh mazkur indeksga ko'ra rivojlanayotgan davlatlar deb atalib, unga 78 ta davlat lozim topilgan.

Mazkur guruhlash yuqorida aytilganidek, YAIMning biri birligi hisobiga atrof muhitga ko'rsatilgan ta'sir, aniqrog'i atmosfera chiqariladigan karbonat angidrid, mamlakatdagi kambag'allik darjasasi va daromadlarni taqsimlanishidagi tafovutlar inobatga olingan.

Guruhning dastlabki o'ntaligini an'anaviy tarzda asosan yevropa davlatlari Norvegiya, Islandiya, Lyuksemburg, Shveytsariya, Daniya, Shvetsiya, Niderlandiya egallagan. Ushbu mamlakatning zamonaviy (bugungi) iqtisodiy darjasasi Buyuk Britaniya, Germaniya, Italiya, Frantsiyaga nisbatan nisbatan pastroq bo'lsada iqtisodiyotning inklyuzivlik darjasasi boyicha ular ancha oldinda ekanligi ma'lum bo'lmoqda (11.1-jadval).

Bugungi kunda dunyo mamlakatlari orasida oldingi o'rnlarda turgan, Katta yettilikning yetakchi davlati hisoblangan AQSH mazkur indeksga ko'ra 30 ta rivojlangan mamlakatlar reytingida 23 o'rinni egalab turibdi.

²¹ Xalqaro iqtisodiy forumda jami 107 mamlakat ma'lumotlari o'rganilgan, shundan 103 tasining reytingi tahlil qilingan.

Rivojlangan mamlakatlar inklyuziv rivojlanish indeksi²²

№	Mamlakat nomi						
1.	Norvegiya	8.	Irlandiya	15.	Chexiya	22.	Estoniya
2.	Islandiya	9.	Avstralija	16.	Janubiy Koreya	23.	AQSh
3.	Lyuksemburg	10.	Avstriya	17.	Kanada	24.	Yaponiya
4.	Shveytsariya	11.	Finlyandiya	18.	Frantsiya	25.	Isroil
5.	Daniya	12.	Germaniya	19.	Sloveniya	26.	Ispaniya
6.	Shvetsiya	13.	Belgiya ya	20.	Slovakija	27.	Italiya
7.	Niderlandiya	14.	Yangi Zelandi	21.	Buyuk Britaniya	28.	Portugaliya
						29.	Gretsiya

Ajablanarli tomonini yana shundaki, rivojlangan mamlakatlar qatoridan o‘rin olgan 30 ta davlatning aksariyati bugungi amaldagi reytengga ko‘ra rivojlanayotgan mamlakatlardan hisoblanadi. Mazkur vaziyatni Davos forumi tahlilchilari bugungi amerika jamiyatida aholining o‘rtacha umr darajasining pastligi, katta miqdordagi davlat qarzlarining mavjudligi, daromadlarni va milliy boylikni taqsimotidagi adolatsizlik bilan izohlashadi.

Katta yettilik (G 7) mamlakatlari orasida Germaniya mazkur reytingda 12 o‘rinni band etgan. G 7 likning keyingi a’zoslari Kanada 17, Frantsiya 18, Buyuk Britaniya 21, Italiya 27 o‘rinda.

Mualliflar hisoblangan ko‘rsatkichlarning haqqoniyligini Jahon Banki, BMT, Halqaro sog’liqni saqlash tashkiloti, iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti turli davlatlarning statistika agentliklari va turli darajadagi nodavlat

²² В 2018 году его девизом стало "Создание совместного будущего в раздробленном мире". Доклад Всемирный экономический форума. Давос 23 -26 январ 2018 г.

tashkilotlar ma'lumotlari singari katta hajmdagi ochiq ma'lumotlar bazasidan foydalanimanligi izohlashmoqda.

Inklyuziv rivojlanish indeksi boyicha rivojlanayotgan davlatlar ya'ni ikkinchi guruh kiritilgan 78 ta davlatning reyting boyicha pozitsiyasi quyidagi jadvalda keltirilgan (11.2-jadval).

11.2-jadval

Rivojlanayotgan mamlakatlar inklyuziv rivojlanish indeksi²³

№	Mamlakat nomi	№	Mamlakat nomi	№	Mamlakat nomi
1.	Litva	8.	Urugvay	15.	Qozog'iston
2.	Vengriya	9.	Chili	16.	Turkiya
3.	Ozarbayjon	10.	Ruminiya	17.	Tailand
4.	Latviya	11.	Bolgariya	18.	Aljir
5.	Polsha	12.	Kosta-Rika	19.	Rossiya
6.	Panama	13.	Malaziya	20.	Paragvay
7.	Xorvatiya	14.	Peru	21.	Ukraina

Xalqaro iqtisodiy forum ma'lumotlariga ko'ra, oxirgi besh yillikda rivojlangan iqtisodiyotga ega bo'lgan mamlakatlarda kamg'allikka barxam berilgan yoki ularning sakkiztasida daromadlar tengsizligiga barxam berilgan. Umuman olganda, jahon iqtisodiyotida o'sish kuzatilildi. Biroq, ularning inklyuzivlik darajasida o'zgarish deyarli kuzatilma yoki aksincha pasayish tendentsiyasi amalga oshdi. Xususan, avlodlararo adolat darajasi ta'minlangan davlatlar soni iqtisodiy rivojlangan mamlakatlarda 29 dan 20 ga, rivojlanayotgan davlatlarda 74 tadan 56 ga kamaygan.

Inklyuziv rivojlanish indeksi boyicha postsotsialistik mamlakatlardagi ahvol ularda keyingi chorak asrda amalga oshirilgan tadbirlar in'ikosi sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, MDHning eng qudratli davlati hisoblangan Rossiya Federatsiyasi

²³ В 2018 году его девизом стало "Создание совместного будущего в раздробленном мире". Доклад Всемирный экономический форума. Давос 23 -26 январ 2018 г.

ushbu reytingda 19 da o‘ringa lozim topilgan. Holbuki, Rossiya YAIM boyicha dunyoda 9-o‘rinda turadi. Mazkur vaziyat Rossiyada daromadlar taqsimotidagi tengsizlik va YAIMning har bir birligiga hisobiga atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdorining yuqoriligi oqibatidir.

Qozog’iston esa rivojlanayotgan mamlakatlar guruhida 15-o‘rinni, jami mamlakatlar orasida esa 45-o‘rin band etgan. Yangi reyting boyicha Qozig’istoning muammosi Rossiya singari YAIMning har bir birligiga hisobiga atmosferaga chiqariladigan chiqindilar miqdorining yuqoriligi va daromadlar taqsimotidagi tengsizlik ya’ni YAIMning asosiy qismi bir guruh aholi hissasiga to‘g’ri keladi.

Xalqaro iqtisodiy forum tashabusskorlar hisoblangan va tahlilchilari inklyuziv rivojlanish indeksi yaqin yillarda mamlakatlar iqtisodiy rivojlanganlik darajasini belgilaydigan ko‘rsatkichlar hisoblanishini bashorat qilgan holda, uning afzalliklarini quyidagilar orqali ifodalaydilar:

1. Ta’lim tizimining barcha uchun ochiqligini ta’minalash;
2. Aholining birlamchi ehtiyojlarini va ijtimoiy infrastrukturaning rivojlanishi;
3. Korrupsiyaga qarshi kurash va boylik, daromadningadolatli taqsimotiga erishish;
4. Moliya tizimining inklyuzivlik darajasini oshirish;
5. Samarali uy-joy qurilishiga erishi;
6. Ish bilan bandlik va ishsizlarni qo‘llab quvvatlash;
7. Soliqlarni qayta taqsimlanishi va ijtimoiy himoY.

Inklyuziv rivojlanishni ta’minalash mexanizmi boyicha barcha parametrarga ko‘ra tavsiya xarakteriga ega bo‘lgan davlat tajribasi xususida Xalqaro iqtisodiy forum doirasida ma’lumot berilmagan. Biroq, hisobotda keltirilgan tadbirlardan kelib chiqib, munosabat bildirsak, bu jihatdan O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan tadbirlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Qayd etish kerakki, Prognozlashtirish va makroiqtisodiy tadqiqotlar instituti tadqiqotchilari ham inklyuziv rivojlanish konsepsiyasini qayta ishlab chiqishda

o‘zlarining ilmiy-metodik hissalarini qo‘shmoqda. Misol o‘rnida kam ta’minlanganlikni cheklashni yoki aholi tizimida o‘rta tabaqaning ulushi o‘sishi me’zonlari bo‘yicha iqtisodiy o‘sishning sifatini oshirishni iqtisodiy tahlilini keltirish mumkin²⁴. Ushbu me’zonlarni o‘z ichiga olgan inklyuziv o‘sishni hisoblashlashni eng birinchi urinishlaridan biri bu inklyuziv o‘sishning indeksini o‘lchash metodikasi hisoblanadi²⁵. Ushbu metodika ilk marta Osiyo Taraqqiyot Banki doirasida Bangladesh, Hindiston, Indoneziya, Kambodja, Filippin va O‘zbekiston kabi davlatlarda inklyuziv o‘sish va iqtisodiy o‘sish tendensiyalarini qayta ishslash, tahlillash va monitoring qilish 2020 strategiyasi doirasida foydalilanilgan.

Inklyuziv o‘sish indeksini hisoblash uning asosiy komponentlarini to‘plab tarkibiy baholashni o‘z ichiga oladi: 1) mamlakat tarraqiyotiga erishish maqsadiga iqtisodiy infratuzilma, unumli bandlik va iqtisodiy o‘sish muhim o‘rin tutadi; 2) qashshoqlik va tengsizlikni qisqartirishdagi yuksalish vertikal (daromadlar bo‘yicha), gorizontal (shahar va qishloq aholisining yashash darajasidagi farq), hamda gender tenglik bilan birlgilikda; 3) inson imkoniyatlari; 4) ijtimoiy himoya.

11.3-jadval

Inklyuziv o‘sish indeksi: komponentlar va indikatorlar tarkibi²⁶

Komponent № 1 Iqtisodiy o‘sish, samarali bandlik va iqtisodiy infratuzilma (50 foiz)	
<i>Iqtisodiy o‘sish (25 foiz)</i>	YAIM ning aholi jon boshiga real o‘sish sur’ati Umumiyl qo‘shilgan qiymatda sanoat, xizmat va qishloq xo‘jaligining ulushi
<i>Samarali bandlik (15 foiz)</i>	Sanoatda bandlarning ulushi Qayta ishslash sanoatida bandlarning ulushi

²⁴ Влияние экономического роста на сокращение доли малообеспеченного населения Узбекистана/ Ташкент: ИПМИ, ПРООН, 2012.

²⁵ Чепел С. Повышение качества долгосрочного роста в Узбекистане: методология и моделирование. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов. Ташкент: IFMR, 2013, с. 17.

²⁶ Тешабаева М.А. Методические и прикладные подходы к оценке инклузивного роста. Доклад III Форума молодых ученых-экономистов. Т.: ИПМИ, 2014

	Umumiy bandlikda oilaviy korxonalardagi rasmiy bandlar, o‘z ishi bilan band ishchilar va shaxslarning ulushi
	Qo‘sishimcha indikator (Harid qobiliyati paretiti bo‘yicha bir kunda 2,5 AQSH dollaridan kam bo‘lмаган daromadga ega band bo‘lganlar ulushi)
<i>Iqtisodiy infratuzilmaga yaratilgan imkoniyat (10 foiz)</i>	Elektroenergiyaga yaratilgan sharoitga ega bo‘lgan aholining ulushi Har 100 kishiga mobil aloqa abonentlari soni
Komponent № 2 Daromadlar bo‘yicha kambag‘allik va umumiy tenglik (25 foiz)	
<i>Kambag‘allik ko‘rsatkichlari (10 foiz)</i>	Milliy kambag‘allik xususiyatlaridan past darajada yashovchi aholining ulushi Harid qobiliyati paretiti bo‘yicha bir kunda 2,5 AQSH dollaridan kam bo‘lмаган sharoitda yashovchi aholining ulushi
<i>Tengsizlik ko‘rsatkichlari (10 foiz)</i>	<i>Vertikal</i> Jini koeffitsiyenti Kambag‘al 60 foiz aholining daromadlari ulushi
	<i>Gorizontal</i> Qishloq va shahar aholi o‘rtasidagi daromadlar yoki xarajatlardagi bo‘shliq Mintaqa yoki etnik guruhlar o‘rtasida daromadlar yoki xarajatlaridagi bo‘shliq
<i>Gender tengsizligi (5 foiz)</i>	15-24 yoshdagи ayollar va erkaklarning savodlilik nisbati
	O‘rta ta’lim tizimida qizlar va bolalarning nisbati
	Malakali tibbiyot xodimlari tomonidan qabul qilingan jinslarning foizi
	Qishloq xo‘jaligida band bo‘lмаган, haq

	to‘lanadigan mehnat bilan band ayollarning ulushi
--	---

Komponent № 3 Inson imkoniyatlari (15 foiz)

<i>Sog‘liqni saqlash va ovqatlanish (5 foiz)</i>	5 yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi darajasi
	40 yoshgacha bo‘lgan insonlar o‘limi darajasi
	Yetarli vaznga ega bo‘lmagan 5 yoshgacha bo‘lgan bolalarning foizi
<i>Ta’lim (5 foiz)</i>	Boshlang‘ich ta’limga qamrab olinganlikning sof koeffitsiyenti
	O‘rtta ta’limga qamrab olinganlikning sof koeffitsiyenti
<i>Sanitariya va suvga yaratilgan sharoitlar (5 foiz)</i>	Toza ichimlik suviga ega bo‘lgan aholining ulushi
	Mos sanitariya xizmatlariga ega bo‘lgan aholining ulushi

Komponent № 4 Ijtimoiy himoya (10 foiz)

YAIM dagi ijtimoiy himoya dasturlari bo‘yicha umumiy harajatlarning ulushi
Aholining ijtimoiy himoya dasturlarini oluvchilar soni
Ijtimoiy yordam oluvchi kambag‘allar soni, kambag‘al aholining umumiy soniga nisbatan
Har bir kambag‘alga ajratilgan ijtimoiy himoya harajalari darajasi, qashshoqlik xususiyati bo‘yicha daromadlarining darajasiga nisbatan

Inklyuziv o‘sish indeksining maksimal belgisi – 10, bundan 1 dan 3 gacha inklyuziv o‘sish taraqqiyotining qoniqarsiz belgisi, 4 dan 7 gacha taraqqiyotning qoniqarli belgisi, 8 dan 10 gacha taraqqiyotning yuqori belgisi deb qaraladi. Inklyuziv o‘sish indeksini hisoblash metodikasi quyidagicha hisoblanadi: birinchidan, har bir subkomponentning mamlakat yutuqlari va mos keluvchi ko‘rsatkichlar darajasidan kelib chiqqan holda aniq ballar (0-10) bahosi aniqlanadi; ikkinchidan, har bir subkomponentning o‘rtacha ko‘rsatkichlari hisoblanadi;

uchinchidan, subkomponentlarning o‘rtacha ko‘rsatkichlari hisoblanib, inklyuziv o‘sish indeksining umumiy ko‘rsatkichlari aniqlanadi. Indeksni hisoblash uchun 29 ta ko‘rsatkichdan iborat tizim mavjud.

Inklyuziv o‘sish indeksini yaratish komponentlari:

I. Iqtisodiy o‘sish, samarali bandlik va mehnat, iqtisodiy infratuzilma.

Inklyuziv rivojlanishda aholi jon boshiga to‘g‘ri keladigan daromadning o‘sishi muhim ahamiyat kasb etadi. O‘sish bu “iqtisodiy imkoniyatlarni yaratish va kengaytirish” uchun asosdir. Chunki ushbu yo‘nalishdagi muvaffaqiyat boshqa ko‘plab jihatlar bo‘yicha rivojlanish uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Bu umumi kompozit indeksida uning salmog‘i 25 foizni tashkil etadi. O‘sish (ya’ni, aholi jon boshiga o‘rtacha daromadlarning foiz o‘zgarishi) unda ishlab chiqarishdagi keng qamrovli ish o‘rinlarining oshishiga mos kelmasligi kerak. Ba’zida o‘sib borayotgan model yangi ishga joylashish imkoniyatlari cheklangan, ayniqsa past haq to‘lanadigan xizmatlar sektori o‘sib borayotgan bo‘lsa, sanoatning o‘sishi pasayadi.

Inklyuziv o‘sish strategiyasini ishlab chiqish uchun asosiy muammolardan biri rivojlanish modelining aspektlarini aniq belgilashdir, bu jihatlar o‘ta muhim deb hisoblanadi va bu jihatlarni farqlash faqat qashshoqlikka qaratilgan (daromad yoki daromadsiz xususiyatlar bilan belgilanadi) bo‘ladi. Shubhasiz, inklyuzivlikning asosiy jihatlaridan biri iqtisodiy o‘sishning salmog‘i asosida bandlikka erishishdir.

Samarali mehnat inklyuzivlik jihatlaridan biri hisoblanadi. Biroq daromad taqsimotidan farqli o‘laroq umuman olganda, ishlab chiqarishdagi ish bilan bog‘liq ishlarni kuzatib borish uchun mavjud ko‘rsatkichlar juda kam. “Inklyuzivlik” haqiqatdan ham informasion ko‘rsatkichlar taraqqiyotiga erishish uchun yetarli emas. Bunday muammolarga qaramasdan Mingyllik Rivojlanish Maqsadlari doirasida ayrim mumkin bo‘lgan ko‘rsatkichlar mavjud. Misol uchun, Mingyllik Rivojlanish Maqsadlari ko‘rsatkichlaridan biri bu har bir kishi uchun band bo‘lgan YAIMning o‘sish sur’ati samaradorlik, mehnat unumдорлиги uchun vakil bo‘ladi.

Bu ko'rsatkich YAIMning aholi jon boshiga o'sish indikatorini ish bilan bandlik ko'rsatkichi nisbatiga birlashtiradi.

Uchinchi qo'shimcha ko'rsatkich qishloq xo'jaligida haq to'lanadigan ish bilan band ishchilardir. Ushbu turkum sanoat ishbilarmonligiga qaraganda kengroqdir, ammo ish haqi yoki boshqa to'lovlarni nazarda tutib sifatli bandlik taklifiga yuqori ish haqi to'lanadi.

Ishlab chiqarishda ishsizlikning tendensiyalari haqida mazmunli ma'lumotlarning yetishmasligi ehtiyojni ta'kidlaydi. Bunday ma'lumotlarning yetishmasligi bunday taraqqiyotni monitoring qilish va baholashda jiddiy zaiflikdir. Natijada, Murakkab Inklyuziv o'sishda iqtisodiy o'sishga qaramasdan samarali ish bilan bandlikning salmog'i kamroqdir (ya'ni, ish bilan bandlik uchun 15 foiz, iqtisodiy o'sish uchun 25 foiz).

Aholining iqtisodiy infratuzilma imkoniyatlariga erishishi inklyuziv o'sishning yana bir muhim o'lchami hisoblanadi. Bunday o'lchov odatda o'sib borayotgan muhim ahamiyatga ega ijtimoiy infratuzilmadan (ta'lim, sog'liqni saqlash, suv va sanitariya) foydalanish uchun oxirgi 20 yilda e'tiborga olingan.

Natijada, aholini elektr energiyasi, yo'llar va axborot-kommunikasiya texnologiyalari kabi iqtisodiy infratuzilmaga kirishni aniqlaydigan ko'rsatkichlar bo'yicha ma'lumotlar tayyor emas. Ba'zi holatlarda biz "aholi jon boshiga o'rtacha kirish" ko'rsatkichlarini topa olmaymiz. Masalan, aholi jon boshiga o'rtacha elektr energiyasini iste'mol qilish talabi bo'ladi.

Axborot-kommunikasiya texnologiyalariga kirish uchun mavjud bo'lgan istiqbolli ko'rsatkichlar mavjud. Misol tariqasida, 100 kishiga internet foydalanuvchilari soni. Bu maqsad 8-Mingyllik Rivojlanish Maqsadlari ko'rsatkichidir. Bundan tashqari, 100 kishiga mobil aloqa abonentlarining soni. So'nggi paytlarda tendensiyalar mobil telefonlarning internet tarmog'idan foydalanish tezligida erishilgan yutuqlarni ko'rsatmoqda. Ushbu klaster umumiyligi 10 foizli salmog'ga ega.

II. Daromadlar bo'yicha kambag'allik va umumiyligi tenglik.

Inklyuziv rivojlanish strategiyasiga nisbatan harakatlar qashshoqlikka qarshi keskin an'anaviy meyorlarni o'z ichiga oladi. Rivojlanayotgan mamlakatlarda siyosatchilar aholining keng qatlamlari ehtiyojlariga javob beradigan rivojlanish strategiyalarini ishlab chiqish uchun bosim o'tkazishmoqda. Ushbu keng ko'lamli yangi yo'naliш, ko'plab rivojlanayotgan mamlakatlarda, xususan, Osiyoda daromad va boylik tengsizligi sezilarli darajada oshib borayotgani va kambag'al bo'lмаган aholining katta qismiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Osiyo Taraqqiyot Bankining mutaxassislari Osiyoda haddan tashqari kambag'allik darajasi (masalan, har bir inson uchun kuniga 1 AQSH dollariga teng bo'lgan xalqaro kambag'allik chizig'i bo'yicha o'lchangan) 2020- yilga kelib aholi sonining qisqarishini prognoz qilmoqda.

Daromadlar bo'yicha o'rtacha va haddan tashqari kambag'allik. Bunday kuzatuv, kambag'allik chizig'i bo'yicha har bir kishi uchun kuniga 2,50 AQSH dollari miqdorida olingan daromad qashshaqlik darajasini muntazam ravishda baholash imkonini berishi mumkin.

Bunday xalqaro kambag'allik chiziqlari xalqaro narxlarni ishlab chiqarishda va tegishli darajada iste'mol va narx ko'rsatkichlarining mamlakat darajasida yetishtirilishida ishlatiladigan agregasiya usuli tufayli tanqid qilinmoqda. Ko'p hollarda bunday choralarining o'zgarishi aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YAIM yoki ish bilan bandlik kabi boshqa milliy tendensiyalarga mos kelmaydi. Shunday qilib, bunday harid qobiliyati paritetiga asoslangan ko'rsatkichni muayyan mamlakatda o'rtacha qashshoqlik darajasi bo'yicha "global" nuqtai nazar bilan ta'minlashni kerak. Shuning uchun u har bir mamlakatda o'rtacha miqdordagi qashshoqlik darajasining muntazam "sur'ati" sifatida qo'llanilishi kerak, bu oddiy milliy darajadagi monitoring vositasi sifatida yemas.

Monitoring maqsadlari uchun kambag'allik chizig'iga asoslangan kambag'allik bahosini qo'llashni tavsiya yetamiz. Ko'pgina mamlakatlar uchun "oziq-ovqat qashshoqligi" (ya'ni o'ta qashshoqlik) va umumiyl qashshoqlik (oziq-ovqat va nooziq-ovqat sarf-xarajatlaridan kelib chiqqan holda) darajasining o'lchovlari Jahon banki yoki OTBning o'zidan bo'lishi kerak.

Vertikal va gorizontal tengsizlik. Jini koeffitsiyenti aholining eng kambag‘al 60foiz daromadlari bilan to‘ldirilishi kerak. Ushbu ko‘rsatkich aholining "kambag‘al bo‘lmagan zaif" ahvolini baholash uchun qo‘llaniladi. Masalan, haddan tashqari kam daromadli qashshoqlik kamaygan taqdirda ham, eng kambag‘al 60foiz aholining daromad ulushi tushib ketishi mumkin.

Aholining eng kambag‘al 60foizi jon boshiga o‘rtacha xarajatlarning aholining eng boy 10foizi jon boshiga o‘rtacha xarajatlarga nisbati foydali qo‘sishimcha ko‘rsatkich hisoblanadi. Ko‘pgina mamlakatlarda, global inqirozdan oldingi o‘n yil mobaynida bu nisbat umumiy tengsizlikka (masalan, Jini koeffitsiyenti bilan o‘lchangan) nisbatan sezilarli darajada oshganini taxmin qilish mumkin.

Ushbu taklif Osiyo Taraqqiyot Banki tomonidan qo‘llaniladigan indikator bo‘yicha o‘zgarishdir: eng kambag‘al 20foiz gacha bo‘lgan jon boshiga o‘rtacha xarajatlarning eng boy 20foiz ga nisbati. Bu ko‘rsatkich daromad taqsimotining ikkita ustuniga qaratilgan bo‘lsa-da, uning foydasi daromadning nisbiy ulushi emas, balki mutlaq darajadagi daromad darajalariga yondashishdir.

Daromad taqsimoti kabi "vertikal" tengsizliklarni kuzatishdan tashqari, "gorizontal" tengsizliklar evolyusiyasiga e’tibor qaratish kerak. Ayniqsa, qishloq va shahar joylari va qolaversa, mintaqalar o‘rtasida farqlar mavjud.

Xulosa qilib aytganda, ko‘p miqdordagi tenglikka erishish quyidagi darajalarda amalga oshiriladi: 1) juda kambag‘allarning "qo‘silish" ni kuchaytirish orqali (milliy kambag‘allik chegaralariga qarab); 2) o‘rta darajada kambag‘allarning "qo‘silish" ni kuchaytirish orqali (xalqaro kambag‘allik chizig‘i bo‘yicha kuniga har bir kishi uchun 1 AQSH dollari); 3) kam ta’minlangan bo‘lmagan kambag‘allarning "qo‘silish" ni kuchaytirish orqali (masalan, aholining eng kambag‘al 60foizi kabi).

Inklyuziv o‘sishga yerishishni monitoring qilish va baholashning mezonlari yuqoridagi uchta jihatni o‘z ichiga oladi.

Gender tengligini inklyuziv o'sishga birlashtirish. Gender tengligini yanada kengaytirish - o'sishning "inklyuzivligi"ni, jumladan, inson salohiyatini oshirishning muhim jihatni hisoblanadi.

Gender tengligini ta'minlashda boshqa o'lchovlar uchun foydalanadigan Inklyuziv o'sishning keng taraqqiyotga yo'naltirilgan ta'rifini qo'llash muhim hisoblanadi. Shunday qilib, faqat kambag'al ayollarga yoki erkaklarga va ayollar o'rtasidagi nisbiy inson qashshoqligiga e'tibor qaratmaslik lozim. Ayollarning kengroq guruhini shakllantirish jarayonini baholash uchun foydalanish mumkin bo'lgan ko'rsatkichlar afzalroq. Bunda asosan uch yo'nalish ta'lim, sog'liqni saqlash va ish bilan ta'minlashga e'tibor qaratiladi.

Daromadlar bo'yicha qashshoqlik va umumiyligi tenglikning umumiyligi toifasiga umumiyligi kompozit indeksdagi umumiyligi og'irlikning 25 foizini tashkil etadi. Ushbu 25 foiz og'irlikda 40 foiz og'irlik (10 foiz umumiyligi) 1) ekstremal va o'rtacha qashshoqlik ko'rsatkichlari (milliy bashorat) uchun beriladi; 40 foiz (10 foiz umumiyligi) 2) vertikal va gorizontal tengsizlik ko'rsatkichlari (eng kambag'al 60 foiz aholi xarajatlari ulushi kabi); va 20 foiz (5foiz umumiyligi) og'irlik 3) gender tengsizligini tashkil etadi.

III. Inson imkoniyatlari inklyuzivlikning jihatni. Bugungi kunga kelib, daromadlar bo'yicha qashshoqliq, daromadlar tengsizligi va samarali ish bilan bandlik "inklyuzivlik"ning muhim belgisidir. Biroq, Inklyuziv o'sishni aniq belgilab beradigan aholining davlat mollari va xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlarini ko'rib chiqishga olib keladi. Sog'liqni saqlash va ta'lim xizmatlaridan foydalanishni, shuningdek, toza suv va yetarli miqdorda sanitariya kabi boshqa muhim infratuzilmani ham o'z ichiga oladi.

Sog'liqni saqlash va ta'lim kabi o'lchovlar turli yo'llar bilan talqin qilinishi mumkin. Ular ko'pincha inson taraqqiyoti natijalari deb hisoblanadilar. Yaxshi sog'lik va asosiy ta'lim, qo'shimcha daromad keltiradigan, ya'ni o'sish sur'atini tezlashtiradigan inson imkoniyatlariga ham ega bo'lishi mumkin.

Inklyuziv o'sish, sog'liqni saqlash va ta'limning analistik doirasi, shuningdek, mamlakat aholisining "imkoniyat tengligi" darajasining barometri

ham hisoblanishi mumkin. Bu shuni anglatadiki, jamiyatning barcha a'zolari ijtimoiy integrasiyani ta'minlash uchun asos bo'lgan insonning asosiy qobiliyatlarini shakllantirish vositasi bilan ta'minlanishi kerak.

Inklyuziv o'sishni keng ma'noda, ya'ni Inklyuziv rivojlanishga tenglashtiruvchi darajada aniq belgilab olgach, inson salohiyatini inson taraqqiyoti o'lchovi sifatida ustun qo'yamiz. Bundan tashqari, asosiy imkoniyatlarning yo'qligi sababli "inson qashshoqligi" ni ko'rsatiladi.

Sog'lijni saqlash natijalariga ko'ra, besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi darjasini eng ishonchli va keng qamrovli ko'rsatkichlardan biridir. Qo'shimcha sog'lijni saqlash ko'rsatkichi sifatida, umr ko'rish davomiyligi ko'rsatkichi bo'yicha o'zgarish ham qo'llanilishi mumkin, chunki u jamiyatda umumiy sog'lijni saqlash sharoitlari barometri sifatida xizmat qilishi mumkin. Odatda 40 yoshdan katta bo'limgan yashashni nazarda tutadigan aholi ulushidan foydalilaniladi. Bu indikator Inson taraqqiyoti to'g'risidagi hisobotning Inson qashshoqlik indeksida qo'llaniladi. Birgalikda, besh yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi ko'rsatkichi va 40 yoshgacha bo'lgan aholi o'limi ko'rsatkichi orasida sog'lijni saqlashning inklyuzivligiga erishish uchun mamlakatning muvaffaqiyat qozonishini anglatadi.

So'nggi yillarda inson taraqqiyoti darajasini daromad yoki boylik choralari bilan bog'lab turishga harakat qilingan. Misol uchun, Demografik va Sog'lijni saqlash tadqiqotlari ma'lumotlar bazasi aholining kvintillari tomonidan boylik indeksi bo'yicha besh yoshgacha bo'lgan o'lim ko'rsatkichi haqida ma'lumot beradi. Sog'lijni saqlash natijalari, masalan, umr ko'rish davomiyligi va o'lim darjasini kabi boy va kambag'al viloyatlarda (sog'lijni saqlashning kambag'al viloyatlarida tezroq rivojlanganligi sababli) yaqinlashishi tendensiyasiga ega bo'lsa, natijalar qishloq va shaharlar o'rtasida kengayib bormoqda. Natijada ular og'ir ahvolga tushib qolish kabi yomon sog'lijni kambag'al oilalar orasida keng tarqalishi mumkin.

Ikkala umr ko‘rishning o‘zgaruvchilari uchun yaxshi qo‘sishimcha besh yoshgacha bo‘lgan bolalar kam vaznli bo‘lgan bolalar ulushi bo‘lishi mumkin. Bu ko‘rsatkichlar ovqatlanish va sog‘lijni saqlash sharoitlari haqida ma’lumot beradi.

Ta’lim olish natijalari bo‘yicha maktablarga qabul qilish indikatoridan foydalanishi mumkin. Bu faqat qashshoqlikka bog‘liq natijalarga e’tibor qaratmaslik uchun, savodxonlikdan foydalanish (klassik asosiysi “natija” ko‘rsatkichi) yoki boshlang‘ich maktabga qabul qilish nisbati maqsadlar uchun yetarli bo‘lmaydi.

Bunday holda, boshlang‘ich maktabga qabul qilish nisbati umumta’lim maktablariga qabul qilish nisbati bilan to‘ldirish mumkin. Nihoyat, agar demografik va sog‘lijni saqlash tadqiqotlari vaqt o‘tishi bilan kvintilllar tomonidan ro‘yxatga olish stavkalarini taqdim eta, bunday ko‘rsatkichni taqdim etish yeng maqbul variant bo‘ladi.

Toza suv va yetarli sanitariya sharoitlariga oid ma’lumotlar mavjud bo‘lgan hollarda ushbu ko‘rsatkichlar yuqorida sanab o‘tilgan sog‘lijni saqlash va ta’lim ko‘rsatkichlariga qo‘sishimcha ravishda yetkazilishi kerak. Bunday obyektlarga kirishning yetishmasligi, ayniqsa, qishloq joylarida va ayniqsa sanitariya sharoitlarida jiddiy bo‘lishi mumkin. 2020 yilgi Strategiyaga muvofiq Osiyo taraqqiyot banki bunday tarmoqlarga kelgusida investitsiyalarini yo‘naltirishni rejalahshtirmoqda.

Umumiy inklyuziv o‘sishga ushbu kompozit indeks uchun 15 foizgacha og‘irlik beriladi. Ushbu umumiy miqdordan sog‘lijni saqlash va ovqatlanish klasteriga (ya’ni 5 yoshgacha bolalar va 40 yoshgacha bo‘lgan kishilar uchun o‘lim ko‘rsatkichlari va 5 yoshgacha bo‘lgan bolalar kam vaznligi) 1/3 (umumiy ravishda 5foiz) beriladi, ta’lim klasteriga (ya’ni boshlang‘ich va o‘rtalro‘yxatga olish) 1/3 (jami 5foiz) beriladi va 1/3 (jami 5foiz) qismi suv va sanitariya sharoitlariga kirish uchun beriladi. Mumkin bo‘lgan joylarda ushbu ko‘rsatkichlar kvintil va qishloq-shaharlararo bo‘linish bo‘yicha ajratilishi kerak.

IV.Ijtimoiy himoY. Odatta, ijtimoiy himoya Inklyuziv o‘sish strategiyasining qo‘sishimcha hajmi sifatida qamrab olinadi. Ekstremal

qashshoqlikni bartaraf etish zarurati ijtimoiy himoyaning ba’zi bir asosiy shakllariga yoki ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlariga e’tiborni talab qiladi. OTB “ijtimoiy integrasiyani rag‘batlantirish hukumatning tashqi va vaqtinchalik shoklari oqibatlarini yumshatish va ayni paytda kambag‘allarning minimal ehtiyojlarini qondirish uchun ijtimoiy xavfsizlik tarmoqlarini ta’minlashni talab qiladi²⁷” deb hisoblaydi.

Ular bunday ijtimoiy himoya qilishning bir qancha potensial o‘lchovlarini tasvirlaydilar. Ular orasida mehnat bozori siyosati, ijtimoiy sug‘urta dasturlari, ijtimoiy yordam va farovonlik sxemalari va bolalarni himoya qilish xizmatlari mavjud.

Ushbu kompozit indeks to‘rtta tarkibiy qismga ega. Birinchisi, barcha ijtimoiy himoya dasturlari bo‘yicha YAIMga nisbatan umumiylar xarajatlardir. Ikkinchisi - asosiy maqsadli guruhlar uchun moslashuvchan aholilarga nisbati sifatida ijtimoiy himoyalash dasturlarining (asosiy maqsadli guruhlar) foydalilari soni. Uchinchisi – kambag‘al aholi umumiylar soniga nisbatan kam ta’minlangan ijtimoiy himoyaga muhtoj shaxslar soni. To‘rtinchisi – kambag‘allik chegarasiga nisbatan har bir kambag‘al uchun ijtimoiy himoyaning o‘rtacha xarajati.

Ijtimoiy himoya indeksiga 10 foizgacha vazn keltiramiz va yakuniy ko‘rsatkichni bizning to‘rtta asosiy ko‘rsatkichlarimiz uchun 100 foizga qo‘shamiz.

Reyting tizimi. Murakkab indeks, har to‘rt komponentning har biri bo‘yicha mamlakatning ishlashiga asoslangan, 0-10 oraliq‘ida o‘rtacha balli hisoblab chiqiladi. To‘rt komponentning har biri o‘z navbatida uning pastki tarkibiy qismlarining o‘rtacha og‘irligi hisoblanadi. Misol uchun, Inson imkoniyatlarini takomillashtirishning uchinchi komponenti uchta pastki komponentga (sog‘liqni saqlash va ovqatlanish, ta’lim, suv va sanitariya xizmatlaridan foydalanish) ega. Ularning har biri 0 dan 10 gacha baholanadi va olingan natijalar jami tarkibiy qismda 1/3 gacha beriladi. Jami komponent tarkibiy kompozitsion indeksdagi 15foiz ga teng. Agar jami komponent uchun jamlangan ball 6 bo‘lsa, unda 0.9 (6 x

²⁷ Asian Development Bank (ADB). 2008. Strategy 2020: The Long-Term Strategic Framework of the Asian Development Bank, 2008-2010.

.15) vaznli ball jami kompozit indeksga qo'shiladi va boshqa uchta asosiy komponentning og'irlilik natijalari bilan qo'shiladi.

Umuman olganda, 1-3 ballni Inklyuziv o'sish bo'yicha qoniqarsiz taraqqiyot, 4-7 ball bilan qoniqarli natjalarga erishish va 8-10 ball yuqori natijalar sifatida baholanadi.

**XII BOB. INKLYUZIV O'SISHDA IJTIMOIY SOHA VA IJTIMOIY
INVESTITSIYALAR. AHOLI HAYOT SIFATI VA STANDARTLARINI
YAXSHILASH**

Reja:

- 1. Mamlakatimiz aholisini samarali muhofaza qilish hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari orqali aholi farovonligini oshirish.**
- 2. Inklyuziv iqtisodiy o'sishni ta'minlashda ijtimoiy soha xarajatlari tahlili.**
- 3. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar.**

12.1. Mamlakatimiz aholisini samarali muhofaza qilish hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari orqali aholi farovonligini oshirish

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo'lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o'sishning tez sur'atlarda oshishi, Inflyatsiyaaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagi tarkibiy o'zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi.

Aholi daromadlari asosan pul daromadlari va natural shakldagi daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari aholi pul daromadlarining salmog'i sezilarli darajada oshib, uning tarkibiy to'zilishi ham takomillashib boradi.

Aholi daromadalarining tarkibiy to'zilishi:

- mehnatga haq to'lash;
- ijtimoiy transfertlar;
- mol-mulkdan olingan daromadlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

O‘zbekistonda umumiylar daromadlar tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar ulushi ortib, aksincha mol-mulkdan olingan va transfertlardan daromadlar ulushi kamayib bormoqda.

12.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibi, foiz

Ko‘rsatkichlar	2015 y	2016 y	2017 y.
Umumiylar, undan:	100,0	100,0	100,0
1) Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar, shu jumladan:	75,5	73,3	71,0
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, undan:	73,2	71,2	68,8
SHaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	2,3	2,1	2,2
2) Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,7	2,6	4,2
3) Transfertlardan daromadlar	21,8	24,1	24,8

Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2017 yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiylarining katta qismi yollanma ishchilarining daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiylarining 68,8 foiz) shakllandi. Aholi umumiylar daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 2,2 foiz, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,2 foiz, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 24,8 foiz ni tashkil qildi.

Bugungi kunda aholini ish bilan ta’minlash, odamlarning daromadlarini ko‘paytirish va faravonligini oshirish masalalari har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini yanada rivojlantirish mamlakatimizda mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko‘paytirish va faravonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi, ushbu sohaning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 53,3 foizini ayni shu sohada ishslash chiqarilmoqda. 2000- yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat bo'lган²⁸.

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda.



12.1-rasm. Aholi umumiy daromadlarining o'sish sur'atlari²⁹,
(o'tgan yilga nisbatan foizda).

Aholi daromadlarini yanada oshirib borish strategiyasi quyidagi ustuvorliklarni o'z ichiga olishi lozim: birinchidan, ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o'rnlari yaratish asosida aholi bandlik darajasining oshuviga erishish; ikkinchidan bozor talablariga to'liq mos ravishda xodimlarning ish hakining o'sishi darajasini oshirib borish; uchinchidan, mehnat daromadlarini tartibga solish vositasi sifatida minimal ish haqining rolini ko'tarish; to'rtinchidan, iqtisodiyotning budget sektoridagi ish haqini oshirish.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rnlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, o'z mehnati bilan daromad topish istagida bo'lган fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Har bir oila-tadbirkor dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi PQ-3777-sonli qarori qabul qilindi.

²⁸ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

²⁹ O'zbekiston Respublikasi davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari

Qaror bilan har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

Mamlakatimizning har bir tuman va shahrda, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobiy o‘zgarishlar amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan «Har bir oila — tadbirkor» dasturi amalga oshirilmoqda.

Dasturning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash;

tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko‘rsatish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo‘shimcha ish o‘rnlari yaratish;

kasanchilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo‘shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish;

qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda mazkur sohada ijobiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish — mini-klasterlar tashkil etish;

joylarda oilaviy tadbirkorlikka ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini tubdan kengaytirish, tadbirkor oilalarning ishlab chiqargan mahsulotlari savdosini tashkil qiluvchi bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko‘rsatish va servis shoxobchalarini barpo etish;

qishloq va mahallalarda bo'sh turgan yer maydonlarini yangi tashkil etilayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berish orqali aholi uchun qo'shimcha ish o'rnlari va daromad manbalarini yaratish;

ko'p qavatli uylarda istiqomat qiluvchi aholiga kasanachilik va kichik hajmda mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalarni tashkil etish orqali qo'shimcha daromad topish imkonini yaratish;

vaqtinchalik moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan hamda davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlab, ular faoliyatini tiklash va qonuniylashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mehnatkash halqimizning qadimiylarini kasb-hunar an'analari, ishbilarmonlik salohiyati oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta tajriba va zaxira mavjudligidan dalolat beradi.

Aholi turmush darajasi konsepsiysi halk farovonligini oshirish, kambag'allik va kam ta'minlanganlikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik zarurligidan kelib chiqadi, shuning uchun respublikada o'tkazilayotgan islohotlar aholi daromadiga nisbatan moslashuvchan siyosat o'tkazishni maqsad qilib qo'ygan. U ish haki sohasidagi bozor islohotlarining har bir bosqichida rivojlanish va o'zgarishga, daromadlar miqdoriga bog'liq ravishda maksimal soliqka tortishni qo'llash, kam daromadli aholiga transfert to'lovlar miqdorini ko'paytirishga qodirdir.

Aholining harid qobiliyatini oshirish, tovar va xizmatlar narxining doimo ham asoslanmagan holda o'sib borishi oqibatlarini yumshatish va oxir oqibatda aholining turmush darajasini quvvatlab turish uchun davlatni tartibga soluvchilik ta'siri zarur. Bu daromadlar tarkibida ish haqi ulushining nisbatan oshib borishi va uning bevosita ko'payib borishiga ham yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, davlat bir tomondan, valyuta va moliya bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish, Inflyatsiyaarning o'sish darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmokda, boshqa tomondan esa aholining nochor

qatlamlarini sotsial himoyalash va o‘rta sinfni mustahkamlash bo‘yicha tabdbirlarni kuchaytirmokda.

Aholi turmush darajasi shakllanishi sharoitida O‘zbekistondagi daromadlar siyosati konsepsiyasi quyidagilarni qamrab olishi lozim:

* faol mehnat faoliyatini rag‘batlantiruvchi va o‘rtacha jon boshi daromadlar o‘sishining yuqori sura’tlarini ta’minlovchi iqtisodiy va huqukiy shart-sharoitlarni yaratish;

* aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalashning aniq mo‘ljallanishini kuchaytirish;

* mehnat bozorini faollashtirish, ish kuchiga talab va taklif o‘rtasidagi muvozanatga erishish;

* aholining o‘zini-o‘zi band etishni kengaytirish uchun iqtisodiy va huqukiy shart-sharoitlar yaratish;

* daromadlar bo‘yicha turlicha ijtimoiy guruhlarning turmush darajasidagi haddan tashqari yuqori darajada tabaqlashuviga yo‘l qo‘ymaslik;

* aholining real va o‘z ixtiyorida bo‘lgan daromadlarining barqaror o‘sishiga erishish.

O‘zbekistonda bandlik siyosatining xususiyatlari Davlatning ijtimoiy siyosatining yo‘nalishlaridan biri bo‘lib, aholining bandligiga yordamlashish va ishsizlikdan himoyalashdir. O‘zbekistonda bandlikka yordamlashish siyosati rivojlangan malakatlarning boy tajribasini hisobga olgan holda tashkil etilgan.

Bandlikning o‘sishini rag‘batlantirish 3 yo‘nalish bo‘yicha bo‘ladi: tadbirkorlar bilan ishlash (ish o‘rinlari yaratishda soliq imtiyozlari), ishsizlar tomonidan ish axtarishning faollashuvi (ish kuchi taklifini rag‘batlantirish) va yollanma xodimlarning bir qismini mehnat bozoridan chiqarish (o‘zini-o‘zi band etishni quvvatlash).

O‘zbekistonda aholining bandligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning millliy modelida o‘z aksini topgan. Unda qishloq joylardagi aholining band bo‘lishiga ustuvorlik berilgan.

Islohotlarning birinchi bosqichida bandlikni ta’minlashdagi birinchi navbatdagi tadbirlar davlat korxonalarini (sovxozlarni) boshqa mulk shakllariga (kooperativ,

aksionerlik va b.) o‘zgartirish; aholini shaxsiy tomorqa xo‘jaligi uchun yer bilan ta’minlash tadbirlari amalga oshirildi.

Qishloqda ishlab chiqarishning yangi shakllari – dehqon, fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishlash bo‘yicha kichik korxonalar yaratish kabi ishlar qilindi.

12.2. Inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlashda ijtimoiy soha xarajatlari tahlili

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotning barcha jabhalari qatori ijtimoiy sohalarda xam chuqr o‘zgartirishlarni davom ettirish inklyuziv iqtisodiy o‘sishni ta’minlashning asosiy talabidir. Binobarin, aholini ijtimoiy himoyalash va ijtimoiy ta’midot, aholining salomatligi va soglikni saklash tizimi, kadrlar tayyorlash va ta’lim tizimini rivojlantirish bugungi kunning eng dolzarb vazifalaridan biridir. Aholini ijtimoiy himoya qilish xarajatlarini budjetdan moliyalashtirishda ijtimoiy soha xarajatlari davlatning barqarorligi, iqtisodiyotni barqarorlashtirish, kuchli ijtimoiy siyosatni oqilona olib borilishi, qonun ustuvorligini ta’minlash kabi vazifalar davlat itiyoridagi mablag’larga chambarchas bog’liq, ya’ni davlat tasarrufida mablag’larning miqdori uning siyosatiga bevosita ta’sir ko’rsatadi. Ijtimoiy sohani qo’llab-quvvatlashga qaratilgan e’tibor mamlakatning ijtimoiy siyosati bilan chambarchas bog’liqdir.

Mamlakatimiz iqtisodiy siyosatining asosiy maqsadli yo‘nalishlaridan biri – halqimiz farovonligini oshirish va aholining yuksak turmush darajasini ta’minlashdan iboratdir. Bunda hukumatimiz tomonidan ishlab chiqilgan iqtisodiy-ijtimoiy siyosatning to‘la va izchil amalga oshirilishi, iqtisodiyotning muhim ustuvor tarmoqlarining belgilab berilishi hamda ularni rivojlantirish boyicha barcha imkoniyatlarning safarbar etilishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Ijtimoiy yunaltirilgan bozor iqtisodiyotiga utish davrida aholini ijtimoiy himoyalash, isloxtatlarni «ijtimoiy larzalarsiz» yakunlash bevosita ijtimoiy sohaga jiddiy yondashishni talab etdi. Chunki, ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyoti bozor mexanizmining samarali ishlashini, aholi turmush darajasining yuqori bulishini va kuchli ijtimoiy kafolatlarni nazarda tutadi.

O‘zbekiston Respublikasida budjet tizimi taraqqiyotining hozirgi bosqichi davlatning yaxlit budjet va ijtimoiy siyosatining manfaatlari mushtarakligini ta’minlash asosidagi o‘ta mas’uliyatli vazifalarni samarali bajarilishini talab etmoqdaki, ushbu vazifaning ikki jihatini ajratib ko‘rsatish muhimdir: birinchidan, davlat ijtimoiy siyosatining joylardagi ijjobiy ijrosi yoki hududiy iqtisodiyot muammolari keskinlashuvining oldini olinishi va ikkinchidan, mahalliy budgetlar huquq va majburiyatlarining kengayib borishi sharoitida shunga mos tarzda ular imkoniyatlarini yaxshilashning zarurligi. Ushbu har ikki jihatning o‘zaro bog’liq tarzda birgalikda olib borilishi mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotining hozirgi kundagi o‘ta muhim muammosini ijjobiy hal etishga imkon beradi.

Budget xarajatlarining tarkibi va uning to‘zilmasi davlatning tabiatiga, u tomonidan bajarilayotgan funktsiyalarga, milliy xo‘jalikning ehtiyojlariga bog’liq hamda budget mexanizmi orqali ishlab chiqarish va iste’molning ba’zi bir omillariga davlatning ta’sirchanligini ta’minlash kabilar bilan belgilanadi. O‘zbekiston Respublikasi Davlat budgeti xarajatlarining yarmidan ko‘prog’ini ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlash xarajatlari tashkil etmoqda. Bu xarajatlarning tarkibida asosiy o‘rinni maorif, sog’liqni saqlash va oilalarga ijtimoiy nafaqalar egallamoqda. Umumiy holda esa ana shu uch guruhdagi xarajatlar Davlat budgetidan ijtimoiy soha va aholini ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashga mo‘ljallangan mablag’larning 95 foizini tashkil etmoqda.

Ijtimoiy-madaniy sohalar iqtisodiyotning katta bir bulagi hisoblanadi, jamiyat va uning a’zolariga nomoddiy xususiyatdagi xizmat ko‘rsatish vazifasini amalga oshirish bilan shugullanadi. Ular bir kancha shaxsiy va ijtimoiy extiyojlarni kondirishga xizmat kiladi. Biz ijtimoiy-iqtisodiy extiyojlar deganda, kishilarning yashashi, mehnat qilishi va ma’lum iqtisodiy mavkega ega bulishi uchun iste’mol etilishi zarur mahsulot va xizmatlar majmui]ni tushunamiz. Extiyojdagi tarkibiy o‘zgarishlariga xos konuniyat bu sanoat mahsulotlariga, fan-texnika rivoji yaratgan yangi mahsulotlarga va nihoyat, turli xizmatlarga bo‘lgan extiyojning jadal o‘sishidan iborat buladi.

Ijtimoiy-madaniy sohalarga yunaltirilayotgan moliyaviy mablaglar miqdori oddiy takror ishlab chiqarishning muxim omili sifatida ijtimoiy muammolarni hal qilish bilan **bog’liq** xarajatlar qoplanishini ta’minlaydi.

Mutaxassislar hisobiga ko'ra, ishlab chiqarish kuchlarini tiklab turilishini ta'minlash uchun birgina sogliqni saqlash maqsadlariga hozirgi sharoitda yalpi ichki mahsulotning kamida 6 foizni ajratib turish talab etiladi.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi, chunki davlat amalga oshirayotgan, aholining xamma katlamlari manfaatlariga daxldor bo'lган iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy soha orkali ruyobga chikadi. Ayniksa, aholining kam ta'minlangan va kam himoyalangan qismi - kariyalarga, nogironlarga, bolalarga, ayollarga ijtimoiy yordam berish va ularga yaxshi turmush sharoitini yaratish bir tizimdan ikkinchi tizimga ogriksiz utishga, fuqarolarda utkazilayotgan iqtisodiy islohotlarga bo'lган ishonchni kuchaytirishga imkon berdi.

Mustaqillik yillarida odamlarning turmush darajasini mo'тadillashtirish maqsadida aholini ijtimoiy hayotning davlat yuli bilan boshqarishning ko'pdan-ko'п usullari va uslublaridan foydalanildi. Jumladan ish xaki, pensiyalar, stipendiyalar, nafakalar miqdori oshirildi, kompensatsiya to'lovlari tarzidagi bevosita pul to'lovlari, imtiyozlar va turli dotatsiyalar shaklidagi to'lovlarni joriy qilish usullari keng qo'llanildi.

Darhaqiqat, milliy daromadni qayta taqsimlash davlat qo'lidagi eng asosiy manba va vositadir. Shvetsiya, Germaniya, Avstriya va boshka bir qator rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko'rsatadiki, kishilarni ijtimoiy himoya qilish va uni kafolatlashning kuchli ta'sirchan mexanizmi bo'lgandagina bozor iqtisodiyotini, sobitqadamlik bilan o'tishini ta'minlash, tarkibiy qayta qurishni amalga oshirish, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni saqlagan holda ishlab chiqarish munosabatlarini tubdan isloh qilish mumkin.

Respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy-ijtimoiy islohotlar shunchaki maqsad emas, u inson uchun, uning hayoti farovon bo'lishi, manfaatlari va ehtiyojlari ro'yobga chiqishiga sharoit yaratishi lozim. Bozor har qancha o'z-o'zini boshqarish imkoniyatiga ega bo'lmasin, ana shu g'oyat murakkab muammolarni hal qilishga qodir emas, buning uchun kuchli ijtimoiy siyosat zarur bo'ladi.

Davlat ijtimoiy kafolatlarini ta'minlash inklyuziv iqtisodiy o'sishning asosiy sharti bo'lib, fuqarolarning Konstitutsiya bilan kafolatgan turli ijtimoiy xizmatlardan

to‘laqonli foydalanish huquqlarini ta’minlashni nazarda tutadi. Ijtimoiy sohani rivojlantirish va moliyalashtirilishi ijtimoiy siyosat, aholining o‘sish sur’ati, aholining yosh boyicha tarkibi, aholi jon boshiga to‘g’ri keladigan YAIM va milliy daromad omillarga bevosita bog’liq bo‘ladi.

Ijtimoiy soha xarajatlari tarkibiga halq ta’limi, sog’liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish, ijtimoiy ta’minot xarajatlari kiradi. Ijtimoiy-madaniy tadbir xarajatlari tarkibida halq ta’limi xarajatlari salmog’i oxirgi 5 yilda oshib borayapti. Ijtimoiy soha ijtimoiy siyosatning bandlik va ishsizlik, aholi daromadlarini ta’minlash, ta’lim va malakaga tayyorgarlik, sog’liqni saqlash masalalarini qamrab oladi (12.2-jadval).

12.2-jadval.

Ijtimoiy soha xarajatlarining tarkibi

Ijtimoiy sohani moliyalashtirishda xalqaro tajribalarga asoslangan holda shuni aytish mumkinki, xususiy jamg'armalarining ikkita: fuqarolarning o‘z xohishlari bilan va majburiy ravishda ishtirok etishlari nazarda tutilgan turlari mavjud. Ishtirok etish majburiy bo‘lgan jamg'armalar davlatning nafaqa dasturlarini amalga oshirilishini ta’minlash maqsadida ishtirok etish xohishiga ko‘ra bo‘lgan jamg'armalar esa ishchilarni qo‘sishimcha nafaqa bilan ta’minlash maqsadida tashkil qilinadi. Har ikkala turdagи jamg'armalar ham faqat jamg'arishga asoslangan nafaqa tizimi asosida tashkil qilinadi va nafaqalarni to‘lash ishchining o‘z hisob raqamiga to‘plangan mablag’i asosida amalga oshiriladi.

Ijtimoiy soha xarajatlarini nafaqat respublika budgetidan balki, mahalliy budgetlardan moliyalashtirish ustuvor vazifa sifatida shakllangan. Mahalliy budgetlar

Ijtimoiy xizmat Sohasi	Ijtimoiy Himoya	Ijtimoiy Sug’urta
Ta’lim	14 yoshgacha bolalari bo‘lgan oilalarga nafaqa	Pensiya sug’urtasi
Madaniyat	Ishlamaydigan onalarga bola 2 yoshgacha parvarishlash uchun to‘lanadigan nafaqa	Ishsizlik boyicha sug’urta
Fan	Kam ta’minlangan oilalarga moddiy yordam	Mehnat qilish qobiliyatini otganlik boyicha sug’urta
Sog’liqni Saqlash	Chernobil halokati oqibatlarini bartaraf etish xarajatlari	Tibbiy sug’urta
Jismoniy Tarbiya	Stipendiya	-
Ijtimoiy ta’minot	Ishsizlik nafaqasi	-
Bandlik xizmati	-	-

orqali mahalliy hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy jihatdan rivojlanishi moliyaviy mablag'lar bilan ta'minlanib boriladi. Mahalliy budgetlardan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda quyidagilarga mo'ljallangan xarajatlar moliyalashtiriladi:

- fan, ta'lim, madaniyat, sog'liqni saqlash, jismoniy tarbiya va sport;
- ijtimoiy ta'minot;
- aholini ijtimoiy himoya qilish;
- davlat hokimiyati va boshqaruva organlari hamda mahalliy davlat hokimiyati organlari faoliyatini ta'minlash;
- iqtisodiyot turlari tarmoqlarining Qoraqalpog'ston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahar budget tashkilotlarini saqlash;
- qonun hujjatlariga muvofiq iqtisodiyot tarmoqlarini rivojlantirishning maqsadli dasturlari va tadbirlarni amalga oshirish;
- qonun hujjatlarida nazarda tutilgan boshqa maqsadlar.

Rivojlangan mamlakatlarning tajribasi shuni ko'rsatadiki, hozirgi sharoitda nomoddiy ishlab chiqarish sohasiga kuyiladigan investitsiyalar o'zining yuqori samarasini bermokda, bu mamlakatning ijtimoiy sohani rivojlantirish uchun yunaltirilgan kapital kuyilmalari hisoblanadi. Bu davlatlarda kadrlar tayyorlash, ilmiy tekshirish va ta'lim sohasiga kilinadigan xarajatlar yil sayin oshib bormokda. Bunga sabab intellektual potentsial – ishlab chiqarishning eng faol elementi bo'lib bormoqda.

Rivojlangan mamlakatlar tajribalarining tahlillari shuni ko'rsatadiki, ijtimoiy xizmatni moliyalashtirish va rivojlantirishda davlatning va xususiy sektorning salmog'i, mamlakatlar va uning xizmat tarmoqlari orqali farqlanadi. Ta'lim, sog'liqni saqlash, ijtimoiy ta'minot kabi sohalarda davlat sektori hukmronlik o'rnini egallaydi. Bir xil mamlakatlarda, ijtimoiy ehtiyojlarni ta'minlashda katta xususiy sektorga ahamiyat beriladi, shu bilan birga bozor iqtisodiyotida kam ta'minlangan aholiga ko'rsatilgan xizmatlarning xarajatlarini davlat tulaydi.

G'arbiy Yevropa davlatlarida, xususan Davos forumida e'tirof etilgan kuchli o'ntalik mamlakatlarida ijtimoiy xizmatni ta'minlashda qulaylikka va ijtimoiy adolatga asoslanadi, lekin barcha mamlakatlarda ijtimoiy sug'urta tizimi kafolatlari oldingi

o'rinda turadi. Davlat aholining ijtimoiy kafolatlarini ta'minlaydi, bepul xizmatlar shaklida bozor iqtisodiyotidagi kamchiliklarni mo'‘tadillashtiradi.

Davlatning ijtimoiy soha tizimi maqsad va vazifalarini moliyalashtirishni ta'minlashning asosiy negizi sifatiga barcha darajadagi budgetlarni tayyorlash, kurib chiqish, qabul qilish va ijro etish jarayoni muddatlari hamda bosqichlari jihatidan kelishgan, har bir bosqichning aniq ijrochilari ko'rsatilgan yagona budget sikli bo'ladi.

Ijtimoiy-madaniy tadbirlarni o'tkazish va budget tashkilotlarining alohida xarajatlarning belgilangan me'yorkarga asosan xarajatlar ijtimoiy-madaniy tadbirlarning xarajatlari avvalo, loyiha parametrlariga kiritiladi.

Aholini ijtimoiy himoyalash tadbirlarining loyiha parametrlarida kam ta'minlangan bolali oilalarga to'lanadigan nafaqalar va aholi uchun ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan xizmatlar uchun farqni budgetdan qoplash bilan ifodalanadi.

Insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan vazifaning ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy-madaniy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir. Shuni nazarda to'tgan holda, hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sohalarda islohotlar amalga oshirilmoqda, albatta, ularni moliyaviy ta'minlanmoqda.

Davlatning ijtimoiy sohani rivojlantirishga yo'naltirilgan xarajatlari faqat ijtimoiy emas, balki iqtisodiy ahamiyatga ega bo'ladi, jamiyatning iqtisodiy salohiyatini oshirishga yordam beradi, chunki davlat amalga oshirayotgan, aholining hamma qatlamlari manfaatlariga daxldor bo'lgan iqtisodiy faoliyat natijalari ijtimoiy soha orqali ro'yobga chiqadi.

12.3. Mamlakatimizda ijtimoiy sohalarda amalga oshirilayotgan islohotlar

Insonga munosib turmush va faoliyat sharoitlarini vujudga keltirishdan vazifaning ijobiy hal etilishi aynan ijtimoiy-madaniy sohalar taraqqiyotiga bog'liqdir. Shuni nazarda to'tgan holda, hozirgi kunda mamlakatimizda ijtimoiy sohalarda islohotlar amalga oshirilmokda, albatta, ularni moliyaviy ta'minlanmokda.

Davlat budgetining eng muxim xususiyatlaridan biri - ijtimoiy xarajatlar yuqori ulushining saklanib kolinishidir, bu zaruriyat mehnatga layokatsiz aholi ulushining yuqoriligidan kelib chiqadi, vaholanki, Respublikamizdagi qariyb 33 million kishidan

iborat aholining yarmi 18 yoshga yetmagan bolalardir. Ta’lim xarajatlari keyingi besh yillar ichida YAIM ga nisbatan 7-8 foizni hamda davlat budgeti umumiylar harjatlarida 25-29 foizni tashkil etdi. Bunda mamlakatimizdagi murakkab demografik vaziyatni hisobga olinadi, aholi soni o’sishining yuqori sur’atlari va aholi tarkibida yoshlarning katta ulushni tashkil etishi budgetdan ijtimoiy sohalarga mablaglar sarflash ko‘rsatkichiga ta’sir qiladi. Shu munosabat bilan davlatimiz har yili ta’lim ehtiyojlari uchun ta’limning ustuvorligini ta’minlaydigan miqdorda mablag ajratilishini kafolatlaydi va kelgusida bir ta’lim oluvchiga sarflanadigan sarf-xarajat normativlarini asta-sekin ko‘paytirib borish va ularni jahon standartlari darajasiga yetkazish nazarda tutiladi.

Davlat budgeti xarajatlarining tarkibida esa mahalliy budget xarajatlarining salmogi oshib bormokda. Chunki, ijtimoiy soha xarajatlarining 80 foizi va aholi ijtimoiy himoyalash xarajatlarining 100 foizi mahalliy budgetlardan amalga oshiriladi.

Ijtimoiy hayoti erkinlashtirish yunalishlarining yana bir muxim yuli-markaziy va yuqori davlat boshkaruv idoralari vazifalarini davlat xokimiyatining kuyi to‘zilmalariga, fuqarolarning o‘zini-o‘zi boshqarish organlariga bosqichma-bosqich o‘tkaza borishni ta’minalashdir. Mamlakat budgeti daromad qismining 56 foizi va xarajat qismining 52 foizi hududiy budgetlar tashkil etmoqda».

Bugungi kun talablari O‘zbekiston Respublikasida ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotining shakllanishi, iqtisodiyotining erkinlashuvi va ijtimoiy sohalar taraqqiyotida rivojlangan davlatlar ijobiliy tajribalari qo‘llanilishi hamda milliy kadriyatlarimiz xususiyatlarini hisobga olgan holda, ijtimoiy sohalar xarajatlarini rejalashtirish va moliyalashtirish tizimini takomillashtirishni talab etmoqda.

Darhaqiqat, yangi ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda ijtimoiy sohalar taraqqiyotining moliyalashtirish tizimi hayot kuyayotgan talablar va ushbu sohaning ahamiyati nukta nazaridan takomillashtirilishi kerak.

Isloxtatlarning keyingi bosqichlarida aholini ijtimoiy himoya qilish va kam ta’minalangan oilalarga ko‘maklashuv tizimi takomillashtirildi, aholini ijtimoiy himoyalashning ta’sirchan mexanizmi shakllantirildi, o‘zgarib borayotgan ijtimoiy-

iqtisodiy sharoitlarga muvofiq holda, yangi shakl-uslublar ishlab chiqildi va qo'shimcha manbalar topildi.

Ijtimoiy soha xarajatlarini budgetdan moliyalashtirishning milliy tajribalarini ko'rib chiqqan holda, ushbu sohami moliyalashtirishning xalqaro tajribalarini ko'rib o'tamiz.

Ijtimoiy sohalarning inklyozivlik darajasi davlat tomonidan mazkur sohaga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Mamlakatimizda o'tgan 2017- yilda sog'liqni saqlash tizimidagi kasalxonalar, ambulator-poliklinika muassasalari, qishloq vrachlik punktlari yangi kурilishi va rekonstruktsiyasi uchun 427,2 mlrd. so'm investitsiyalar o'zlashtirilgan bo'lib, bu sog'likni saqlash faoliyat turiga o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning 50,4 foizini tashkil etdi.

Kasb-hunar kollejlari, litseylar va oliy ta'lim muassasalari qurilishi va rekonstruktsiyasiga 253,1 mlrd so'm o'zlashtirilib, ta'lim faoliyat turiga o'zlashtirilgan investitsiyalarning 21,3 foizini tashkil etdi.

Ta'lim jarayonini sifatini oshirish **bo'yicha** olib borilayotgan chora-tadbirlar natijasida umumta'lim va ixtisoslashtirilgan maktablar kурilishi va rekonstruktsiyasi uchun jami 404,0 mlrd. so'm o'zlashtirilib, ta'lim faoliyat turiga o'zlashtirilgan jami investitsiyalarning 34,0 foizini tashkil etdi.

Jamiyatning rivojlanishi, ishchi kuchlarining oshishi bilan xizmatlar sohasi ma'lum darajada rivojlanadi. Bugungi kunda ushbu sohada band bo'lganlarning ko'payishi, mehnatni texnik jihozlanganligining o'sishi, ilgor texnologiyalarni keng joriy etilishi kuzatilmoqda.

Iqtisodiyotning ijtimoiylashuvi dastavval, aholiga barcha sohalarda qulay shart-sharoitlar yaratishda namoyon bo'ladi. Shu bois, xizmatlar sohasini rivojlantirish aholiga qulaylik yaratishning dastlabki bosqichidir.

Hozirgi kunda iqtisodiyotning muxim tarmoklaridan biri bo'lgan xizmatlar sohasining urni juda katta va ahamiyatlidir. Bu ishlab chiqarishning murakkablashuvi, bozorni kunlik va shaxsiy talabdan kelib chikkan holda tovarlar bilan tuldirish, jamiyat hayotini yangilovchi ilmiy-texnologik taraqqiyotning jadal o'sishi bilan bog'liqdir. Bularning barchasini axborot, moliyaviy, transport, konsalting va boshqa xizmat turlarisiz amalga oshirib bo'lmaydi.

2017- yilda yalpi ichki mahsulot (YAIM) tarkibida xizmatlar sohasining ulushi 47,3 foizni tashkil etdi. Xizmatlar ishlab chiqarish hajmi 116795,7 mlrd.so‘mga teng bo‘ldi. O‘tgan yilning mos davriga nisbatan o‘sish sur’ati 108,9 foizni tashkil etdi.

12.3-jadval

O‘zbekistonda xizmatlar ishlab chiqarish hajmi va tarkibi

	Mlrd. So‘m	O‘sish sur’ati, foiz da	Jamiga nisbatanfoiz da
Xizmatlar - jami	116795,7	108,9	100,0
shu jumladan asosiy turlari bo‘yicha :			
aloka va axborotlashtirish xizmatlari	7902,9	117,3	6,8
moliyaviy xizmatlar	14961,8	135,9	12,8
transport xizmatlari	35429,3	107,7	30,3
shu jumladan: avtotransport xizmatlari	20091,2	101,4	17,2
yashash va ovkatlanish xizmatlari	3606,7	110,5	3,1
savdo xizmatlari	31950,1	100,1	27,4
kuchmas mulk bilan bog‘liq xizmatlar	3880,0	102,8	3,3
ta’lim sohasidagi xizmatlar	4226,2	120,6	3,6
soglikni saklash sohasidagi xizmatlar	1602,4	110,1	1,4
ijara xizmatlari	2564,6	101,1	2,2
kompyuterlar va maishiy ovarlarni ta’mirlash bo‘yicha xizmatlar			
shaxsiy xizmatlar	2305,6	101,5	2,0
me’morchilik, muxandislik	3173,0	101,6	2,7

izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar			
--	--	--	--

Eng yuqori o'sish sur'atlari moliyaviy xizmatlar bo'yicha - 135,9 foiz, ta'lim sohasidagi xizmatlari bo'yicha - 120,6 foiz, aloka va axborotlashtirish xizmatlari bo'yicha - 117,3 foiz, me'morchilik, muxandislik izlanishlari, texnik sinovlar va tahlil sohasidagi xizmatlar bo'yicha - 113,7 foiz erishildi.

Xizmatlar tarkibida eng yuqori ulushlarni transport xizmatlari (30,3 foiz), savdo xizmatlari (27,4 foiz), moliyaviy xizmatlar (12,8 foiz), aloqa va axborotlashtirish xizmatlari (6,8 foiz) tashkil etadi.

Bino va inshootlarni kurish va rekonstruktsiya qilish, kichik sanoat zonalarini yaratish, savdo tarmoklarini kengaytirish, turistik faoliyatni rivojlantirish transport xizmatlariga bo'lgan talabning ortishiga va logistika infratuzilmasini rivojlantirishga xizmat kilmokda. Transport xizmatlari tarkibida avtomobil transporti xizmatlari 56,7 foiz bilan ustunlik kilmokda. Bu transportning harakatchanligi hamda xavo va temir yul transporti bilan solishtirganda xizmatlar narxining nisbatan arzonligi bilan izoxlanadi.

Aloqa va axborotlashtirish xizmatlari xajmida eng katta ulush telekommunikatsiya xizmatlariga (simli va mobil aloqa xizmatlari, Internet, yuldosh alokasi xizmatlari va boshkalar) tugri keladi.

Davlat boshkaruvi, iqtisodiyot tarmoklari, ijtimoiy soha va halkning kundalik hayotida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini izchil joriy etish **bo'yicha** olib borilayotgan keng kulamli ishlar aloqa va axborotlashtirish xizmatlari xajmining (117,3 foiz) oshishiga olib keldi. Ayni paytda AKT sohasi mamlakat YAIM ning 2,2 foizini tashkil etadi.

Bank tizimining moliyaviy barkarorligini mustaxkamlash, istikbolli investitsiya loyihalarini kreditlashni yanada kengaytirish, real vakt rejimida xizmatlar ko'rsatish (Internet-banking, mobil-banking) kulamini kengaytirish va valyuta siyosatini erkinlashtirish zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan foydalangan holda interaktiv ukitish usullarini joriy qilish hamda oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish bo'yicha kurilayotgan chora-tadbirlar (oliy ukuv yurtlariga kushimcha

ravishda shartnoma asosida qabul qilish, sirtqi o‘kish kurslarini joriy etish) hisobot davrida ta’lim sohasidagi xizmatlarning o‘sishiga (120,6 foiz) ta’sir ko‘rsatdi.

XIII BOB. INNOVASION IQTISODIYOT VA INKLYUZIV IQTISODIY O‘SISHNI TA’MINLASH

Reja:

- 1. Iqtisodiyotni innovation rivojlantirish tushunchalarining mazmuni va mohiyati.**
- 2. Mamlakatimizning hozirgi kundagi innovation faoliyatining iqtisodiy holati tahlili.**
- 3. Iqtisodiyotni innovation rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari.**

13.1. Iqtisodiyotni innovation rivojlantirish tushunchalarining mazmuni va mohiyati.

Barcha mamlakatlar shu jumladan, O‘zbekiston uchun ham zamonaning eng dolzARB iqtisodiy ta’limotlaridan biri hisoblangan **innovatsiyalarning iqtisodiy tushunchasi** hozirda o‘zining shakllanish bosqichida. Yurtimizda ham iqtisodiyotda tub o‘zgarishlarni amalga oshirish, modernizasiya va diversifikasiya jarayonlarini izchil davom ettirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Xususan, Prezidentimiz SH.M. Mirziyoyevning “O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan **innovatsiya** va investitsiya siyosatining o‘ziga xos xususiyati mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlashni ta’minlaydigan, yuqori texnologiyalarga asoslangan yangi ishlab chiqarishlarni tashkil etishga qaratilgan innovation va investitsion loyihamariga ustuvor ahamiyat berilayotganida namoyon bo‘lmoqda”³⁰ – deb ta’kidlagan so‘zlaridan ham mamlakatimizda innovation iqtisodiy-siyosatga nechog‘lik ahamiyat berilayotganini bilish mumkin.

Iqtisodiyot ilmining turli yo‘nalishlarida **innovatsiya** tushunchasining shakllanishi muammosiga bag‘ishlangan ishlar avvalambor G. Xospersa, R.

³⁰ SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11 (6705).

Smitsa, M. Larani, E. Uarab va K. Flanaganblarning ishlarida o‘z aksini topgan. Gert-Yan Xospers o‘zining “Yozef Shumpeter va uning **innovatsiyalar** tadqiqotidagi merosi” nomli ishida Y. Shumpeterning neoklassiklar doirasida yuzaga kelgan innovatsiya tushunchasi haqidagi qarashlarini tahlil etgan³¹. Rud Smits o‘zining “XXI asrda innovatsiyalar haqidagi ta’limotlar: iste’molchilar tomonidan savollar” nomli ishida innovatsiya tadqiqotlarida jarayonli va tizimli yondashuvchi maktablarni ajratib ko‘rsatadi³². Manuel Laranya, Elvira Uarab va Kiron Flanaganlar o‘zlarining “Fan, texnologiya va innovatsiya sohasidagi siyosat: turli darajalarda hududiy siyosatni nazariy asoslash” nomli ishlarida mavjud yo‘nalishlarni (endogen o‘sishning neoklassik nazariyasi, o‘sishning yangi nazariyasi, neomarshalianning klaster yondashuvi, evolyusion-strukturalistik yondashuv, institusional tizimli yondashuv) innovation siyosat uchun tavsiyalar ishlab chiqish nuqtai nazaridan tahlil qilaganlar³³.

Zamonaviy iqtisodiy rivojlanishning harakatlantiruvchi kuchi – innovatsiya ekanligiga hech kimda shubha yo‘q. Endi innovatsiya tushunchasining vujudga kelishiga tarixiy manbalar tahlilini qilib ko‘ramiz.

«Innovatsiyalar» atamasini yangi iqtisodiy toifa sifatida fanga avstriyalik (keyinchalik amerikalik) olim Yozef Shumpeter XX asrning birinchi o‘n yilligida kiritgan. O‘zining «Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi» nomli asarida (1911- y.) Y. Shumpeter ilk bora rivojlanishda o‘zgarishlarning yangi kombinasiyalari masalalarini (ya’ni innovatsiya masalalarini) ko‘rib chiqdi va innovation jarayonga to‘liq tavsif berdi.

13.1-jadval

«Innovatsiyalar» tushunchasi ta’riflarining variantlari³⁴

Ta’rif	Manba
--------	-------

³¹ Hospers Gert-Jan. Joseph Schumpeter and His Legacy in Innovation Studies. Knowledge, Technology, & Policy, Fall 2005, Vol. 18. №3.

³² Smits Ruud. Innovation studies in the 21st century: Questions from a user’s perspective. Technological Forecasting & Social Change 69, 2002.

³³ M.M.Laranjaa, E.Uyarab, K.Flanagan. Policies for science, technology and innovation: Translating rationales into regional policies in a multi-level setting. Research Policy, 37, P.823-835.

³⁴ Abdusattarova X.M., “Innovasiya strategiyasi”, fanida o‘quv qo‘llanma - T.: TDIU, 2011 y.

<i>Innovatsiya</i> – kapitalni yangi texnika yoki texnologiyaga, ishlab chiqarishni tashkil qilish, mehnat, xizmat ko‘rsatish va boshqaruvning yangi shakllariga, jumladan, yangicha nazorat va hisob shakllari, rejalashtirish va tahlil usullariga kiritishdan olingan, moddiy tus olgan natijadir.	Balabanov I.L. Innovasionniy menedjment. SPb.: Piter, 2001
<i>Innovatsiya</i> - ilmiy-tadqiqot va tajriba-konstruktorlik ishlari (ITTKI) natijalarini bozorga yetkazish	Bolshoy tolkoviy slovar biznesa. M.: Veche : ACT, 1998
<i>Innovatsiya</i> (yangiliklar kiritish) - yangi mahsulot turlari, texnologiyalar ishlab chiqish, yaratish va tarqatishga, yangi tashkiliy shakllar joriy qilishga yo‘naltirilgan ijodiy faoliyat natijasi.	Borisov A.B. Bolshoy ekonomicheskiy slovar. M.: Knijny mir,2000
<i>Innovatsiya</i> - intellektual mahsulot - ixtiro, axborot, nou-xau yoki g‘oya iqtisodiy mazmunga ega bo‘ladigan jarayon	Brayan T. Upravleniye nauchno-texnicheskimi novovvedeniyami. M.: Ekonomika,1989
<i>Innovatsiya</i> - bozorga mavjud taklif bilan ta’milanmagan yehtiyojlarni qondiradigan mahsulot olib chiqishga qodir bo‘lgan, maxsus ishlab chiqilgan texnologiyaga asoslangan yangi mahsulot liniyasini o‘zlashtirish	Valdaysev S.V. Otsenka biznesa i innovasi. M.: Filin, 19.97
<i>Innovatsiya</i> - ishlab chiqarish mexanizmining boshlang‘ich strukturasidagi o‘zgarish, ya’ni uning ichki strukturasi yangicha holatga o‘tishi; mahsulot, texnologiya, ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchining professional va malakaviy strukturasiga taalluqli; ham ijobiy, ham salbiy ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlarga ega	Valenta F. Upravleniye innovatsiyami. M.: Progress, 1985

bo‘lgan o‘zgarishlar		
<i>Innovatsiya</i> - tizim sifatida korxona faoliyatidagi maqsadli o‘zgarish (korxona faoliyatining istalgan sohasida sifat va son o‘zgarishlari)	Voldachev L. Strategiya upravleniya innovatsiyami na predpriyati. M.: Ekonomika, 1989	
<i>Innovatsiya</i> - yangi ijtimoiy yehtiyoj (yokima’lum bo‘lgan yehtiyojni yaxshiroq qondirish) uchun yangi amaliy vosita (yangilik) yaratish, tarqatish va undan foydalanish kompleksli jarayoni; shu bilan bir paytda bu - ushbu yangilik bilan uning hayotiylik davri yakunlanadigan ijtimoiy va buyum holatidagi muhitda bog‘liq bo‘lgan o‘zgarishlar jarayoni	Gvishiani D.M. Dialektiko-materialisticheskiye osnovaniya sistemnnx issledovaniy // Dialektika i sistemny analiz. M.: Nauka, 1986	
<i>Innovatsiya</i> - ITTKI, marketing va boshqaruv sohalarining o‘zaro aloqalari natijasi	Goldshteyn G.Y. Innovasionny menedjment // www.aup.ru/books/	
<i>Innovatsiya</i> - boshqaruv obyektini o‘zgartirish va iqtisodiy, ijtimoiy, yekologik, ilmiy-texnik va boshqa turdagи samara olish maqsadida yangilikni joriy qilishning yakuniy natijasi	Ilyenkova S.D. Innovasionniy menedjment: uchebnik. M.: YUNITI, 1997	
<i>Innovatsiya</i> - jamiyat hayotining u yoki bu jabhasida faoliyat jarayoni yoki uning natijalarini takomillashtirishga yo‘naltirilgan intellektual (ilmiy-texnik) faoliyat natijalaridan foydalanish	Innovationny menedjment: ucheb. posobiye. SPb.: Nauka, 2000	
<i>Innovatsiya</i> - amaliyotda qo‘llanadigan hamda ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy talablarni qoniqtiradigan, mos keluvchi sohalarda samara beradigan ilmiy ixtiro yoki kashfiyotlar	Kantorovich L.V. Sistemny analiz i nekotorme problemn nauchno-texnicheskogo progressa: Dialektika i	

	sistemnnyy analiz. M.: Nauka, 1986
<i>Innovatsiya</i> - o'tkazilgan ilmiy tadqiqot amalga oshirilgan kashfiyot natijasida ishlab chiqarishga joriy qilingan, oldingilardan tamomila farq qiladigan obyekt	Medinskiy V.G. Innovasionniy menedjment: uchebnik. M.: INFRA-M, 2002
<i>Innovatsiya</i> - sifat jihatidan yangi qarorlarni amaliyatga tatbiq yetish, korxona strategiyasining mazmuni va strategiya mohiyati	Rappoport V. Diagnostika upravleniya: prakticheskiy opit i rekomendasiy. M.: Ekonomika, 1988
<i>Innovatsiya</i> - ijtimoiy, texnik, iqtisodiy jarayon, o'z xususiyatlari bo'yicha yaxshiroq mahsulot va texnologiyalar yaratishga olib keladigan ixtirova g'oyalardan amaliy foydalanish, iqtisodiy foyda va qo'shimcha daromad olishga yo'naltiriladi, tadqiqot va loyihalardan tortib to marketinggacha bo'lgan barcha faoliyat turlarini qamrab oladi	Santo B. Innovatsiya kak sredstvo ekonomicheskogo razvitiya. M.: Progress, 1990

Iqtisodiy adabiyotlarda innovatsiya tushunchalarini bir butun sifatida tadqiq etilgan ishlar juda ham kam uchraydi. Innovatsiya mavzusining evolyusiyasiga keladigan bo'lsak, adabiyotlar tahlili quyidagi tarixiy bosqichlarni aniqlash imkonini berdi:

- 1910-1930 yillar – tushunchaning fundamental asoslari shakllanishi;
- 1940-1960 yillar – avvalgi davr tayanch innovation g'oyalarni rivojlantirish va batafsil o'rGANISH;
- 1970- yillarning o'rtasidan to hozirga qadar.

Innovatsiyalarning fundamental asoslari shakllanishida "katta to'lqinlar" nazariyasi asoschisi N.D.Kondratyevning tadqiqotlaridan boshlash to'g'riroq bo'lardi. Holbuki, u katta to'lqinlar shakllanishida texnik o'zgarishlarning rolini

aniq ko'rsatib bermagan bo'lsa-da, katta to'lqinlarning ko'tarilishi chog'ida amalga oshmagan ixtiolar amalda o'z ifodasini topishini nazarda tutgan.

N.D.Kondratyev o'zining tadqiqot faoliyati natijasida quyidagi asosiy holatlarni aniqlagan:

- sanoat ishlab chiqarishda almashinuv fazalari ketma-ketligining davriyigini aniqlagan;
- davrlarning ko'pligini isbotlagan;
- davrlar modelini ishlab chiqqan.

Mavjud ijtimoiy tuzilmalarga asoslangan, ammo texnologik imkoniyatlar va ishlab chiqarish ko'nikmalari tomonidan qo'llab-quvvatlanmagan

Ijtimoiy innovatsivalar

Mavjud ijtimoiy tuzilmalarga, texnologik imkoniyatlarga va ishlab chiqarish ko'nikmalariga asoslangan

Mavjud ijtimoiy tuzilmalar, texnologik imkoniyatlar va ishlab chiqarish ko'nikmalariga asoslanmagan

Texnologik innovatsivalar

Mavjud ijtimoiy tuzilma qo'llab-quvvatlamaydigan, ammo texnologik imkoniyatlar va ishlab chiqarish ko'nikmalariga asoslangan

13.1-rasm. Ijtimoiy va texnologik innovatsiyalarning o'zaro bog'liqligi³⁵.

Innovatsiyalar tushunchalarining zamonaviy bosqichi nemis olimi Gerhard Menshning Kondratyev va Shumpeterning katta to'lqinlar tushunchasiga bag'ishlangan “Texnologik pat: innovatsiyalar depressiyadan ustun” nomli monografiyasidan boshlanadi. U iqtisodiy o'sish va (tayanch yangiliklar paydo bo'lishi oqibatidagi) davriylikni o'zaro bog'lashga harakat qilgan.

Uning fikricha tayanch yangiliklar o'zining salohiyatini yo'qotganidan keyin texnik pat holati yuzaga keladi³⁶. Uning tadqiqotlari natijalarini quyidagi asosiy holatlar bilan ajratish mumkin:

- texnik qatlamning hayot siklini tasvirlovchi investitsiyalarning S modelini ishlab chiqqan;

³⁵ G.L. Yoziyev, “Innovasiya nazariyasi: shakllanish hamda rivojlanish bosqichlari”//“Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. №5, 2015 yil.

³⁶ Mensch Gerhard. Stalemate in Technology: Innovations Overcome the Depression. Cambridge, Massachusetts, 1979.

- “Texnologik pat” tushunchasini kiritgan bo‘lib, unga ko‘ra innovatsiyalarsiz undan chiqib ketishning imkoni yo‘q;

- innovasion rivojlanish depressiya fazasidan keyin sodir bo‘lishini ta’kidlagan.

Raqobat afzalliklari tushunchasi asoschisi M. Porter innovatsiyalar to‘g‘risidagi nazariy qarashlari ham innovatsiya tushunchasi rivojiga o‘zining salmoqli hissasini qo‘shgan deb uylaymiz.

Innovatsiya tushunchalari rivojlanishining uchinchi bosqichida e’tiborga molik tadqiqotlarni olib borgan olimlar sifatida quyidagilarni ta’kidlab o‘tish lozim:

S.Y. Glazyev – “texnologik uklad” konsepsiysi asoschisi. Uning ta’kidiga ko‘ra texnologik uklad – bu texnikaning o‘zaro bog‘liq bo‘lgan va bir birini ketma-ket almashtiruvchi bir qancha avlodlaridir. Uning “texnologik uklad” konsepsiysi Kondretyevning “katta to‘lqinlar” nazariyasi asosida yaratilgan deyish to‘g‘ri bo‘lardi. Birinchi texnologik uklad birinchi konratyev to‘lqiniga, ikkinchi uklad ikkinchi to‘lqinga v.hk. to‘g‘ri keladi. Hozirda postindustrial mamlakatlar oltinchi texnologik ukladga o‘tish jarayonida turishibdi.

Amerikalik iqtisodchi B.Tviss – innovvasiyalarga jarayon sifatida qaragan va kashfiyotlar yangiliklarga aylanishining muvaffaqiyatliligi bog‘liq bo‘lgan omillarni ko‘rib chiqqan³⁷. Uning ta’kidlashicha innovatsiya – jarayon bo‘lib, unda kashfiyot yoki g‘oya iqtisodiy mohiyatga ega bo‘ladi.

Kristofer Frimen – “milliy innovasion tizimlar” (MIT) konsepsiysi asoschisi. Frimennenning ta’kidlashicha MIT – bu “xususiy va davlat institut va tashkilotlari tarmog‘i bo‘lib, ularning faoliyati hamda o‘zaro aloqalari yangi texnologiyalarning vujudga kelishi, import qilinishi, modifikasiyalanishi va tarqalishiga olib keladi”.


A.Klyaynknext – G.Mensh nazariy qarashlarining ko‘pgina jihatlarini tanqidiy qarshi oldi va rivojlantirdi. U G.Menshning depressiya bosqichida yangiliklar klasteri shakllanishiga oid fikrlariga aniqlik kiritgan. Uning

³⁷ Coombs, R.W., A. Kleinknecht: ‘New evidence on the shift towards process innovation during the long wave upswing’, in C. Freeman (editor): Design, innovation and long cycles in economic development, London: Royal College of Art, 1984.

aniqlashicha, mahsulotlarga yangilik kiritish (mahsulotlar innovatsiyasi) depressiya fazasida sodir bo‘ladi, jarayonga yangiliklar kiritish (jarayonlar innovatsiyasi) esa katta to‘lqinnig o‘sish bosqichida sodir bo‘ladi.

13.2. Mamlakatimizning hozirgi kundagi innovation faoliyatining iqtisodiy holati tahlili

Innovasion salohiyat tushunchasi keng ma’noni anglatib, mamlakatda fan, iqtisodiyot, texnologiya, tibbiyot, ta’lim va boshqa sohalarda ro‘y berayotgan o‘zgarishlar va yangiliklarni ifodalaydi. Innovasion salohiyatning oshishi, o‘z navbatida, innovation faoliyat va uning samarali tashkil etilganligiga bog‘liqdir. Innovatsiya tizimini uch xil darajada o‘rganish mumkin. Mikrodarajada, bunda yaxshilanib boruvchi innovatsiyalar asosida doimiy ravishda mahsulotlar va ularning parametrlari yangilanib turishi yuz beradi. Mezodarajada, texnikaning yangi avlodlari almashinuvi, o‘rta muddatli iqtisodiy davrlar asosini tashkil etgan asosiy fondlar faol qismining yangilanishi yuz beradi.



13.4-rasm. O‘z kuchi bilan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni (2010-2016 yillar).³⁸


³⁸ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Va nihoyat, makrodaraja, muhim tayanch innovatsiyalar asosida texnologiya o‘zaro bog‘langan ishlab chiqarishlar majmui sifatida yetakchi texnologik bosqichlar almashinuvining jadallahuvi. U taxminan ellik yilda bir marotaba yuz beradi.

Innovasion salohiyatni oshirishda innovasion loyihalarni to‘zish va ishlab chiqish muhim o‘rin egallaydi. Chunki, innovasion loyihalar amalga oshirilayotgan yangiliklarning samaradorligini aniqlaydi. Amaliyotda innovasion loyihalarning foydaliligi uning rentabelligi bilan baholanadi. Innovasion loyihalar rentabellik koeffitsiyenti darajasi birdan past bo‘lsa unday loyihalarni to‘xtatib qo‘yish kerak.


Mamlakatimizda ishlab chiqarishni modernizasiyalash bo‘yicha olib borilayotgan islohotlar nafaqat korxonalarda ishlatiladigan texnika va texnologik jarayonlarni yangilashni, balki boshqaruv va hisobini tashkil etishda innovasion yondashuvni talab etadi. Shu nuqtai nazardan korxonalarda ishlab chiqarilgan mahsulotlarni baholashning amaliyotda qo‘llaniladigan ayrim jihatlarini tadqiq etish katta ahamiyatga ega.

Quyidagi rasmda so‘ngi yillarda o‘z kuchi bilan innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar dinamikasi keltirilgan.



13.5-rasm. Innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi va xarajatlar dinamikasi (2010-2016- yillar).³⁹

Innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqargan korxona va tashkilotlar soni 2010- yildan 2016- yilga qadar 8 borabarga ko‘payib, 289 tadan 2374 taga yetdi. Jumladan birinchi marta innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar ishlab chiqarishni o‘zlashtirgan korxonalar soni 696 taga ko‘paydi.



13.6-rasm. O‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi⁴⁰.

2016- yilda o‘z kuchi bilan ishlab chiqarilgan innovasion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmining asosiy qismi Toshkent shahriga (48 foizi), Qoraqalpog‘iston Respublikasi (18,3 foizi), Toshkent viloyati (9,3 foizi) va Andijon viloyatiga (8,3 foizi) to‘g‘ri kelmoqda. O‘zbekiston Respublikasining boshqa viloyatlari hududiga 16,1 foizi to‘g‘ri kelyapti.

13.4-jadval

Moliyalashtirish manbalari bo‘yicha texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar, mlrd.so‘m (2010-2016 yillar)⁴¹

³⁹ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

⁴⁰ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

⁴¹ O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016 y.
Texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlar	264,4	372,6	311,9	4634,2	3757,4	5528,3	2571,4
<i>shu jumladan moliyalashtirish manbalari bo'yicha:</i>							
Tashkilotning o'z mablag'lari	184,3	263,2	213,4	2501,5	1381,5	1251,8	1180,0
Xorijiy kapital	48,3	24,9	39,9	1228,7	32,3	156,6	314,9
Tijorat banklari kreditlari	30,0	63,7	26,8	533,5	262,5	280,1	157,3
Boshqa mablag'lar	1,8	20,9	31,7	370,6	2081,0	3839,7	919,1

Innovatsion mahsulotlar, ishlar, xizmatlar hajmi 2016- yilda 10688,2 mlrd. so'mni tashkil qildi. Ushbu ko'rsatkich 2015- yilga nisbatan 1,3 barobar, 2008- yilga nisbatan 8 barobar ko'paygan. Innovatsiyalarga xarajatlar 2008- yilga nisbatan 5 barobarga ko'paygan bo'lsa, 2015 yilga nisbatan 53 foizga kamaygan.

2010- yilda innovatsiyalar asosan tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan (69,7 foizi) moliyalashtirilgan. 2014- yildan boshqa mablag'lar hissasi (55,4 foiz) oshgan. 2016- yilda tashkilotning o'z mablag'lari hisobidan moliyalashtirish 2010- yilga nisbatan 6,4 barobar oshgan.

2016- yilda texnologik, marketing va tashkiliy innovatsiyalarga xarajatlarning 45,9 foizi (1180,0 mlrd. so'm) tashkilotning o'z mablahlari hisobidan, 12,2 foizi (314,9 mlrd. so'm) xorijiy kapital, 6,1 foizi (157,3 mlrd. so'm) tijorat banklari kreditlari, 35,7 foizi (919,1 mlrd. so'm) boshqa mablag'lar hisobidan moliyalashtirilgan.

13.5-jadval

2016- yilda joriy qilingan innovatsiyalar soni⁴²

	Jami	Shu jumladan tadqiq qilinganlar:				
		O‘z kuchi bilan	Boshqa tashkilotlar bilan hamkorlikda	Ilmiy tadqiqot institutlari bilan hamkorlikda	Oliy ta’lim muassasalar i bilan hamkorlikda	Boshqa tashkilotlar tomonidan a
Texnologik innovatsiyalar	1816	1523	117	41	5	176
<i>shu jumladan:</i>						
Mahsulotlar bo‘yicha innovatsiyalar	1118	973	73	15	4	72
Jarayonlar bo‘yicha innovatsiyalar	698	550	44	26	1	104
Marketing innovatsiyalar	51	39	-	-	-	12
Tashkiliy innovatsiyalar	39	29	-	-	-	10

2016- yilda 893 ta korxona va tashkilotlar tomonidan 1816 turdagি texnologik innovatsiya joriy etildi. Joriy qilingan texnologik innovatsiyalarning 44 foizi (799 tasi) kichik korxona va mikrofirmalar hissasiga to‘g‘ri keladi.

Respublikada bo‘yicha 2016- yilda har bir innovasion faol tashkilot o‘rtacha 2 tadan innovatsiya joriy qildi. Jumladan har bir innovasion faol tashkilotga Andijon,

⁴² O‘zbekiston Respublikasi davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

Farg‘ona viloyatlari, Toshkent shahrida o‘rtacha 3 tadan innovatsiya, Buxoro, Qashqadaryo, Navoiy, Samarqand, Sirdaryo, Toshkent viloyatlarida o‘rtacha 2 tadan innovatsiya, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Jizzax, Namangan, Surxondaryo va Xorazm viloyatlarida o‘rtacha 1 tadan innovatsiya joriy qilingan.

13.3. Iqtisodiyotni innovation rivojlantirishning xorijiy davlatlar tajribalari

Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozidan keyingi va istiqboldagi yangi yuksalish davrlarida dunyoning aksariyat mamlakatlari o‘z iqtisodiyotida faqat innovation rivojlantirish modeli imkoniyatlaridan kengroq va faol foydalanish kerakligini e’tirof etmoqda. Bunda milliy va hududiy iqtisodiyotlar, ayniqsa kichik biznes rivojlanishida innovatsiya omilining ahamiyati, inson kapitali, innovatsiyalar transferi va tijoratlashtirilishi, uni samarali moliyalashtirish orqali oshirish nazarda tutiladi.

Zero, har qanday mamlakat va uning hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishda, jumladan hududiy biznes ishlab chiqarishi modernizasiyasida, innovation faoliyat natijasi, fan va texnika taraqqiyoti katalizatori asosi bo‘lmish innovatsiyalar va ular transferining ahamiyati juda katta. Umuman, rivojlanayotgan mamlakatlar, jumladan O‘zbekiston, iqtisodiyotini yangi rivojlanish bosqichiga o‘tishi sharoitida iqtisodiyotning real ishlab chiqarish sektori va kichik biznesni qo‘llab-quvvatlash bo‘yicha, birinchi navbatda mintaqqa va hududlarda ishlab chiqarishni modernizasiyalash, sanoat ishlab chiqarish korxonalari bilan kichik biznes subyektlarining mustahkam kooperasiya aloqalarini kengaytirish hamda ishlab chiqarilgan mahsulotlarga ichki va tashqi talabni rag‘batlantirish masalalarini hal etishda innovation faoliyat alohida o‘rin tutadi. Chunki ishlab chiqarish hajmi va iqtisodiyot raqobatbardoshligini oshiruvchi innovatsiya omili manbalarini aniqlash va uni rivojlantirish uzoq muddatli iqtisodiy o‘sishning asosiy vazifalari hisoblanadi.

Iqtisodiy o‘sish sur’atlarini oshiruvchi innovatsiya omilining rivojlanishi va bunda kichik biznes faollashuvi tendensiyalarini tahlil qilish uchun, qoida sifatida,

davlatlararo, jumladan mintaqalararo qiyoslash va mavjud zaxiralarni baholash uslublari⁴³ qo'llaniladi.

Ta'kidlash joizki, hozirda barcha rivojlanayotgan mamlakatlar qiyosiy tahlilida mazkur davlatlar iqtisodiyoti modernizasiyasida ko'proq foydali bo'lgan ilg'or ilmiy-texnik ishlanmalmarni selektiv va hamkorlikda rivojlantirish strategiyalari tan olinganligini hisobga olish lozim. Ushbu strategiyalar quyidagilarni ko'zlaydi:

- ilmiy-texnik salohiyatga ega bo'lgan va davlatning innovation texnik-texnologik siyosatini kuchaytirish asosida iqtisodiyotning tayanch sohalarini, ayniqsa innovation kichik biznesni, rivojlantirish.
- rivojlanish darajasi jahon standartlaridan orqada qolayotgan texnologiya sohalarini, ayniqsa, innovation kichik biznesni rivojlantirish.

Jahoning rivojlangan mamlakatlaridagi kichik biznes korxonalari faoliyatining tajribasiga ko'ra, ularning muvaffaqiyatlari innovatsiyalarni boshqarishning bir butun tizimi yaratilgan va bunda, ilm-fan xarajatlarining (YAIMga nisbatan) ortib borganligini kuzatish mumkin. Bunda ko'p sonli texnologik va innovation firmalar, aynan, venchur kapitali tufayli rivojlantirilgan⁴⁴.

Jahon tendensiyalarini umumlashtirgan holda ko'rish mumkinki, mamlakatning rivojlanish darajasi qanchalik yuqori bo'lsa, innovatsiyalarni davlat hisobidan moliyalashtirish ulushi shunchalik oz bo'ladi va innovation jarayonning mustaqillik darajasi yuqori bo'ladi. AQSH va Yaponiyada innovation loyihalarni mustaqillik darajasi juda yuqori (davlat ulushi 15 foiz), Xitoy va Hindistonda o'rtacha darajada (15-30 foiz). Iqtisodiy hamkorlik va rivojlanish tashkiloti (OYECD) mamlakatlari bo'yicha 50 foiz innovatsiyalarga xarajatlar korxonalarning xususiy mablag'lari hisobiga moliyalashtiriladi. Ishlab chiqarishni modernizasiyalashtirayotgan va texnik qayta jihozlanayotgan mamlakatlar uchun esa, innovation loyihalarni moliyalashtirish darajasi juda past. Bunda,

⁴³ Чепел С.В. и др. Економический рост и инновации: теория, практика и моделирование. Исследовательский проект ИПМИ при поддержке ПРООН. Ташкент, 2010.

⁴⁴ Policy Response to the Economic Crises: Investing in Innovation for Longterm Growth, OECD 2009.

iqtisodiyotga ajratilgan kreditlar miqdori bo'yicha Xitoyda YAIMga nisbatan 100-140 foiz, Chili va Koreyada 50 foiz, Hindiston va Isroilda esa 50 foizdan kam miqdorida mablag' ajratilgan.

Aytish mumkinki, rivojlangan mamlakatlarda ilm-fanga assignasiyalarning 55 foizidan ortig'i biznes sektori mablag'lari va 34 foizdan kami esa davlat mablag'lari hisobidan moliyalashtiriladi. Bunda davlat mablag'laridan eng kam hajmda moliyalashtirish bo'yicha ketma-ket ravishda Shvetsiya, Finlyandiya, Daniya, Norvegiya lider hisoblanadi, ulardan keyingi o'rnlarda Yaponiya va AQSH turadi. Barcha mamlakatlarda xorijiy va boshqa milliy manbalar ulushi ancha kamligicha (o'rtacha so'mmasi 5-10 foiz) qolmoqda. AQShda 2010 yili innovatsiyalarga xarajatlar 3,2 foiz, Yevropa Ittifoqi (YEI)da 0,5 foizga ko'tarilgan. Bunda faqatgina Finlyandiyada ilmiy tadqiqot ishlariga davlat tomonidan ajratiladigan budjet xarajatlari 4,4 foizni tashkil etgan. Yaponiya 2010-2012- yillarda ilmiy tadqiqotlarga qilingan xarajat bo'yicha g'oliblikni qo'lda ushlab qolgan. Hindiston va Xitoyda esa innovation faoliyatga qilingan xarajatlar sezilarli darajada ajratilganligi izohlanadi. Umuman, rivojlangan va progressiv rivojlanayotgan davlatlar innovation rivojlanishga o'tishining asosiy omillaridan biri moliyaviy infratuzilmaning rivojlanganligidir.

Jahon tajribasiga ko'ra, Germaniya innovation tadqiqotlarga eng ko'p mablag' sarflovchi mamlakatlardan biri hisoblanadi. YAIMning deyarli 2,6 foizi ilmiy tadqiqotlarni moliyalashtirish uchun ajratiladi. Bu esa YEI bo'yicha o'rtacha 1,9 foiz yuqori. Federal va o'lka hukumatlari korxonalar bilan hamkorlikda 2015-yilda innovatsiyalar va ular transferiga qilinadigan xarajatlarni yana 3 foizga oshirishni ko'zda tutmoqdalar. Bunda Germaniya korxonalarining innovatsiyalarga qilgan xarajatlari deyarli 130 mlrd. yevroni tashkil qiladi. Jumladan, avtomobil sanoati mazkur so'mmaning 1/4 qismini investitsiyalaydi. Germaniya iqtisodiyotida yangi mahsulot aylanmasining 27 foizini tashkil qiladi. Yangi mahsulotlar umumiyligi avtomobil sanoati aylanmasida 52 foizni tashkil qiladi. Shuningdek, Germaniyadagi korxonalar tomonidan innovatsiyalarni moliyalashtirish bo'yicha ham yetakchi o'rnlarni egallaydi.

XIV BOB. BARQAROR BIZNES MUHITINI YARATISH VA INKLYUZIV IQTISODIY O‘SISH

Tadbirkorlikning tushunchasi va asosiy tamoyillari

Inklyuziv iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rnii

Mamlakat inklyoziv iqtisodiyotini o‘sishini taminlash.....

Tadbirkorlikning tushunchasi va asosiy tamoyillari

Bozor iqtisodiyoti subyektlarining xo‘jalik faoliyatida “tadbirkorlik” va “biznes” tushunchalari o‘zaro yaqin bo‘lib, amaliyotda ular bir-birini almashtirishlari mumkin. Ammo, “tadbirkor” va “biznesmen” kabi tushunchalar ularning iqtisodiy faoliyat sohalari ko‘rilayotganganda maa’nodosh deb hisoblamaydi. Biznesmen-sarmoya egasi, mulkdor, mulkini ko‘paytirishga intiluvchi shaxs. Biznes – bu ruxsat etilgan, jamiyat a’zolariga naf keltiruvchi faoliyat bilan shuga’ullanib daromad topishdir. Biznes keng maa’noda qonuniy yo‘l bilan daromad topishga qaratilgan faoliyatdir. Biznesning maqsadi-odatda, foyda olish va uni barqaror holga keltirish, foydani muttasil oshirib borish va boyib ketish, foyda hisobiga sarmoyani ko‘paytirishdir. Tadbirkorning maqsadi esa yangi fikr va ga’oyalarni izlash, tahlil qilish, o‘zining tashabbuskorlik, yaratuvchanlik qobiliyatlarini yuzaga chiqarish, o‘z faoliyatida muvaffaqiyatlarga erishishdir. Tadbirkor-yuridik shaxs bo‘lish-bo‘lmasligidan qat’i nazar, doimiy ravishda tadbirkorlik faoliyati bilan shuga’ullanuvchi jismoniy shaxsdir (yakka tadbirkor). Bunday iboralar ham 18 tadbirkorlik va tadbirkor to‘ga’risida to‘liq ma’lumot bermaydi, ularning mohiyatini etarli darajada yoritmaydi. Tadbirkorlik bozor iqtisodiyotiga xos iqtisodiy faoliyatdir. Boshqacha aytganda, u muayyan ijtimoiy-iqtisodiy natijaga erishish maqsadida tovarlar va xizmatlarni ishlab chiqarish va

ayirboshlashni tashkil etish bo‘yicha mulkdorlarning yoki ular vakillarining ongli va maqsadli iqtisodiy faoliyatidir. “O‘zbekiston Respublikasi tadbirkorlik to‘ga’risida” gi qonunida tadbirkorlikka quyidagicha taa’rif berilgan: “Tadbirkorlik-mulkchilik suba’ektlarining foyda olish maqsadida tavakkal qilib va mulkiy javobgarlik asosida amaldagi qonunlar doirasida tashabbus bilan iqtisodiy faoliyat ko‘rsatishdir”. Tadbirkorlikning mohiyati quyidagilar orqali yanada oydinlashadi:

➤ Birinchidan, tadbirkorlikning subyekti kim bulishi mumkin? O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va O‘zbekiston Respublikasida tadbirkorlik to‘ga’risidagi qonunga muvofiq baloga’at eshiga etgan har bir fuqaro o‘z mulki asosida yoki mulk egasining vakolati asosida o‘z ixtiyor etgan qonunga zid bo‘lмаган faoliyat turi bilan shug‘ullanishi mumkin.

➤ Ikkinchidan, yuqoridagi ta’rifda tadbirkorlikning yana bir tomoni mazmuni ifoda etilgan bo‘lib, u mazmunan boy, xilma-xil ko‘rinishiga ega. Tadbirkorlik faoliyatini tanlash, uni tashkil etish va rivojlantirish mohiyat jihatidan davlat, jamiyat ahamiyatiga molik ish bulmasdan, balki erkin tanlanadigan faoliyatdir. Tadbirkorlik faoliyatining uch turi va unga mos ravishda tadbirkorlarning 3 guruhini aloxida ko‘rsatish mumkin:

➤ 1) yangi tovar yoki xizmat loyihasini tashkil etish. Tadbirkorlikning bu turi bilan intellektual mulk egalari innovatsiya tadbirkorlari shugullanadi.

➤ 2) tovar ishlab chiqarishni tashkil etish bilan shuga’ullanuvchi tadbirkorlar.

➤ 3) tovarni sotish, qayta sotish va tijorat ishlarini tashkil etish bilan shuga’ullanuvchi tadbirkorlar.

➤ Uchinchidan, maqsad jihatidan tadbirkorlikning ikki turini:

➤ a) foyda olishni, iqtisodiy samaraga erishishni maqsad kilgan;

➤ b) ijtimoiy samaraga (masalan, tabiat muhofazasi, yosh avlod tarbiyasi, soglikni saklash) erishishni maqsad kilgan turlarini ajratish mumkin.

➤ Tadbirkorlarga xos xususiyatlar quyidagilardan iborat:

1. Shuga’ullanaetgan soha bo‘yicha ilm, bilimga egaligi.

2. Tavakkalchilikka asoslangan karorlar qabul qilish bo‘yicha tashabbuskorlik kobiliyatি.
3. Iqtisodiy jarayonlarni chuqur fikrlay olish.
4. Qonunlarga itoatkorligi.
5. Innovatsiyachilikning faolligi.
6. Maqsad sari intiluvchanlik.
7. Tashkilotchilik.
8. Tejamkor bo‘lishi.
9. O‘z so‘zining ustidan chiqish.
10. Ruhiy poklik va halolligi.
11. O‘z jamoasi uchun kurashuvchanlik.

Inklyoziv iqtisodiyotda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning o‘rni

Mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik alohida ahamiyat kasb etadi va hozirgi sharoitda uning roli yanada ortib bormoqda. Shu sababdan ham Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni jadal rivojlantirish har qanday mamlakat iqtisodiyotining barqaror o‘sishini ta’minlovchi asosiy bo‘ga’in va amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning ustuvor yo‘nalishi hisoblanadi. Iqtisodiyotda ro‘y berayotgan turli ijobjiy o‘zgarishlar ko‘p jihatdan kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishi bilan uzviy boga’liqdir. Respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni barqaror rivojlantirish va uni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlaridan biri qilib belgilangan.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta’kidlab o‘tganlaridek: “...jiddiy va kundalik e’tiborini talab qiladigan yana bir muhim yo‘nalish bor. Bu – xususiy mulk va tadbirkorlikni yanada rivojlantirish va ularning ta’sirchan himoyasini ta’minlashdir”[1]. Jamiyatimizning iqtisodiy negizi bozor iqtisodiyotiga asoslangan. Bozor iqtisodiyotining tayanchi sifatida esa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi muhim o‘rin egallaydi. Ushbu sohani jadal rivojlanishini ta’minlash maqsadida qonunchilik bazasini takomillashtirib borish ob’ektiv

zaruriyat hisoblanadi. Chunki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi mamlakat iqtisodiyotini barqaror yuksaltirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va aholi daromadini oshirishning muhim omili hisoblanadi. Mamlakatimizda ham barqaror ijtimoiyiqtisodiy o‘sishni ta’minalashda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining o‘rni beqiyosdir. Xususan, ularning yalpi ichki mahsulotdagi salmoga’i muntazam o‘sib, 2016- yil yakunlari bo‘yicha 56,9 foizga, sanoatda esa 45 foizga oshdi. Shuningdek ish bilan band aholining 78 foizi mazkur sohada mehnat faoliyatini yuritmoqda. Ushbu ko‘rsatkichlarga erishishda tijorat banklari kreditlash hajmining oxirgi yillarda o‘sishi ham muhim omillardan hisoblanadi. [1]. O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning 2017-2021- yillarga mo‘ljallangan harakatlar strategiyasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik xususida quyidagilar ta’kidlangan: “...kichik biznes va xususiy tadbirkorlik milliy iqtisodiyotni yaratish, jamiyatning ijtimoiy barqarorligini asosi hisoblanuvchi o‘rta mulkdorlar sinfini shakllantirish, raqobat muhitini vujudga keltirish va barqaror iqtisodiy o‘sishga erishishda muhim omil bo‘lib hisoblanadi” [2] Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakatimiz iqtisodiyotidagi ahamiyatini oshirishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan 2016- yil 5- oktabrdagi “Tadbirkorlik faoliyatining jadal rivojlanishini ta’minalashga, xususiy mulkni har tomonlama himoya qilishga va ishbilarmonlik muhitini sifat jihatidan yaxshilashga doir qo‘sishma chora-tadbirlar to‘ga’risida”gi farmoni alohida rol o‘ynadi, chunki bu farmonda xususiy mulkni huquqiy himoya qilishni yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun qulay shart-sharoitlar yaratish va har tomonlama qo‘llab-quvvatlashga asosiy e’tibor qaratilgan[3]. Mamlakatimiz iqtisodiyotini taraqqiy ettirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish bilan boga’liq masalalarni hal etishda tadbirkorlik faoliyatini erkinlashtirish juda muhimdir, aynan ushbu masalaga berilgan e’tibor yuqorida ta’kidlab o‘tilganidek, ushbu sohaning mamlakatimiz YaiMdagi ulushini doimiy oshib borishiga sabab bo‘lmoqda.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni har tomonlama qo'llab-quvvatlashga qaratilgan chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida 2016- yilda tadbirkorlik bilan shug'ullanayotgan subyektlar soni 32 mingtaga yaqinni tashkil etdi.

Shu o'rinda biz mazkur sohaning mamlakatimiz hududlarida qanday ahamiyaga ega ekanligini Toshkent shahri va viloyati misolida ko'rib chiqamiz. 1-jadval ma'lumotlaridan ko'rinish turibdiki, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyot va uning tarmoqlaridagi ulushi ko'rsatkichlarini respublikamiz va Toshkent viloyati hamda Toshkent shahri darajasini solishtirsak, YaiMdagi ulush 2016- yilda respublikamiz bo'yicha 56,9 foizni, Toshkent viloyatida 57,1 foizni, Toshkent shahrida esa 58,9 foizni tashkil etgan, ya'ni poytaxt viloyatida va Toshkent shahrida bu ko'rsatkich respublika darajasidan yuqoridir. Sanoat sohasiga keladigan bo'lsak, bu ulush respublika bo'yicha 45 foiz bo'lsada, Toshkent viloyatida bu ko'rsatkich ancha past, Toshkent shahrida esa 71,4 foiz bo'ldi. Bunday tendentsiya investitsiya sohasida ham saqlandi, aholi bandligida butunlay boshqacha holatni kuzatishimiz mumkin, chunki respublika bo'yicha 78,1 foiz bo'lsa, Toshkent viloyatida 76,8 foiz, Toshkent shahrida esa bor yo'ga'i 37,1 foizni tashkil etdi.

O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, foiz hisobida [4].	YaIM/YaX M		Sanoat		Investitsiya		Axoli bandligi	
	2015 yil	2016 yil	2015 yil	2016 yil	2015 yil	2016 yil	2015 yil	2016 yil
I	2	3	4	5	6	7	8	9
O'zbekiston Respubliasi	56,5	56,9	40,6	45	36,3	40,3	77,9	78,1
Toshkent viloyati	56,7	57,1	30,8	32,6	33,5	40,1	76,8	76,8
Toshkent shahri	57	58,9	68,6	71,4	57,8	58,3	39,4	37,1

1-rasm. O'zbekiston Respublikasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni iqtisodiyot tarmoqlaridagi ulushi, foiz hisobida

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni yanada rivojlantirishda 2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasining iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirish

bo‘yicha uchinchi ustuvor yo‘nalishida iqtisodiyotda davlat ishtirokini kamaytirish, xususiy mulkning huquqlarini himoya qilish va uning istiqbolli rolini yanada kuchaytirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik rivojlanishini raga’batlantirishga qaratilgan institutsional va tarkibiy islohotlarni davom ettirish, xususiy mulkning huquq va kafolatlarini ishonchli himoya qilishni ta’minalash, barcha turdagи to‘sinqinliklar va cheklanishlarni bartaraf etish, xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni rivojlantirish yo‘lida to‘liq erkinlik berish, amaliyotda “Agar xalq boy bo‘lsa, davlat ham boy va kuchli bo‘ladi” degan prinsipni amalga oshirish, kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni keng rivojlantirish uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish, tadbirkorlik to‘zilmalarining faoliyatiga davlat, nazorat va huquqni muhofaza qiluvchi organlarning noqonuniy aralashuvini qat’iy oldini olish, davlat mulkini xususiylashtirish tartib-taomillarni yanada kengaytirish va soddalashtirish, xo‘jalik yurituvchi subyektlarning ustav jamga’armalarida davlat ishtirokini kamaytirish ko‘zda tutilgan.

➤ Iqtisodiy o‘sishning tarkibiy jihatlarini takomillashtirish va iqtisodiyotni tarkibiy o‘zgartirish borasida olib borilgan tadqiqotlar tarixiga nazar tashlasak, bu jarayon dunyoga taniqli olimlar diqqat-e’tiborida bo‘lib kelganini ko‘ramiz. Inklyuziv o‘sish ko‘rsatkichlari E.Korso, ularni baholashga ekonometrik yondashuvlarning ilmiy-uslubiy jihatlari iqtisodchi olimlar P.Vellala, M.Madala, U.Chxattopadxay , ishsizlikni kamaytirish, savdoni rivojlantirish va mehnat unumdarligini oshirishga qaratilgan makroiqtisodiy siyosat bo‘yicha barqarorlikni ta’minalash asosida inklyuziv o‘sish jarayonlari CH.Aoyagi va G.Ganelli, makroiqtisodiy barqarorlik, inson kapitali, tarkibiy o‘zgarishlar, xorijiy investitsiyalar va tashqi savdo erkinligi negizida inklyuziv o‘sishni ta’minalash masalalari R.Anand, S.Mishra, SH.J.Peyris tomonidan o‘rganilgan. Bu tadqiqotlarda ish bilan bandlik, mehnat unumdarligi, tarkibiy o‘zgarishlar muammolari yetakchi o‘rin egallagan.

➤ Mamlakatda iqtisodiy o‘sishning ta’minalishi aholi turmush farovonligini yaxshilashdan tashqari, milliy valyuta qadri oshishida, tashqi qarzdorlik kamayishida va Inflyatsiya darajasi pasayishida muhim ahamiyat kasb

etadi. Yurtimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar samarasi o'laroq, so'nggi yillarda iqtisodiyot barqaror ravishda o'smoqda, mamlakatning tashqi qarzi kamayib, aholi jonboshiga to'g'ri keladigan YAIM asta-sekin oshmoqda (*1-jadval*). Bu iqtisodiyot tarmoqlarini o'zaro mutanosiblikda rivojlantirish, modernizasiyalash va diversifikasiyalash mevasidir.

O'zbekiston iqtisodiyoti to'zilmasidagi 1991-2017 yillarga doir o'zgarishlar tahlili sanoat ishlab chiqarishida fan-texnika taraqqiyotini jadallashtirishni ta'minlovchi tarmoqlar jadal rivojlanayotganini va boshqa progressiv evrilishlar ro'y berayotganini ko'rsatdi.

Respublika iqtisodiyotini ravnaq toptirishdan ko'zlangan asosiy maqsad nafaqat mazkur sohadagi o'sish sur'atlarini oshirish, balki boy tabiiy resurslar salohiyatidan oqilona foydalanish, shu tariqa ustuvor tarmoqlar va ishlab chiqarishni rivojlantirish, uning zamonaviy tarkibini shakllantirish, tashqi va ichki bozorda milliy sanoat raqobatbardoshligi va samaradorligini oshirishga taalluqli chora-tadbirlar majmuini yaratishdan iboratdir. Strategik yo'naliш iqtisodiyotning eksportga yo'naltirilgan tarkibini vujudga keltirish va eksportda xomashyoga nisbatan chuqur qayta ishlangan mahsulotlar ulushini ko'paytirish hisoblanadi.

Mustaqillikning ilk damlaridan to 2002-2003- yillarga qadar diyorimizda yalpi ishlab chiqarish bo'yicha qishloq xo'jaligi yetakchi tarmoq bo'lgan, 2007[yildan e'tiboran uning bu boradagi ulushi sezilarli darajada kamaya boshlagan. 1-jadval ma'lumotlari tahlili yakunlariga ko'ra, 2010- yili qishloq xo'jaligining YAIMdagi ulushi 17,9 foizni, 2017- yili 17,3 foizni tashkil etgan. Shunga qaramay, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlanish darajasi pasaymagan.

2008- yildan boshlab sanoat ulushi uzliksiz o'sib borib, u yetakchi tarmoqqa aylangan. Shuningdek, sanoatning yalpi ishlab chiqarishdagi ulushi 2010- yili jami YAIMga nisbatan 23,8 foiz, 2017- yili esa 24,1 foiz bo'lgani holda yalpi ichki mahsulotning to'rtdan bir qismi ushbu tarmoqda tayyorlangan. Keyingi o'n yillikda sanoat tarmoqlarida ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi 20 baravarga oshgani ham u iqtisodiyotda nechog'li muhim o'rin tutishini anglatadi.

Darvoqe, O‘zbekistonda sanoat milliy iqtisodiyotning yirik tarmog‘i sanaladi. Unda 1,5 milliondan ortiq kishi mehnat qiladi. Bu ish bilan band aholining yettidan bir qismiga teng ko‘rsatkichdir. Asosiy fondlarning 40 foizi sanoat hissasiga to‘g‘ri keladi. Asosiy kapitalga kiritilgan investitsiyalarning uchdan bir qismi ayni sohaga ajratiladi. Unda 100 dan ortiq tarmoq bo‘lib, 6 tasi bazaviydir.

Iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan yana biri qurilishdir. So‘nggi vaqtarda iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarning salmoqli qismi shu tarmoqqa to‘g‘ri kelmoqda. O‘z navbatida, uning YAIMdagi ulushi yil sayin barqaror ravishda ortib bormoqda. Buni 2010-2017- yillarda tarmoqning YAIMdagi yillik o‘rtacha ulushi 0,9 foizdan ortganidan ham bilish mumkin. Tarkibiy o‘zgarish iqtisodiy tizimlarning sifati yaxshilanishini va tadrijiy rivojlanishini ifodalaydi. Odatda iqtisodiyotdagi tarkibiy o‘zgarishlar texnologik va ma’muriy o‘zgarishlarda kuzatiladi. Iqtisodiyotning muhim omillaridan bo‘lgan texnologiyalar, savodxonlik darajasi va institusional birliklar iqtisodiy o‘sishning tarkibiy jihatlariga jiddiy ta’sir o‘tkazadi.

XV BOB. YASHIL IQTISODIYOTNI SHAKLLANTIRISH-INKLYUZIV

IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASHNING ASOSI

Reja:

15.1. “Yashil iqtisodiyot” atamasi, mazmuni va mohiyati.

15.2. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “Yashil iqtisodiyot” ni shakllantirish.

15.1. “Yashil iqtisodiyot” atamasi, mazmuni va mohiyat

Milliy iqtisodiyot va eksport tarkibida chuqur qayta ishlangan, yuqori qo'shilgan qiymatga ega tayyor mahsulotlar ulushini oshirishga yo'naltirilgan iqtisodiyotni rivojlantirish uzoq muddatli barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili hisoblanadi. Mamlakat ishlab chiqarish hajmi va eksporti tarkibida xom ashyo tovarlarining salmoqli o'rinni egallashi barqaror iqtisodiy rivojlanishga, aholi turmush farovonligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi, milliy iqtisodiyotning jahon xom ashyo tovarlari bozori konyunkturasi o'zgarishlariga qaramligini oshiradi.

O'zbekiston iqtisodiyotida tarkibiy o'zgarishlarning uzoq muddatli strategiyasini ishlab chiqish ichki va global jarayonlar hamda muammolarni hisobga olishni taqozo etadi. Shu nuqtai nazardan barqaror iqtisodiy rivojlanishning yangi, resurslardan samarali foydalanishga asoslangan, innovasion iqtisodiyotga o'tish izchil tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirishning samarali vositalaridan biri hisoblanadi.

Barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, “sof texnologiyalar”ga nisbatan innovasion yondashishni kuchaytirish, “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish muammolari xalqaro iqtisodiy, ekologik, investitsion forumlarda muntazam ravishda muhokama etib kelinmoqda. “Yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga bag'ishlangan ilk ilmiy tadqiqotlar XX asrning 70-yillaridan boshlangan. Jumladan, 1972- yilda Stokgolmda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish va ekologiya

muammolariga bag‘ishlangan xalqaro konferensiyada atrof-muhitni saqlab qolish va rivojlantirishga qaratilgan 26 ta tamoyil ishlab chiqildi⁴⁵.

Ilmiy tadqiqotlarda “yashil iqtisodiyot” tushunchasi ilk marotaba 1989-yilda⁴⁶ qo‘llanilganligiga qaramasdan uning mohiyati hozirga qadar turlicha talqin etiladi. Ayrim manbalarda “yashil iqtisodiyot” mamlakat tabiatini yaxshilashga ko‘maklashuvchi iqtisodiyotning yangi tarmoqlari sifatida tadqiq qilinsa, ba’zi tadqiqotlarda “yashil iqtisodiyot” tabiatga yordam beruvchi va foyda keltiruvchi yangi texnologiyalar, ekotizimlar sifatida o‘rganiladi, uchinchi guruh tadqiqotlarda esa “yashil iqtisodiyot” – bu ekologik toza mahsulotlar yaratishga yo‘naltirilgan rivojlanishning yangi bosqichiga o‘tish hisoblanib, uning asosini so‘z yoki “yashil” texnologiyalar tashkil etadi deyiladi.

“Yashil iqtisodiyot” tushunchasining keng tarqalgan, nisbatan to‘liq ta’rifi BMTning Atrof-muhitni muhofaza qilish dasturi (UNEP) tomonidan ishlab chiqilgan bo‘lib, “yashil iqtisodiyot” – bu “odamlar farovonligi va ijtimoiy tengligining yaxshilanishi, ekologik risklar va ekologik taqchillikni sezilarli darajada kamaytirish”ga olib keluvchi iqtisodiyotdir⁴⁷. Mazkur tushunchasining mohiyatini yoritib berishda umumqabul qilingan yondashuvning mavjud emasligi “yashil iqtisodiyot” konsepsiysi hali shakllanish bosqichida ekanligidan dalolat beradi. Ushbu konsepsiya iqtisodiyot tarmoqlari, “yashil iqtisodiyot” nazariyasi, tamoyillari yoki “yashil iqtisodiyot” siyosatiga nisbatan ham qo‘llanilishi mumkin.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiyasining maqsadi barqaror iqtisodiy o‘sishni ta’minalash va investitsiyalar faolligini oshirish bilan bir vaqtda atrof muhit muhofazasi va ijtimoiy integrasiya sifatini yaxshilash hisoblanadi⁴⁸. Mazkur maqsadga erishish uchun davlat va xususiy investitsiyalarni barqaror

⁴⁵ Декларация Конференции ООН по проблемам окружающей человека среды от 16.06.1972 // Консультант плюс 4012.00.32 2002-2013.

⁴⁶ Blueprint for a green economy : David Pearce, Anil Markandya and Edward B. Barbier. Earthscan, London, Great Britain, 1989. 192 pp.

⁴⁷ Навстречу «зелёной» экономике: пути к устойчивому развитию и искоренению бедности / Штайнер А., Айрис Р., Бесса С. И др: ЮНЕП/Грид Арендал, 2011. С. 17.

⁴⁸ О‘ша манба. С.20.

rivojlanishning ekologik va ijtimoiy omillariga keng miqyosda yo‘naltirish zarur bo‘ladi.

Fikrimizcha, “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish o‘rnini bosa olmaydi, balki barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi muhim mezon hisoblanadi. Barqaror rivojlanishning mazmuni hozirgi avlod o‘z iqtisodiy faoliyatini shunday tashkil etishi zarurki, keyingi avlodlar ularidan kam bo‘lmagan iqtisodiy imkoniyatlar va turmush farovonligiga ega bo‘lishlari lozimligida namoyon bo‘ladi. Barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o‘zaro bog‘liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi.

“Yashil iqtisodiyot” konsepsiysi tarafdorlari amal qilayotgan iqtisodiy tizim aholi turmush darajasining yaxshilanishida muayyan ijobiy natijalarga olib kelganligiga qaramasdan mukammal emas, deb hisoblashadi. Ekologianing bo‘zilishi (iqlim o‘zgarishi, cho‘llashish, bio xilma-xillikning yo‘qotilishi), tabiiy kapital cheklanganligi, tugab borayotganligi, kambag‘allik miqyosining ortib borishi, chuchuk suv, oziq-ovqat, energiyaning yetishmasligi, odamlar va mamlakatlar o‘rtasidagi tengsizlik kabi muammolar amaldagi iqtisodiy tizimning mukammal emasligi sabablaridir. Yuqoridagi sabablarga ko‘ra amaldagi iqtisodiy model “jigar rang iqtisodiyot”, deb ataladi.

Jahonda “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish tashabbusi UNEP tomonidan 2008 yilda ilgari surilgan bo‘lib, quyidagi tamoyillarga asoslanadi:

- ekologiya bilan bog‘liq muammolarni milliy va xalqaro darajada baholash va birinchi kun tartibiga aylantirish;
- “yashil” ishchi o‘rnlarni yaratish hisobidan ahoi bandligini ta’minlash va tegishli chora-tadbirlarni ishlab chiqish;
- barqaror rivojlanishga erishish uchun bozor mexanizmlaridan foydalanish.

15.2. Mamlakat iqtisodiyotini rivojlantirishda “Yashil iqtisodiyot” ni shakllantirish

UNEP tadqiqotlariga ko‘ra jahon tabiiy resurslaridan oqilona va samarali foydalanish kelgusi avlod uchun 2050 yilga qadar har yili 2 trln. dollar iqtisodiy

foyda olish imkonini yaratadi. Bu davrda dunyo aholisi soni 28 foizga, aholi jon boshiga resurslardan foydalanish darajasi esa 71foizga ortishi bashorat qilinmoqda. Tabiiy resurslardan oqilona foydalanish bo‘yicha qat’iy choralar ishlab chiqilmas ekan, metallar, biyoqilg‘i, minerallar va boshqa resurslarning yillik iste’moli 85 mlrd. tonnadan 186 tonnagacha ko‘payishi mumkin. Iqlim o‘zgarishining oldini olish uchun sarflanayotgan investitsiyalar aholi jon boshiga to‘g‘ri keluvchi yalpi ichki mahsulot ulushining 3,7 foizga qisqarishiga olib kelgani holda resurslardan samarali foydalanish amaliyotini joriy etish ushbu yo‘qotishni qoplab ketishi mumkin. Misol uchun, Buyuk Britaniyada 2005-2010- yillarda maxsus dasturlar doirasida 7 mln. tonna chiqindi qayta ishlangan va ulardan ikkilamchi marta foydalanilgan. Bu esa 6 mln. tonna issiqxonalarini atmosferaga chiqarish, 10 mln. tonna birlamchi materiallar va 10 mln. litr suvni tejash imkonini berdi. Ushbu sohada 8 700 nafar ishchi o‘rinlari yaratilgan.⁴⁹

“Yashil iqtisodiyot”ga o‘tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog‘liq holda ro‘y beradi. Shuning uchun avvalo, o‘tish jarayoni uchun qulay (huquqiy infratuzilma, rag‘batlantiruvchi omillar va h.k.) muhit yaratish zarur. Agar milliy darajada qo‘llanilayotgan rag‘batlantirishuvchi omillar, jumladan, investitsiyalar va davlat haridlari “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirishga yo‘naltirilsa, iqtisodiy tizimni “yashillashtirish” jarayoni yanada faollashadi.

“Yashil iqtisodiyot”ni yaratish va rivojlantirishning jahon tajribasi ko‘rsatishicha, ushbu jarayon uzoq muddatli davr, katta miqdorda investitsiyalar talab etishi, asosiy e’tibor qayta tiklanadigan energiya manbalaridan samarali foydalanish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni rivojlantirishga qaratilganligi bilan ajralib turadi.

Yevropa Ittifoqi tomonidan 2010- yil 17- iyunda qabul qilingan Yevropa – 2020 rivojlanish strategiyasi “yashil iqtisodiyot”ni shakllantirish maqsadida barqaror ijtimoiy-iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, iqtisodiyotda tarkibiy

⁴⁹ <http://web.unep.org/newscentre/smarter-use-resources-can-add-2-trillion-annually-global-economy>

o‘zgarishlarni, raqobatbardoshlik va mehnat unumdorligini amalga oshirishga qaratilgan. Ushbu strategiyaga muvofiq 2020- yilga qadar Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida ilmiy-tadqiqot va tajriba konstruktorlik ishlariga (ITTKI) sarflanayotgan xarajatlar miqdorini yalpi ichki mahsulotga nisbatan 3 foizga yetkazish, atmosferaga chiqarilayotgan gazlar miqdorini 1990- yil darajasiga nisbatan 80 foizga qadar qisqartirish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish darajasini jami energiya iste’molida 20foizga qadar oshirish vazifasi qo‘yilgan (1-jadval)

15. 1-jadval

Yevropa 2020 rivojlanish strategiyasining asosiy ko‘rsatkichlari⁵⁰

Ko‘rsatkichlar		2008	2013	2014	2015	2020
Bandlik	Bandlik darajasi, 20-64 yoshdagi aholiga nisbatan foiz hisobida	70,3	68,4	69,2	70,1	75,0
ITTKI	ITTKI xarajatlarining YAIMdagi ulushi, foiz	1,84	2,03	2,04	2,03	3,00
Iqlim o‘zgarishi va energetika	Atmosferaga chiqarilayotgan issiqxona gazlari, 1990=100	90,31	80,26	77,06	...	80
	Qayta tiklanadigan energiya manbalarining jami energiya iste’molidagi ulushi, foiz	11,0	15,0	16,0	...	20
	Energiya iste’moli, mln. tonna neft ekvivalenti	1 693,1	1 569,1	1 507,1	...	1 483
	Pirovard energiya iste’moli, mln. tonna neft ekvivalenti	1 180,0	1 106,2	1 061,2	...	1 086
Ta’lim	O‘rta va o‘rta maxsus ta’lim	14,7	11,9	11,2	11,0	<10,0

⁵⁰ <http://ec.europa.eu/eurostat/web/europe-2020-indicators/europe-2020-strategy>

	darajasi, foiz (18-24 yoshdagi aholiga nisbatan)					
	Oliy ta'lim darajasi, foiz (30-34 yoshdagi aholiga nisbatan)	31,1	37,1	37,9	38,7	$\geq 40,0$
Kambag‘allik	Kambag‘allik chegarasida yashovchilar, 2008 yilga nisbatan o‘zgarish, ming kishi	...	5506	4753	1696	- 20000

YEI mamlakatlarida 2014- yilda qayta tiklanadigan energiya manbalaridan olingan elektrenergiya ulushi 16,0 foizga yetdi (2004- yilda — 8,5 foiz). Ushbu sohada Shvetsiya mutlaq yetakchi hisoblanadi va energiyaga bo‘lgan ehtiyojlarining 52,6 foizini tiklanadigan energiya manbalaridan qoplanmoqda. Keyingi o‘rinlarni Finlyandiya (38,7 foiz), Avstriya (33,1 foiz) va Daniya (29,2 foiz) egallahadi. Yevropa 2020 strategiyasi talablaridan orqada qolayotgan guruhga esa Lyuksemburg (4,5 foiz), Malta (4,7 foiz), Niderlandiya (5,5 foiz) va Buyuk Britaniyani (7,0 foiz) kiritish mumkin. Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish 2020- yildan keyin ham faol davom ettirilishi rejalashtirilgan bo‘lib, 2030- yilgacha ushbu energiya turlaridan foydalanish darajasini 27 foizga yetkazish ko‘zda tutilgan⁵¹.

Xitoyda 2020- yilga qadar qayta tiklanadigan energiya manbalari hisobidan elektreneriya olish ulushini 15 foizga (hozirda 9 foiz) yetkazish, iqtisodiyotning uglerod sig‘imkorligini 45 foizga qisqartirish rejalashtirishlган. Mutaxassislar fikricha Xitoyda issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish miqdori 2020- yilga qadar ortib borishi, 2030- yildan keyin esa kamayish tendensiyasiga ega bo‘lishi mumkinligini ta’kidlashmoqda⁵². Ushbu holat Xitoyning ayrim sanoat tarmoqlari,

⁵¹ <http://eurasiatx.com/38860/?lang=ru>

⁵² Захарова Т.В. «Зеленау» экономика как новій курс розвитиуа: глобальній и регіональній аспекти //Вестник томского государственного университета, №4(16), 2011. С.35.

jumladan avtomobilsozlik sanoatining jadal sur'atlarda rivojlanayotganligi bilan yanada murakkablashishi mumkin. Xitoyda avtomobillar ishlab chiqarishning yillik hajmi 2016- yilda 24,4 mln. donadan oshib, ushbu ko'rosatkich bo'yicha Yaponiya (7,9 mln.), Germaniya (5,7 mln.) va AQShni (3,9 mln.) va sezilarli darajada ortda qoldirmoqda. Shu bilan bir vaqtida mamlakatda xususiy avtomobilarga ega bo'lish sur'atlari juda yuqoriligidcha qolmoqda⁵³.

Rossiya AQSH, Yevropa Ittifoqi, Xitoy va Hindistondan farqli ekologik kreditor mamlakat hisoblansa-da, tabiiy resurslarining jadal sur'atlarda ishlatilayotganligi sababli boshqa mamlakatlar singari "yashil iqtisodiyot"ga o'tish ehtiyojiga ega. Rossiyada 2010- yilda "yashil iqtisodiyot"ga o'tish bo'icha Rossiya Federasiyasining 2030- yilga qadar mo'ljallangan ekologik strategiyasi loyihasi qabul qilingan. Ushbu strategiyaga muvofiq mamlakat yalpi ichki mahsulotini ishlab chiqarishda energiya iste'moli darajasini 2020- yilga qadar 40 foizga kamaytirish, qayta tiklanadigan energiyadan foydalanish ulushini esa 4,5 foizga qadar oshirish ko'zda tutilgan.

Qozog'iston Respublikasida "yashil iqtisodiyot"ga o'tish konsepsiysi uch bosqichda amalga oshirilishi rejalashtirilgan⁵⁴:

- 1) 2013–2020- yy. – resurslardan foydalanishni optimallashtirish va tabiatni muhofaza qilish samaradorligini oshirish, "yashil" infratuzilmani yaratish;
- 2) 2020–2030- yy. – "yashil" infratuzilma asosida milliy iqtisodiyot tarkibini shakllantirish, qayta tiklanadigan energetika texnologiyalarini rag'batlantirish va keng miqyosda joriy etish, energiya samaradorligini oshirishning yuqori standartlari asosida inshootlar qurish;
- 3) 2030–2050- yy. – milliy iqtisodiyotni "uchinchi sanoat inqilobi" tamoyillari asosida rivojlantirishga o'tish.

McKinsey Global instituti mutaxassislari fikricha, "yashil iqtisodiyot"ni rivojlantirishga qaratilgan dasturlar samarasi tufayli jahon iqtisodiyotining energiya sig'imkorligi 2050- yilga qadar 50 foizga qisqarishi, yaqin 20 yilda tabiiy

⁵³ <http://www.oica.net/category/production-statistics/2016-statistics/>

⁵⁴ Концепсиya по переходу Республики Казахстан к «зеленой экономике». Указ Президента РК от 30 мая 2013 г. № 577.

resurslarni iste'mol qilish hajmining kamayishi hisobiga 0,9-1,6 trln. dollar mablag‘ tejalishi mumkin. McKinsey tadqiqotlariga ko‘ra 2000-2015- yillarda xom-ashyo bozorida yirik sikl o‘z nihoyasiga yetgan. Xitoyda 2000- yillarning boshlarida ro‘y bergen jadal sanoatlashish va urbanizasiya jarayonlari tabiiy resurslarga bo‘lgan talabning keskin o‘sishiga olib keldi. 2015- yilda jahon mis iste’molining 40 foizi, temir va tosh ko‘mir iste’molining esa 50 foizi Xitoy iqtisodiyoti hissasiga to‘g‘ri keldi. Xitoyning tabiiy resurslarga sarflagan xarajatlarining jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 6foizdan oshib ketdi⁵⁵.

Jahon xom-ashyo bozorida ro‘y bergen yirik sikl 2015- yilda ushbu resurslar narxlarining keskin tushib ketishi natijasida o‘z nihoyasiga yetganligiga qaramasdan energiya tejaydigan texnologiyalar taraqqiyoti jadal sur’atlarda davom etmoqda. Ushbu holat dunyo mamlakatlarining “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish borasida qabul qilgan majburiyatlariga to‘la mos keladi. McKinsey mutaxassislari texnologiyalarning rivojlanishida mo‘tadil va jadal rivojlanish ssenariyalarini ishlab chiqishgan. Mo‘tadil ssenariyaga muvofiq 2035- yilga qadar energiyadan samarali foydalanish 43 foizga, jadal rivojlanish ssenariyasi bo‘yicha esa 70foizga ortishi bashorat qilinmoqda. Energiyadan samarali foydalanish hisobiga jahon iqtisodiyoti miqyosida 100 mln. terajoulga teng energiya yoki 0,2-1,2 trln. dollar tejalishi mumkin. Yaqin istiqbolda XIX asrdan boshlab energiya ishlab chiqarishning yetakchi manbai hisoblangan qazib chiqariladigan yoqilg‘i-energetika manbalari nisbatan qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanish hisobiga o‘zgarib boradi. 2030- yilga qadar jahonda elektreneriya ishlab chiqarishning 36 foizi shamol va quyosh elektr stansiyalari yordamida amalga oshiriladi.

“Yashil iqtisodiyot”ni jadal rivojlantirish omillaridan biri ushbu sohaga investitsiyalar sarflash ko‘lamini keskin oshirish hisoblanadi. Tahlillar ko‘rsatishicha, jahonda qayta tiklanadigan energiya manbalarini⁵⁶ o‘zlashtirishga sarflanayotgan investitsiyalar miqdori 2005-2015- yillarda 73 mlrd. dollardan 286

⁵⁵ McKinsey Global Institute. Beyond the supercycle: How technology is reshaping resources. FEBRUARY 2017. 19-34.

⁵⁶ Quvvati 50 MBt dan yuqori bo‘lgan gidro loyiҳalar bilan birligida.

mlrd. dollarga qadar ortgan bo‘lib, ushbu sohaga investitsiya sarflashda rivojlanayotgan mamlakatlar hissasi ortib bormoqda. 2005-2015- yillarda ushbu sohaga sarflanayotgan jami investitsiyalar tarkibida rivojlanayotgan mamlakatlar ulushi 27 foizdan 55 foizga qadar ortgan.



15.1.-rasm. Qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirishga sarflanayotgan investitsiyalar tarkibi (o‘ng ustun foizda, chap ustun mlrd. doll.)⁵⁷

Rivojlanayotgan mamlakatlar ulushining ortishi asosan Xitoy hissasiga to‘g‘ri keladi. Tahlil etilayotgan davrda jami sarflangan investitsiyalar tarkibida Xitoy ulushi 10 foizdan 36 foizga qadar ortgan va 2015- yilda 103 mlrd. dollarni tashkil etdi.

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan jami investitsiyalar tarkibida quyosh energiyasini o‘zlashtirish yetakchi mavqega ega. Jumladan, 2015- yilda quyosh energiyasini o‘zlashtirish uchun 161 mlrd. dollar (2014 yilga nisbatan 12foizga o‘sigan) sarflangan va ushbu ko‘rsatkich jami investitsiyalarning 56foizini tashkil etadi. SHamol energiyasini o‘zlashtirish uchun esa 109,6 mlrd. doll. (jami investitsiyalarning 38,3foizi) sarflangan (3-rasm).

Qayta tiklanadigan energiya manbalarini o‘zlashtirish aholi bandligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etib bormoqda. UNEP ma’lumotlariga ko‘ra, ushbu sohada bandlik darajasi 2015- yilda 2014- yilga nisbatan 5 foizga ortib, bevosita va bilvosita yaratilgan ishchi o‘rinlari soni 8,1 milliontaga yetgan. Quyosh

⁵⁷ Renewables 2016 Global Status Report. www.fs-unep-centre.org ма’лумотлари асосида тузилган.

va shamol energiyasini ishlab chiqarish sohasida jami yaratilgan ishchi o‘rinlarining 82foizi to‘g‘ri keladi.

Muqobil energiya ishlab chiqarish sohasi ayrim mamlakatlarda aholi bandligini oshirishda strategik ahamiyat kasb etib, mazkur sohaga yo‘naltirilgan investitsiyalar oqimi va bandlik darajasi ortib bormoqda. Masalan, investitsiyalar oqimi va bandlik darajasi Hindistonda quyosh energiyasi, Braziliyada esa shamol energiyasi ishlab chiqarish sohasida yuqori bo‘lmoqda. 2015- yilda Xitoyda quyosh energiyasi ishlab chiqarish sohasida 1,7 mln. va muqobil energiya moslamalarini o‘rnatish hisobidan esa 3,5 mln. ishchi o‘rni yaratildi.

O‘zbekistonda “yashil iqtisodiyot”ga o‘tish zaruriyati milliy iqtisodiyotda iste’mol qilinayotgan energiyaning aksariyat qismi tiklanmaydigan tabiiy resurslardan foydalanib ishlab chiqarilayotganligi, ushbu resurslar zaxirasining cheklanganligi, sanoatning jadal sur’atlarda rivojlanishi oqibatida atrof-muhitning ifloslanishi, suv tanqisligi, Orol dengizining qurib borishi bilan bog‘liq ekologik muammolarning keskinlashib borayotganligi bilan izohlanadi.

O‘zbekistonda iste’mol qilinayotgan elektrenergiyasining katta qismi (87 foiz) issiqlik elektrostansiyalarida ishlab chiqariladi. Bunda energiya iste’moli tarkibining o‘zagini neft va gaz resurslari tashkil etadi. Tabiiy gaz va neftdan foydalanishning hozirgi darajasi saqlanib qolgan holda ularning zaxiralari tabiiy gaz va neftga bo‘lgan ehtiyojni 20-30 yil davomida qondirishga yetishi mumkin. Agar milliy iqtisodiyotda iste’mol etilayotgan elektrenergiya miqdori 2030- yilga qadar ikki baravarga (50 mlrd. kVt/s) o‘sishini e’tiborga oladigan bo‘lsak, tabiiy neft va gaz zaxiralarining tugash muddati yanada qisqarishi tabiiy.

Hisob-kitoblar ko‘rsatishicha, O‘zbekistonda muqobil energiya manbalarining katta imkoniyatlari mavjud. Quyosh energiyasi, kichik daryolar, suv omborlari va kanallar, organik va noorganik chiqindilardan ishlab chiqariladigan biogaz energiyasi bu borada istiqbolli hisoblanadi. O‘zbekistonda quyosh energiyasidan foydalanish imkoniyatlari juda yuqori. Mamlakatimizda yil davomida quyoshli kunlar soni 320 kundan ortiqni tashkil etadi va quyosh energiyasi miqdori 51 mlrd. tonna neft ekvivalentidan oshib ketadi. Elektr

energiyasini ishlab chiqarishda quyosh elektrostansiyalaridan an'anaviy manbalar bilan birgalikda uyg'unlashtirilgan holda foydalanish har yili 1,8 mlrd. kub metr tabiiy gazni tejab qolish imkonini beradi.

Yevropalik mutaxassislarining hisob-kitoblariga ko'ra, O'zbekistonda bir yilda yillik iste'mol hajmidan 40 baravar ko'p elektrenergiya ishlab chiqarish imkoniyati mavjud va zamonaviy texnologiyalarni amaliyatga keng miqyosda joriy etish orqali 2030- yilga qadar mamlakat yalpi ichki mahsulotining energiya sig'imkorligini ikki baravarga kamaytirish mumkin. Jumladan, 2020- yilda Namangan viloyatining Pop tumanida quvvati 130 kWt. bo'lgan quyosh fotoelektrik stansiyasi ishga tushirilishi rejalashtirilgan⁵⁸.

Milliy iqtisodiyotning energiya sig'imkorligini pasaytirish, qayta tiklanmaydigan uglevodorod resurslaridan oqilona va samarali foydalanish maqsadida qator huquqiy hujjatlar qabul qilingan. 1997 yilda qabul qilingan O'zbekiston Respublikasining "Energiyadan oqilona foydalanish to'g'risida"gi qonuni, Respublika Prezidentining 2015 yil 5 maydagi «2015 — 2019- yillarda iqtisodiyot tarmoqlari va ijtimoiy sohada energiya sarfi hajmini qisqartirish, energiyani tejaydigan texnologiyalarni joriy etish chora-tadbirlari dasturi to'g'risida» PQ-2343-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2015- yil 25- noyabrdagi "Respublikaning chorvachilik va parrandachilik xo'jaliklarida biogaz qurilmalari qurishni rag'batlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi №343-son Qarorlari shular jumlasidandir. Muqobil energiya manbalarini joriy etishni rag'batlantirish uchun qayta tiklanuvchi energiya manbalarining qonunchilik bazasini shakllantirish zarur. Yaqin istiqbolda energiyaning muqobil turi sifatida "Muqobil energiya manbalari to'g'risida"gi, "Quyosh energiyasi to'g'risida"gi, "Elektr ta'minoti to'g'risida"gi qonunlarni qabul qilish lozim.

⁵⁸ www.energycharter.org



15.2-rasm. O‘zbekistonda jami energiya iste’moli va yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi⁵⁹

Milliy iqtisodiyotni rivojlantirish va liberallashtirishning ustuvor yo‘nalishlaridan biri iqtisodiyotda energiya va resurslar sarfini kamaytirish, ishlab chiqarishga energiya tejaydigan texnologiyalarni keng joriy etish, qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni kengaytirish, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnat unumdarligini oshirish hisoblanadi⁶⁰.

Energiya manbalaridan oqilona foydalanishga qaratilgan tizimli, samarali chora-tadbirlar natijasida yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi kamayib bormoqda. Jumladan, 2000-2014- yillarda yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi harid qobiliyati pariteti bo‘yicha 0,931 dollardan 0,333 dollarga qadar qisqargan. Shunga qaramasdan yalpi ichki mahsulotning energiya sig‘imkorligi sanoat jihatdan taraqqiy etgan mamlakatlarga nisbatan yuqori hisoblanadi. Misol uchun ushbu ko‘rsatkich 2014- yilda Yevropa Ittifoqi mamlakatlarida - 0,109 doll., Yaponiyada - 0,107 doll., AQShda - 0,150 doll.ga teng bo‘lgan.

Mamlakatimizda Umumjahon banki guruhikreditlari hisobidan sanoatda energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan qiymati 125 mln. dollarga teng investitsion loyihalar amalga oshirilmoqda. Ushbu sohaga yo‘naltirilayotgan

⁵⁹ http://data.trendeconomy.ru/industries/Energy_Intensity/Uzbekistan

⁶⁰ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son Farmoni. 7.02.2017-y.

investitsiyalar energetika tizimlarini yangilash, ishlab chiqarish quvvatlarini modernizasiyalash, qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishga sarflanmoqda. Hisob-kitoblarga ko'ra, O'zbekistonning an'anaviy elektroenergetika sektorida energiya samaradorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar tizimi 2030 yilga qadar 6,85 mln. tonna neft ekvivalentiga teng miqdorda tabiiy resurslarni tejash imkonini beradi.⁶¹.

Milliy iqtisodiyotni modernizasiyalash asosida “yashil iqtisodiyot”ni rivojlantirish muammolarini kompleks tahlil etish qator xulosalar qilish imkonini beradi:

– “yashil iqtisodiyot” konsepsiyasini mavafaqqiyatli amalga oshirishdagi asosiy muammo “yashil iqtisodiyot” tushunchasini energiya va resurslarni tejaydigan samarali texnologiyalar, muqobil energetikaga qo'shimcha investitsiyalar kiritish yoki “yashil” o'sish sifatida soddalashtirish hisoblanadi. “Yashil iqtisodiyot”ga o'tish zarurligini ilmiy asoslash o'ta murakkabligi, ekologik muammolarni prognozlashning yuqori darajada noaniqligi ushbu konsepsiyanı tushunarli, sodda tarzda tushuntirishda qiyinchiliklar tug'diradi. Masalan, issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish muddati va darajasini pasaytirish bo'yicha yagona kelishuv mavjud emas. Issiqxona gazlarini atmosferaga chiqarish hajmi esa ortib bormoqda.

– “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanish o'rmini bosa olmaydi, “yashil iqtisodiyot” barqaror rivojlanishga erishishga xizmat qiluvchi mezon hisoblanadi;

– barqaror rivojlanish iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik komponentlarni yaxlit, o'zaro bog'liqlikda rivojlantirishni taqozo etadi;

– “yashil iqtisodiyot”ga o'tish jarayoni har bir mamlakat uchun alohida ahamiyat kasb etib, tabiiy kapital, inson kapitali va mamlakatning iqtisodiy rivojlanish darajasiga kabi xususiyatlarga bevosita bog'liq holda ro'y beradi;

– milliy iqtisodiyotning energiya sig'imkorligini ishlab chiqarish texnologiyalarini modernizasiyalash, energiya resurslaridan oqilona foydalanishga

⁶¹ <https://www.gazeta.uz/ru/2015/06/05/energy/>

qaratilgan samarali chora-tadbirlarni ishlab chiqish yordamida pasaytirib borish lozim;

– qayta tiklanadigan energiya manbalaridan foydalanishni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirishning huquqiy bazasini shakllantirish va takomillashtirish zarur.

Fikrimizcha, quyidagilar “yashil iqtisodiyotga” o‘tishning samarali iqtisodiy dastaklariga aylanishi zarur:

- atrof-muhitga zarar yetkazuvchi faoliyatga qarshi “ekologik” soliqqa tortish tizimini shakllantirish, tabiiy resurslar qiymatini baholash tizimini takomillashtirish va samarasiz subsidiyalardan voz kechish;
- ekologik toza mahsulotlarni ishlab chiqarishni rag‘batlantiruvchi davlat haridi siyosatini olib borish;
- “yashil iqtisodiyot” infratuzilmasi va tabiiy kapitalni tiklash uchun davlat investitsiyalari miqdorini oshirish;
- ekologik toza texnologiyalar yaratish bilan bog‘liq tadqiqotlar va ishlanmalarni davlat tomonidan maqsadli qo‘llab-quvvatlash tizimini joriy etish.

XVI BOB. KENG QAMROVLI IQTISODIY O‘SISHNI TAHLIL QILISHNING EKONOMETRIK MODELLARI

Reja:

- 1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati, tahlili, usullari, iqtisodiy tahlilning axborot ta’minoti, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish.**
- 2. Matematikani iqtisodiy jarayonlarda qo‘llanilish bosqichlari.**
- 3. Ekonometrik modellarning xususiyatlari.**
- 4. Ekonometrik modellarning sifati.**
- 5. Ekonometrik modellarning iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishda qo‘llanilishi.**

16.1. Iqtisodiy tahlilning mohiyati, tahlili, usullari, iqtisodiy tahlilning axborot ta’minoti, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish

Bu bo‘limni o‘rganishda mazkur qo‘llanmaning asosiy mavzusi - iqtisodiy prognozlash uslubiyatini o‘rganish uchun zarur bo‘lgan bilim bazasi to‘zilishiga imkon beradigan individual jadvallarni to‘zish tavsiya qilinadi.

Jadvallar quyidagilarni o‘z ichiga olishi kerak:

- prognoz axborotining turlari;
- prognoz axborotini yig‘ish va qayta ishlash usullari;
- axborot bazasi bilan ishlash uslublari;
- turli xil axborotlarni qo‘llash imkoniyatlari;
- axborotga qo‘yilgan asosiy talablar (axborot bazasiga, olingan natijalarga, axborotning bir-biriga to‘g‘ri kelishiga).

Prognozlar tipologiyasi bilan kelajak to‘g‘risida axborot manbalari va prognozlash usullari masalasi uzviy bog‘liq. Prognoz axborotning 3 ta asosiy manbai ajratiladi:

- o‘tmishda va kelajakda rivojlanish qonuni yetarlicha ma’lum bo‘lgan mavjud tendensiyalarning ekstrapolyatsiyasi;

- ko‘tilayotgan yoki belgilangan shartlarga nisbatan prognozlashtirilayotgan obyektlarning modellarini to‘zish.

Axborotning bu turlariga nisbatan prognozlashning bir-birini to‘ldiruvchi 3 uslubi ajratiladi:


- ekspert, u axborotni yig‘ish (anketalash, intervyu olish, so‘rov) va uni qayta ishslash hamda prognozning qo‘yilgan vazifasiga nisbatan ekspertning fikriga asoslangan;
- trendning ekstropolyatsiyasi-obyektning o‘tmishda va hozirda rivojlanishini o‘rganish hamda o‘tmish va hozirda rivojlanishning qonuniyatini kelajakka ko‘chirish;
- modellashtirish-prognozlashtirilayotgan obyektni ko‘tilayotgan yoki mo‘ljallanayotgan ahvolidagi o‘zgarishlar asosida qidiruv va meyoriy modellarni o‘rganish.

Amalda sanab o‘tilgan axborotning manbalari va prognozni ishlab chiqishning barcha usullaridan birgalikda foydalaniladi (prognozlash uslublari 5-mavzuda batafsil ko‘rsatilgan).

Materialni yodda oson saqlab qolishga 7.2 - chizmada keltirilgan to‘zilmaviy sxema yordam beradi.

Prognozning tahliliy tadqiqotlar sifatini oshirish muammosi ko‘p jihatdan ularning axborot ta’minotiga bog‘liq. Foydalanilayotgan axborot bazasiga qo‘yilgan asosiy talablar quyidagilardir:

- ko‘rsatkichlarning miqdoriy tavsiflari ishonchliligi avvalambor iqtisodiyotning asosiy sohalaridan, yetarli darajada to‘liq hamda umuman olganda mamlakatda va uning mintaqalarida sodir bo‘layotgan salbiy va ijobjiy jarayonlar to‘g‘risida to‘liq tavsiflarni ko‘zda tutuvchi taqdim qilinayotgan axborotning yetarliligi va kompleksligi;
- turli axborot bloklari va darajalari ko‘rsatkichlarining o‘zaro to‘g‘ri kelishini ko‘zda tutuvchi taqdim qilinayotgan axborotning tizimliligi;
- taqqoslanishi, ya’ni turli ko‘rsatkichlar miqdoriy tavsiflarining bir-biriga zid bo‘lmasligi.



16.1-chizma. To'plangan axborot va prognozlash uslublari orasidagi o'zaro aloqa.⁶²

Prognoz - tahliliy hisoblar statistik axborot, ya'ni mintaqalar, korxonalar, moliyaviy tashkilotlardan olinadigan ma'lumotlar asosida olib boriladi. boshqa mamlakatlarning va jahon iqtisodiyoti hamda uning mintaqalari iqtisodiy konyunkturasini tavsiflovchi axborotdan foydalilanadi. materiallarning bir qismi aholini va tadbirkorlarni so'rash natijasida shakllanadi. ekspert axborot, ya'ni bilimning u yoki bu soha mutaxassislaridan olinadigan ma'lumotlardan foydalilanadi.

Statistik ma'lumotlar sifatini belgilovchi beruvchi omillarga quyidagilar kiradi:

- yalpi kuzatishdan tanlab kuzatish uslubiga o'tish bilan bog'liq o'zgarishlar;
- statistik hisobot va buxgalteriya hisobining yangi shakllari kiritilishi bilan bog'liq birlamchi hisobning kechiktirib bo'lmasligi;

⁶² Jeffrey M. Wooldridge Introductory Econometrics: A Modern Approach (Upper Level Economics Titles) 5th Edition. 2015. 28-36 p.

- agregatlashgan ko‘rsatkichlarni hisoblash uslubiyati;
- statistik ko‘rsatkichlarning iqtisodiy kategoriyaga mos kelmasligi.

16.2. Matematikani iqtisodiy jarayonlarda qo‘llanilish bosqichlari

Umumlashgan katta sonni tahlil qilish va konkret kuzatishda u yoki bu qonuniyatlarni aniqlash zaruriyatligi ko‘pgina iqtisodiy tadqiqotlarning harakterli xususiyati hisoblanadi. Real borliqda hech bir iqtisodiy zaruriyat bevosita sof holda namoyon bo‘lmaydi.

Bir qiymatni o‘zgartirish boshqasining o‘rtacha qiymatining o‘zgarishiga olib keladigan hollarda bog‘lanishni o‘rganish katta qiziqish uyg‘otadi. Mana shunday bog‘lanishga *korrelyatsion bog‘lanish* deyiladi. Korrelyatsiyani tahlil qilishdan maqsad, hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishning zichligini o‘rganishdir. Bog‘lanishlar o‘z mohiyatiga ko‘ra sodda va murakkab bo‘lishi mumkin. Ijtimoiy hodisalar, shu jumladan, iqtisodiy hodisalar odatda murakkab bog‘lanishga ega bo‘ladi.

Korrelyatsion tahlil hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishni aniqlaydigan usullardan biri hisoblanadi. Lekin faqat korrelyatsion tahlil bog‘lanishning zichligi haqida oddiy baho bera oladi. Bu holat iqtisodiy tadqiqotlarda korrelyatsion tahlilni keng qo‘llash imkoniyatini beradi. Korrelyatsion tahlil haqida gapirganda regression tahlilni unutmaslik kerak. Regression tahlil hodisalar o‘rtasidagi bog‘lanishning statistik tahlil usuli bo‘lib, bog‘lanish shakllarini tahlil qiladi. Regression tahlil natijalari regressiya tenglamalari va koeffitsiyentlarida sifat ifodasiga ega bo‘ladi.

Korrelyatsion va regression tahlilning samaradorligi ko‘pgina iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni hal qilishda muhim rol o‘ynaydi. Korrelyatsion va regression tahlil qilishdan oldin o‘rganilayotgan hodisalar o‘rtasida bog‘lanish har tomonlama sinchiklab tahlil qilinishi lozim. Haqiqatan ham bog‘lanish mavjud bo‘lsa, korrelyatsion va regression tahlil usulidan foydalanish hamda real ahamiyatga ega bo‘lgan natijalarni olish mumkin bo‘ladi.

Korrelyatsion tahlilning birinchi vazifasi, korrelyatsion bog‘lanish shakllarini, ya’ni regressiya funksiyasi ko‘rinishlarini (chiziqli, darajali, logarifmik va boshqalar) aniqlashdan iborat. Bog‘lanish shakllarini tanlash regression tahlil va tanlanayotgan funksiya haqidagi ma’lum gipotezalarni ishlab chiqish hamda tahlil qilishdan boshlanadi.

16.3. Ekonometrik modellarning xususiyatlari

Iqtisodiy tadqiqotlarda qo‘llanilayotgan korrelyatsion formulalar turli shaklga ega. Iqtisodiy qatorlar dinamikasi o‘rtasidagi bog‘lanishlar chizig‘i shaklini aniqlayotganda, ko‘pchilik hollarda quyidagi shakllardan foydalaniladi⁶³:

Chiziqli - $y = a_0 + a_1x$

Ikkinchi darajali parabola - $y = a_0 + a_1x + a_2x^2$

Uchinchi darajali parabola - $y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + a_3x^3$

n - darajali parabola - $y = a_0 + a_1x + a_2x^2 + \dots + a_nx^n$

Ikkinchi darajali giperbola - $y = a_0 + \frac{a_1}{x}$

b - Ikkinchi darajali giperbola - $y = a_0 + \frac{a_1}{x^b}$

Logarifmik - $\log y = a_0 + a_1x$

Yarim logarifmik - $y = a_0 + a_1 \ln x$

Ko‘rsatkichli funksiya - $y = a_0 a_1^x$

Darajali funksiya - $y = a_0 x_1^{a_1}$

Logistik funksiya - $y = \frac{a_0}{1 + a_1 e^{-bx}}$

Funksiyalar parametri odatda eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlanadi. Normal tenglamalar tizimi (7) tizimga o‘xshash bo‘ladi. Logistik funksiyada y ni qiymati oldin x ning tekis o‘zgarishda tezlatilgan sur’atda ortib boradi.

⁶³ M. Bray, R. Razin, A. Sarychev. Mathematical economics. London School of Economics and Political Science 2014. 45-50 p.

Regressiya tenglamasining shaklini tanlashda quyidagilarga riosa qilish lozim⁶⁴:

1. Bog‘lanishning umumiy shakli, bog‘lanishning tabiat va harakteriga nisbatan professional tushuncha mos kelishi kerak.
2. Imkoni boricha interpretasiya va amaliy qo‘llashda oson bo‘lgan tenglamalarning eng sodda shakllaridan foydalanish lozim. Boshlang‘ich ma’lumotlarning grafik tasviri - tarqoq diagramma va regressiyalarning empirik chiziqlari regressiyalarni tenglama shakllarini tanlashda yordam ko‘rsatadi.

16.4. Ekonometrik modellarning sifati

Jarayonlar qatorining bitta natijali ta’sirini to‘plamli korrelyatsion tahlil o‘rganadi. To‘plamli korrelyatsion tahlilning shart-sharoiti xuddi korrelyatsion tahlil singari bo‘ladi. Odatda to‘plamli korrelyatsiya bevosita to‘plamli regression tahlil bilan bevosita aloqada tahlil qilinadi. To‘plamli regressiya tenglamasi oddiy masshtab, ya’ni regressiya tenglamalariga kiruvchi o‘zgaruvchi bir maromdag normal va normallashgan masshtabda yoki qiyoslash birligida ifodalangan o‘zgaruvchilar shaklida to‘zilishi mumkin.

Regressiya tenglamasi sifatida ko‘pincha chiziqli⁶⁵:

$$\hat{y} = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_n x_n$$

va darajali funksiyalardan foydalaniladi:

$$\hat{y} = a_0 x_1^{a_1} x_2^{a_2} \dots x_n^{a_n}$$

Ushbu tenglama parametrlari odatda eng kichik kvadratlar usuli bilan aniqlanadi. Umumiy holda normal tenglamalar tizimi quyidagicha ifodalanadi:

$$\begin{cases} na_0 + a_1 \sum x_1 + a_2 \sum x_2 + \dots + a_n \sum x_n = \sum y \\ a_0 \sum x_1 + a_1 \sum x_1^2 + a_2 \sum x_1 x_2 + \dots + a_n \sum x_1 x_n = \sum x_1 y \\ \dots \\ a_0 \sum x_n + a_1 \sum x_1 x_n + a_2 \sum x_2 x_n + \dots + a_n \sum x_n^2 = \sum x_n y \end{cases}$$

⁶⁴ M. Bray, R. Razin, A. Sarychev. Mathematical economics. London School of Economics and Political Science 2014. 45-50 p

⁶⁵ Damodar Gujarati, Dawn Porter. Basic Econometrics 5th Edition 2009. 338-360 p.

Model darajalari parametrlarini aniqlash uchun oldin (9.1.8) modelni logarifmik-chiziqli ko‘rinishga qayta o‘zgartirish lozim:

$$\ln \hat{y} = \ln a_0 + a_1 \ln x_1 + a_2 \ln x_2 + \dots + a_n \ln x_n$$

Shundan so‘ng normal tenglamalar tizimini to‘zishda logarifmlardan foydalanamiz.

$$\begin{cases} n \ln a_0 + a_1 \sum \ln x_1 + a_2 \sum \ln x_2 + \dots + a_n \sum \ln x_n = \sum \ln y \\ a_0 \sum \ln x_1 + a_1 \sum \ln x_1^2 + a_2 \sum \ln x_1 \ln x_2 + \dots + a_n \sum \ln x_1 \ln x_n = \sum \ln x_1 \ln y \\ \dots \\ a_0 \sum \ln x_n + a_1 \sum \ln x_1 \ln x_n + a_2 \sum \ln x_2 \ln x_n + \dots + a_n \sum \ln x_n^2 = \sum \ln x_n \ln y \end{cases}$$

Bog‘lanishning zichligi korrelyatsiyalar indeksiga o‘xshash bo‘lib, to‘plamli korrelyatsiya koeffitsiyenti yordamida baholanadi:

$$R_{yx_j} = \sqrt{1 - \frac{\sum (\bar{y} - \hat{y})^2}{\sum (\bar{y} - \bar{y})^2}},$$

bu yerda, \hat{y} - regressiya tenglamasi yordamida aniqlangan natijaviy ko‘rsatkichning nazariy qiymati; \bar{y} - natijaviy ko‘rsatkichning o‘rtacha arifmetik qiymati.

To‘plamli regressiyalar chizig‘idan natijaviy ko‘rsatkich qiymati qanchalik kam darajada chetlansa, ma’lum intervalda absolyut qiymat bo‘yicha ahamiyatga ega bo‘lgan korrelyatsiya koeffitsiyenti katta qiymatga ega bo‘lishiga bog‘liq bo‘ladi. To‘plamli korrelyatsiya koeffitsiyenti quyidagi oraliqda o‘zgaradi:

$$0 \leq |R| \leq 1.$$

Agar korrelyatsion model faqat ikki omil ko‘rsatkichlariga ega bo‘lsa, u holda to‘plamli korrelyatsiya koeffitsiyenti korrelyatsiyaning juft koeffitsiyentlaridan hosil qilish mumkin:

$$R_{yx_j} = \sqrt{\frac{r_{yx_1}^2 + r_{yx_2}^2 - 2r_{yx_1} \cdot r_{yx_2} \cdot r_{x_1 x_2}}{1 - r_{x_1 x_2}^2}}.$$

G.Tintner to‘plamli korrelyatsiya koeffitsiyentining quyidagi formulasini taklif etgan:

$$R_{yx_j} = \sqrt{\frac{a_1 s_1 + a_2 s_2 + a_3 s_3 + \dots + a_n s_n}{s_y}}$$

bu yerda, s_j ($j = \overline{1, n}$) $s_j = \overline{yx_j} - \bar{y} \cdot \bar{x}$ formulasi bo'yicha aniqlanadigan kovariasiya; s_j - natijaviy ko'rsatkich dispersiyasi; a_j ($j = \overline{1, n}$) - regressiya koeffitsiyenti.

Normallangan masshtabda umumiy ko'rinishda to'plamli regressiya tenglamasini quyidagicha to'zish mumkin: β_j ($j = \overline{1, n}$) parametrlari korrelyatsiyaning juft koeffitsiyenti yordamida aniqlanadi. Koeffitsiyentlarni aniqlash uchun n ta tenglamalar tizimini tuzamiz:

$$\begin{cases} \beta_1 + \beta_2 r_{x_2 x_1} + \beta_3 r_{x_3 x_1} + \dots + \beta_n r_{x_n x_1} = r_{yx_1} \\ \beta_1 r_{x_1 x_2} + \beta_2 + \beta_3 r_{x_3 x_2} + \dots + \beta_n r_{x_n x_2} = r_{yx_2} \\ \beta_1 r_{x_1 x_3} + \beta_2 r_{x_2 x_3} + \beta_3 + \dots + \beta_n r_{x_n x_3} = r_{yx_3} \\ \dots \\ \beta_1 r_{x_1 x_n} + \beta_2 r_{x_2 x_n} + \beta_3 r_{x_3 x_n} + \dots + \beta_n = r_{yx_n} \end{cases}$$

(9.5.14) tenglama ildizi izlangan regressiya koeffitsiyentlari hisoblanadi. Agar regressiya tenglamasi

$$y = a_0 + a_1 x_1 + a_2 x_2 + \dots + a_n x_n$$

ko'rinishida bo'lsa, a_i ($i = \overline{1, n}$) koeffitsiyenti quyidagi formula asosida aniqlanadi:

$$a_1 = \beta_1 \frac{\sigma_y}{\sigma_{x_1}}, \quad a_2 = \beta_2 \frac{\sigma_y}{\sigma_{x_2}}, \dots, \quad a_n = \beta_n \frac{\sigma_y}{\sigma_{x_n}}, \quad a_0 = \bar{y} - a_1 \bar{x}_1 - a_2 \bar{x}_2 - \dots - a_n \bar{x}_n \quad o'rniga qo'yish$$

orqali a_0 koeffitsiyenti topiladi.

U yoki bu juft omillar o'rtasidagi bog'lanish darajasining ishonchlilik, ishonchlilik koeffitsiyenti yordamida aniqlanadi: $\mu_{ij} = \frac{|r_{ij}| \sqrt{n}}{1 - r_{ij}^2}$, agar $\mu \geq 2,6$ bo'lsa, bog'lanish ishonchli deb ataladi.

To'plamli korrelyatsiya koeffitsiyentini quyidagi formula bo'yicha ham aniqlash mumkin:

$$R = \sqrt{\beta_1 r_{yx_1} + \beta_2 r_{yx_2} + \dots + \beta_n r_{yx_n}}$$

β_j ($j = \overline{1, n}$) regressiya koeffitsiyenti har bir omilning salmog‘i, ta’sir darajasini, ya’ni $\frac{\beta_i}{\beta_j}$ munosabati i -omilning ta’siri necha marotaba j -omilning ta’siridan katta ekanligini ko‘rsatadi. To‘plamli korrelyatsion munosabatning o‘rtacha kvadratik xatolari quyidagi formula yordamida aniqlanadi:

$$\sigma_R = \frac{1 - R^2}{\sqrt{n - k - 1}}$$

bu yerda, n - kuzatuvlar soni; k - aniqlanayotgan bog‘lanishning texnik-iqtisodiy parametrlari soni.

7.5. Ekonometrik modellarning iqtisodiy o‘sishni tahlil qilishda qo‘llanilishi

Ijtimoiy-iqtisodiy hayotni, kelajakni baholamasdan uning rivojlanish istiqbolini prognozlashsiz tasavvur qilish qiyin. Rejali ijtimoiy xo‘jalik yuritish sharoitida iqtisodiy prognozlar jamiyat rivojlanishining mumkin bo‘lgan maqsadlarni ularga erishishni ta’minlovchi iqtisodiy resurslarni, uzoq muddatli, o‘rta muddatli va joriy rejalarining ehtimol bo‘lishi mumkin bo‘lgan va iqtisodiy jihatdan samarali variantlarni aniqlash uchun, iqtisodiy va texnik siyosatining asosiy yo‘nalishlarini asoslash, qabul qilinayotgan qarorlarning natijalarini prognozlash va har bir muayyan vaqtida aniq tadbirlarni, faoliyatni amalga oshirish uchun zarur hisoblanadi. Bozor islohotlari va ilmiy-texnik taraqqiyotni takomillashtirish sharoitida prognozlash ijtimoiy rivojlanishining strategiya va taktikani shakllantirishning hal qiluvchi ilmiy omillaridan biri bo‘lib hisoblanadi.

Insonning aqliy faoliyati mobaynidagi eng asosiy va muhim jihatlardan biri – bu kelajakni oldindan bashorat qilishdir.

Bugungi kunda oldindan bashorat qilishning ikki xildagi ko‘rinishi mavjud – ilmiy bashoratlash hamda ilmiy asoslanmagan bashoratlash. Ilmiy asoslanmagan bashoratlash – insonning topqirligi, sezgirligi bilan bog‘liq bo‘lgan bashoratlashlarni o‘z ichiga oladi.

Ilmiy bashoratlashning oddiy bashoratlashdan prinsipial farqi shundaki, ilmiy bashoratlash orqali kelajakda sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan voqeа-hodisa to‘g‘risida ishonchliroq va aniqroq ma’lumotga ega bo‘lish mumkin. Bu orqali esa amaliyotda eng muhim va maqsadga muvofiq qarorlarni qabul qilish imkoniyatiga ega bo‘lamiz. Ilmiy bashoratlashning xilma-xil shakllari orasida eng ko‘p tarqalgan turlaridan bittasi ***prognozlashtirish*** hisoblanadi.

Prognoz shu paytgacha hech bir til tizimida hali kuzatilmagan ehtimolli voqeani atamalar orqali qayd etishga, biror bir obyekt, jarayon, hodisaning holatini uzoq yoki yaqin kelajak uchun qayd etishga yordam beradi.

Prognozni ishlab chiqishda tekshirilgan, aniq va ziddiyatga uchramaydigan prognozlashtirish metodidan foydalanish lozim. Ana shundagina, prognozni shaxsiy intuitiv tarzda emas, balki ilmiy asoslangan tarzda ishlab chiqilganligini etirof etish mumkin. Qolaversa, prognozlashtirilgan voqeа-hodisaning realizasiyasini kelajakda tekshirish usullari ham aniq bo‘lishi shart.


Shunday qilib, **prognoz** – bu kelajakda, ma’lum bir muddat oralig‘ida obyekt, hodisa yoki jarayonlarning rivoji samarasi hamda ularning ehtimolli yo‘nalishlari to‘g‘risidagi ilmiy-uslubiy asoslangan mulohaza hisoblanadi.

Prognozlashtirish sohasi keng qamrovli va xilma-xildir. Bugungi kunda geografik, geologik, ekologik, tibbiy prognozlashtirish, ilm-fan va texnika prognozi, iqtisodiy, sotsiologik, harbiy prognozlashtirish, tashqi-siyosiy, yuridik, madaniy-estetik va boshqa turdagи prognozlashtirish sohalarini ajratib ko‘rsatishimiz mumkin.

Ijtimoiy-iqtisodiy prognozlashtirish o‘z ichiga to‘liq iqtisodiyot taraqqiyotini o‘z qamroviga olgan holda, uning tarmoqlari, hududlari, ilmiy-texnikaviy taraqqiyoti, aholi va turmush darajasi, resurslari va iste’moli, tashqi-iqtisodiy kon’ukturasi hamda ekologiyasi va shu kabi qismlarini ham o‘z ichiga oladi. Shunga o‘xhash prognozlashtirish klassifikasiyalari to‘g‘risida keyinchalik batafsil to‘xtalib o‘tamiz. Hozircha esa, ishlab chiqarishni boshqarish tizimida prognozlashtirishning funksional xususiyatlari to‘g‘risida batafsil to‘xtalib o‘tsak.

1-rasmida ishlab chiqarish va boshqarish jarayonini amalga oshirishda maqsad va resurslar o‘rtasidagi taqqoslash hisobga olingan funksional sxema keltirib o‘tilgan.

Izohlanayotgan jarayonda 1-bosqich bo‘lib prognozlashtirish hisoblanadi. Prognoz – maqsadli dasturlar orqali jamiyatning ehtiyojlarini qondirish, uni kengaytirish va halq xo‘jaligining resurslar bazasidan foydalanishga tayanib, iqtisodiyotni rivojlantirish yo‘llarini ochib beradi. Prognozlashtirish funksiyasining asosiy vazifalariga quyidagilar kiradi: iqtisodiy, ijtimoiy, ilmiy-texnik jarayonlar va tendensiyalardan tashkil topgan ilmiy analiz; muammolarni, vaziyatlarni, kekelajakdai rivojlanish tendensiyalarini ehtimolli va ko‘p variantli bashorat qilish; ushbu jarayonlarga faol ta’sir etuvchi imkoniyat va natijalar bahosi va tanlovi.



7.1-rasm. Ishlab chiqarish va boshqarish jarayonining dinamik sxemasi⁶⁶

⁶⁶ Damodar Gujarati, Dawn Porter. Basic Econometrics 5th Edition 2009. 589-600 p.

Ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishning samarali va rasional variantlari haqidagi prognoz axborotlari maqsadli-dasturiy metodlarga tayanuvchi kompleks dasturlar ishlab chiqarilishi asosiga quriladi. Prognozlar kabi dasturlar ham aniq maqsadlar va resurslarni solishtirishni hisobga olish orqali, ularni so‘nggi ishlab chiqarish komplekslariga yetib borishigacha bo‘lgan asosli rejalar ishlab chiqishni ta’minlaydi.

Keltirilgan sxema mustaqil mazmunni anglatmaydigan, reja oldi materiali singari prognoz haqida mulohaza yuritishga olib kelishi mumkin. Bejiz bizning barcha iqtisodiy adabiyotlarimizda oltmishinchi yillargacha “prognozlashtirish” atamasidan, uni planlashtirishdan ajratmaslik maqsadida, yiroq bo‘lishgan. Albatta, prognozlashtirish – iqtisodiyotning rivojlanishi natijasida butun boshli rejali boshqaruv tizimining tarkibiy qismiga aylangan, ammo uning o‘ziga xos xususiyati, o‘z metodlari va to‘liq mustaqil mazmuni ham mavjud. Prognoz hamda reja o‘rtasidagi muhim farqlarni ko‘rib chiqishning o‘zi kifoY.

Tayanch so‘z va iboralar

Iqtisodiy tahlilning mohiyati, tahlili, usullari, iqtisodiy tahlilning axborot ta’minoti, axborot texnologiyalaridan keng foydalanish. Iqtisodiy matematik modellarning tasnifi. Modellashtirish tamoyillari va etaplari. Ekonometrik modellarning xususiyatlari. Iqtisodiy o‘sishni baholashda qo‘llaniladigan ekonometrik modellar. Ekonometrik modellarning ishonchliligi, sifatini aniqlash. Statistik va dinamik modellar. Miqdoriy bog‘liqlikni ifodalovchi matematik modellar.

XVII BOB. O'ZBEKISTONDA BARQAROR IQTISODIY O'SISHNI TA'MINLASH YO'NALISHLARI

Reja:

- 1. O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishida aholi turmush darajasini oshirish yo'llari.**
- 2. O'zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o'sishning asosiy yo'nalishlari.**

17.1.O'zbekistonda barqaror iqtisodiy o'sishida aholi turmush darajasini oshirish yo'llari

O'zbekiston mustaqillikka erishgan ilk kunlardan boshlab izchil va oqilona olib borilayotgan keng qamrovli islohotlarning zaminida asosiy va yagona bir maqsad – halqimizning hayot darajasi va sifatini yuksaltirish g'oyasi mujassam.

Aholi turmush darajasi miqdoriy va sifat ko'rsatkichlari tizimida ifodalanadi: iste'mol etilayotgan moddiy ne'matlar va xizmatlar umumiy hajmi, aholining real daromadi, oziq-ovqat mahsulotlari va xizmatlar iste'moli miqdori, pul daromadlari miqdori, mehnatning sharoiti va tavsifi, ish va bo'sh vaqtning davomiyligi, turarjoy sharoiti va qiymati, maishiy xizmat, bo'sh vaqtdagi boshqa ijtimoiy xizmatlar bilan ifodalanadi.

O'zbekistonda aholi turmush darajasini yuksaltirish bo'yicha bir qator ustuvor yo'nalishlar O'zbekiston respublikasi yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasining Ijtimoiy sohani rivojlantirish deb nomlangan to'rtinchi ustuvor yo'nalishida "Hamma narsa inson manfaatlari uchun" tamoyilidan kelib chiqib, ijtimoiy sohada aholi turmush sifati va standartlarini kjsaltirish bo'yicha bir qator ustuvor yunalishlarni bel- gilab olindi.

SHahar va qishloqlarda aholining haqiqiy ehtiyoji va milliy an'analar to'la hisobga olingan holda turar joy kurilishi va tegishli infratuzilma tarmoqlarini kengaytirishga alohida e'tibor, jumladan, qishloqlarda biz yangi ikki tipdagi yosh

oilalar uchun maqbullashtirilgan yer uchastkasiga ega bo‘lgan 2 va 3 xonali turar joy binolari loyihasi ishlab chiqildi. Bu esa ular narxini kishloq aholisining barcha qatlamlari uchun maqbul tarzda arzonlashtirish imkonini berdi.

SHaharlarda yangi, zamonaviy ko‘p qavatli uylar kurish dasturi qabul qilindi. Unga kura shaharlarda 191 ta besh va yetti qavatli uy foydalanishga topshirilishi belgilandi. 2017 yilda jami 33 mingdan ziyod oilalar, shu jumladan, 7 ming yosh oilalar uz uylariga ega buldi.

Yangi kurilayotgan shahar va qishloq hududlari infratuzilmasini rivojlantirishga alohida e’tibor qaratildi.

2017 yilda 14 ta shaharda davlat-xususiy sektor sherikchiligi asosida maishiy chiqindilarni kompleks qayta ishlash klasterlari tashkil etildi. Har bir tuman va shaharda "Toza hudud" korxonalari tashkil etilishi aholiga kursatilayotgan xizmatlar sifatini sezilarli darajada oshirishga imkon yaratdi. 2700 kilometr ichki yullarni kurish va ta’mirlashga davlat mablaglari yunaltirildi, 5 ming kilometrlik past quvvatli elektr tarmoqari ishga tushirildi.

Aholini toza ichimlik suvi bilan ta’minalashga alohida e’tibor qaratildi. Jumladan, yangi tashkil etilgan Uy-joy kommunal xizmat kursatish vazirligi oldiga respublika axrlisini markazlashtirilgan suv ta’minoti bilan qamrab olish darajasini hozirgi 67 foizdan 2021 yilga kelib 84 foizgacha yetkazish vazifasi kuyildi.

Moliya vazirligi xuzurida "Toza ichimlik suvi" fondi tashkil etilib, uning hisobidan 2018 yilda salkam 600 mlrd. so‘m mablag‘ ajratilishi ko‘zda tutildi. Buning hisobiga 1,5 ming kilometr ichimlik suvi tarmoqlari hamda 300 ga yaqin suv inshootlarini rekonstruksiya qilish va kurish rejalashtirildi. Natijada 434 ta aholi punktlarida 600 ming kishi ichimlik suvi ta’minoti va oqava xizmatlari bilan qamrab olinadi.

Sog‘liqni saqlash tizimini rivojlantirish yuzasidan ham bir qator anik, chora-tadbirlar amalga oshirildi.

Eng avvalo, qishloqlarda sog‘liqni saqlashning birlamchi bo‘g‘inida samarasiz 1400 qishlok, vrachlik punktlar qisqartirilib, ularning o‘rniga 800 ta

qishloq oilaviy poliklinikalari va 400 dan ortik, tez tibbiy yordam shaxobchalari tashkil qilindi.

Bu ishlar doirasida qishlokda faoliyat yuritadigan 700 ga yaqin shifokorlar xizmat uy-joylari bilan ta'minlandi.

2017 yilning o'zida tez tibbiy yordam bo'limlari 1200 ta ixtisoslashtirilgan avtotransport vositalari, asbob-uskuna va jihozlar bilan ta'minlandi hamda ularga ajratiladigan dori vositalari hajmi 2 baravarga ko'paytirildi.

Respublikamizning barcha hududlarida yuqori texnologiyalar asosida ixtisoslashgan tibbiy yordam ko'rsatilishini yaqinlashtirish maqsadida, 13 ta hududda Respublika ixtisoslashtirilgan markazlarning bo'limi ochildi, respublika markazlarida 1200 dan ortiq viloyat mutaxassislari malaka oshirdi, 3 mingdan ortiq malakali mutaxassislar viloyatlarga borib, 200 minga yaqin ko'riklar o'tkazdi, 500 dan ortiq og'ir bemorlar uchun yuqori texnologik operasiyalar yoki davolashni amalga oshirdi, 200 dan oshiq xorijiy mutaxassislar viloyatlarda 350 ta operasiyalar va 80 tadan ortiq master-klass o'tkazdi.

Ijtimoiy ahamiyatga ega 343 nomdagi dori-darmon vositalari va tibbiyot buyumlarini uzluksiz va arzon narxlarda ta'minlash maqsadida yangi tizim joriy etilib, ularni harid qilish uchun Sog'liqni saqlash vazirligiga 500 mlrd. so'mdan ziyod kushimcha budjet mablaglari ajratildi.

Nodavlat tibbiyot muassasalarini rivojlantirish jamg'armasi tashkil etilib, unga 14 million AQSH dollari miqdorida mablag' yunaltirildi. Natijada, so'nggi oylarda respublikada 400 dan ziyod nodavlat tibbiyot muassasalari tashkil etildi va ularning umumiy soni qariyb 4 mingtaga yetdi.

Ta'lim sohasidagi sa'y-harakatlarimiz uning barcha bo'g'inlarini qamrab olib, uzluksiz ta'limning yagona tizimini yaratish, uning hammabopligi va sifatini oshirishni ko'zda tutadi.

Avvalo, maktabgacha ta'lim sohasini isloh qilish maqsadida 5 yillik aloxida dastur qabul qilindi. Joriy yilning o'zidayoq, 302 ta maktabgacha ta'lim muassasasi rekonstruksiya qilindi va kapital ta'mirdan chiqarildi.

Davlat budgeti va xalqaro grantlar mablaglari hisobiga 1200 ta bolalar bog‘chasi zamonaviy mebel, rivojlantiruvchi uyinlar va jihozlar bilan ta’minlandi.

Maktab tizimi qayta ko‘rib chiqilib, tajribali pedagog, ota-onalar va o‘quvchilar bilan o‘tkazilgan muhokamalar natijasida 9-sinfni tamomlagan o‘quvchilar uchun o‘qishni ixtiyoriy ravishda kollej va litseyda yoki 10-11-sinflarda davom ettirish imkoniyati yaratib berildi.

Yangi ukuv yilida respublika bo‘yicha qariyb 70 foiz o‘quvchilar maktabda ta’lim olishni davom ettirishni tanladi. 10-sinflarda o‘quv jarayonini tashkil etish maqsadida 22 ming nafar yangi o‘qituvchi ishga qabul qilindi, yetti tildagi 8,5 million nusxa darslik va o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar nashr qilindi.

Respublikadagi 486 ta maktabda qurilish-ta’mirlash ishlari amalga oshirilib, shundan 234 tasida loy-paxsadan qurilgan binolar o‘rniga yangi o‘kuv binolari qurib berildi, 900 ta maktabning 8 mingtaga yaqin sinfidagi o‘kuv partalar yangisiga almashtirildi, 400 dan oshiq mакtab zamonaviy kompyuter sinflari va interaktiv uskunalar bilan ta’minlandi, nogiron bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 17 ta maktab-internat binolari ta’mirlanib, shu bilan respublikamizdagi barcha shu turdagи muassasalar tuliq ta’mirdan chiqarildi.

2017 yilda xotin-qizlar bandligini ta’minlash, ularni tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish va har tomonlama qo‘llab-kuvvatlash masalalari yuzasidan:

birinchi Respublika tadbirkor ayollar biznes-forumi o‘tkazildi;

tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanayotgan ayollarni qo‘llab-kuvvatlash maqsadida joriy yilda tijorat banklari tomonidan 2,2 trln. so‘m miqdorida kreditlar ajratildi;

mehnatga layoqati cheklangan 705 nafar xotin-qizlarga tikuv mashinalari berilib, ular kasanachilik asosida ish bilan ta’minlandi hamda ularning 261 nafariga yangi uy-joylar berildi.

Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo‘naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda yuqori iqtisodiy o‘sish va bandlik sur’atlari aholi farovonligini oshirishni ta’minlamoqda.

Aholi real daromadlarining oshishida asosiy omil bo‘lib, makroiqtisodiy sharoitning qulayligi, iqtisodiy o‘sishning tez sur’atlarda oshishi, Inflyatsiyaaning sezilarli darajada pasayganligi, iqtisodiyotdagи tarkibiy o‘zgarishlar va aholini aniq ijtimoiy himoya qilishning kuchayganligi hisoblanadi.

Aholi daromadlari asosan pul daromadlari va natural shakldagi daromadlardan tashkil topadi. Bozor munosabatlari rivojlanib borgan sari aholi pul daromadlarining salmog‘i sezilarli darajada oshib, uning tarkibiy to‘zilishi ham takomillashib boradi.

Aholi daromadalarining tarkibiy to‘zilishi:

- mehnatga haq to‘lash;
- ijtimoiy transfertlar;
- mol-mulkdan olingan daromadlar;
- tadbirkorlik faoliyatidan olingan daromadlar;
- boshqa daromadlar.

O‘zbekistonda umumiy daromadlar tarkibida ishlab chiqarishdan olingan daromadlar ulushi ortib, aksincha mol-mulkdan olingan va transfertlardan daromadlar ulushi kamayib bormoqda.

17.1-jadval

O‘zbekiston Respublikasida aholi daromadlari tarkibi, foiz

Ko‘rsatkichlar	2015 y	2016 y	2017 y.
Umumiy daromadlar, undan:	100,0	100,0	100,0
1) Ishlab chiqarishdan olingan daromadlar, shu jumladan:	75,5	73,3	71,0
Mehnat faoliyatidan olingan daromadlar, shundan:	73,2	71,2	68,8
SHaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlar	2,3	2,1	2,2
2) Mol-mulkdan olingan daromadlar	2,7	2,6	4,2
3) Transfertlardan daromadlar	21,8	24,1	24,8


Manba: O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasi ma’lumotlari.

2017- yilning yanvar-dekabr oylarida aholi umumiy daromadlarining katta qismi yollanma ishchilarning daromadlari va mustaqil ravishda band bo‘lishdan olingan daromadlarni o‘z ichiga olgan mehnat faoliyatidan olingan daromadlardan (jami aholi umumiy daromadlarining 68,8 foiz) shakllandi. Aholi umumiy daromadlari tarkibida shaxsiy iste’mol uchun o‘zida ishlab chiqarilgan xizmatlardan olingan daromadlarning ulushi 2,2 foiz, mol-mulkdan olingan daromadlarning ulushi 4,2 foiz, transfertlardan olingan daromadlar ulushi 24,8 foiz ni tashkil qildi.

Bugungi kunda aholini ish bilan ta’minlash, odamlarning daromadlarini ko‘paytirish va faravonligini oshirish masalalari har bir mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolaridan biri hisoblanadi. Bu borada kichik biznes va xususiy tadbirdorlik faoliyatini yanada rivojlantirish mamlakatimizda mulkdorlarning o‘rta sinfini shakllantirish, yangi ish o‘rinlarini yaratish va shu asosda aholi daromadlarini ko‘paytirish va faravonligini oshirishning muhim omili hisoblanadi.

Keyingi yillarda mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning qo'llab-quvvatlanishi, ushbu sohaning roli va o'rni tobora mustahkamlanib borishi natijasida bugungi kunda mamlakatimiz yalpi ichki mahsulotining 53,3 foizini ayni shu sohada ishslash chiqarilmoqda. 2000- yilda bu ko'rsatkich 31 foizdan iborat bo'lgan.⁶⁷

Yurtimizda kechayotgan o'zgarishlar aholi jon boshiga to'g'ri keladigan real pul mablag'lari, o'rtacha nominal va real ish haqi miqdori belgilangan eng kam ish haqi, pensiya, stipendiya va nafaqalar ko'rsatkichlarini yaqqol namoyon etmoqda.



17.1-rasm. Aholi umumiyl daromadlarining o'sish sur'atlari⁶⁸,
(o'tgan yilga nisbatan foizda).

Aholi daromadlarini yanada oshirib borish strategiyasi quyidagi ustuvorliklarni o'z ichiga olishi lozim: birinchidan, ishlab chiqarishni rivojlantirish va yangi ish o'rnlari yaratish asosida aholi bandlik darajasining oshuviga erishish; ikkinchidan bozor talablariga to'liq mos ravishda xodimlarning ish hakining o'sishi darajasini oshirib borish; uchinchidan, mehnat daromadlarini tartibga solish vositasi sifatida minimal ish haqining rolini ko'tarish; to'rtinchidan, iqtisodiyotning budget sektoridagi ish haqini oshirish.

Aholini tadbirkorlikka jalb qilish va bu orqali yangi ish o'rnlarini yaratish, bandlikni ta'minlash, o'z mehnati bilan daromad topish istagida bo'lgan fuqarolarga amaliy yordam ko'rsatish, mehnat resurslaridan oqilona foydalanish

⁶⁷ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

⁶⁸ O'zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo'mitasi ma'lumotlari.

maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila-tadbirkor dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi PQ-3777-sonli qarori qabul qilindi.

Qaror bilan har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug‘ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo‘lishi uchun shart-sharoitlar yaratish maqsadida:

Mamlakatimizning har bir tuman va shahrida, eng avvalo olis va tabiiy-iqlim sharoiti og‘ir hududlarda aholining moddiy sharoitlarini tubdan yaxshilash, turmush tarzi sifati va darajasida sezilarli ijobjiy o‘zgarishlar amalga oshirilishini ta’minlashga qaratilgan «Har bir oila — tadbirkor» dasturi amalga oshiriladi.

Dasturning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

tadbirkorlik bilan shug‘ullanish istagida bo‘lgan aholining tadbirkorlik tashabbuslarini har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, ularga imtiyozli kreditlar ajratish hamda tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va amalga oshirishning har bir bosqichida mutasaddi idoralar tomonidan tizimli amaliy yordam ko‘rsatilishini ta’minlash;

tadbirkorlik va daromad keltiradigan mehnat faoliyati bilan shug‘ullanmagan aholiga tadbirkorlik ko‘nikmalarini o‘rgatish va tegishli faoliyat turini tashkil qilishga amaliy yordam ko‘rsatish;

tadbirkorlik subyektlari faoliyatini kengaytirishga amaliy yordam berish orqali qo‘shimcha ish o‘rinlari yaratish;

kasanchilik va kichik hajmda ishlab chiqaruvchi subyektlarni (mikrofirmalarni) tashkil etish uchun moliyaviy yordam berish orqali aholiga qo‘shimcha daromad ishlab topish imkoniyatini yaratish;

qishloq va mahallalarning ixtisoslashuvini (hunarmandchilik, tikuvchilik, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining ayrim turlarini yetishtirish, ixcham issiqxonalar tashkil qilish va boshqalar) hisobga olgan holda mazkur sohada ijobjiy natijalarga erishgan ishbilarmonlik tajribasiga ega tadbirkorlarni mahallalarda yangi biznes faoliyati bilan shug‘ullanishni boshlagan oilalarga biriktirish — mini-klasterlar tashkil etish;

joylarda oilaviy tadbirkorlikka ko‘rsatiladigan xizmatlar ko‘lamini tubdan kengaytirish, tadbirkor oilalarning ishlab chiqargan mahsulotlari savdosini tashkil

qiluvchi bozor infratuzilmasi obyektlari, xizmat ko'rsatish va servis shoxobchalarini barpo etish;

qishloq va mahallalarda bo'sh turgan yer maydonlarini yangi tashkil etilayotgan oilaviy tadbirkorlik subyektlariga berish orqali aholi uchun qo'shimcha ish o'rnlari va daromad manbalarini yaratish;

ko'p qavatlari uylarda istiqomat qiluvchi aholiga kasanachilik va kichik hajmda mahsulot ishlab chiqaruvchi mikrofirmalarni tashkil etish orqali qo'shimcha daromad topish imkonini yaratish;

vaqtinchalik moliya-xo'jalik faoliyatini amalga oshirmayotgan hamda davlat ro'yxatidan o'tmasdan faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarni aniqlab, ular faoliyatini tiklash va qonuniylashtirish yuzasidan aniq chora-tadbirlarni amalga oshirish.

Mehnatkash halqimizning qadimiy kasb-hunar an'analari, ishbilarmonlik salohiyati oilaviy tadbirkorlik, hunarmandchilik, kasanachilik va boshqa tadbirkorlik faoliyati turlarini keng ommalashtirish, ekin maydonlaridan unumli foydalangan holda qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish uchun katta tajriba va zaxira mavjudligidan dalolat beradi.

Aholi turmush darajasi konsepsiysi halk farovonligini oshirish, kambag'allik va kam ta'minlanganlikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik zarurligidan kelib chiqadi, shuning uchun respublikada o'tkazilayotgan islohotlar aholi daromadiga nisbatan moslashuvchan siyosat o'tkazishni maqsad qilib qo'ygan. U ish haki sohasidagi bozor islohotlarining har bir bosqichida rivojlanish va o'zgarishga, daromadlar miqdoriga bog'liq ravishda maksimal soliqka tortishni qo'llash, kam daromadli aholiga transfert to'lovlar miqdorini ko'paytirishga qodirdir.

Aholining harid qobiliyatini oshirish, tovar va xizmatlar narxining doimo ham asoslanmagan holda o'sib borishi oqibatlarini yumshatish va oxir oqibatda aholining turmush darajasini quvvatlab turish uchun davlatni tartibga soluvchilik ta'siri zarur. Bu daromadlar tarkibida ish haqi ulushining nisbatan oshib borishi va uning bevosita ko'payib borishiga ham yo'naltirilgan bo'lishi lozim.

Shu bilan birga, davlat bir tomondan, valyuta va moliya bozoridagi vaziyatni barqarorlashtirish, Inflyatsiyaaning o'sish darajasini pasaytirish bo'yicha bir qator chora-tadbirlarni amalga oshirmokda, boshqa tomondan esa aholining nochor qatlamlarini sotsial himoyalash va o'rtasinfni mustahkamlash bo'yicha tabdbirlarni kuchaytirmokda.

Aholi turmush darajasi shakllanishi sharoitida O'zbekistonidagi daromadlar siyosati konsepsiysi quyidagilarni qamrab olishi lozim:

- * faol mehnat faoliyatini rag'batlantiruvchi va o'rtacha jon boshi daromadlar o'sishining yuqori sura'tlarini ta'minlovchi iqtisodiy va huqukiy shart-sharoitlarni yaratish;
- * aholining nochor qatlamlarini ijtimoiy himoyalashning aniq mo'l-jallanishini kuchaytirish;
- * mehnat bozorini faollashtirish, ish kuchiga talab va taklif o'rtasidagi muvozanatga erishish;
- * aholining o'zini-o'zi band etishni kengaytirish uchun iqtisodiy va huquqiy shart- sharoitlar yaratish;
- * daromadlar bo'yicha turlicha ijtimoiy guruhlarning turmush darajasidagi haddan tashqari yuqori darajada tabaqlashuviga yo'l qo'ymaslik;
- * aholining real va o'z ixtiyorida bo'lgan daromadlarining barqaror o'sishiga erishish.

O'zbekistonda bandlik siyosatining xususiyatlari Davlatning ijtimoiy siyosatining yo'nalishlaridan biri bo'lib, aholining bandligiga yordamlashish va ishsizlikdan himoyalashdir. O'zbekistonda bandlikka yordamlashish siyosati rivojlangan malakatlarning boy tajribasini hisobga olgan holda tashkil etilgan.

Bandlikning o'sishini rag'batlantirish 3 yo'nalish bo'yicha bo'ladi: tadbirkorlar bilan ishlash (ish o'rnlari yaratishda soliq imtiyozlari), ishsizlar tomonidan ish axtarishning faollashuvi (ish kuchi taklifini rag'batlantirish) va yollanma xodimlarning bir qismini mehnat bozoridan chiqarish (o'zini-o'zi band etishni quvvatlash).

O‘zbekistonda aholining bandligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari ijtimoiy yo‘naltirilgan bozor iqtisodiyotiga o‘tishning millliy modelida o‘z aksini topgan. Unda qishloq joylardagi aholining band bo‘lishiga ustuvorlik berilgan.

Islohotlarning birinchi bosqichida bandlikni ta’minlashdagi birinchi navbatdagi tadbirlar davlat korxonalarini (sovxozlarni) boshqa mulk shakllariga (kooperativ, aksionerlik va b.) o‘zgartirish; aholini shaxsiy tomorqa xo‘jaligi uchun yer bilan ta’minlash tadbirlari amalga oshirildi.

Qishloqda ishlab chiqarishning yangi shakllari – dehqon, fermer xo‘jaliklarining rivojlanishi, qishloq xo‘jalik mahsulotlarini qayta ishslash bo‘yicha kichik korxonalar yaratish kabi ishlar qilindi.

Sanab o‘tilgan yo‘nalishlar bo‘yicha ko‘rilgan faol chora-tadbirlar bandlik va yalpi ishsizlik xavfini bartaraf etish, ishlab chiqarish tarkibi va mulk shakllari bo‘yicha bandlikni bozoriy sharoitlarga yaqinlashtirish, yangi ishlab chiqarish munosabatlariga o‘tish va xodimning o‘z mehnati natijalaridan manfaatdorligini oshirish, odamlarning boqimandachilik psihologiyasini o‘zgartirish va individning davlatdan bog‘liqligini pasaytirish uchun shart-sharoitlar yaratishga imkon berdi.

Xulosa qilib aytganda, amalga oshirilayotgan islohotlar ijtimoiy siyosatning mazmuni va salohiyatini oshirishga qaratilgan. Shu asosida asosiy e’tibor aholi turmush sifati va yashash sharoitlarini yanada yaxshilashga, jumladan kam ta’minlangan aholi k’atlamlarini ijtimoiy himoyasini kuchaytirishga hamda sog‘liqni saqlash va ta’lim tizimlaridagi islohotlarni davom ettirishga qaratiladi.

17.2. O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o‘sishning asosiy yo‘nalishlari

O‘zbekiston inklyuziv rivojlanishining xususiyatlari bu tarkibiy islohotlar, ijtimoiy sohalarni rivojlantirishga davlatning keng ko‘lamli investitsiyalari va mintaqaviy rivojlanish dasturlarini amalga oshirishga asoslangan iqtisodiy o‘sish

modeli doirasida aholi barcha qatlamlarining faravonligini oshirish o‘rtasida muvozanatni saqlash orqali amalga oshiriladi.

O‘zbekistonda inklyuziv iqtisodiy o‘sishning asosiy yo‘nalishlari quyidagilar hisoblanadi:

1. Barqaror iqtisodiy rivojlanish chunki barqaror iqtisodiy rivojlanish inklyuziv iqtisodiy rivojlanishni talab etadi. Bunda asosan mamlakat yalpi ichki mahsulotining real o‘sishi va aholi jon boshiga real o‘sishini ta’minlash lozim bo‘ladi. Mamlakat iqtisodiyotini texnologik jihatdan yangilash ijtimoiy mehnat taqsimoti va unumdorligini oshirish, yalpi ichki mahsulotning energiya, material sig‘imkorligini qisqartirish, ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar siqatini tubdan oshirish hamda iqtisodiyotni innovation rivojlantirishga o‘tkazishning moddiy asoslarini yaratish imkonini beradi. Iqtisodiyotni tarkiban modernizasiya qilish esa, yoqilg‘i va xom ashyo tarmoqlari, yarim fabrikatlarni ishlab chiqarishni qisqartirgan holda yuqori texnologiyani o‘zida mujassamlashtirgan tayyor mahsulot ulushini ko‘paytirish imkonini beradi. Shuningdek, eksport tarkibida xom ashyo, yoqilg‘i ulushini qisqartirgan holda tayyor, innovasoin mahsulot va xizmatlar ulushini mutanosib ravishda oshishiga olib keladi.

2. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish orqali yalpi ichki mahsulotning o‘sishini ta’minlash. Bunda sanoatning qayta ishlash tarmog‘ini rivojlantirish orqali sanoat mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish, buning uchun ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish, ishlab chiqarishni modernizasiya qilish, texnik va texnologik jixatdan qayta jihozlash natijasida mehnat unumdorligi va resurs tajamkorligiga e’tibor qaratish. Sanoat tarmoqlarini isloh qilish, tarkibiy o‘zgartirish va diversifikasiyalash dasturlarining amalga oshirilishi, moddiy-texnika bazasini mustahkamlanishi, respublika sanoat ishlab chiqarishining rivojlanishiga zamin yaratadi. Ishlab chiqarish jarayoni sanoatida innovations o‘sishi uchun zarur bo‘lgan yangi muhim texnologiyalarni aniqlash. Yuqori texnologiyalarga asoslangan va yuqori qo‘sishimcha qiymat yaratadigan qo‘shma loyihalarni tashkil etishga xizmat qiladigan qulay biznes-muhitini yaratish.

3. Asosiy kapitalga investitsiyalarning yuqori o'sish suratlarini ta'minlash orqali ishlab chiqarishni rivojlantirish va shu orqali yangi ish o'rinalarini yaratish bunda asosan investitsiyalarni hududlar va iqtisodiyot tarmoqlariga jalg etish. Aholi va biznesni mablag' bilan ta'minlash va ularni investitsiyalarga, asosan, qayta ishslash sanoati va zamonaviy xizmatlarga jalg qilish uchun vositalarni ishlab chiqish. Mahalliy va chet el investorlarining innovation-investitsion faolligini oshirish maqsadida investitsion muhit jozibadorligini ta'minlash.

4. Hududlarni kompleks va mutanosib rivojlantirish buning uchun har bir hududning qaysi sohaga ixtisoslanganligidan kelib chiqib usha sohaga ixtisoslashtirish. hududiy rivojlanishning ustuvor yo'nalishlarini o'zgartirish, xom ashyo va energiya manbalariga, bozorlarga yaqin bo'lgan joylarda va hududlarda yangi ishlab chiqarish va turar-joylarni joylashtirish zarur transport va ijtimoiy infratuzilmalarni joylashtirish. Hududlarda infratuzilmani rivojlantirishga qaratilgan ustuvor investitsion loyihalarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash. Hududlarning bir maromda barqaror rivojlanishini ta'minlash va ularning bir tekisda katta tafovutlarsiz taraqqiy etishiga xizmat qiladigan kompleks dasturlarni ishlab chiqish va ularni hayotga tatbiq etish choralarini ko'rish.

5. Aholi daromadlarini oshirish va kam ta'minlanganlikni qisqartirish, bunda asosan aholini tadbirkorlikka keng jalg qilish buning uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan qabul qilingan "Har bir oila-tadbirkor dasturini amalga oshirish to'g'risida"gi qarori bilan har bir oilaning tadbirkorlik bilan shug'ullanishi va barqaror daromad manbaiga ega bo'lishi uchun shart-sharoitlar yaratish. Mamlakatimizda kuchli ijtimoiy siyosatning bosqichma-bosqich amalga oshirilishi, aholi daromadlari va hayot darajasini muntazam oshirib borish, halqimizni ijtimoiy qo'llab-quvvatlashni kuchaytirishga qaratilgan aniq maqsadli chora-tadbirlar o'rtacha oylik ish haqi miqdorining sezilarli ravishda, yuqori sur'atlar bilan barqaror o'sishi aholi daromadlarini yanada ko'paytirish, odamlarimizning hayot darajasi va sifatini oshirish uchun mustahkam asos yaratdi.

6. Aholi bandligini ta'minlash va ishsizlikni qisqartirish. Mamlakatimizda aholini samarali muhofaza qilishga yo'naltirilgan maqsadli chora-tadbirlar hamda

yuqori iqtisodiy o'sish va bandlik sur'atlari aholi farovonligini oshirishni ta'minlamoqda. Odamlarning daromadlari ortishi bilan oilalarning moddiy ahvoli ham sifat jihatdan o'zgarib bormoqda. O'zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy siyosatida, umuman, aholini ijtimoiy himoyalashning muhim sharti sifatida ish bilan bandlik va ishsizlikni qisqartirish muhim ahamiyat kasb etadi. Bandlikning o'sishini rag'batlantirish uch yunalishda amalga oshirilishi mumkin:

- tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, masalan, yangi ish joylari yaratilganda soliq imtiyozlarni berish ishsizlarning ish izlashlarini faollashtirish;
- ishchi kuchi taklifini rag'batlantirish;
- o'z-o'zini band qilishni rag'batlantirish.

Ish bilan bandlikni tartibga solishda amalga oshirilishi lozim bo'lgan kuyidagi tadbirlarni kiritish mumkin:

-mamlakatdagi iqtisodiy vaziyatni sog'lomlashtirish, investisiyon faollikni ragbatlantirish, barkarorlashtirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlash;

iqtisodiyotning nodavlat sektorlarini rivojlantirish va uni kengaytirish uchun shart-sharoitlar yaratish, shu jumladan, kichik biznes va o'z-o'zini ish bilan band qilishni ko'llab-kuvvatlash;

-ish bilan bandlikning sog'lom to'zilmasini yaratish maqsadida kasbiy ukitish, qayta tayyorlash va maslaxat berishni ta'minlash.

7. Sog'lijni saqlash va tibbiy xizmat ko'rsatishni rivojlantirish. Salomatlik insonning jismoniy psihologik va aqliy layoqatining yuqori salohiyatini ta'minlaydi va uning to'laqonli yashashining garovi bo'ladi. Aholining salomatligi jamiyat iqtisodiy rivojlanishining dinimikasiga nihoyatda ulkan ta'sir ko'rsatadi, uning ijtimoiy yetukligi, davlatning o'z fuqorolari sog'lig'i uchun qayg'urish darajasining o'lchovi bo'lib xizmat qiladi. Aholi sog'lig'ini saqlashda asosan har 10000 aholiga to'g'ri keladigan shifoxona muassassalari va shifokorlar soni, go'daklar (1 yoshgacha bolalar) o'limi koeffitsiyenti, 5 yoshgacha bo'lgan bolalar o'limi koeffitsiyenti, onalar o'limi koeffitsiyenti va to'g'ilishda kutilgan umr davomiyligi hisoblanadi.

8. Ta’lim tizimini rivojlantirish yo‘llari. O‘zbekiston Respublikasining ta’lim tizimi quyidagilardan iborat:

- davlat ta’lim standartlariga muvofiq ta’lim dasturlarini amalga oshiruvchi davlat va nodavlat ta’lim muassasalari;
- ta’lim tizimi ishlashi va rivojlanishi uchun kerakli tadqiqot ishlarini olib boruvchi ilmiy-pedagogik tashkilotlar;
- ta’lim sohasidagi davlat boshqaruvi organlari shuningdek ular boshqaruvi ostidagi korxona, muassasa va tashkilotlar.

Mamlakatdagi ta’lim tizimining ahvoli haqida muhim ma’lumot beruvchi ko‘rsatkichlardan biri bu ta’lim muassasalarida har bir o‘qituvchiga to‘g‘ri keladigan o‘quvchilar sonidir. U o‘quvchilar umumiyligi sonini o‘qituvchilar umumiyligi soniga bo‘lish orqali aniqlanadi.

O‘zbekistonda ta’lim sektorini moliyalashtirishda budjet va xususiy manbalar bilan bir qatorda moliya institutlari, xorijiy, xalqaro donorlar tomonidan ko‘rsatilayotgan tashqi yordam ham ahamiyatlidir.

9. Ijtimoiy ta’midot. Bozor munosabatlariga o‘tish va iqtisodiy-ijtimoiy tizimni isloq qilishda aholini, ayniqsa nochor guruhlarini aniq manzili va maqsaddi ijtimoiy himoya qilish tizimi barpo etiladi. Bu tizimni asosini ijtimoiy ta’midot va nafaqa tashkil etadi. O‘zbekistonda ijtimoiy ta’midotning asosiy manbai davlat va mahalliy budjetdan ajratilgan mablag‘lar, sug‘urta jamg‘armasi, korxona va jamoat tashkilotlari ajratayotgan mablaglardan tashkil topadi.

Ijtimoiy ta’midot tizimining chora-tadbirlari aholining muhtoj qatlamlariga asosan ijtimoiy transfertlar orqali amalga oshiriladi. Ijtimoiy transfertlar deganda, aholiga davlat va nodavlat tashkilotlari tomonidan beg‘araz tarzda pul va natural shakldagi iste’mol resurslarining berilishi tushuniladi. Ijtimoiy transfertlarga fuqarolar yalpi daromadining bir qismini tashkil etuvchi pensiya, nafaqa, moddiy yordam, stipendiya va boshqa ijtimoiy to‘lov, shuningdek, oilalarga natural shaklda beriladigan yovar va xizmatlardan tashkil topadi.

Budjet hisobidan tibbiy, mehnat, ekspert komissiyalar aholini ijtimoiy himoyalash uchun ham ishlataladi. Shuningdek, budjetda shaxsni ishga qaytarish

uchun shartlar qo‘yiladi va ishchining ijtimoiy holatini ta’minlash kafolatlanadi. Hisoblangan nafaqalar ko‘paytirib boriladi.

Jamiyatning rivojlanishini uning samaradorligiga, ya’ni odamlarning moddiy va ma’naviy ehtiyojlarini qondirish uchun resurslardan optimal foydalanishiga qarab baholanadi. Shu sababli, inson taraqqiyotining bosh uch komponentidan bittasi farovonlik hisoblanadi. Insonning real erkinliklarini kengayishi uni ravnaq topishi bilan hamqadam bo‘lmog‘i kerak. Bu esa, o‘z navbatida, mehnat unumdorligini oshirishni, inklyuziv iqtisodiy o‘sishni talab qiladi.

Mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatini ko‘tarmasdan turib odamlarning turmush tarzini, ularning ehtiyojlarini to‘la qondirish imkonini yo‘q. Inson taraqqiyoti konsepsiyasini faqat ta’lim va sog‘liqni saqlash, gender rivojlanish va qashshoqlikka qarshi kurashish kabi ijtimoiy mezonlar statistikasi va ko‘rsatkichlarini qatoriga jamg‘arish, investitsiyalar, ishlab chiqarish, iste’mol qilish, savdo va texnologiyalar kabi ko‘rsatkichlar kiritilmas ekan, inson taraqiyoti to‘g‘risida to‘liq tasavvur shakllanmasdan qoladi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI

I. O‘zbekiston Respublikasi qonunlari

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi. T.: O‘zbekiston, 2016.
- 2.“O‘zbekiston Respublikasida nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1991 yil 18 noyabr, 422-XII-son
3. “Ta’lim to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni (yangi tahriri) 1997 yil 29 avgustdagi 465-I-sonli
- 4.“Aholini ish bilan ta’minalash to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni (yangi tahriri 1998 yil 1 may, 616-I-son
5. “Fuqarolarning davlat pensiya ta’minoti to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1993 yil 3 sentabr, 938-XII-son
- 6.“Fuqarolar sog‘lig‘ini saqlash to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1996 yil 29 avgust, 265-I-son
- 7.“Kadrlar tayyorlash milliy dasturi to‘g‘risida” O‘zbekiston Respublikasining Qonuni 1997 yil 29 avgust, 463-I-son

II. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti qaror va farmonlari

8. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Obod qishloq dasturi to‘g‘risida”gi 29.03.2018 dagi PF-5386-sonli farmoni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Aholining ijtimoiy zaif qatlami bandligini ta’minalashni rag‘batlantirishning tashkiliy chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 11.06.2018 dagi PQ-3782-sonli qarori.
10. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Har bir oila-tadbirkor dasturini amalga oshirish to‘g‘risida”gi 07.06.2018 dagi PQ-3777-sonli qarori.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 07.05.2018 dagi PQ-3698-sonli qarori.

12. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘sishimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi 05.05.2018 dagi PQ-3697-sonli qarori.

13. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ijtimoiy dorixonalar faoliyatini tashkil etish tartibi to‘g‘risida” ga 03.05.2018 dagi 334-sonli qarori.

III. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti asarlari va ma’ruzalari

14. SH.M.Mirziyoyev. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. // “Xalq so‘zi” gazetasi. 2017 yil 16 yanvar, №11.

15. Karimov I.A. Inson manfaatlari ustuvorligini ta’minalash barcha islohot va o‘zgarishlarimizning bosh maqsadimizdir - Toshkent, 2008 yil.

16. Karimov I.A. “Barcha reja va dasturlarimiz vatanimiz taraqqiyotini yuksaltirish, halqimiz farovonligini oshirishga xizmat qiladi” - T.: «O‘zbekiston» 2011 yil.

17. Karimov I.A. 2012 yil Vatanimiz taraqqiyotini yangi bosqichga ko‘taradigan yil bo‘ladi - T.: «O‘zbekiston» 2012 y

18. Karimov I. A. «Yangilanish va barqaror taraqqiyot yo‘lidan yanada izchil harakat qilish, xalqimiz uchun faravon turmush sharoit yaratish – asosiy vazifamizdir» ma’ruzasi // «O‘zbekiston ovozi» gazetasi 19 son. 2012 yil.

19. Karimov I.A. O‘zbekistonning 16 yillik mustaqil taraqqiyot yo‘li.-T.: “O‘zbekiston”, 2007 yil.

20. SH.M.Mirziyoyev 2017 yil 22 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisiga 2017 yilda amalga oshirilgan asosiy ishlar yakuni va O‘zbekiston Respublikasini 2018 yilda ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng ustuvor yo‘nalishlariga bag‘ishlangan murojaatnomasi.

II. Asosiy va qo'shimcha adabiyotlar

21. Садыков А. Концептуальные подходы к формированию стратегии долгосрочного развития. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов. Ташкент: IFMR, 2013, с. 8-9.
22. Чепель С. Повышение качества долгосрочного роста в Узбекистане: методология и моделирование. Методологические вопросы разработки стратегий долгосрочного развития: материалы V Форума экономистов. Ташкент: IFMR, 2013, с. 17.
23. Чепель С. Влияние экономического роста на сокращение доли малообеспеченного населения Узбекистана/ Ташкент: ИПМИ, ПРООН, 2012.
24. Тешабаева М.А. Методические и прикладные подходы к оценке инклюзивного роста. Доклад III Форума молодых ученых-экономистов. Т.: ИПМИ, 2014.
25. Xodiyev B.Y., Bekmurodov A.SH. va boshq. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti I.A.Karimovning “Bosh maqsadimiz – iqtisodiyotimizda olib borayotgan islohotlarni va tarkibiy o'zgarishlarni keskin chuqurlashtirish, xususiy mulkchilik, kichik biznes va tadbirkorlikka keng yo'l ochib berishdir” mavzusidagi ma'ruzasini o'rganish bo'yicha ilmiy-ommabop risola. – T.: “Ma'naviyat”, 2016. – 358 b.
26. Губанов С. Рост без развития и его пределы // Вопросы экономики. 2006 г. №6. 14-31 с.
27. O'zbekiston Respublikasining ijtimoiy infrato'zilmasi va demografik jarayonlar: Jamoaviy monografiya / Mualliflar jamoasi, i.f.n., SH.R.Rajabbayevning umumiy tahriri asosida. – T.: “LESSON PRESS”, 2017 y. 175b.
28. Mehnat resurslari shakllanishi va taqsimlanishining hududiy xususiyatlari: Jamoaviy monografiya / CEDR, i.f.n., SH.R.Rajabbayevning umumiy tahriri asosida. – T.: “LESSON PRESS”, 2017 y.

29. Inclusive Growth: More than Safety Nets. Arjan de Haan, International Development Research Centre, Ottawa. Sukhadeo Thorat, Jawaharlal Nehru university, New Delhi. SIG working paper 2013.

30. Rahul Anand, Saurabh Mishra and Shanaka J. Peiris. Inclusive Growth: Measurement and Determinants.

III. Davriy nashrlar, statistik to‘plamlar va hisobotlar

31.O‘zbekiston Respublikasi aholi farovonligini orttirish loyihasi. Turmush darajasini baholash» (Jahon banki) va «O‘zbekistonda makroiqtisodiy siyosat va qashshoqlik» (BMT taraqqiyot dasturi, ITM) T.: 2007 yil.

32. Rafael Ranieri and Raquel Almeida Ramos. International Policy Centre for Inclusive Growth (IPC-IG). After All, What is Inclusive Growth, 2013

33. Inclusive Growth Revisited: Measurement and Determinants. Rahul Anand, Saurabh Mishra and Shanaka J. Peiris World bank, 2013. www.worldbank.org/economicpremise.

34. Inclusive Growth: More than Safety Nets. Arjan de Haan, International Development Research Centre, Ottawa. Sukhadeo Thorat, Jawaharlal Nehru university, New Delhi. SIG working paper 2013.

35. Asian Development Bank (ADB). 2008. Strategy 2020: The Long-Term Strategic Framework of the Asian Development Bank, 2008-2010.

36. Human Development Report 2016 United Nations Development Programme One United Nations Plaza New York, NY 10017/

37. World Development Indicators 2016 The World Bank, 1818 H Street NW, Washington, DC 20433, USA;

38. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2010, 2011, 2012, 2013, 2014, 2015, 2016, 2017 yillar uchun yillik statistik to‘plamlari.

IV. Internet saytlar

39. www.un.org.com Birlashgan Millatlar Tashkilotining rasmiy sayti.

40.www.undp.org Birlashgan Millatlar Tashkiloti Taraqqiyot Dasturining rasmiy sayti.

41.www.worldbank.org Jahon Banki Gruhining rasmiy sayti.

42.www.imf.org Xalqaro Valyuta Jamg‘armasining rasmiy sayti.

43.www.mineconomy.uz O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot vazirligining rasmiy sayti.

44.www.stat.uz O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining rasmiy sayti.

45.www.mehnat.uz O‘zbekiston Respublikasi Bandlik va mehnat munosabatlari vazirligining rasmiy sayti.

46.www.lex.uz Qonun hujjatlari milliy bazasi.